ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2020

5-son
(sentabr-oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Malaka oshirish tizimida mustaqil ta'limni rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedogogik muammo

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

A. Kenjaboyev, H. Berdiyeva	6	Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi bugungi kun talabidir
D. Farsaxonova	11	Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni
X. Xaydarova	16	Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatining ta'siri
H. Qdirbayeva	20	O'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishda vitagen ta'lim texnologiyasining ahamiyati
Sh. Abduraximov	25	O'qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o'rni
Sh. Kamolova, R. Munarova	29	Shaxsning intellektual salohiyati va dunyoqarashini shakllantirishda o'z-o'zini tarbiyalashning ahamiyati
B. Boltayeva	33	Boshlang'ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

I. Asqarov, B. Do'monov, O'. Xolmirzayev	38	O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishda kimyo o'quv fanidan amaliy mazmundagi integratsiyalashgan mustaqil ishlarning roli
F. Qodirova	42	Uzluksiz ta'limda innovatsion metodik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari
N. Shodiyev, M. Raximqulova	46	Boshlang'ich matematika ta'limida o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlari
D. Maxmudova	51	Matematikani o'qitishda masala bilan muammoli vaziyat farqi
M. Mamatov, M. Mamadjanova	56	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda mantiqiy masalalarning o'rni va ahamiyati
U. Fayzullayev	61	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari
M. Shomirzayev	65	Texnologiya ta'limida "klaster" metodidan foydalanish strategiyasi
D. Ismoilov	70	Fizika fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish
I. Xatamov	74	O'quvchilarning noyevklid geometrik elementlar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish
N. Sobirova	79	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari davlat va huquq asoslari darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish



KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH

M. Egamnazarov 83 Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish

P. Maxsudov 87 Professional ta’limda o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘rgatishning o‘ziga xos jihatlari



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

J. Ishtayev 90 Maktab o‘quvchilarida portlovchi harakat qobiliyatni rivojlantirishga yangicha yondashish



ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

H. G‘ofurov 94 O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tarixi va taraqqiyotining rivojlanish jihatlari

A. Otaqulov, Sh. Sattorova 98 Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o‘qitishning samarali yo‘llari



TA’LIMDA AXBOROT RESURSLARI

T. Isaqulov 102 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani yaratishga qo‘yiladigan talablar

M. Usmonov, B. Suvankulov 106 Masofaviy o‘qitishga mo‘ljallangan multimediali interaktiv elektron o‘quv kurslar yaratishning texnologik asoslari

M. Bahromova 110 Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun ma’lumot uzatish faoliyatidan foydalanish



QIYOSIY PEDAGOGIKA

T. Aliboyev 115 Xorijiy tajriba – shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish omili



KORREKSION PEDAGOGIKA

L. Muminova, M. Ayupova, M.Xamidova 121 Maxsus ta’lim va tarbiyaga muhtoj bo‘lgan bolaga individual yondashuv masalalari



TA’LIM TARIXI

K. Pardayeva 124 Abdulla Avloniy asarlari uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining metodik manbasi sifatida

S. Muxammadiyeva 128 Pedagogika fanlarini o‘qitishda Xo‘ja Ahmad Yassaviyning insonparvarlik g‘oyalaridan foydalanish



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Д. Шарипова, В. Абдуазизова 133 Использование здоровьесберегающих технологий для повышения валеологических знаний обучающихся



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ю. Землина 136 Инновационные формы организации педагогического совета школы как фактор комплексного развития компетенций участников образовательного процесса



PSIXOLOGIYA

Я. Исмадияров 141 Анализ особенностей деятельности менеджера-инноватора в системе высшего образования

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO

Mustaqil ta'limni uzluksiz pedagogik ta'limning ajralmas qismi sifatida, mustaqil ta'lim jarayonini pedagogning shaxsiy va kasbiy qadriyati sifatida ko'rib chiqish, shu bilan bog'liq holda o'quvchilar (talabalar)ning mustaqil ta'lim faoliyatidan farqli o'laroq malaka oshirish tizimida tinglovchilarning mustaqil ta'limi jarayonini tashkil qilishning xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb bo'lib bormoqda.

Agar o'quvchilar uchun mustaqil ta'limni asosiy tashkil qiluvchisi bo'lib o'qituvchi sanalsa, uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida pedagogning o'zi tashkilotchi hisoblanadi, agar u individual ta'lim strategiyasini loyihalashtirgan va amalga oshirgan bo'lsa, uning o'zi boshqaruv funksiyalarini bajaradi. Pedagog mustaqil ta'limning oraliq natijalarini mustaqil ravishda baholaydi va individual ta'lim dasturini amalga oshirishni ta'minlovchi zarur o'zgarishlar kiritadi.

Pedagogik kadrlar malakasini oshirish fenomenini tadqiq qilishning metodologik tamoyillari boshqa ta'lim tizimi metodologiyasidan tubdan farq qilib, kattalar ta'limi jarayoniga klassik didaktikani to'g'ridan-to'g'ri o'tkazishga imkon bermaydigan prinsipial farqlarga ega.

Pedagog mustaqil ta'limining zarurligi, bir tomondan, pedagogik faoliyatning xususiyatlari, uning ijtimoiy roli bilan, boshqa tomondan, pedagogik mehnatning doimiy o'zgaruvchan sharoitlari, jamiyatning ehtiyojlari, ilm-fan va amaliyotning evolutsiyasi, pedagogga bo'lgan talablarning oshib borishi, uning jamiyatdagi jarayonlar va holatlarning o'zgarishiga tezkor moslashishi qobiliyati, o'z faoliyatini qayta qurishga, yangi, murakkabroq kasbiy masalalarni samaradorlik bilan yechishga tayyorligi bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tendensiyalari orqali asoslanadi.

"Mustaqil ta'lim – o'qitishning shunday turiki, uning maqsadi, mazmuni, shartlari va vositalari subyektning o'ziga bog'liq. Bu butunlay mustaqil o'qish jarayonidir".

Mustaqil ta'lim faoliyat turi sifatida quyidagi belgilarga ega. Birinchidan, pedagogning tizimli o'qish faoliyati, ta'lim muassasasidan tashqarida amalga oshiriladigan o'zining ta'lim olishi jarayonini minimal tashqi rahbarlik ostida tashkil etishdir. Ikkinchidan, bu keng ma'noda pedagog tomonidan bilim (tegishli tasdiqlangan umumiy yoki kasbiy ta'lim dasturlariga mos kelishi shart bo'lmagan), malaka va har qanday tizimlashtirilgan axborotni olishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Uchinchidan, mustaqil ta'lim jarayonida pedagog o'zining tanlovini axborot ta'lim muhitining talablari va imkoniyatlari, uzoq muddatli va situativ qiziqishlar, ichki va tashqi faktorlar bilan muvofiqlashtira olishini qandaydir darajada o'zi mustaqil hal qiladi.

"Mustaqil ta'lim" tushunchasini pedagog kadrlar malakasini oshirish sharoitlariga nisbatan aniqlashtirish va uning qoidasini pedagogning shaxsiy va kasbiy muhim bo'lgan mustaqil faoliyati bilan belgilanadigan jarayon sifatida ifodalash lozim.

Psixologik-pedagogik manbalarda mustaqil ta’lim: maxsus tashkil qilingan mustaqil tizimli o‘rganish faoliyati sifatida, ijodiy faoliyatning zarur elementi, uzluksiz kasbiy ta’lim sifatida, mustaqil bilim olishga yo‘naltirilgan jarayon sifatida, kasbiy kompetentlikni saqlash vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Yanada muhim yondashuv sifatida ajralib chiqadigan aksiologik yondashuv shuni ko‘zda tutadiki, mustaqil ta’lim shaxsiy va kasbiy qadriyat bo‘lgani holda pedagogning kasbiy takomillashishiga tashabbuskorlik qiladi va kasbiy faoliyat sifatining oshishiga olib keladi.

Ta’lim oluvchi o‘quv jarayonida unga qo‘yiladigan talablarni bajarishda mustaqil harakat qiladi, u pedagogik ustozlikka tayanmasdan boshqa odamlar talablarini bajarishga harakat qiladi va uning uddasidan chiqadi yoki o‘zining maqsadlariga nazariy va amaliy qoidalarni tushungan holda erishadi va bundan shaxsan o‘zi uchun katta foyda oladi.

Mustaqil ta’lim pedagogik faoliyatning amaliyotda dolzarb bo‘lgan aniq vazifalarini bajarishga yordam berishi darajasida faoliyat obyektining xususiyatlarini bilish funksiyasini bajaradi. Mustaqil ta’lim faoliyati tuzilmasida yetakchi o‘rinni motivatsion komponent egallaydi: uzluksiz ta’limning shaxsiy va jamiyatdagi muhimligi, kasbiy takomillashish va dunyoqarashlarni kengaytirishni tushunish va bilishga bo‘lgan qat’iy qiziqishlarning, intilish, ko‘rsatmalar, burch va javobgarlik hislari shakllanishining mavjudligini egallaydi.

Mustaqil ta’limning faoliyatli yondashuv tarafidan ko‘rib chiqilishi mustaqil ta’lim faoliyatining faollashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlarni aniqlash imkonini beradi. Bunday faktorlarga quyidagilarni kiritish mumkin: pedagogning mustaqil ta’limga ehtiyojlari va motivlari, pedagogni muayyan harakatlar va subyektiv faktorlarga yo‘naltiruvchi mustaqil ta’lim shartlari, me'yorlari va talablari bilan bog‘liq obyektiv faktorlar. Pedagog mustaqil ta’lim faoliyatining ajratib chiqilgan faktorlari va komponentlariga maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish, malaka oshirish tizimida uni faollashtirishga imkon beradi. Bu esa pedagog kasbiy kompetentligining rivojlanishi, kasbiy faoliyatda uning muvaffaqiyatliligiga imkon beradi.

Pedagogning mustaqil ta’limi faoliyatini faollashtirish malaka oshirish sohasidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, ta’lim amaliyotiga pedagogning ta’limiy faolligini rag‘batlantiruvchi yangi texnologiyalarini tatbiq qilishni talab etadi.

Mustaqil ta’lim muammolari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda unga bo‘lgan tayyorlik “subyektning mustaqil ta’lim faoliyatiga bo‘lgan ijobiy munosabati va bu faoliyat malakasiga amaliy ega bo‘lishning birligi bilan tavsiflanuvchi holat” sifatida ko‘rib chiqiladi.

Pedagog kadrlar mustaqil ta’limining eng ko‘p tarqalgan shakllari bo‘lib malaka oshirish kurslari, ta’lim muassasalaridagi metodik praktikumlar, maxsus pedagogik-psixologik adabiyotlarni muhokama qilish, attestatsiyaga tayyorlanish, ilmiy-amaliy konferensiyalar, o‘zining ish tajribasini umumlashtirish va uni nashr qilish, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta’lim murakkab tizim sifatida muayyan mazmun, ichki tashkilot va protsessual dinamikaga ega. Ular shaxsni kasbiylashtirish bosqichlari bilan bog‘liq bo‘lib, kasbiy mustaqil ta’limning yo‘nalganligida, maqsadlarida, vositalarida, metodlari va vazifalarida o‘z aksini topadi.

Pedagoglarning mustaqil ta’limiga pedagogik ko‘mak berishni amalga oshirish davrida masofaviy ta’lim texnologiyalari samarali bo‘lishi mumkin. Chunki zamonaviy kommunikatsiya vositalari ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ikki tomon uchun qulay bo‘lgan shaklda tashkil etish imkonini beradi.

Abdusalim KENJABOYEV,
Termiz davlat universiteti dotsenti
Halima BERDIYEVA,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIGI – BUGUNGI KUN TALABIDIR

Annotatsiya

Maqolada bugungi kun o‘qituvchisining kompetentligi, uning o‘z kasbiga bo‘lgan mas'uliyati burchi va kreativligi haqida fikr bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetensiya, modernizatsiya, kreativlik, motivizatsiya, kasbiy bilimdonlik.

Статья посвешена к проблеме компетенции и креативности современного учителя, и его объязанности к своему профессию.

Ключевые слова. Компетенция, модернизация, креативность, мотивизация, профессионалньной интеллект.

The article is devoted to the problem of the competence and creativity of the modern teacher, and his responsibilities to his profession.

Key words. Competence, modernization, creativity, motivization, professional intelligence.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 23-avgustda xalq ta’limi tizimi xodimlari bilan bo‘lgan telemuloqotda va 2019-yil 7-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27 yilligi munosabati bilan qilgan ma’ruzalarida bugungi yoshlar tarbiyasiga e’tibor va ularga zamonaviy bilim berish, bu borada o‘z ustida doimo ishlab, yangiliklar yaratadigan o‘qituvchilarni shakllantirish masalasiga e’tibor berdi.

Hozirgi zamon o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o‘z kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi, o‘z kasbini sevishidir. Bu pedagoglarni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi.Ta’lim sifatini va samaradorligini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qarorlari va farmonlari qabul qilinib, ta’lim mazmunini, ta’lim tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlaridan keng foydalanish zaruriyati tug‘ilmoqda.Talaba-yoshlarni zamon talablari asosida tarbiyalash va ularga jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda shakllanib borayotgan fanlar asosida nazariy va amaliy bilim berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa o‘qituvchilar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Bugungi kundagi o‘qituvchi o‘zi dars beradigan fanning mohir ustasi, bilimdoni, ta’lim-tarbiya jarayonidagi har qanday muammoning yechimini topa oladigan,

o‘z ustida doimo ijodiy ishlab, yangiliklar yarata oladigan, o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa oladigan, bir so‘z bilan aytganda zamon talabiga javob bera oladigan mutaxassis bo‘lishi lozim. Shuning uchun bugungi kunda biz o‘qituvchi kompetentligi haqidagi fikrlarni takror va takror tilga olmoqdamiz.

Barcha pedagogik va psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” so‘zining izohli ma’nosi berilib, ingliz tilidan olingan “competence” – tushungan, qobiliyatli ma’nosini anglatadi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajada kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” degan tushunchani anglatadi. Hozirgi kunda respublikamizda ro‘y berayotgan islohatlar bevosita innovatsion ta’lim tizimi bilan bog‘liqdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik kasbiga yo‘naltirish, tarbiyalash hamda kasbiy moslashtirish asosiy maqsaddir. Pedagogika fanlari nomzodi G.G‘afforova bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni 3 bosqichda ifodalaydi.

I bosqich. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo‘nalganlik, kasbiy tasavvurning shakllanishi, kasbiy bilimning o‘zlashtirilishi, kasbiy faoliyat talablarining yangilanishi.

II bosqich. Kasbiy faoliyat talablarini o‘zlashtirish, kasbiy kompetensiyalarini bilish, o‘zlashtirish, muloqotga kirishish, kasbiy ijodkorlik, faoliyatga innovatsion yondashishning qaror topishi (maxsus fanlar, pedagogik amaliyot, to‘garaklar, ijodiy ishlar, sinfdan tashqari ishlar, mustaqil ta’lim vositasida).

III bosqich. Kasbiy o‘z-o‘zini anglash, moslashish, kasbiy ko‘nikma va malakaning rivojlanishi, pedagogik qobiliyat va kasbiy sifatlarning shakllanishi (umumkasbiy va maxsus fanlar, o‘quv amaliyoti, mustaqil ta’lim vositasida).

2019-yil 23-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev respublikamiz xalq ta’limi xodimlari bilan qilgan muloqotida “…bugungi ustoz shogirdlarini o‘z orqasidan ergashtira olishi lozim, agar ergashtira olmasa u ustoz emas,” degan fikrlarni ta’kidlab o‘tdilar. Demak, bugungi ustoz o‘z shogirdlari oldida tashabbuskor, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lib, har doim tetik, g‘ayratli, o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishongan bo‘lishi lozim. Kasbiy faoliyatga (kompetent) ega bo‘lish uchun esa quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

a) kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;

b) yangidan-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;

c) hamkorlik bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish.

O‘qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o‘qituvchining salomatligiga ham muhim talablar qo‘yiladi. O‘qituvchining ovoz paychalari yaxshi rivojlangan, ko‘rish qobilyati yaxshi bo‘lishi, uzoq vaqt tik tura olishi va o‘quvchilar bilan chiroyli muloqatga kira olishi lozim. Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari’’ asarida ham o‘qituvchining nutq gigiyenasiga doir maslahatlar bergan: “Uzoq muddat davomida qattiq tovush bilan baqirish ko‘p miqdorda havoni tashqariga chiqarishni talab qiladi. Bularning har ikkisi ham xavflidir’’.

Jamiyatda ro‘y berayotgan barcha islohotlar, ta’limning yangi bosqichlarga ko‘tarilishi, ilm-fan texnikasining jadal rivojlanishi, eng asosiysi yurtimizda ijod va Prezident maktablarining tashkil etilishi ham ta’lim tizimidagi innovatsiyalar hisoblanadi. Shuningdek, bugungi pedagog nafaqat ta’lim beruvchi, balki shu bilan bir qatorda tarbiyachi hamdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarorining tasdiqlanishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. “Ushbu UMT

konsepsiyasi kompetensiyaviy faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvlar uyg‘unligiga asoslanadi. Shuningdek, yoshlarda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodaviylik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni go‘daklikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirishga asoslangan” bu esa hozirgi zamon pedagogidan katta kuch va mas’uliyat talab etadi.

Kreativ so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib “create” – yaratish, yondashish degan ma’noni anglatadi. Kreativlik – bu o‘qituvchining yaratuvchanligi, o‘z sohasi bo‘yicha ijodiy faol faoliyatidir.

Kreativlik bir necha faoliyatni qamrab oladi:

1. Akmelogik yondashuv.
2. Akseologik yondashuv.
3. Kreativ yondashuv.
4. Refleksiv yondashuv.

1. Akmeologik yondashuv bu – o‘qituvchining o‘z faoliyatida erishgan eng yuqori cho‘qqi hisoblanadi.

2. Akseologik yondashuv – bunda o‘qituvchi pedagogik faoliyatida qadriyatlarga, milliy urf-odatlarga e’tibor berishi ko‘zda tutiladi.

3. Kreativ yondashuvda o‘qituvchining ijodkorligi namoyon bo‘ladi.

4. Refleksiv yondashuvda o‘qituvchi o‘zining kundalik faoliyatini oldindan tasavvur qiladi, bugun ta’lim jarayonida qanday faoliyat yuritadi va dars oxirida o‘z mehnatini tahlil qiladi.

Bugungi kunda ta’lim mazmunida modernizatsiya ishlari, ya’ni DTS da, o‘quv rejasida va fan dasturlarida ham islohatlar olib borilmoqda. Bugungi zamon o‘qituvchisi yuqoridagi islohatlarni ham hisobga olishi zarur.

Pedagogning kreativligi haqida fikr yuritganda biz standart va nostandart ta’lim shaklida ham fikr yuritmoqdamiz.

Standart – bu ta’lim mazmuniga mos shakldir, bunda o‘qituvchi subyekt, o‘quvchi, tinglovchi obyekt sifatida faoliyat olib boradi.

Nostandart ta’lim shaklida o‘qituvchi ham o‘quvchi, tinglovchi ham subyekt sifatida faoliyat olib boradi, o‘qituvchi ta’lim jarayonida mustaqil qarorlar chiqarishi mumkin bo‘ladi. O‘qituvchining kompetentligida kasbiy bilim va madaniyat tushunchalarini to‘g‘ri tahlil qilishi lozim.

Kasbiy bilim – bu o‘qituvchinig o‘z sohasini mukammal bilishi bo‘lsa, madaniyat tushunchasida uning nutq madaniyati, estetik va boshqa tomonlari namoyon bo‘ladi.

Kreativlik qobiliyatiga ega mutaxassis o‘z bilimini izchil boyitib borishi, yangilikka intiluvchan mahorat egasi bo‘lishi lozim. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchi kompetentligini ta’minlaydi. Ta’lim tizimini boshqarish orqali har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishish maqsadida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar, zamonaviy axborot vositalari yordamida video darsliklar, multimedialar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari “Yilning eng yaxshi o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovlari va musobaqalar tashkil qilinmoqda, biroq fanlarni yuqori darajada o‘zlashtirish darajasi sezilmayapti. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi tinglovchilar (o‘quvchilar) uchun qiziq bo‘lmayotganidadir, o‘quvchilar uchun muayyan qolipga solingan bir xil dars o‘tish usuli va o‘quvchilarga bilimini bir xilda so‘ralmaslik usulidir, rag‘batlantirish berilmayotganligidir. Bugungi kunda ko‘plab pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqotlarda intellekt va kreativlik tushunchalarining aloqa-

dorligi haqida turlicha fikrlar mavjud. Intellekti yaxshi rivojlangan o‘qituvchida kreativlik yuqori bo‘ladi. Bu esa ish samaradorligini ta’minlaydi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

“O‘quvchilar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishini ta’minlaydi”.

Bugungi pedagog va psixolog olimlarning fikricha shaxs kreativligi o‘zida quyidagi belgilarini namoyon qiladi:

1. Savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma’lumotlarga e’tiborli bo‘lmaslik.

2. Ma’lumotlarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish kreativ potensial bilish jarayonida yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq.

Pedagogning kreativ potensiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Tafakkurning tezkor va egiluvchanligi.
2. Yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati, bir qolipda fikrlamaslik.
3. Tashabbuskorlik-o‘ziga xoslik.
4. Noaniqlikka toqat qilish.
5. Zakovatli bo‘lish.

Kreativlik “turli vaziyatlarda ta’lim va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo‘lib pedagogning ijodiy faolligini tavsiflaydi”.

Yuqorida bildirilgan kompetentlik va kreativlik tushunchalari ta’lim tizimida qanday tizim sifatida tashkil etilganligi haqida fikr yuritamiz.

Respublikamiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsiya va yangiliklar, barkamol avlodni tarbiyalash mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan barcha o‘qituvchi murabbiylar oldiga ko‘plab vazifalarni hal etishni dolzarb masala sifatida belgilab qo‘ymoqda. Jumladan oliy ta’lim tizimida ham faoliyat yuritadigan professor-o‘qituvchilarda ham o‘z faoliyatlarida yosh avlodni tarbiyalashda kompetentlik va kreativlik sifatlari talab etilmoqda. Termiz davlat universiteti professor-o‘qituvchilari ham jamiyatda ro‘y berayotgan modernizatsiya jarayonlarida faol ishtirok etmoqdalar. Ko‘plab professor-o‘qituvchilar ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llab, yosh avlodni tarbiyalashda faol qatnashmoqdalar. Shu bilan bir qatorda, xalq ta’lim tizimida ham ko‘plab tajribali kompetentli o‘qituvchilar zamon talablari asosida yosh avlodga ta’lim-tarbiya bermoqdalar.

Surxondaryo viloyati xalq ta’limi tizimida ko‘pgina maktablarda fidoyilik bilan o‘z kasbiga sodiq, pedagogik kompetentlikka ega o‘qituvchilar kreativlik asosida o‘quvchilarga bilim berilmoqdalar. Jumladan, Termiz shahridagi 9-maktabning o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari, Qiziriq tumanidagi 4-maktab rus tili o‘qituvchilari, Sherobod tumanidagi 21-maktab o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari hozirgi davr talablari asosida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda innovatsion texnologiyalaridan foydalanib, ta’lim samaradorligini oshirishga harakat qilmoqda. Bugungi o‘qituvchida intuitsiya, refleksiya va intellekt yuqori darajada shakllangan bo‘lsa, o‘z oldiga qo‘ygan har qanday nostandart vaziyatlardan chiqa oladi. Yuqorida qayd etilgan maktab o‘qituvchilar o‘z darslarida o‘quvchilarni interfaol usullar orqali erkin muloqat qilishga, muammoli vaziyatlar yechimlarini topishga, dars davomida savol-javoblar tariqasida, mantiqiy fikrlash asosida o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Qiziriq tumanidagi 4-maktab rus tili va adabiyot o‘qituvchisi Guljamol Rahmonqulovaning

ta’kidlashicha, o‘qituvchi uzluksiz o‘z kasbi bo‘yicha izlanishi, ijodkor bo‘lishi, yangiliklardan o‘z o‘rnida unumli foydalanishi, o‘z bilimini tizimli ravishda o‘quvchilarga yetkazishi va ular bilan doimo faol munosabatda bo‘lishni tavsiya etadi.

O‘qituvchi o‘zining ko‘p yillik pedagogik tajribasiga tayanib bugungi o‘qituvchilarga kreativlik asosida quyidagilarni tavsiya etadi:

– o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish uchun o‘quvchilar yoshiga mos til va adabiyot bo‘yicha tanlovlar tashkil qilish;

– to‘garaklarda turli audio eshittirishlar asosida o‘quvchilar muloqotini tashkil qilish;

– o‘quvchilarda tabiat bilan bog‘liq matnlarni o‘qitish orqali ularda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish;

– rus klassikalari asosida turli sahna asarlarini sahnalashtirish;

– yuqori sinf o‘quvchilarida erkin mavzular yuzasidan insholar yozish;

– turli kecha va tadbirlar, konferensiyalar tashkil qilib o‘quvchilar faolligini oshirish va hokazolar.

Yuqorida ta’kidlangan nazariy va amaliy tavsiyalarga tayanib kasbiy kompetentlikning 3 ta bosqichini ko‘rsatish mumkin:

– o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘zini anglash zaruriyati;

– o‘z-o‘zini rivojlantirish rejasiga ega bo‘lish (maqsad vazifa va uni amalga oshirish yo‘llari)

– o‘zini ko‘rsatish, tahlil qilish va kamchiliklar ustida ishlash.

Kasbga oid kompetentlikning shakllanishi uzluksiz jarayon. Pedagogning kasbiy kompetentligi shakllanishi o‘z kasbiy qobiliyatini rivojlantirish dasturiga ega bo‘lib, o‘z faoliyatini tahlil qila oladigan, kamchiliklarni tugatish ustida tinimsiz izlanadigan davrdan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2019-yil 3-maydagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” PQ-4307-son qarori.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagogning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan nutqi”, 2019-yil 23-avgust.

3. Balina.T.F, IlinY.P. Психология творчества, креативности одаренности,-СПБ, Питер,2009. С-105

4. G‘afforova G. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi bugungi kun talabi.Til va adabiyot jurnali 2017-yil № 4,15 b.

5. Xudoyqulov X.J, Kenjaboyev A.E. Pedagogik modul o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. – T., 2018.

Dilafruz FARSAXONOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH MAZMUNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning shakl va metodlari, aynan “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanini o‘qitishda foydalaniladigan metod va vositalar, ishlab chiqilgan elektron o‘quv qo‘llanma xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda rivojlantiriladigan ma’naviy-axloqiy sifatlarning mazmuni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Talaba, ma’naviy-axloqiy tarbiya, shakl, metod, vosita, kompetentlik, elektron o‘quv qo‘llanma, metodika, mutaxassis.

В данной статье рассматриваются формы и методы духовно-нравственного воспитания студентов педагогических вузов, методы и средства, используемые при преподавании предмета “Методы воспитательной работы”, разработанный электронный учебник, содержание духовно-нравственных качеств, разработанных у студентов на основе компетенций.

Ключевые слова. Студент, духовно-нравственное воспитание, форма, метод, инструмент, компетенция, электронное учебное пособие, методология, специалист.

This article discusses the forms and methods of spiritual and moral education of students of pedagogical higher education institutions, the methods and tools used in teaching the subject “Methods of educational work”, the developed e-textbook, the content of spiritual and moral qualities developed in students on the basis of competence.

Key words. Student, spiritual and moral education, form, method, tool, competence, e-learning manual, methodology, specialist.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar rivojlantirilishi hamda yetuk mutaxassis bo‘lib ona Vatanga xizmat qilishi uchun ular oldiga bir qancha talablar qo‘yiladi: o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish; o‘z-o‘zini nazorat qilish; o‘zgalarni hurmat qilish; doimo kamtarlik yo‘lini tutish; o‘ziga ishonchi yuqori bo‘lishi; iboli-hayoli bo‘lish; halol va adolatparvar bo‘lish; samimiy va beg‘araz bo‘lish; o‘zgalar mehnatini qadrlay bilish; kasbiy va ma’naviy bilimlarni egallab borish; o‘z manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘rish; kamolotga erishishga intilish; barcha axloq qoidalariga bo‘ysunish; malakali mutaxassis bo‘lishga astoydil intilish.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining “Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish” yo‘nalishida o‘tiladigan “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining mazmuni hamda olib boriladigan ta’lim-tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda yuqoridagi ijtimoiy kompetensiyalar rivojlantirilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Har bir mavzu doirasida

kompetensiyaviy yondashuv asosida talabaning kasbiy tayyorgarligi hamda ma’naviy-axloqiy sifatlari takomillashtirilib boriladi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitishda talabalar quyidagilar bilan tanishtiriladi:

1) fanning maqsad va vazifalari;

2) milliy tarbiyaning mazmun-mohiyati;

3) tarbiya usullari va shakllari;

4) tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari;

5) sinf rahbarining maktab jamoat tashkilotlari bilan olib boradigan ishlari;

6) maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati;

7) sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari;

8) sinf tarbiyaviy soatlari mazmuni;

9) sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalash, o‘quvchilar jamoasini shakllantirish usullari;

10) tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va h.k.

Mazkur mavzularni o‘zlashtirish mobaynida talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlar ham rivojlantirilib, ularni kelgusi pedagogik faoliyatida tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etishga tayyorlab boriladi. Yosh avlodni ma’naviy yetuk qilib tarbiyalash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy fan-texnika yutuqlarini keng qo‘llashga, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan hamda tarbiyaning natijasini usul va vositalaridan foydalanishga, suhbat, uchrashuv va bahs-munozaralar uyushtirishga, tanlovlar va tarbiyaviy tadbirlar tashkil etishga o‘rgatish ijobiy samarasini beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash orqali yoshlarda ma’naviy-axloqiy sifatlar rivojlanishi kafolatlanadi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasining umumkasbiy fanlar blokidagi umumiy pedagogika fanida ta’lim qoidalaridan eng asosiysi – ta’limning tarbiyalovchilik qoidasidir. Chunki, kelajakda yosh avlodni har jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda ularda xulq-odob me’yorlariga mos keluvchi ijobiy fazilatlarni yuksaltirish muhim sanaladi. Bu o‘rinda, avvalo, talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini hisobga olgan holda ish yuritish maqsadga muvofiq.

Jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, iymoni butun, sofdil, vatanparvar, xalqsevar, mard, har tomonlama sog‘lom, intellektual salohiyatli, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy-kasbiy yetuk, kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislarni tayyorlash davr talabidir. Bu ishni amalga oshirish barcha pedagoglarning Vatan oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi.

Talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda pedagogikaning umumiy metod va vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya talabaga o‘quv materialining mazmunini, vazifa yoki topshiriqlarni, faoliyat usullari hamda uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati talabani qaror qabul qilish, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. Shu bois o‘quv faoliyatining muqobil modellarini ishlab chiqish va ularni talabaga taklif etish maqsadga muvofiq. “Axloqiy tarbiya usul va metodlarining asosiy vazifasi – ta’lim oluvchilarda ijtimoiy xulq-atvor va munosabatlar tajribasini hosil qilishdan iborat. Ushbu usul va metodlar sirasiga ijtimoiy xulq-atvor shakllarini o‘rgatish, mashqlantirish, o‘quvchilarning turli-tuman faoliyatlarini tashkil etish, ularning faoliyatiga rahbarlik qilish kabilar kiradi”.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash shakllari quyidagicha tasniflanadi:

I. Suhbatlar. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ma’naviy-ax-

loqiy mavzudagi suhbatlar tashkil etish talabalarning erkin, mustaqil fikrlashini yuksaltiradi, tafakkurini boyitadi, o‘qituvchi bilan hamkorligini mustahkamlaydi. Tarbiyaviy ishlarning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha suhbatlar tashkil etish mumkin.

Suhbatlar qiziqarli va jonli o‘tishi uchun uni tashkil qilishdan bir necha kun oldin mavzu talabalarga e’lon qilinadi. Tadqiqot doirasida suhbatlar oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan murabbiylik soatlari hamda darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida guruh rahbarlari, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutasaddilar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Suhbatlar davomida mavzuni yorituvchi multimedia vositalaridan foydalaniladi. Mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalaridan kelib chiqib ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Vatanparvarlik tarbiyasi: “Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish – dolzarb vazifa”, “Vatan tuyg‘usi – muqaddas tuyg‘u”, “Mustaqillik nashidalari”, “Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari”, “Mustaqil O‘zbekiston jahon nigohida”, “O‘zbekistonning tashqi siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlari”, “Fidokor yoshlar qanday bo‘lishi kerak?” va boshqalar.

2. Ma’naviy-axloqiy sifatlarni yuksaltirish tarbiyasi: “Talabaning muomala madaniyati”, “Talabaning ma’naviy-axloqiy qiyofasiga qo‘yiladigan talablar”, “Shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari”, “Talabaning tashqi ko‘rinishi va uning ichki dunyosi”, “Kitoblar – bilim va ma’naviyat manbai”, “Talabalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish” va boshqalar.

3. Milliy merosimizni ulug‘lash tarbiyasi: “Ajdodlar merosi – ma’naviyatimiz sarchashmalari”, “Amir Temur yoshlar kamoloti haqida”, “Yuksak madaniyat va ma’naviyat – jamiyat taraqqiyotining poydevori”, “Tarix – millat ma’naviyatining negizi” va boshqalar.

4. Oila tarbiyasi: “Oilada farzand tarbiyasi”, “Oilada ota-onaning o‘rni”, “Farzandning ota-ona oldidagi burchlari”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” va boshqalar.

5. Aqliy tarbiya: “Yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati”, “Zamonaviy ilm-fan yutuqlari”, “XXI asr ilm-fani: muammolar va yechimlar”, “Innovatsion g‘oya – taraqqiyot kaliti” va boshqalar.

II. Uchrashuvlar. Talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yoshi ulug‘ shaxslar, o‘z kasbining yetuk mutaxassislari, tajribali pedagoglar bilan uchrashuvlar tashkil etish ham ijobiy samaralar beradi. “14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” mavzusida O‘zbekiston qurolli kuchlarining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuvlar, “1 mart – giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi kurash kuni”, “15 may – Xalqaro oila kuni”, “1 oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni”, “21 oktabr – o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun”, “4 noyabr – YUNESCO tashkil topgan kun”, “10 noyabr – Xalqaro yoshlar kuni”, “16 noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni”, “17 noyabr – Xalqaro talabalar kuni”, “1 dekabr – Xalqaro OITS (SPID)ga qarshi kurash kuni”, “8 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni” kabi muhim sanalar va bayramlarga oid soha mutaxassislari hamda tajribali pedagog va faxriylar bilan uchrash uvlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Uchrashuvlarni o‘tkazishga alohida tayyorgarlik ko‘rilib, talabalar tomonidan mavzu bo‘yicha sohani yorituvchi slaydlar, videoroliklar tayyorlanadi.

III. Bahs-munozaralar uyushtirish. Talaba-yoshlar ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy-axloqiy mav-

zulardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to‘g‘ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o‘rgatish hamda e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladi. Munozara o‘y-fikrlarni tartibga soladi, mustaqil fikrlashga, bahs yuritishga, suhbatdoshini tinglashga, o‘z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda hikoya qilishga, ayni chog‘da, o‘z xatolarini tan olishga o‘rgatadi. Talabalar o‘rtasida “Ma’naviy-axloqiy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli”, “Mustaqillik va ta’lim-tarbiya”, “Yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi”, “Yoshlarning kitobxonlikka munosabati”, “Zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va ma’naviyat”, “Tabiat va inson”, “Sharq mutafakkirlari axloqiy qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati” mavzularida bahs-munozaralar olib boriladi.

IV. Tarbiyaviy tadbirlar. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada tarbiyaviy tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda tarixiy shaxslarning tavallud kunlari, bayramlar va muhim sanalarga bag‘ishlab “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi”, “Ona tili – millat ruhi”, “Biz OITSga qarshimiz!”, “Navro‘z – yasharish bayrami”, “Nazm gulshanidagi yog‘du”, “Ona – ulug‘ zot”, “Xotira muqaddas”, “Mustaqil yurtimning millat otasi”, “Mehnati elda aziz ustozim”, “Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim”, “Fidoying bo‘lgaymiz seni – O‘zbekiston!” mavzularida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu tadbirlarda pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari ishtirokchi sifatida qatnashib, o‘zlariga to‘g‘ri xulosa chiqaradilar. Bu orqali ularning ma’naviyatini yuksaltirish hamda ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

V. Ijodiy ishlar tanlovi. Talabalar o‘rtasida “Bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy qiyofasi” mavzusida ijodiy ishlar tanlovi o‘tkaziladi. Mazkur tanlov Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning birinchisi – yoshlarning musiqa, rassomlik, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishini oshirish, o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishiga ko‘maklashish maqsadida tashkil etilib, unda talabalar o‘zlarining ijod namunalari (rasm, devoriy gazeta, she’r, qo‘shiq, insho) bilan tasavvurlaridagi ideal o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy qiyofasini gavdalantirib berardilar.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida foydalanilgan metodlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ma’ruza mashg‘ulotlarida: trening, muzokara, muammoli ta’lim, BBB, “Aqliy hujum”, “Insert”, “Venn diagrammasi” va boshqalar.

2. Seminar mashg‘ulotlarida: “Assesment”, “FSMU”, “SWOT – tahlil”, “Qarorlar shajarasi”, “Gugurt donachalari”, “Nilufar guli”, “Keys-stadi”, “Qadam-baqadam”, “Panorama”, “Kontakt” – jamoaviy hikoya tuzish treninglari.

3. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda: trening metodi, rolli o‘yinlar, suhbat, munozara, muzokara, uchrashuv hamda tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish va boshqalar.

4. O‘quv amaliyotlari jarayonida: tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish va boshqalar.

Talabalar ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ta’lim mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirish, odob-axloqi, ijtimoiy hayotga va mehnatga bo‘lgan munosabatini ongli ravishda tarkib toptirish jarayoni mohiyatini ham o‘zida mujassamlashtiradi. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani mazmuni, mavzularni o‘rganishga doir yondashuvlar talabalarda shakllantiriladigan muayyan kompetensiyalar asosida ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu o‘rinda o‘qituvchidan kasbiy-pedagogik sifatlar, o‘qitilayotgan fan bo‘yicha chuqur bilim egallash, o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari va samarali metodlarini o‘zlashtirish hamda axborot madaniyati yuqori bo‘lish talab etiladi. Pedagogika oliy

ta’lim muassasalari talabalarini o‘zi tanlagan mutaxassislik bo‘yicha nazariy, fundamental, maxsus va amaliy tayyorgarlikka, muhim ma’naviy-axloqiy fazilat va kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan yetuk kadr darajasiga yetkazish ko‘zda tutiladi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan elektron o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqishdan maqsad kam vaqt sarflab katta hajmdagi ma’lumotlarga ega bo‘lish, muammoga mos ma’lumotlarni operativ holatda qo‘lga kiritish va eng asosiysi, ma’naviy-axloqiy tarbiya metodikasining optimal variantini tashkil etishdan iborat. Maqsadga erishishda o‘qituvchi yoki talabaning bevosita kompyuter bilan muloqotga kirishish, bilim, ko‘nikma va malakalarini boyitib, takomillashtirish kabi afzalliklari bor.

Mazkur elektron o‘quv qo‘llanma “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanini o‘qitishda optimal vosita sifatida qo‘llaniladi. Undan masofaviy ta’limda foydalanish imkoniyatlari ham inobatga olingan.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni yuqorida keltirilgan metod va vositalar asosida olib borish natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kelgusi pedagogik faoliyatida tarbiyaviy ishlar tizimini mazmunli tashkil etishga tayyorlab borish imkoniyati kengaytiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2016, – 56 b.

2. Asadov Y.N. va boshq. O‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalar metodikalari // – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘PFITI, 2016. – 160 b.

3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X., Normurodova B.A., Matnazarova K.O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. – T., 2014. – 360 b.

4. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati // Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov. – T.: G‘afur G‘ulom, 2013. – 448 b.

5. Pedagogika: ensiklopediya / Tuzuvchilar: Jamoa. I jild. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

Xilola XAYDAROVA,
O‘zbekiston milliy unversiteti doktoranti

JAMIYATDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA OTA-ONALARNING VIRTUAL-PEDAGOGIK MADANIYATINING TA’SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Virtual, media, axborot, kompyuter, internet, Facebook, televizor, madaniyat, savodxonlik, virtual nazorat, milliy g‘urur, oila, mahalla.

В данной статье анализируется тот факт, что развитие виртуально-педагогической культуры родителей в процессе совершенствования социально-духовной среды в обществе является одной из актуальных проблем сегодняшнего дня.

Ключевые слова. Виртуальный, медиа, информация, компьютер, интернет, Facebook, телевидение, культура, грамотность, виртуальный контроль, национальная гордость, семья, махалля.

This article analyzes the fact that the development of virtual pedagogical culture of parents in the process of improving the socio-spiritual environment in society is one of the most pressing problems of today.

Key words. Virtual, media, information, computer, Internet, Facebook, TV, culture, literacy, virtual control, national pride, family, the mahalla.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori 2019-yil 31-dekabrda tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyada ota-onalarning farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan alohida chora-tadbirlarga e’tibor berilgan. Shuningdek, oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida: bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy

pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish; mahallalardagi “Ota-onalar unversitetlari”da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo‘yicha treninglar o‘tkazish; “Tarbiya maktabi” rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko‘rsatuvlar, bolalar uchun rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo‘llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish; uzluksiz ma’naviy tarbiya amaliyotida to‘plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida “Yosh ota-onalar kitobi” va boshqa metodik qo‘llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi. Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, hududlar bo‘yicha oilalarda sog‘lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini o‘rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot tadbirlari va treninglar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Ushbu videoselektorda Prezident Sh.Mirziyoyev oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlarning oldini olish bo‘yicha tizim yo‘lga qo‘yilmaganligi, oqibatda ayrim mahallalarda notinch oilalar, huquqbuzarlikning ko‘payganligi, shuningdek, xotin-qizlar va voyaga yetmaganlar orasida o‘z joniga suiqasd qilish holatlari uchrayotganligi achinarli hol ekanligini ta’kidlagan. Yig‘ilishda oilaviy ajrimlar, yoshlar salomatligi, erta tug‘ruqlar, ma’naviy axloqiy tarbiya bilan bog‘liq muammolar qayd etilgan.

Virtual so‘zi rus-o‘zbek lug‘atida ehtimoliy muayyan sharoitda mavjud bo‘lishi mumkin yoki kompyuter vositalari yordamida aks ettiriladigan virtual borliq, voqelik (kompyuter qurilmalari yordamida haqiqiy mavjud sharoitga o‘xshash sharoitni yaratish, hosil qilish) kabi ma’nolarni bilishimiz mumkin. Madaniyat so‘zi esa arabcha, madina – shahar, maskan, taraqqiyot o‘chog‘i kabi ma’nolarini anglatib, tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan insoniy faoliyatining o‘ziga xos shaklini ifodalaydigan tushuncha. Madaniyat alohida individning hayotiy faoliyati, ijtimoiy guruh yoki jamiyatning faoliyat usulini aks ettiradi. Demak, virtual madaniyat kompyuter, axborot vositalari orqali aks etiladigan o‘zaro munosabatlardagi insoniy faoliyat tushuniladi. Virtual madaniyatga o‘xshash iboralar virtual savodxonlik, mediamadaniyat, mediasavodxonlik bo‘lib, bu axborot va ommaviy zo‘ravonlikdan himoya qobig‘iga o‘xshaydi. Go‘yoki, ommaviy axborot vositalarini targ‘ib qilishda raqamli savodxonlik deb qarashimiz ham mumkin.

Mediasavodxonlik (media literacy) – “mediamatnlarni o‘zlashtirish, tahlil etish va yaratish qobiliyati”.

Mediasavodxonlik (media literacy) – media foydalaniladigan kodli va reprezentatsion tizimlar, zamonaviy dunyoda mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy nuqtayi nazardan tushunish, mediamatnlarni idrok etish, yaratish, tahlil etish, baholash qobiliyati rivojlangan mediasavodxon shaxsni tayyorlash jarayoni; bunday insonning hayoti fuqarolik mas’uliyatining to‘liq anglanishi bilan bog‘liq.

Ayrim tadqiqotchilar mediasavodxonlikni mediamadaniyatning komponenti sifatida ham talqin etishadi. Masalan, N.Rustamova “shaxs mediamadaniyati” tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Shaxs mediamadaniyati shaxs madaniyati uchun zarur qism bo‘lib, ommaviy media turlari, ular orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan

tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholash asosida tegishli sohalar bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish, puxta egallash, ushbu bilimlarni kasbiy, kundalik, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy (amaliy) faoliyatda mahorat bilan qo‘llay olish qobiliyatlarining yig‘indisi”.

Tadqiqotchi o‘z fikrini davom ettirib, mohiyatiga ko‘ra shaxs tomonidan mediamadaniyatning o‘zlashtirilishi stixiyali jarayon bo‘lmay, bir necha bosqichda evolyutsion rivojlanishga asoslanishi, shaxsda mediamadaniyatni shakllanish jarayonining umumiy mohiyati: mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediamahorat va mediakompetentlikda o‘zining to‘liq ifodasini topishi haqidagi xulosaga kelgan.

Bugungi kunda dunyo ommaviy axborot vositalarida axborotni tanlash va to‘g‘ri baholash madaniyati (virtual madaniyat) dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bu muammoni yechimini izlashda, avvalo, oilada har bir ota-ona virtual-pedagogik madaniyatga ega bo‘lishi lozim, deb o‘ylaymiz. Buning uchun har bir ota-ona farzandlariga ommaviy axborot vositalari (televizor, kompyuter, internetdagi chat, forum, feysbuk, tvitter) dan unumli foydalanishni, avvalo, o‘zlari bilgan holda farzandlariga ham o‘rgatishi zarurdir. Yuqorida keltirilgan ommaviy axborot vositalari o‘zaro aloqa olib borishga xizmat qiluvchi vositalar bo‘lib, ular orqali kishilar bir-biri bilan so‘zlashib, turli muloqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo‘lishmoqda. Ular ushbu imkoniyatlarni ishga solib, o‘z faoliyatlarini amalga oshirib, ma’lumot orttirishmoqda, bilim olishmoqda, tajriba almashishmoqda, savdo kabi tijorat, reklama ishlarini yo‘lga qo‘yishmoqda. Bu albatta har bir sohada aniq ko‘zga tashlanmoqda. Bir tomondan masofaviy ta’lim olish imkoniyatini bersa va intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan real muloqotning virtual shaklga aylanib qolayotganini ham ko‘rishimiz mumkin. Endi ota-onalar o‘z farzandlari bilan ko‘proq yuzma-yuz emas, balki virtual aloqada bo‘lib, ularni nazorat qilmoqda. Taqdir taqozosi bilan uzoq masofada, xorijda ishlayotgan yoki o‘qiyotgan ota-onalar, farzandlar faqat virtual shaklda muloqot olib bormoqda. Bu, albatta, hozirgi axborotlashgan jamiyatning ma’lum bir ko‘rinishlari deb qaraydigan bo‘lsak, u holda ijtimoiy farovonlik, ijtimoiy totuvlik komil inson shaxsini shakllantirishda, tarbiyalashda xizmat qilsa, jamiyat a’zolarining virtual madaniyati ham rivojlanib, takomillashib borishi kerak edi. Lekin, afsuski, ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda.

Har kuni ijtimoiy saytlarda har xil “prikollar”ni ko‘rib odatlangani uchun bolalarda bachkanalik hissi odatiy holga aylanadi, taqlidchilik (chellenj), o‘z xatti-harakatlari oqibatini o‘ylamaslik kayfiyati shakllanadi. Tabiat va jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlarga, yon-atrofidagilarga, hayotga nisbatan yuzaki qarash va befarqlik paydo bo‘ladi. Bugungi kunda yordamga muhtoj kishilarga (masalan, tabiiy ofat, yong‘in, avtohalokat va h.k.) ko‘mak berish o‘rniga, ularni videotasvirga tushirib, internet orqali “layk” orttirayotgan yoshlar bunga yorqin dalil bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, har qanday davlat yoki jamiyatning kelajagi, istiqboli va ravnaqini yanada yuksaltirish yoshlarning qo‘lidadir. Lekin turli buzg‘unchi oqimlarga a’zo bo‘lgan aqidaparastlik mafkurasi bilan sug‘orilgan yoshlarning qo‘liga o‘tadigan davlat, jamiyat yoki oila qanday ahvolga tushishi mumkinligini ko‘z oldiga keltirish qiyin emas. Shuning uchun yoshlarni asrab-avaylash hamda yuqorida keltirilgan buzg‘unchi illatlardan himoya qilishimiz uchun, avvalo, ota-onalar virtual-pedagogik madaniyatga ega bo‘lishi zarur.

Biz bu borada “bolalarga zamonaviy kompyuterlar yoki uyali aloqa vositalarini olib bermaslik yoki ularga ijtimoiy saytlarga kirishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak”, demoqchi emasmiz.

Biz yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda ota-onalarga quyidagilarni tavsiya qilishimiz mumkin:

– ota-onalar o‘z farzandlariga o‘qituvchi va ustozlarni hurmat qilishga odatlantirishi zarur;

– ota-onalar farzandlarining tengdoshlariga, ularning ota-onalariga, qo‘shnilariga o‘zaro hurmatda bo‘lishini o‘rgatishi kerak;

– ota-onalar o‘z farzandiga ajdodlari, shajaralari bilan alohida tanishtirishi kerak;

– ota-onalar o‘z farzandlariga juda ham zarur bo‘lgan hollardagina eng so‘nggi modelda bo‘lmagan uyali aloqa vositalarini olib berish, bu vositalarning funksiyalari qancha kam bo‘lsa, bolalarning kelajagi uchun shuncha yaxshi;

– bolalar qo‘lida zamonaviy rusumli uyali aloqa vositalari mavjud bo‘lsa, ularni bu vositalar bilan ishlash vaqti, sharti va muddatini jiddiy holda kelishib olish va bu kelishuvga qat’iy rioya qilish, zarur hollarda cheklovlar o‘rnatish;

– ota-onalar uyali aloqa vositalaridan foydalanmayotgan vaqtda ularni farzandlardan kamida 20 sm, kechasi esa 3 m masofa uzoqlikda bo‘lishini nazorat qilish va bolalarga uqtirish;

– ota-onalar farzandlariga kompyuter va uyali aloqa telefonlarida joylashtirilgan o‘yinlarning shunchaki vaqtichog‘lik uchun barmoq harakatlari bilan mexanik o‘ynaladigan emas, balki faqat xotira va mantiqiy fikrlash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlarni tavsiya etish va bu jarayonda bolalarning vaqt rejimlarini nazorat ostiga olish;

– har bir ota-ona farzandlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda, internetdagi faoliyatlarini jiddiy nazorat qilish uchun vaqt va imkoniyat ajratish;

– har bir ota-ona farzandlarining o‘z vaqtida bilim olish, sport bilan shug‘ullanish, ovqatlanish va dam olishlari uchun sharoitlar yaratib berishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev. Mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor ma’ruzasi. 12-fevral 2020-yil.

3. Rustamova N.R. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari mediamadaniyatini rivojlantirish texnologiyasi (7-9-sinflar misolida): pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – T. 2019. – 42 b.

4. Taylaqova Sh. O‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2018-yil.

Hurliman QDIRBAYEVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy
tadqiqot instituti tayanch doktoranti

O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA VITAGEN TA’LIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim jarayonida (umumta’lim) ijtimoiy intellektning muammolarini bartaraf etishda vitagen ta’lim texnologiyasining ahamiyati keltirib o‘tilgan. Shuningdek, vitagen ta’lim texnologiyasining yuzaga kelishi, rivojlanish tarixi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Vitagen ta’lim, hayot tajribasi, vitagen tajriba, ijtimoiy moslashuvchanlik, pedagogik texnologiya.

В данной статье обсуждается значение технологии обучения витаген в преодолении проблем социального интеллекта в образовательном процессе (общее образование). Во вводной части статьи кратко обсуждаются сущность и содержание социального интеллекта, а также история возникновения и развития образовательных технологий витаген.

Ключевые слова. Витагенный образование, жизненный опыт, опыт витагена, социальная адаптивность, педагогическая технология.

This article discusses the importance of Vitagen teaching technology in overcoming the problems of social intelligence in the educational process (general education). The introductory part of the article briefly discusses the essence and content of social intelligence, as well as the history of the emergence and development of educational technologies Vitagen.

Key words. Vitagen education, life experience, life experience, vitagen experience, social adaptability, pedagogical technology.

Inson umri davomida turli vaziyatlarga duch keladi. Yuzaga kelgan tasodiflarga to‘g‘ri yechim topa bilish, bu inson ma’naviy dunyosining kengligidan darak beradi. Shaxsning oqilona xatti-harakatlari uning tarbiyaviy jihatlari bilan birga shaxslararo munosabatlar tajribasiga ham bog‘liq. Ta’lim jarayonidagi o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini, do‘stona munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ularning kayfiyatlarini ko‘taradi va har qanday qiyin topshiriqlarni ham oson bajaradi. Buning uchun, albatta, har bir o‘quvchidan shaxslararo munosabatlar ijobiy olib borish talab etiladi. Buning uchun avval kattalar, atrofdagi yoshi kattalarning o‘rnak bo‘lgudek munosabatlarini qabul etishi kerak. Bu hayot va hayotiy tajribalar tushunchasini bildiradi. Hayot va hayotiy tushunchalar vitagen texnologiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ushbu tushunchaning mohiyati ilmda ijtimoiy intellekt deb tushuntiriladi. Hozirgi kunda ijtimoiy intellektni o‘quvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya jarayonidan boshlab o‘rgatish ahamiyatli. Uning uchun bizga vitagen ta’lim texnologiyasi zarur. Masalaning asosiy maqsadi, shaxsda ya’ni o‘quvchi shaxsida, vitagen ta’lim texnologiyasi yorda-

mida ijtimoiy intellektni rivojlantirish, ammo vitagen ta'lim texnologiyasi yordamida ijtimoiy intellektni rivojlantirishni tushuntirishdan avval, ijtimoiy intellekt haqida qisqacha tushuncha berib o'tishni joiz topdik. Ushbu terminning psixologiya sohasiga kirib kelishi ilmiy inqilobni yuzaga keltirdi. Ya'ni olimlar bir-biridan farq qiluvchi fikrlarni bildiradi. Lekin, shu kungacha ijtimoiy intellektning muayyan tarifi ma'lum emas. Ijtimoiy intellekt tushunchasini ilk bor 1920-yil E.Torndayk tomonidan ilmga olib kirgan. Uning fikricha ijtimoiy intellekt – "odamlarning muloqot jarayonida bir-birini to'g'ri tushunishi, munosabatlarni oqilona olib borish" degan ma'noni bildiradi.

Ijtimoiy intellekt bu – o'zaro munosabatlarining muvafaqqiyatli olib borilishini ta'minlaydigan qobiliyatlar to'plami. Boshqalarning fe'l-atvorini anglash qobiliyati, o'ziga xos xatti-harakatlarda, vaziyatlarda o'zini oqilona boshqara olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy intellektni tushuntirishga oid qarashlar juda ko'p, ammo uning yagona ta'rifi belgilanmagan.

Taniqli rus va xorij psixolog olimlari ijtimoiy intellektni o'rganish bilan shug'ullanishgan. Ijtimoiy intellektning mazmuni va funksiyalari haqida E.Torndayk, Dj.Gilford, K.A. Abulxanskaya-Slavskaya, K.Dunker, M.Sallivan, M.Tisak, G.Ollpor, N.Kentor, R.Shternberg, M.Ford va boshqa olimlar.

K.A. Abulxanskaya-Slavskaya esa, ijtimoiy intellekt – umumiy intellektning o'ziga xos xususiyati, ya'ni ijtimoiy fikrlash jarayonida subyekt-subyekt aloqa munosabatlarini to'g'ri tashkil etishda qatnashadi. Shaxsning voqelikka munosabati va uning shakllari – axloqiy, huquqiy, siyosiy, ma'naviy tafakkurida o'z ifodasini topadi. Umuman olganda, ijtimoiy intellekt haqida juda ko'p olimlar o'zlarining fikr va qarashlarini bildirgan. Olimlarning qarashlaridan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha ijtimoiy intellekt – "insonlar bilan bo'lgan muloqot jarayonini ijobiy olib borilishga, ijtimoiy munosabatlarning yaxshi o'rnatilishiga, ijtimoiylashuv jarayoniga yordam beruvchi shaxs xususiyati" fikr yuzaga keladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu tushunchaning ahamiyati qay darajada? Ijtimoiy intellektning mavjud muammolarini bartaraf etishda qanday ta'lim texnologiyalari kerak degan savol yuzaga keladi?

Ijtimoiy intellektni to'g'ri rivojlantirishda vitagen ta'lim texnologiyasi zarur.

Vitagen pedagogika – o'quvchilarni hayotiy tajribalardan foydalanishga asoslangan pedagogika.

Vitagen ta'lim – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi to'g'ri muloqot o'rnatish yo'li, ta'lim jarayonida o'z-o'zini tarbiyalashning asosiy yo'li, obyekt-obyekt munosabatlarini subyekt-subyektga aylantirish.

Gologrаfik yondashuv asosida vitagen ta'lim bilimlarni keng ko'lamda o'zlashtirish, hamkorlikda birga ishlash amalga oshiriladi.

Kuzatishlar va tahlillar natijasiga ko'ra shu narsa ma'lumki, o'quvchi yoshlarning tengqurlari orasida moslasha olmaslik, ular orasida o'z o'rnini topa olmaslik salbiy oqibatlarga olib kelgan. O'quvchi dars jarayonida fanlarni yaxshi o'zlashtirishi mumkin ammo, atrofdagi tengqurlari orasida o'z o'rnini topa olmaslik, atrofdagilar bilan muloqotda qiynalishi, ijtimoiylashish muammolari hisoblanadi. Bunday holatlar o'quvchining emotsional holatiga ta'sir etib qo'ymasdan, uning ta'lim olishiga ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. O'quvchilar orasida ijtimoiy intellektning muammolarini bartaraf etishda vitagen ta'lim vositasidan foydalanish mumkin.

Har qanday hodisa va jarayonlarning g'oyalarini asoslovchi, tushuntiruvchi konsepsiyalar mavjud. Shunday tushunchalarning qatorida vitagen ta'limi hisoblanadi. Vi-

tagen ta’lim nazariyasida shaxsning ma’lum bir konsepsiyasini shakllantirish haqida gapirish mumkin. Pedagogik jarayonda vitagen ta’lim konsepsiyasiga suyanish ta’lim tizimiga taalluqli vazifalarni aniqlashga imkon beradi.

Vitagen texnologiya hayotiy tajribalar asosida o‘rgatish hisoblanadi. Aslida barcha fanlarni vitagen ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanish mumkin. Vitagen ta’lim texnologiya haqida mahalliy olimlarning fikrlari ilmiy manbalarda keltirib o‘tilgan. Bu haqida professor R.Safarova muharrirligi ostida chop etilgan “Pedagogik ensiklopediya” asarlarida vitagen texnologiya tushunchasiga aniqlik kiritish bo‘yicha quyidagicha bayon etilgan:

Vitagen ta’lim texnologiyasi – ta’lim oluvchilar shaxsining hayotiy tajribalarini faollashtirish, ularning intellektual-ruhiy quvvatlarini o‘quv maqsadlariga yo‘naltirishga xizmat qiladigan ta’lim texnologiyasi.

Vitagen ta’lim – shaxsning hayotiy tajribasini dolzarblashtirishga qaratilgan o‘qitish tizimi bo‘lib, uning intellektual-ruhiy quvvatlaridan ta’limiy maqsadlarda foydalanishni nazarda tutadi.

An’anaviy ta’lim tizimida bilimlarni uzatish va o‘zlashtirish jarayoni amalga oshadi. O‘qituvchi bilimlarni o‘quvchilarga uzatadi, ular esa bilimlarni o‘zlashtirganliklarini namoyon qiladi. Bunday vaziyatlarda jarayon markazida bilimlarni uzatish turadi. O‘quvchi o‘zi uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirgandagina ular haqiqiy qadriyatga aylanadi. O‘quvchi o‘zi his etgan, bilgan va amaliy faoliyatda qo‘llay oladigan bilimlargina ular uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday bilimlar o‘quvchilarning xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Shu tariqa, shaxsning hayotiy tajribasiga tayangan holda ta’lim jarayonida taqdim etilgan bilimlarni qadriyatga aylantirish alohida ahamiyatga ega.

O‘quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish ko‘nikmalarining konseptual asoslarini ta’lim jarayoniga joriy etish gologrаfik yondashuvni talab etadi.

Gologrаfik yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarga keng qamrovli bilimlar va hayotiy tajribalardan saboq beradigan o‘quv materialini yetkazish barobarida didaktikaning nazariya va amaliyot birligi sanalib, kundalik hayotda uchraydigan muammoli vaziyatlarni hal etishda yordam beradi va tushuntiriladigan mavzuni bayon etishda quyidagi 3 ta omilni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Vitagen omil. Bu vitagen (hayotiy tajribaga asoslangan) axborot bo‘lib, didaktik maqsadlarga muvofiq tanlangan va metodik ishlov berilgan yangi mavzuni o‘rganish jarayonida o‘qituvchi tomonidan foydalanishga mo‘ljallangan o‘quv materiali sanaladi. Vitagen tajribalar deganda o‘quvchining o‘zlashtirgan, xotirasida muhrlangan, zarur hollarda faollashtirish va amaliyotda qo‘llashga tayyor bo‘lgan ma’lumotlar yig‘indisi tushuniladi.
2. Didaktik omil. Bu o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga ta’lim mazmuni, o‘qitish vositalari, metodlari uzviyligida yetkaziladigan vitagen axborot hisoblanadi.
3. Konstruktiv omil. Bu sog‘lom turmush tarzi va vitagen tajribaga oid qo‘shimcha adabiyotlar va fanlar (pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasi va gigiyenasi, tarbiya darslari, odobnoma) integratsiyasiga doir o‘quv materialidan foydalanish sanaladi.

Ta’lim jarayonida munosabatlarning subyekt-subyekt shaklida o‘rnatilishi hayotiy haqiqatga asoslangan.

Vitagen o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar sifatli bilim berish bilan birga kommunikator sifatida faoliyat olib boradi. O‘quvchilar qabul qiluvchilar hisoblanadi, ya’ni ular bilimlarni idrok etuvchilar va takrorlaydilar (bir nechta variantda). Ammo, bunday sha-

roitda haqiqiy hamkorlik deb atash deyarli mumkin emas. Chunki, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning subyektiv pozitsiyasi kam.

Gologrаfik yondashuv orqali o‘quvchi shaxsida har tomonlama tasavvur eta olish ko‘nikmasi shakllanadi. Izlanishlar natijasiga ko‘ra, ijtimoiy intellekt ko‘nikmasini hayotiy (vitagen) tajribaga aylanishini e’tiborga olgan holda uning 4 ta bosqichi yuzaga keladi.

Kognitiv bosqich – ijtimoiy intellektga oid vitagen ma’lumotlarni passiv o‘zlashtiradi, bu bosqichda o‘quvchilarga berilayotgan ma’lumotlarni kelgusida qanday maqsadda foydalanishi haqida tasavvurga ega bo‘lmaydi. Ma’lumotlar nazariy holda o‘zlashtiriladi.

Adaptiv bosqich – o‘quvchilar o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlar asosida muhitga moslashadi. Ijtimoiy intellekt ko‘nikmalariga zid bo‘lgan holatlarning oldini olishga harakat qiladi. Ijtimoiy aqlga oid ma’lumotlarni, hayotiy jarayonlardagi holatlarni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, qiyoslash, avval o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash va umumlashtirish orqali xulosa chiqarishga tayyorlaydi.

Funksional bosqich – ijtimoiy intellektga oid berilayotgan ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilardan ijodiy izlanish topshiriqlari, vazifalar, avvaldan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni kutilmagan holatlarda qo‘llash hamda hayotiy jarayonlarni tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash va umumlashtirish orqali ijodiy fikr yuritish talab etiladi.

Aksiologik bosqich – o‘quvchilardan ijtimoiy intellektga oid o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni kutilmagan vaziyatlarda vujudga keltirilgan o‘quv muammolarni hal etishda qo‘llash, aqliy (tahlil etish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish) va mantiqiy (induksiya, deduksiya, asosiy muammoni ajrata olish) operatsiyalarni bajarish talab etiladi.

Ushbu vitagen bosqichlar o‘quvchilar bilan birga ijtimoiy intellektga doir ishlash jarayonida samarali foydalanish zaruriyatini belgilaydi. Shuni nazarda tutish kerakki, ijtimoiy intellekt ko‘nikmalarini to‘g‘ri yo‘naltirish metodlari, vositalari va shakllarini tizimli tashkil etishni taqozo etadi.

Vitagen trening – bu insonning hayotiy tajribasini, uning intellektual va psixologik potensialini ta’lim maqsadlarida aktuallashtirish (ta’lim qilish) ga asoslangan mashg‘ulot. Bunday holda, ikkita tushuncha ajralib turadi.

Hayotiy tajriba – inson hayoti va faoliyatining ayrim jihatlari haqida bilishi bilan bog‘liq bo‘lgan, ammo u uchun yetarli qiymatga ega bo‘lmagan vitagen ma’lumot.

O‘quvchilar orasida ijtimoiy intellektga oid muammolar hozirgacha o‘z yechimini topganicha yo‘q. Shuning uchun umumta’lim tizimida ijtimoiy intellekt deb nomlanuvchi predmet ham yo‘q. Ammo, ijtimoiy intellektga doir masalalar o‘quvchi shaxsi hayotida tez-tez uchrab turishi aniq. Biroq, ushbu muammoning yechimini darsdan tashqari mashg‘ulotlar orqali bartaraf etish mumkin.

Vitagen ta’lim – shaxsning aqliy va ruhiy salohiyatlarini o‘quv maqsadlari uchun yo‘naltirish hisoblanadi.

A.S.Belkin vitagen ta’limga oid ikkita tushunchani “hayot tajribasi” va “hayotiy tajriba”ni farqlashni tavsiya etadi.

“hayot tajribasi”– bu inson o‘z boshidan kechirayotgan, lekin u uchun yetarligi qimmatli bo‘lmagan ma’lumotlardir.

“hayotiy tajriba” – shaxsning ma’naviy mulkiga aylangan, uzoq muddatli xotirada saqlanuvchi, ma’lum vaziyatlarda adashmaslikka yordam beruvchi faoliyatlar to‘plami.

Vitagen o‘qitish – o‘qituvchi va o‘quvchilar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlik qilishlari uchun eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lib, unda ta’lim va mustaqil ta’lim qo‘shilib ketadi. Subyekt-obyekt munosabatlar gologrаfik yondashuv katta hajmlarni egallash asosida vitagen ta’limni amalga oshirishdan iborat.

Biz umumta’lim jarayonida ijtimoiy intellektni darsdan tashqari vaqtda mashg‘ulotlar yordamida to‘g‘ri rivojlantirishimiz mumkin. Namuna sifatida ijtimoy intellektni vitagen texnologiya bilan olib borish uchun mashg‘ulotlar dasturi ishlab chiqilgan. Dasturga qo‘yilgan talablardan namuna keltirishimiz mumkin.

Ijtimoiy intellekt tushunchasi bo‘yicha o‘qituvchilar quyidagi bilim, ko‘nikma, tajriba va malakalarga ega bo‘lishlari zarur:

– Darsdan tashqari ishlarda yuqori sinf o‘quvchilari orasida ijtimoiy muhitni bilishi, ijtimoiy intellekt haqida ma’lumotga ega bo‘lishi zarur.

– Dars va darsdan tashqari jarayonlarda o‘quvchilarning o‘zaro muloqot jarayonini kuzata bilishi, ularning shaxs sifatidagi xususiyatlarini anglashi lozim.

– Ijtimoiy intellektning tarkibiy qismlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi zarur.

– O‘quvchilar orasida ijtimoiy intellektga taalluqli muammolarni mashg‘ulotlar (seminar-treninglar) orqali korreksiya eta bilishi, amaliy ko‘nikmalarni egallashi kerak.

– O‘quvchi o‘quv faoliyatidagi ijtimoiy intellekt darajasini aniqlay olishi zarur.

– O‘quvchilarning shaxslik tiplari, xususiyatlari, odob-axloqi bilan ijtimoiy intellektning bog‘liqligini bilishi ahamiyatli.

Dasturning uslubiy jihatdan sinf rahbarining tarbiyaviy soat darslari, shuningdek,-maktab amaliyotchi psixologining ishchi dasturiga qo‘shimcha tarzda, o‘quvchilar bilan ishlashi ko‘nikmasini shakllantirishga yordamchi dastur hisoblanadi.

Dastur ijtimoiy intellektning muammolari asosida ishlab chiqildi. Ijtimoiy intellektning tarkibiy qismlari hisoblanuvchi kommunikativlik, emotsionallik, kreativlik, odob-axloq, kognitivlik jihatlari mavjud bo‘lib, ushbu muammolarni bartaraf etishga asos bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchilar bilan birga ishlashiga, ular bilan tez-tez muloqotda bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘quvchilar bilan birga ishlash jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirish uchun vitagen ta’lim texnologiyasidan foydalanish samarali ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Ijtimoiy intellekt barcha yosh davrlarida va barcha predmetlarni o‘qitishda mavjud masala bo‘lib, vitagen texnologiyasi yordamida o‘qitish va tarbiyalab borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika ensiklopediya. Mas’ul muharrir. R.Safarova. I jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2015 Y. 200 b. (Umumiy.b.320).

2. Современные образовательные технологии в учебном процессе ВУЗА. Касаткина Н.Э., Градусова Т.К., Жукова Т.А., Кагакина Е.А., Комупаева О.М., СолодоваГ.Г., Тимонина И.В. Методическое пособие. Кемерова. 2011. С.158. (Общий.с.237).

3. Isabaeva M.M. Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirish tizimi (5-9 sinflar misolida). Avtoreferat. – T. 2020y. B.11-12. (Umumiy.b.48).

Shoqosim ABDURAXIMOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti “Rus tili va adabiyoti”
kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada hamkorlik pedagogikasi asosida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif pedagogik tadqiqotlar jarayonida innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Hamkorlik pedagogikasi, parametr, pedagogik jarayon, samarador, innovatsiya, yondashuv.

В статье освещены вопросы развития профессиональной компетентности учителей на основе совместной педагогики. Также автор рассказал об особенностях инноваций в процессе педагогических исследований.

Ключевые слова. Сотрудничество педагогика, параметры, педагогический процесс, эффективность, инновация, подход.

The article deals with the development of professional competence of teachers on the basis of joint pedagogy. The author also spoke about the features of innovations in the process of pedagogical research.

Key words. Collaboration pedagogy, parameters, pedagogical process, efficiency, innovation, approach.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimining barcha turlarini davlat va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion o‘zgartirish va islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayanish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo‘ladi”, deb aytgan fikrlarida bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida olib borish o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etishi o‘z ifodasini topgan.

Mamlakatimizda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, ta’lim muassasalarida

yaratilayotgan shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj va talabning o‘sib borishi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (UO‘TM) o‘qituvchilari faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlarida o‘ziga xos qator talablarni belgilaydi.

Bu o‘z navbatida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonlariga ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Ya’ni o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari, tajribasi, mahorati, omilkorligi asosida pedagogik jarayonlardagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishi, pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashi, pedagogik jarayon subyektlari (o‘qituvchi va o‘quvchilar) faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, subyektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o‘rganishi, ta’lim muassasasida tarbiyaviy munosabatlar jarayonining pedagogik jarayon sifatida mavjudligi hamda ko‘p qirrali hisoblangan mazkur jarayonda bevosita hamda bilvosita ta’sir mavjudligini e’tiborga olishi zarur.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida ta’lim muassasasida uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish zaruriyatini keltirish mumkin. Ilmiy asoslarda tashkil etilgan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining ilmiyligi – yangiliklarni izlash, o‘rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma’lumotlardan foydalanish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o‘zlashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Pedagogik tajribalardan ma’lumki, pedagog faoliyati o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, u o‘qituvchidan nafaqat oliy ma’lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik va kasbiy tayyorgarlik yo‘nalishida bilim, ko‘nikma va malakalarga, shuningdek, ma’lum tajribaga ham ega bo‘lishni talab etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilarning eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi funksiyalarini amalga oshirish jarayoni bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya’ni pedagogik jarayon subyektlariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish kabi qator vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi.

Pedagogik tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda qo‘llanilayotgan innovatsiya tushunchasiga berilgan bir qancha ta’riflarning tahliliga ko‘ra, innovatsiya tushunchasi mazmuni o‘zgarishlarni, ya’ni yangilik kiritish asosida ma’lum bir jarayonni rivojlantirish yoki samarali tashkil etish kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. Shuningdek, innovatsion faoliyatda sohaga yangilik kiritish asosida ma’lum bir jarayonni samarali muvofiqlashtirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, pedagogik innovatsiyalarning ilmiyligi, yangiligi va amaliyotga tatbiq etilishi uning amaliy ahamiyatiga molik zaruriy xususiyatlaridan hisoblanadi. Shunday ekan, innovatsiya natijalari samaradorligi innovatsion jarayon yoki innovatsion faoliyatning ilmiy asoslarda tashkil etilishi bilan bevosita bog‘liq.

Pedagogik tadqiqotlar jarayonida innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– ularning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligi;
– qo‘llanilish sohasi va ko‘lami;
– tatbiq etilishi va samaradorligi;
– natijaviyligi va unumdorligi;
– tatbiq etish metodlari va texnologiyalarini tavsiflash imkoniyati;
– vaziyatlarga ko‘ra jamoada yoki tatbiq etish jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishi.

Demak, innovatsiya tushunchasi, asosan, yangilik kiritish sifatida qo‘llaniladi, innovatsion jarayon tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o‘zlashtirish, amaliyotga tatbiq etish hamda innovatsiyalarning samaradorligi va natijaviyligini o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash kabi jarayonlarni qamrab oladi.

“Innovatsion faoliyatning tuzilishi – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritish, texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo‘lishi mumkin”.

O‘qituvchilar kasbiy kompetentliligi, asosan, innovatsion jarayonlarda shakllanib, rivojlanib boradi, deya aytilgan fikrni olimlarimizning tajribalari ham tasdiqlaydi.

Innovatsion yondashuv o‘qituvchidan boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llashni emas, balki ularni doimiy takomillashtirishni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda o‘z navbatida o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgaradi.

Bundan tashqari o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirib borish uzluksiz malaka oshirish jarayonlarida amalga oshiriladi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirib borish jarayonlari – xalq ta’limi xodimlarining o‘z sohasi bo‘yicha fan va texnologiyalar yutuqlari, yangiliklari bilan muntazam tanishtirib borish asosida kasbiy va pedagogik mahoratini, o‘quv-tarbiya jarayonlarida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning innovatsion metodlaridan foydalanish bo‘yicha ularning kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirib borish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari, sayyor malaka oshirish, o‘quv seminarlari, seminar-treninglar, ochiq darslar, o‘zaro dars kuzatishlar, fan kechalari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilmiy-metodik materiallar tayyorlash, shuningdek, malaka oshirish muassasalaridagi nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hamda masofaviy malaka oshirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim pedagog xodimlarining uzluksiz malaka oshirishini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad – ta’lim-tarbiyada namuna ko‘rsatgan va barchaga o‘rnak bo‘lgan pedagoglar tajribasini ommalashtirish, ta’lim-tarbiya tizimida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini ta’minlash, mustaqil ta’lim, qisqa muddatli va sayyor malaka oshirish jarayonlarini tizimli tashkil etish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish kabilardan iborat.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi, o‘z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o‘zlashtirishga intilishi, o‘quv axborotlarini talabalarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda. Binobarin, global axborotlashuv ijtimoiy subyektlar, xususan, talabalar tomonidan ham istalgan ma’lumotni ixtiyoriy ravishda o‘zi uchun qulay sharoitda turli axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltirmoqda. Garchi shunday holatda ma’lumotlarni qabul qilish imkoniyati nihoyatda keng

bo‘lsa-da, biroq, shaxs tomonidan bu taqlitda o‘zlashtirilgan axborotlarning barchasi ham bilim sifatida namoyon bo‘lmaydi. Chunki bilimning har qanday axborotdan asosiy farqi ma’lumotlarning muayyan sohalar bo‘yicha tizimli, izchil, uzluksiz hamda maqsadga muvofiqli o‘zlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Ta’lim tizimida tom ma'noda talabalarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun pedagogi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va talabalarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Самойленков Ф. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учитель. – М.: Просвещение, 1990. – С. 254.

Shirin KAMOLOVA,
Ra'no MUNAROVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti katta o'qituvchilari

SHAXSNING INTELLEKTUAL SALOHIYATI VA DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA O'Z-O'ZINI TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqola bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lgan talabalar ilmiy dunyoqarashini boyitishning mazmun-mohiyati masalalariga qaratilgan. Talabalar ilmiy dunyoqarashini shakl lantirishda milliy qadriyatlarning o'rni, inson kamolot bosqichlari masalalariga bog'lab yoritilgan.

Kalit so'zlar. Shaxs, jarayon, o'z-o'zini tarbiyalash, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, dunyoqarash, tarbiya jarayoni, fikr, g'oya, qarash, mafkura, fan, texnologiya, mardlik, botirlik, mehnatsevarlik.

Данная статья является одной самых актуальных проблем нашего времени и фокусируется на важности обогащения мировоззрения студента. Роль национальных ценностей в формировании научного мировоззрения студентов. Рассмотрены вопросы, связанные с этапами развития человека.

Ключевые слова. Личность, процесс, самовоспитание, национальные ценности, универсальные ценности, мировоззрение, идея, видения, идеология, наука, технология, храбрость, трудолюбие дружба.

This article is one of the most pressing issues of our time and focuses on the in importance of enriching the student's world view. The role of national values in the formation of the scientific worldview of students. Issues of human development are considered.

Key words. Man, process, national values, universal values, world-view. idea, vision, ideology, science, technology, courage, courage industriousness, friendship.

Insondagi aql, ongning rivojlanib borishi natijasida tabiat va jamiyatdagi hodisa va jarayonlar kechishini o'rganishga, ularni imkon bo'lganda boshqarishga bo'lgan qiziqish, intilish hamma vaqt ham dolzarb muammo bo'lib kelgan. Eng asosiysi bular masofa ham, irq ham, millat ham tanlamaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida inson intellektual salohiyati, hissiy, ma'naviy va axloqiy faoliyati orqali bilim, aql-zakovatga erishadi. Bu jarayon faqat tarbiya, bilim, tajriba, qadriyatlar, hayotdan olingan ijobiy saboqlar orqali salohiyat asosiga aylanadi. Salohiyat esa insonning ko'p qirrali qobiliyati, chidami, ishonchi, shijoati, iqtidori, izlanishi va intilishi, kurashi orqali rivojlanadi. Oxir-oqibat har bir inson aql-zakovat, qobiliyat, iroda, zehn, iqtidor, yetuklik, kamolotga chorlovchi intellektual salohiyat egasi, oliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan yetuk qadriyat sohibiga aylanadi. Demak, o'z faoliyati va turmush tarzida yuksak umuminsoniy, milliy, ilmiy va shaxsiy qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Shaxs intellektual qobiliyatining jamiyat taraqqiyotiga mos rivojida o‘tmish donishmandlarimiz ishlari o‘rganilganda haqiqatdan ham intellektual salohiyat, unga mos ta’lim-tarbiya evolyutsion tarzda yuksalib kelayotganligi haqidagi bilim va tasavvurlarga ega bo‘lamiz.

O‘z-o‘zini tarbiyalash – shaxsning o‘zida ijtimoiy qadrga ega bo‘lgan fazilatlarni hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat sifatida ta’riflanadi[1].

Shaxs rivojlanishi, uning dunyoqarashini shakllantirish juda murakkab jarayon. Turli xil omillar ta’sirida amalga oshadi. Dunyoqarashni tarbiyalash bir vaqtning o‘zida, organik birlikda, rivojlanish jarayonida ilmiy ong, fikrlash madaniyati, hissiyot va hissiy munosabatlar, ixtiyoriy harakatlarning maqsadliligi va madaniyatiga bog‘liqdir. Bola ongi tizim sifatida qarashlar va e’tiqodlarga, asosan, ilmlarni o‘zlashtirish natijasida shakllanadi, his-tuyg‘ular va iroda jarayonida ham shakllanadi.[2]

Demak, inson kamoloti va uning yuksalishida yoshlarimizning ma’naviy tarbiyasi va ilmiy dunyoqarashining kengligi, ibrat-namunasi sifatida muhim rol o‘ynar ekan. Shu sababli ham bugungi yoshlarimiz dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishda ular ongiga millat, Ona tuproq, Ona Vatan, xalq va uning tarixiy ildizlari asosidagi boy milliy-ma’naviy merosimiz haqidagi ma’lumotlarni ta’lim-tarbiyaning barcha jabhalarida singdirib borishimiz lozim. Milliy xususiyatlarimizga mos tarbiyani olgan va olayotgan yoshlarimiz muntazam ravishda kamol topib boraveradi hamda ularning dunyoqarashi ham unga mos ravishda yuksalib boraveradi.

Ma’lumki, jismoniy kamolot har doim ham inson ma’naviy kamoloti va intellektual salohiyatini, ya’ni inson dunyoqarashini darajasini to‘g‘ri belgilab olish imkonini beravermaydi. Quyidagi ketma-ketlik esa inson kamolotini jismoniy va ma’rifiy darajalar asosidagi bosqichlarini belgilaydi: chaqaloq; go‘dak; o‘quvchi; o‘quvchi-shaxs; talaba; talaba-shaxs; mutaxassis; yuqori malakali mutaxassis.

Ammo bu ketma-ketlik orqali to‘la ma’nodagi shaxs kamolotini uning dunyoqarashi kengligi nuqtayi nazaridan baholab bo‘lmaydi. Dunyoqarash nima? “Dunyoqarash – shaxsning shaxsligini, ma’naviyatini, ijtimoiylashuvi doirasini ko‘rsatuvchi kuchli motivlardandir”. “Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum qolipdan o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda tabiatda munosib o‘rin egallashga chorlaydi”.[3] “Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e’tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari”.[4]

Yuqorida keltirilgan, ya’ni dunyoqarash terminiga berilgan qomusiy va falsafiy lug‘atdagi ta’riflar hamda pedagogik va psixologik ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, dunyoqarash tushunchasi odam o‘zining onadan tug‘ilishi bilan dunyoni ko‘rishidan boshlanib, yuksak intellektual salohiyatni egallagunga qadar rivojlanib boradi. Ular “aql → ong → fikr → ilm → bilim → qarash → g‘oya → ta’limot” tizim orqali rivojlanib, takomillashib boradi.

---

[1] Linda A.S., N.A. Jilsov, Shcherbov N.I. Pedagogika T.: O‘qituvchi nashriyoti 1977, 73 bet.

[2] Тяглова Е.В. Дидактические условия становления мировоззренческой позиции учащихся в процессе исследовательской деятельности: дис. … канд. пед. наук. Волгоград, 2003. – С. 464

[3] Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.:– Sharq, 2004. – 476 b.

[4] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. – T.: – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 3. j. – 704 b.

Dunyoqarash shakllanishining yana bir xususiyati shundan iboratki, xususiy ko‘rinishlardan umumiy ko‘rinishlarga, ya’ni inividual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlargacha rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga u ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq. Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog‘liq ravishda rivojlanib takomillashib boradi.

Dunyoqarash insonning o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu borada hozirgi yoshlarimiz ongini o‘stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular orqali ularni intellektual salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Bu esa erkin va mustaqil fikrlaydigan, o‘zligini anglay oladigan, ya’ni har xil zararli oqimlarga qo‘shilib ketavermaydigan bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda mustahkam asos bo‘la oladi.

Shaxsning dunyoqarashi, ayniqsa, ilmiy dunyoqarashning kengligi ularning asosiy tarkibiy qismlari: aql, ong, fikr, ilm, bilim, ilmiy bilim, ilmiy qarash, e’tiqod, ilmiy tafakkur va shu kabilarga bog‘liq.

Bu jarayonda individual dunyoqarashning kengayib borishi ijtimoiy dunyoqarashni yuksaltirishga asos bo‘ladi va ular doimo bir-biri bilan muntazam aloqadorlikda bo‘ladi va bir-birini rivojlantiradi. Bu jarayon shaxs kamoloti bosqichi ketma-ketligida yaqqol seziladi. Demak, endi shaxs dunyoqarashi haqida va ularning tashkil etuvchilari, asoslari va shakllanish bosqichlari haqida ma’lum bir tushunchaga ega bo‘ldik.

Bu ketma-ketlik odam shaxs darajasiga erishgandan keyingi intellektual salohiyatga ega bo‘lgandan boshlab baholansa, talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoniyati tug‘iladi va ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida asosli ravishda foydalanishga erishiladi.

Shu sababli ham talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va ularning ma’naviyatini yuksaltirishni samarali amalga oshirish uchun shaxs intellektual kamolotini quyidagi ketma-ketlikda ifodalashni lozim topdik: aqlli odam; ongli odam; fikrli kishi; ilmli-bilimli kishi; g‘oyali inson; ma’rifatli va ma’naviyatli shaxs; madaniyatli va barkamol shaxs; olim; alloma; mutafakkir; donishmand va komil inson.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash jarayonini takomillashtirish omillari o‘rganiladi.

Ular bo‘lajak mutaxassislar tayyorlashga o‘rta umumta’lim maktablarida va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida hosil bo‘lgan tayanch tushunchalar, talaba yashab turgan atrof-muhitdagi mutaxassislik yo‘nalishiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar, mutaxassislik yo‘nalishiga tegishli fan-texnika yutuqlari, o‘quv vositalari, usullari, shakllari va pedagogik innovatsiyalar.

Bu omillarga e’tibor talaba o‘qishga kirgan paytdan boshlab, to oliy o‘quv yurtini tamomlagunga qadar muntazam ravishda e’tiborga olinib boriladi. Ushbu jarayondagi har bir omildagi ilmiy izlanish natijasi talabaga bilim berish davomida nazorat qilinib, baholanib boriladi. Mazkur jarayonda bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan harakatlar, asosan, birinchi kursdanoq boshlanadi. Jumladan: birinchi kursda referat, aniq mavzu bo‘yicha ma’ruza matni yozishga o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘lsa, ikkinchi kursda hisobot va kurs ishi hamda ilmiy anjumanlarda qatnashishga, ma’ruza tezisini yozishni bilmog‘i lozim. Uchinchi kursda esa referat, ilmiy ma’ruza, kurs ishi, ilmiy-uslubiy maqola va shu kabilarni tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi darkor. Shuningdek, ta’limning faol usullarini ham o‘zlashtirib olgan bo‘lishi kerak. Nihoyat, to‘rtinchi kursda talaba ilmiy xodim sifatida shakllana boshlashi lozim. U turli ilmiy an-

jumanlarga o‘z ilmiy izlanishlari natijalari bilan qatnashishi mumkin va bular asosida malakaviy bitiruv ishlarini tayyorlashi, ayniqsa, o‘qituvchilar ilmiy-amaliy anjumanlarida o‘z fikr-mulohazalari bilan qatnashishi maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, o‘quv jarayonida birinchi navbatda talabalarning harakatlari hisobiga emas, balki ularning hamkorlikdagi harakatlari, bilim, qarashlar va e’tiqodlar (kognitiv komponentlar), hissiy bilim munosabatlar va harakatlardagi natijalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilishimiz lozim, ertamiz egasi bo‘lgan barkamol avlodni yetuk, mukammal, ilmiy dunyoqarashini keng qilib kamolga yetkazishda ota-ona, oila, ustoz-murabbiylar, rahbarlar mas’uliyati ortadi. Zero ma’naviy barkamol, dunyoqarashi keng, intellektual salohiyati boy insonlar demokratik jamiyat rivojining tayanchidir. Bu tayanch va ma’naviy salohiyat ertangi ishonch, umr ma’nosi va faoliyat poydevoriga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – T.: Yozuvchi, 2002. …. b.

1. Yoqubov A. Sihat-salomatlik yili: mazmun va mohiyat. – T., 2005. 23 b.

2. Linda A.S., Jilsov N.A., Shcherbov N.I. Pedagogika, – T., O‘qituvchi nashriyoti 1977, 73 bet.

3. Munarova R.O‘. Annaqulov O.A., Kamolova Sh.O‘. Akme – shaxsni shakllantirishda o‘z-o‘zini tarbiyalash va uning tashkiliy-tuzilmaviy modeli.b. 247.//.

4. M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitieti Yosh olimlar ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – T., 2012.

5. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004. 476 b.

6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 3. j. 704 b.

7. Тяглова Е. В. Дидактические условия становления мировоззренческой позиции учащихся в процессе исследовательской деятельности: дис. … канд. пед. наук. — Волгоград, 2003.С. 464

8. Qahharova M. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning ilmiy uslubiy asoslari. – T., 2007. 68. b.

Barno BOLTAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari xususida so‘z yuritiladi. Muallif boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha o‘z taklif va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, tayanch kompetensiyalar, yondashuv, ilg‘or tajribalar, raqobatbardosh kadrlar, sifat.

В данной статье речь пойдет об особенностях формирования базовых компетенций в начальных классах. Автор дает рекомендации по формированию базовых компетенций у учащихся начальных классов.

Ключевые слова. Начальный класс, базовые компетенции, подход, передовой опыт, конкурент о способный персонал, качество.

This article will focus on the features of the formation of basic competencies in primary classes. The author gives recommendations on the formation of basic competencies in primary school students.

Key words. Initial class, basic competencies, approach, best practices, competitive staff, quality.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazining 2013-yil 22-avgustdagi “Umumta’lim maktablari fanlari bo‘yicha uzluksiz ta’limning Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish to‘g‘risida”gi qo‘shma qaroriga asosan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha amaliyotchi o‘qituvchilar, metodistlar va yetakchi olimlar tomonidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarining loyihasi ishlab chiqilgan edi.

Qo‘shma yig‘ilishining qaroriga asosan, bitta sinfda bir paytda bir necha fanlar bo‘yicha DTS va o‘quv dasturlari loyihalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish belgilandi. Unga ko‘ra, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim va Xalq ta’limi vazirligi, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazining 2014-yil 15-avgustdagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini loyihalari tajriba-sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qo‘shma buyrug‘i qabul qilindi.

2014-2015-o‘quv yilidan Qoraqolpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda tashkil etilgan respublika miqyosida 70 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasasida, shuningdek, Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi 6 ta aniq fanlarga, filologiya fanlariga, profilli

mehnat ta’limiga, tabiiy fanlarga, xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta’lim maktablarida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Kompetensiya (lot. *compete* – erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba.

Biz bu ta’riflarning ikkinchisiga to‘xtalamiz va kompetensiya tushunchasining avvaldan bizga ma’lum bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakaga yaqin tushuncha ekanligini anglaymiz.

Ta’limda kompetensiyaviy yondoshuv deyilganda, o‘quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish tushuniladi. Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh kadr bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Tayanch kompetensiyalarga esa axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiyasi, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalari kiradi.

Kommunikativ kompetensiyani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish juda muhimdir. Ma’lumki, mafkuraviy tarbiyaning eng ta’sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e’tiqod, iymon, vijdon, mas’uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio-televideniya, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o‘rnini e’tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko‘ziga qarab turib aytiladigan bama’ni so‘z va hissiyotlarning o‘rni beqiyos. Shuning uchun ham ota-ona bir gapni aytishi lozim bo‘lsa, bolasining yuzini o‘ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va ko‘zidagi samimiyat bilan fikrini uqtira boshlaydi. Bunday muloqot, albatta, samarali bo‘ladi. Shu bois o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi va ota-ona-o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot ta’lim-tarbiya jarayonida katta ahamiyatga ega.

Bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bog‘liq. Bola jumlalarining mazmuni va shaklidagi o‘zgarish uning muloqot shakllari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo‘naltirilgan va nosituativ-shaxsiy muloqot shakliga o‘tilishi bolalar nutqiga ma’lum bir talablarni qo‘yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bolaning nutqi sotsial kontaktlarni o‘rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim. Bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat – nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so‘z-lug‘at boyligining o‘sishida 2 muhim tomon – miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug‘at boyligining miqdoriy o‘sishi D.B. Elkoninning ko‘rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog‘liq. So‘nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug‘at tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko‘rsatkichlar aniqlandi.

Kommunikativ kompetensiyada o‘quvchining muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirish

ham o‘z o‘rniga ega. Umuman maktab o‘quvchisining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o‘tishiga bog‘liq. Ulg‘ayayotgan kishining hayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo‘lini belgilashda, o‘z vazifasini anglatishda o‘qituvchining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat’iy faoliyati zarur hisoblanadi. Demak, bola kommunikativ kompetensiyani egallashi orqali uning nutqi, muomala-munosabat va bilish darajasi oshib boradi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasida ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini axborotlar bilan ta’minlashni rivojlantirish uchun texnika va texnologiyani bilish va ulardan foydalana olish, funksiyalari va strukturasini bilishi, texnologiyalarini joriy eta olishi talab qilinadi.

Zamonaviy sharoitda shaxs tomonidan o‘zlashtiriladigan axborotlarning asosiy manbalari – davriy matbuot (gazeta, jurnal va b.), audiovizual ommaviy axborot vositalari (radio, televideniya), ovozli va video yozuvlar, axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter tizimi, internet), reklama va hokazolar sanaladi. Ushbu axborot manbalari bilan to‘g‘ri ishlashni o‘rganish uchun ham axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishimiz lozim. Zero, bugungi taraqqiyot asrida bolalarni bu kabi vositalardan cheklashning imkoni yo‘q. Shuni ham unutmaslik kerakki, global axborotlashuv sharoitida haddan tashqari katta hajmdagi axborotga egalik shaxsga ta’lim berish jarayonini qiyinlashtiradi. Bu qiyinchilik shu bilan bog‘ligki, birinchidan, yosh avlod katta hajmdagi “axborot maydoni” – rang-barang ma’lumotlarga duch keladi. Yosh xususiyatiga ko‘ra esa voyaga yetguncha, ma’lum darajada dunyoqarashga ega bo‘lgunga qadar shaxs uchun mavjud axborotlarning barchasi qiziqarli hisoblanadi. Biroq shuni alohida qayd etib o‘tish zarurki, barcha qiziqarli axborotlarning hammasi ham foydali, shaxs kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi ma’lumotlar bo‘lavermaydi. Ikkinchidan, axborotlashgan jamiyatda to‘plangan ma’lumotlar yosh, psixologik xususiyatiga ko‘ra qiziquvchan, har qanday holat, voqelik, hodisa, jarayonning mohiyatini anglashga intiluvchi yoshlar tomonidan tinimsiz ravishda o‘zlashtiriladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra tizimsiz ravishda o‘zlashtirilgan ma’lumotlar shunchaki axborot bo‘lib, ular bilim sanalmaydi. Uchinchidan, yoshlarning hali hayotiy tajribaga, barqaror ma’naviy-axloqiy tamoyillarga ega bo‘lmay turib, haddan tashqari katta hajmdagi “axborot maydoni”dan uzluksiz ravishda ma’lumotlarni o‘zlashtirishlari ortiqcha yuklamalarga ega bo‘lishlariga olib keladi. Katta miqdordagi yuklama esa o‘z-o‘zidan inson miya faoliyatidagi ma’lumotlarni qabul qilish, ularni o‘zlashtirish, qayta ishlashda zo‘riqishni yuzaga keltiradi. Ruhiy zo‘riqish o‘z navbatida tushkunlikni keltirib chiqaradi. Tushkunlikning doimiy rivojlanishi esa asab tizimi kasalliklarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.[1]

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini egallash ham boshlang‘ich sinflarda muhim ahamiyatga ega. O‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi har bir bolada o‘ziga xos tarzda kechadi. Dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lgan AQSh pedagogikasidagi ta’limotda ham quyidagilarni ko‘rish mumkin:

– bolani o‘z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;

– o‘quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash;

– bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarni va g‘ururini yerga urmaslik;

– o‘quvchining ilk davridanoq kasb-korga yo‘naltirish, Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash. Shuningdek, o‘qituvchi yo‘naltiruvchi rol o‘ynaydi. Asosiy maqsad – in-

[1] Rustamova N. Media ta’lim va media madaniyat (umumiy o’rta ta’lim muassasalari misolida). – T.: “Turon zamin ziyo”. 2016. – 4-bet

tellektni mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o‘rgatishdir.

O‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi bolaning bilish va motivatsion sohalari shakllanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Mana shu sohalarning rivojlanib borishi natijasida bola ham o‘zini, ham o‘zi egallab turgan vaziyatni anglashga qodir bo‘la boshlaydi, ya’ni unda o‘zining ijtimoiy ”men”ini anglash shakllanadi. Bu hodisa bolaning keyingi yosh bosqichiga o‘tishida muhim rol o‘ynaydi.

Bu davrda bolalarda ixtiyoriy harakatlar rivojlanishi bilan birga irodaviy jarayonlar ham ko‘rina boshlaydi (maqsad qo‘yish, yo‘l-yo‘riq hamda vositalarni belgilash, qarorga kelish va qarorni ijro etish). Bolalar irodaviy harakatlarini o‘stirish va mustahkamlashda ularni mehnat mashg‘ulotlariga jalb qilishning ham ahamiyati kattadir. Bolalarga biron mehnat topshirig‘i berilsa, ular ayni chog‘dagi o‘zlarining mayl-xohishlarini yengib, mehnat topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarishga intiladilar. Bolalardagi irodaviy harakatlarni rivojlantirish maqsadida ularni o‘z-o‘ziga xizmat qilish, ya’ni sinfdagi navbatchilik, gullarni parvarishlash va tabiat burchaklarida navbatchilik qilish kabi mehnat turlariga jalb qilish zarur. Bunda faqat mehnat topshiriqlari berish bilangina cheklanib qolmay, balki bolalarning bu topshiriqlarini qanday bajarayotganliklarini ham tizimli ravishda tekshirib, nazorat qilib turish lozim. Ana shunday qilgandagina bolalarda javobgarlik hissi yuzaga keladi.

Bundan tashqari bolalarda ijtimoiy motivlarning ta’siri bilan bir qator irodaviy sifatlar, ya’ni qat’iylik, mustaqillik, tashabbuskorlik, dadillik kabi sifatlar tarkib topa boshlaydi. Lekin bolalar irodasining bunday sifatlari katta odamlarnikidek mustahkam, ya’ni xarakter xislatlariga aylanib ketgan darajada bo‘lmaydi. Bolalarda ko‘rinadigan ba’zi iroda sifatlari (qat’iylik, mustaqillik kabi) ko‘pincha epizodik xarakter kasb etadi. Bu yoshdagi bolalar bajarayotgan ishlarida biron to‘sqinlik uchrab qolsa, o‘zlari mustaqil ravishda bartaraf qilishga urinadilar.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilaridan biri – o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga ishtiyoqi hisoblanadi. Kechaga tayyorgarlik ko‘rish, shanbaliklarda ishtirok etish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko‘zga tashlanadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda o‘quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo‘ladigan munosabatilarni tahlil etish bilangina cheklanib bo‘lmaydi. Sinf rahbari ishining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o‘quvchilar jamoasini shakllantiradi. O‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qish dan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o‘qishda o‘quvchilarning o‘zaro qanday munosabatda ekanliklarini, o‘zlarini darsda qanday tutishlarini, bir-biriga sidqidildan yordam berish yoki bermasligini kuzatadi va kerakli tadbirlarni qo‘llaydi.

Milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axloqiy obro‘si g‘oyat darajada yuqori bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi ana shundagina tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi. O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, ma’naviy qiyofasi o‘quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi uchun malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emas. U o‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o‘z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir kuchiga ega. Chunki, o‘qituvchilik qobilyati juda ko‘p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko‘ngil qo‘yish, bolalarga bo‘lgan cheksiz muhabbat, muomala, nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat, sipolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo‘lishini taqozo qiladi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasida o‘quv mehnatiga ongli munosabatda bo‘lishlik ta’limning ijtimoiy, o‘qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir.

Odatda muammoli vaziyat vujudga kelganda odam favqulodda hech kutilmagan, notanish, tushunilishi murakkab bo‘lgan, noma’lum narsa va hodisalar bilan uchrashadi. Aqliy zo‘r berish natijasida iroda sifatlarini ishga solish orqali munozarali vaziyat anglashilgan masalaga aylanadi.

O‘zlashtirishning past bo‘lishi, aksariyat hollarda, o‘quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko‘nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi. Sinf rahbarining va fan o‘qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o‘quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog‘liq:

1. Faoliyatni reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishlash.
3. Pala-partishlikka yo‘l qo‘ymaslik, saranjomlikka o‘rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyinchiliklarni yengish.
6. O‘quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish. Bu o‘quv mehnatini o‘quvchining dam olishi bilan to‘g‘ri almashtirib borilishidir.
7. O‘qishda o‘rtoqlarcha o‘zaro yordam uyushtirish. O‘zaro do‘stona yordam sinfda ulgurmovchilikning oldini oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.
8. Sinf o‘qituvchilari bilan hamkorlik. Sinf rahbari ta’lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o‘zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o‘qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi.

Sinf o‘qituvchisining asosiy vazifasi har bir o‘quvchini mantiqiy fikrlashga o‘rgatishdan iboratdir. Ayniqsa, bolalarda o‘qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o‘qish, kitob bilan mustaqil ishlash, uy vazifalarini bajarishda rioya qilishi lozim bo‘lgan intizom, olgan bilimlarini amalda qo‘llash kabi zarur sifatlarni shakllantirish katta ahamiyatga egadir. O‘quvchilarni o‘quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o‘rgatish orqali ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish sifatini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. – T., 2016-yil 7-fevral

2. Abdullayeva B. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tayyorgarliginig mazmuni / Boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Jizzax, 2019-yil – 6-b.

3. Rustamova N. Media ta’lim va media madaniyat (umumiy o‘rta ta’lim muassasalari misolida).– T.: “Turon zamin ziyo”. 2016. – 131 b.

Ibrohim ASQAROV,
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi,
kimyo fanlari doktori, professor
Bahrom DO'MONOV,
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'smonali XOLMIRZAYEV,
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA KIMYO O'QUV FANIDAN AMALIY MAZMUNDAGI INTEGRATSIYALASHGAN MUSTAQIL ISHLARNING ROLI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kimyo ta'limi samaradorligini, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan ishlar tahlili hamda Respublikamizda o'quvchilarning ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro dasturi (PISA) talablari asosida ishlab chiqilgan amaliy, integrativ mazmundagi mustaqil ishlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kimyo o'qitish, ta'lim, kundalik hayot, bilim, ko'nikma, amaliy mazmun, masala va mashq.

В данной статье приведены результаты анализа зарубежного опыта по повышению естественно-научной грамотности учащихся, эффективности обучения химии, а также приведены примеры и задачи практического, интегративного содержания, разработанные на основе межународной программы образовательных достижений учащихся (PISA).

Ключевые слова. Обучение химии, образование, повседневная жизнь, знание, умение, практическое содержание, примеры и задачи.

This article presents the results of an analysis of foreign experience in improving the natural-scientific literacy of students, the effectiveness of chemistry education, as well as examples and tasks of practical, integrative content developed on the basis of the international student's educational achievement program (PISA).

Key words. Chemistry education, education, everyday life, knowledge, skill, practical content, examples and tasks.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ta'lim sohasini jahon talablari asosida isloh qilish, DTS, o'quv dasturlari, darsliklar mazmunini takomillashtirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Kimyo fani va sanoati yutuqlari insonlarning yaxshi yashashiga imkoniyatlar yaratib berdi. Sintetik va sun'iy materiallarni, maishiy kimyo vositalari, yangi dori preparatlari, bo'yoqlar va boshqa ko'plab narsalarning paydo bo'lishi nafaqat sifat jihatdan

kishilar hayotini o‘zgartirib yubordi, balki ularning ijtimoiy ongini ham o‘zgartirdi. XX asr oxirida zamon talablari asosida kimyo kursida xomashyodan kompleks foydalanish, ilg‘or va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni kimyoviy ifloslanishdan saqlash kabi masalalar yuzaga keldi. Kimyo sanoati o‘sishiga qaramasdan, kimyoga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Kimyo foydalimi? degan savolga ko‘p hollarda quyidagi javoblar olinmoqda:

1) “Yo‘q, chunki kimyoviy moddalar zaharli”.

2) “Yo‘q, chunki kimyo tabiatni ifloslantiradi” va hokazo.

Lekin “kimyoviy birikmalarga” qarshi ogohlantirishlar ular tomonidan bo‘lgan xavfdan ko‘proq zarar keltirmoqda. Biz kimyoviy dunyoda yashamoqdamiz. Hayotni kimyosiz tasavvur etish mushkul. O‘quvchilarga bizning o‘zimiz ham kimyoviy elementlardan tuzilgan ekanligimizni, bizda sodir bo‘layotgan barcha jarayonlar negizida kimyoviy o‘zgarishlar bo‘lishini tushuntirish bugungi kunda kimyo o‘qituvchisining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Bu sohada 1995-yili rus tiliga tarjima qilingan Amerika kimyo jamiyati olim va pedagoglari tomonidan yozilgan “Kimyo va jamiyat” asarini keltirish mumkin. AQSh ning 60 foizdan ortiq umumta’lim maktablarida bu kitobdan asosiy o‘quv qo‘llanma sifatida foydalaniladi.

Darslikda material faqat amaliy aspektda bayon etiladi. Quyidagi mavzular: suv resurslari, neft, oziq-ovqat resurslari, yadro resurslari, atmosfera, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab mavzular bayon etilgan. Bu darslikda kimyoni izchil o‘rganish bo‘yicha talab amalga oshirilmagan, lekin hayot bilan bog‘liqlik tamoyili asosiy hisoblanadi. Aynan zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolariga material izchilligi qaratilgan. Bu kitob referatlar, ma’lumotlar tayyorlashda qo‘shimcha o‘quv qo‘llanma sifatida foydalidir. Bu aspektda kitob o‘quv predmetiga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda, real hayot va boshqa fanlar bilan kimyo fanini bog‘liqligini belgilashda muhimdir, lekin undan darslik sifatida foydalanib bo‘lmaydi. Kimyo va uning qonunlarini o‘rganish mobaynida o‘quvchilar o‘z bilimlarini tabiat hodisalarini tushuntirishda foydalana olishlari kerak.

M.Frimantlning “Kimyo amalda” nomli darsligi Angliya kollejlari talabalari uchun yozilgan bo‘lib, zamonaviy maktab kursi uchun biroz murakkab material sanalib, kimyoni izchil o‘rganishga mo‘ljallangan. Shunisi diqqatga sazovorki, kitobga qiziqishni oshirish uchun muallif uni yer yuzining turli burchaklarida kimyoning turli-tuman inson faoliyati bilan bog‘liq sohalardagi ahamiyatiga doir misollar, rasmlar bilan boyitgan. Bundan tashqari, kitobga buyuk kimyogar olimlar haqida qisqacha biografik ma’lumotlar, kimyo bo‘yicha nobel mukofoti laureatlarining ishlarini aks ettiruvchi ilmiy ommabop maqolalardan lavhalar keltirilgan.

Hozirda pedagogik adabiyotlarda o‘quvchilar o‘z hayotlarida qo‘llay oladigan bilimlar olishi zarurligi masalasi ko‘tarilmoqda. Bu haqida I.M.Titova o‘quvchilar kimyoviy bilimlarni ularni kelajakda hayotlaridagi ahamiyati yuzasidan baholashini ko‘rsatib o‘tadi. Kimyo o‘quv dasturlarining tahlili ko‘rsatishicha, ularda o‘quvchilarning hayot faoliyatini olib borishga yordam beradigan bilimlarni yetarlicha o‘zida saqlamaganligini ko‘rsatadi. Bu esa umumta’limiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘quvchilar kimyo ta’limining amaliy aspekti N.I.Gabrusev, E.Y.Nifantev va N.G. Paramonova, G.V.Pichugina va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan.

E.Y.Nifantev va N.G.Paramonova ishida maktab kimyo kursining amaliy bilimlari mazmunini sinflanishi taklif etilgan bo‘lib, ular umumta’lim va utilitar kabilarga bo‘lingan.

O‘quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytiruvchi va ularning madaniyatini oshiruvchi umumta’lim amaliy bilimlar quyidagi yo‘nalishlarda guruhlanishi mumkin:

– energetika va kimyoviy ishlab chiqarishlar;

– kimyoviy tamoyillar va qonuniyatlar iqtisodning turli tarmoqlarida qo‘llanilishi;

– kimyo sanoati mahsulotlaridan keng foydalanish;

– ekologik muammolarni yechish uchun zarur kimyoviy bilimlar;

– kimyoning sivilizatsiya rivojlanishiga qo‘shgan hissasini aks ettiruvchi tarixiy xarakterdagi ma’lumotlar.

Kundalik hayotda qo‘llash uchun mo‘ljallangan sodda bilimlar quyidagi bloklarga birlashgan:

– kimyo maishiy hayotda;

– kimyo va oziq-ovqat;

– kimyo va inson organizmi.

N.I.Gabruseva ta’kidlashicha, o‘quv jarayonida kimyo ta’limining amaliy aspektini amalga oshirish o‘quvchilarning ilmiy-texnik dunyoqarashini kengaytiradi, ularning dunyoqarashlarini shakllanishiga yordam beradi, bilim darajasi ortadi, maishiy hayotda, tabiatda, ishlab chiqarishlarda ekologik savodxonlikni oshiradi va shunda kimyoviy bilimlarga o‘quvchilar tomonidan ehtiyoj tug‘iladi.

Kimyodan zamonaviy pedagogik adabiyotlar doimiy ravishda kimyoning hayot bilan bog‘liqligini mavzusiga bag‘ishlangan nashrlar bilan boyitilib bormoqda, jumladan, G.M.Pichuginaning “Kimyo va insonning kundalik hayoti”, I.A.Leensonning “Ajoyib kimyo”, L.Y.Alikberova, N.S.Rukkning “Foydali kimyo: vazifalar va tarix”, M.M.Levitskiyning “Kimyo haqida jiddiy va tabassum bilan” R. Avezovning “Qiziqarli kimyo” va boshqalar.

Respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarning tabiiy fanlar, jumladan kimyo o‘quv fani mazmunini samarali o‘zlashtirishlarida bilim va ko‘nikmalarni takrorlash, mustahkamlashga xizmat qiluvchi mustaqil ishlar, turli topshiriqlar muhim ta’limiy vazifani bajaradi. Hozirda o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari, masala va mashqlar mazmunining tahlili natijasida ularda berilgan ma’lum bir tushuncha fundamental tilda, murakkab izohlanganligi aniqlandi. Shu bilan birga ularning mazmunida turdosh tabiiy fanlar (fizika, biologiya, geografiya va boshq.)ga doir tushunchalardan juda ham oz foydalanilayotganli aniqlandi. 2021-yilda 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligini baholash xalqaro dasturi (PISA) asosida sinovlar o‘tkazilishini e’tiborga olsak, bugungi kunda o‘quvchilar foydalanishlari uchun ishlab chiqilayotgan mustaqil ishlar mazmunini takomillashtirish nechog‘lik dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Biz bir necha yillar mobaynida kimyo fani o‘qituvchilarining test banklari, ular o‘quv jarayonida foydalanayotgan mustaqil ishlar tahlili asosida amaliy, integratsiyalashgan mazmundagi masala va mashqlar ishlab chiqdik. Quyida shunday mazmunga ega topshiriqlardan namunalar keltirilgan:

Oltingugurt va uning birikmalari mavzusi uchun

1. Gipsning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan kalsiy sulfatdan 2,5 kg olish uchun zarur bo‘lgan so‘ndirilmagan ohak va konsentrlangan sulfat kislota zarur bo‘lishini hisoblang. Bu reaksiya qanday reaksiya turiga mansubligini aniqlang.

2. 2 mol sulfat kislota va 1 mol kalsiy ortofosfatning o‘zaro to‘liq ta’sirlashuvi natijasida oddiy superfosfat – mineral o‘g‘it olinadi. Tegishli reaksiya tenglamalarini yozib, fosfor (V) oksidiga hisoblaganda undagi foydali komponent ulushini hisoblang.

3. Qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi mis kuporosi qo‘llaniladi. U

laboratoriyada misni konsentrlangan sulfat kislota bilan o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida olinadi. Bunda yana suv va oltingugurt oksidi hosil bo‘ladi. Reaksiya tenglamasini tuzing va uni oksidlanish – qaytarilish reaksiyasi sifatida ko‘rib chiqing. 10 kg (bir paqir) 16 foizli mis (II) sulfat eritmasini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan mis kuporosi massasini hisoblang.

4. Natriy gidroksid bilan ta’sirlashganda sizning daftaringizni tayyorlash uchun (18 varaq) yetarli bo‘lgan natriy sulfat tuzini olish uchun zarur bo‘lgan 96 foiz sulfat kislota massasini hisoblang. 1 varaqni tayyorlash uchun 0,142 gr tuz sarflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi VM–997-son Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.

3. Фоллмер. Г. Эволюционная теория познания. К природе человеческого познания // Культура и развитие научного знания. – М., 1991. – С.141.

4. Фримантл. М. Химия в действии. В 2-х ч.Ч.1: Пер.с анг.– М.: Мир, 1998. С. – 528.

5. Габрусева Н.И. О практической направленности преподования химии // Химия в школе. – Москва, 1999. – № 6. – С. 61-63

6. Нифантев Э., Парамонова Н.Г. Прикладные знания в курсе химии: анализ, проблемы, предложения // Химия в школе. 1995. №5. – С. 15-17.

7. Avezov R. Avezov M. Qiziqarli ximiya. – T.: O‘qituvchi nashriyoti. – 1973. – 216 b.

8. Asqarov I.R, G‘opirov K.G‘, To‘xtaboyev N.H. Kimyo. 8-sinflar uchun darslik. –T.: Yangiyo‘l poligraf servis nashriyoti. – 2019. – 208 b.

Feruzaxon QODIROVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti “Musiqiy ta’lim va difektologiya” kafedrasi professor v. v. b, pedagogika fanlari doktori

UZLUKSIZ TA’LIMDA INNOVATSION METODIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta’lim va maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga ta’sir etuvchi metodik xizmatni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Xususan, “Metodik klaster” innovatsion yondashuvni tatbiq etishning mazmuni va bosqichlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, o‘qitish, metod, jarayon, sifat, o‘qituvchi, texnologiya, metodik xizmat, klaster, yondashuv.

Данной статье приведены рекомендации по организации методической службы, которая воздействует на качеству повышения качества образования в обшеобразовательных и специальных учреждениях. А именно содержание и этапы применения инновационного подхода “Методик кластер”.

Ключевые слова. Образование, обучение, метод, процесс, учитель, технология, методическая служба, кластер, подход.

This article provides recommendations for the organization of methodological services on the basis of innovative approaches that affect the quality of education in general and special education institutions. In particular, the content and stages of implementation of the innovative approach “Methodical Cluster” are described.

Key words. Education, teaching, method, process, quality, teacher, technology, methodical service, cluster, approach.

O‘zbekistonning yangi qiyofasi har tomonlama jahon standartlari asosida yaratilmoqda. Davlatning nechog‘liq rivojlanganligi unda mavjud maktablarning sifati, mazmunan takomili va bitiruvchilar bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiluvchi ijtimoiy buyurtma ko‘lami bilan ham tavsiflanadi. Ayniqsa, maktab o‘qituvchilarining mavqei, ularga ijod qilish imkoniyatining demokratik tamoyillarga asoslanganligi yoshlarning axborot zamonidagi mehnat bozoriga samarali tayyor bo‘lishlari uchun muhim omillardandir.

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda metodik xizmatni kuchaytirish, uning amaliyotiga xorij tajribalarini tatbiq etish, variativ yondashuvlarni tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash masalalari qator hujjatlarda alohida vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvo-

fiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Umumiy o‘rta va maxsus ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, asosan, innovatsion ta’lim muhitida shakllanadi va takomillashadi. Bunda, eng avvalo, ta’lim muassasasining ijtimoiy buyutma talablariga asoslangan maqsadi va vazifalarini o‘qituvchilardagi kasbiy motivatsiya bilan uyg‘unlashtirish, o‘zgarishlarga moslashtirishga yo‘naltirilgan rejalarni tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Shu bois, biz tomondan amaliyotga tatbiq etilayotgan “Metodik klaster” aynan o‘qituvchilarni ijod qilishga, o‘zgaruvchan vaziyatlarga tez va samarali moslashishga tayyorlaydi.

Metodik klaster maqsadi fanlarni o‘qitishda qo‘llaniluvchi metodlarning o‘zaro integratsiyalashuviga erishish, ularning variatsiyalarini ishlab chiqishga o‘qituvchilarni tayyorlash, amaliyotchilarda pedagogik improvizatsiya ko‘nikmalarini intensiv shakllantirish orqali novator o‘qituvchilar safini kengaytirishdan iborat.

Metodik klaster bosqichlari:

1. Muassasada ilg‘or va tajribali novator o‘qituvchilar mavjudligi o‘rganiladi. Bunda o‘z fanini yaxshi biladigan, amaliyotda AKT dan, xususan, internet xizmatlaridan samarali foydalanadigan, o‘quvchilarning o‘zlashtirish reytingi baland, respublika OAVlarida turli shakllardagi faoliyat asosida qatnashadigan, hamkorlikka ochiq, kommunikativligi yuqori, moslashuvchan, yurish-turishi (sodda, orasta, zamonaviy) da o‘z imijiga ega, o‘quvchilar va ota-onalar hurmatiga sazovor bo‘lgan yuksak insoniy fazilatlarga ega o‘qituvchilar ro‘yxati tuziladi.

2. Metod birlashmalar ish rejasining tahlili amalga oshiriladi. Bunda rejaning mazmunida fanlarni o‘qitishda qo‘llaniluvchi metodlarning ommalashishiga, aynan har bir metod yoki texnologiyaning nomi ko‘rsatilgan holda e’tibor berilgani, mas’ul o‘qituvchilarning mos tanlangani, yosh o‘qituvchilarga yordamning aks etgani o‘rganiladi.

3. Malaka oshirish kurslaridan qaytgan o‘qituvchilar uchun “Metodik klaster” burchagida joy ajratish. Bunda har bir malaka oshirish kurslaridan qaytib, faoliyat boshlagan o‘qituvchilar o‘rganib kelgan yangi metod va texnologiyaning mazmuni yoritilgan papkani tayyorlaydi. Bu bosqich o‘ta muhim hisoblanadi. Chunki bu bosqich klasterning boshlang‘ich nuqtasidir. Yangi metodning amaliyotga tatbiq etilishini ta’minlovchi qadamdir. Eng muhimi o‘qituvchi metod yoki texnologiyaning matnli ko‘rinishinigina emas, balki o‘quv topshiriqli tarqatmalari bilan tayyorlanishi talab etiladi. Aksincha bo‘lsa, yana doimgidek, o‘rganib kelingan metod seminar yoki yig‘ilishda ishtirok etganlar-tinglaganlar uchun “axborot uchun qabul qilinadi” xolos. Shuningdek, ushbu bosqichda o‘qituvchilarning o‘zaro davra suhbati yoki “Master klass” daqiqalari o‘tkaziladi. Natijada, malaka oshirish kurslarida o‘rganilgan metodning yangiligi yoki qaysidir texnologiyaning variatsiyasi ekanligi tahlil etiladi.

4. Har bir o‘qituvchi metod yoki texnologiyaning o‘z faniga moslashishini o‘zaro o‘rtoqlashadi. Ya’ni “Imitatsion mashq” prognoz daqiqasini o‘tkazadi. Imitatsion daqiqada o‘qituvchilarning faolligi va vaziyatga kirishib ketganligiga qarab, ushbu metodning muayyan fanni o‘qitishda qo‘llashga mos yoki mos emasligi tahlil qilinadi.

5. Birlamchi sinov bosqichi. O‘qituvchi metodni darslarda qo‘llaydi. Olingan natijalarni tahlil qiladi.

6. Korreksion-adaptatsiya bosqichi. O‘qituvchi ilk sinov natijalari asosida metod yoki texnologiyaga ma’lum o‘zgartirishlar kiritadi va qo‘llaydi. O‘qituvchida yangi g‘o-

yalar paydo bo‘ladi va novatorlik darajasiga ko‘tariladi. Natijada, metodik klasterning keyingi bosqichiga o‘tiladi.

7. Transformatsion bosqich. Metod yoki texnologiya shakli, texnikasi, mazmuni o‘zgargan holda yangi qiyofani oladi.

Metodik klaster, asosan, o‘qituvchini o‘z ustida ishlashga undaydi. Bunda eng muhimi klaster lideri yoki uning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi pedagog zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Chunki u jamoani boshqara olishi lozim. Buning uchun uning o‘zi ham bir qancha metodlar va texnologiyalar resursi hamda muallifligidagi yangi yondashuvlar (metod, texnologiya, didaktik vositalar...) ga ega bo‘lishi talab etiladi.

Toshkent viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasining professor-o‘qituvchilari tomonidan “Malaka oshirishdan keyingi kurs samaradorligini o‘rganish” tajriba-sinov ishlari muntazam olib borilmoqda. Hududdagi bir qancha maktablarning faoliyati o‘rganilganda, malaka oshirish kurslaridan qaytgan va faoliyatini davom ettirayotgan o‘qituvchilarning kurs haqidagi fikr-mulohazalari maqsadli o‘rganilmaganligi, tahlil etilmaganligi kuzatildi. Ushbu holatning sabablari quyidagilar:

1. Ayrim maktablarda o‘qituvchilar “Sen menga tegma-men senga tegmayman” yoki “hamma narsa bir maromda ketmoqda, nimaga kerak o‘zgartirish”, “nega muncha kuyunasiz, kimga kerak shuncha harakatingiz”, “tarqatmalarni tayyorlashga kimning vaqti va naqdi bor”, “sizda kompyuter bor bo‘lsa, menda yo‘q” kabi munosabatlar qurshovida qolib ketmoqda.

2. Maktab rahbarlarining o‘zlarida yangilikka intilishning sustligi, ta'lim sifatiga bee'tiborligi.

3. O‘qituvchilarda o‘z ustida ishlash motivatsiyasining sustligi. Fanini bilish bilangina cheklanib qolganligi.

4. Yosh o‘qituvchilarga metodik yordamning maqsadli tashkil etilmayotganligi.

5. Metodik ishlarning hisobot uchungina olib borilayotganligi.

Sanab o‘tilgan muammolar “Malaka oshirishdan keyingi kurs samaradorligini o‘rganish” bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish metodikasi mazmunidagi qator metodlar orqali aniqlandi. Ular:

1. O‘qituvchilar bilan suhbat. Suhbat asosan, joylarda o‘qituvchilar bilan bevosita davra suhbati asosida o‘tkazildi.

2. Savol-javob. Kursga kelgan tinglovchilar bilan “Koordinator soati” mashg‘ulotida hamda “Malaka ishi himoyasi” jarayonidagi savol-javoblar orqali o‘rganildi.

3. Anketa. Maxsus anketalar tayyorlandi. Anketalarda quyidagi savollar aks etgan: amaliyotga qaysi o‘rgangan usul yoki texnologiyani tatbiq etdingiz? Kursdan qaytganingizdan so‘ng seminar yoki davra suhbati tashkil etildimi? Sizga tajribalar bilan o‘rtoqlashishingiz uchun qanday yo‘l tutildi? Malaka oshirish kursidan qaytgan o‘qituvchidan nimani o‘rgandingiz? Muallifligingizda metod yoki texnologiya mavjudmi? va boshqa.

“Metodik klaster”ni joriy etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari nafaqat maktablardagi muhitni, balki malaka oshirish kurslari mazmunini ham takomillashtirishga turtki bo‘ldi. Chunki javoblar orasida “...eski metodlarni tavsiya qilishdi, o‘sha qo‘llanilganiga 10 yildan oshib ketgan metodlar “Baliq skeleti”, “Venn diagrammasi”, “Tushunchalar tahlili”, “6 ta qalpoq”, “Aqliy hujum”, “Sinkveyn”, “FSMU”, “SWOT tahlil” kabilar sanab o‘tilib, ulardan ayrimlarining umuman boshlang‘ich sinflarga mos emasligi bildirilgan. Bundan

“...o‘qituvchilarning o‘qituvchisi ham o‘z ustida ishlashiga vaqt keldi, hatto kech qoldik”, degan xulosa kelib chiqadi.

O‘qituvchilar orasida o‘z kasbini sevuvchi (yoshdan qat’iy nazar), yangilikka intiluvchan, zamon bilan hamnafas borish yo‘lida yangi metodlarga “tashna”, hozirgi zamon bolasi ko‘z o‘ngida “kumir”, “avtoritet” bo‘lishga qodir amaliyotchilarning borligi quvonarlidir. Tajriba-sinov ishlari orqali mana shunday o‘qituvchilar uchun muassasaning o‘zida, vaqtni va masofani tejagan holda “Metodik klaster”ni yo‘lga qo‘yish kerak degan xulosaga kelindi. Metodik klaster o‘qituvchilar o‘rtasida, jamoada sog‘lom raqobatni yuzaga keltiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘qituvchilarga ijod qilishga imkon berish kerak. Ular uchun yangiliklarni o‘zlashtirishga qulay sharoitlar yaratish lozim. Har xil tekshirishlar orqali motivatsiyasini so‘ndirish kerak emas, eng muhimi, ularga “... menga vaqt bering, o‘rganib olaman, bunga qodirman” degan chaqirig‘iga labbay deya javob berish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.

2. Розов Н. С. Глобальный интеллект: Перспективы интеграции научного, философского и практического мышления //Сб. тезисов Международного Конгресса ЮНЕСКО Образование и наука на пороге третьего тысячелетия. – Новосибирск, 1995.

3.Tayloqov U.N, Tayloqov G. Axborotlashgan ta’lim muhiti-o‘qitish samaradorligini oshirish vositasi sifatida. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2014. – 22 b.

4. Хуторской А. В. Развитие одаренности школьников: Методика продуктивного обучения. – М., 2016. – С. 66.

Narziqul SHODIYEV,
Samarqand davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Mahbuba RAXIMQULOVA,
Samarqand viloyati XTXQTMOHM dotsenti

BOSHLANG‘ICHMATEMATIKATA’LIMIDAO‘QUVCHILARNI KASBLAR OLAMI BILAN TANISHTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni kasblarga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish va o‘stirishda, maktab joylashgan iqtisodiy hudud kasblarining mamlakatimiz xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va ularni odamlarga qo‘ygan talablari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga molik ekanligi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchi, maktab, sinf, matematika, kasblar, kasblar olami, kasbga yo‘naltirish.

В данной статье отражены вопросы формирования и воспитания интереса учащихся младшего школьного возраста к профессиям, значение экономической зоны профессий, в которой расположена школа, в народном хозяйстве нашей страны и важность их приобщения к людям.

Ключевые слова. Ученик, школьный класс, математика, профессии, мир профессий, ориентация на профессию.

This article reflects the issues of formation and education of interest of primary school age students in professions, the importance of the economic zone of professions, where the school is located, in the national economy of our country and the importance of their familiarization with people.

Key words. Student, school class, mathematics, professions, world of professions,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyul “2004-2009-yilda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5812-sonli farmoni ijrosini ta’minlash, o‘quvchilarni Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni ongli va mustaqil ravishda kasb-hunar tanlashlari uchun shart-sharoitlar yaratish, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samaradorligini oshirishning ta’sirchan vosita va usullarini amalga tatbiq etish hamda xalq ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida Xalq ta’limi vazirligi “Umumta’lim maktablarida uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirishning to‘rt bosqichdan iborat dasturi”ni qabul qilgan. Mazkur dasturning ikkinchi bosqichi “Kim bo‘lsam ekan” ‘‘Boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirish” deb nomlanib, unda kasb tanlash ishlari boshlang‘ich sinflarda (1-4 sinflar) kichik maktab yoshdagi o‘quvchilar uchun (6-9 yoki 7-10 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi deb alohida ta’kidlangan.

Ma’lumki, har bir o‘quv fani, shu jumladan, matematika o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, unda uning har bir mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarga kasblar to‘g‘risida to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirib berish imkoniyati cheklangan. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish samaradorligini oshirish vazifasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan darsliklarda bayon qilingan xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari, ularda faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarish korxonalari, ular o‘rtasida shakllangan o‘zaro munosabatlar, mehnat mazmuni, xarakteri, sharoiti, ish joyi, mehnat qurollari mehnat unumdorligi, mahsuloti va h.k. o‘quvchilarga kasbiy ma’lumot berish nuqtayi nazaridan tahlil qilishni va ularni kasblar olami bilan boyitib berish yo‘llari, vositalarini izlashni yoddan chiqarmaslikni talab etadi.

Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni kasblarga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish va o‘stirishda maktab joylashgan iqtisodiy hudud kasblarining mamlakatimiz xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va ularni odamlarga qo‘ygan talablari bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘p xonali sonlarni raqamlash

Omborga keltirilgan olma va nokni qaysi kasb egasi yetishtiradi? Mevachi-sabzavotchi usta, bog‘bon.

Maktabda bog‘ barpo etish uchun o‘quvchilar qaysi kasb vakilining mehnatini bajaradilar? Mevachi-sabzavotchi, bog‘bon.

Do‘konda unni qaysi kasb egasi sotadi? Oziq-ovqat mollarini kichik sotuvchisi.

Cho‘pon qo‘yning junini qirqib oladi. U qaysi kasb vakili mehnatini bajardi? Qo‘ychilik II klass chorvachilik masteri kasbini bajardi.

Oshqovoq va qovunni parvarish qilgan odam kasbi polizchi hisoblanadi.

Xonadondagi elektr hisoblagich ko‘rsatkichini kim nazorat qiladi? Majburiy xizmat xodimlari.

Tovuq va jo‘jalarni kim boqadi? Parrandaboqar operatori.

Gul do‘koniga keltirilgan gullarni parvarish qilgan insonning kasbi nima deb aytiladi? Gulchi.

Otasi va o‘g‘li daraxt ko‘chatini o‘tqazib qaysi kasb egasi mehnatini bajardi? Bog‘bon, mevachi-sabzavotchi mehnatini.

Aeroport kassasidan 3 ta samolyot reysiga qaysi kasb vakili chipta sotadi? Kassir kasbi. Samolyotni kim boshqaradi? Uchuvchi.

Cho‘ponlar qo‘y junini qirqib olib, qaysi zamonaviy kasb vakillarining mehnatini bajarishdilar? II klass chorvachilik masteri, chorvachilik fermalari mexanizatori.

Do‘konda shakar va un sotuvchining kasbi qanday aytiladi? Oziq-ovqat mollarini sotuvchi deb aytiladi.

Kutubxonada kim ishlaydi? Kutubxonachi.

Arifmetik amallar

Ayrim masalalarni yechishda o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini texnologiya fanidan olgan bilimlariga jalb qiladi. Erkaklar va bolalar ustki kiyimi tikuvchisi kasbi degan javobni oladi.

Shirinlik taomlari bilan savdo qilinadigan do‘konda oziq-ovqat mahsulotlarini sotuvchisi ishlaydi.

Pomidorni kim tuzlaydi? Konserva zavodi ishchisi.

Dalaga sholi, bug‘doy, makkajoxorini qaysi kasb vakillari ekadi? Sholikor, g‘allakor ekadi.

Qo‘shish va ayirish

Uyni qaysi kasb vakillari quradi? Betonchi, g‘isht teruvchi, suvoqchi.

Samarqanddagi SamAVTO va MAN avtomobil zavodlarida avtomobillarni yig‘ish ishlarini qaysi kasb vakillari bajaradi? Mexanika-yig‘uv ishlari slesari bajaradi.

Uzum va olma sharbatlarini vinochilik va dastlabki sharbat ishlab chiqarish bo‘yicha masteri tayyorlaydi.

Do‘ppini kim tikadi? Do‘ppini do‘ppido‘zlar tikadi. Andijon, Samarqand, Chust, Shaxrisabz, Qo‘qonning mashhur do‘ppido‘zlari bor.

Rudani eritib, temirni qaysi kasb oladi? Marten pechi erituvchisi.

Pomidor va karam ko‘chatini kim yetishtiradi? Issiqxona ko‘chatchisi.

Yuk mashinasini kim haydaydi? III klass shofyori.

Sopol buyumlarni tayyorlagan hunarmand va uning shogirdini ayting. Kulol.

Xo‘jalikni davlatga topshirgan paxtasini yetishtirishda qaysi kasb vakillari faol ishtirok etdi? Paxtakor, III klass traktorchi mashinist, suvchi, agronom.

Gazlamadan kim ko‘ylak tikadi? Tikuvchi-motorchi.

Tezlik, vaqt, masofa

Ayrim bo‘lim masalalarida avtomobil transportida III klass shofyori, avtomobillarning elektr asboblarini ta’mirlovchi slesar-elektrik.

Temir yo‘l transportida teplovoz mashinisti, teplovoz mashinisti yordamchisi, ko‘chma sostavlarni ta’mirlovchi slesar.

Havo transportida uchuvchi, vertolyotchi kabi kasblar faoliyat ko‘rsatadi.

Ko‘paytirish va bo‘lish
Bir xonali songa ko‘paytirish

Paxta tozalash zavodiga topshirilgan paxtani qaysi kasb egasi tozalaydi? Paxta tozalovchi, paxtadan ip yigiriladi (ip yigiruvchi), ipdan gazlama to‘qiladi (to‘quvchi).

Yuk va yo‘lovchi poyezdlarni kim boshqaradi? Teplovoz mashinisti.

Avtobusni kim boshqaradi? Avtomobillar shofyori.

Bir xonali songa bo‘lish

Sabzavot tashuvchi vagonlarni kim tekshiradi va ta’mirlaydi? Vagonlarni tekshiruvchi-ta’mirlovchi.

Baliqlarni (akvariumdagi baliqchalarni) kim boqadi? Baliqchi kasbi.

Do‘konda sotilgan uzum qaysi kasb tomonidan yetishtirilgan? Tokchi (uzumchi) bog‘bon tomonidan yetishtiriladi.

Urug‘chilik xo‘jaligida kim ishlaydi? Agronom-urug‘chi.

Kim traktor, yuk mashinasi harakat tezligini boshqaradi? Traktorchi, shofyor.

Fermer xo‘jaligida sabzavotni kim yetishtiradi? Sabzavotchi.

Uyni kim quradi? Betonchi, g‘isht teruvchi, suvoqchi.

Dastro‘molchani kim tikadi? Chevar.

Do‘konga keltirilgan televizor, magnitofon, radiopriyomnikni kim sotadi? Radiotexnika bo‘yicha sotuvchi.

Oq, havorang ipni kim yigiradi? Ip yigiruvchi kasbi.

Gazlamani qaysi kasb egasi to‘qiydi? To‘quvchi.

Asalarini kim parvarish qiladi? Asalarichi.

Jun ipdan kim qalpoqcha to‘qishi mumkin? To‘quvchi.

Novvoyxonada nonni kim yopadi? Novvoy.

Yo‘lovchi va yuk poyezdlarini kim boshqaradi? Teplovoz mashinisti.

Ko‘mir tashuvchi vagonlarni kim tekshiradi? Kontrolyor, tekshiruvchi, nazoratchi.

Temir yo‘l stansiyasida bir-biriga qarama-qarshi kelayotgan poyezdlarni harakatini kim boshqaradi? Regulirovkachi, rostlovchi, to‘g‘rilovchi.

Maydonga mevali daraxtlar kim tomonidan ekildi? Bog‘bon tomonidan ekildi.

Xalatni kim tikishi mumkin? Tikuvchi.

Belkurak, xokandozni qaysi kasb vakili tayyorlaydi? Temirchi.

Parrandachilik fermasida qaysi kasb vakillari tuxum yetishtirish uchun mehnat qiladi? Parrandaboqar operator.

Ikki xonali va uch xonali songa ko‘paytirish

Sabzi urug‘ini kim ekadi? Mevachi-sabzavotchi usta, urug‘chi.

Detalni qaysi kasb vakili tayyorlashi mumkin? Tokar, tokar-yarim avtomatchi, tokar-avtomatchi kasblari tayyorlashi mumkin.

Sabzavot do‘konida olma va pomidorni qaysi kasb vakili sotdi? Oziq-ovqat mahsulotlari sotuvchisi.

Kiyimlik sotilgan do‘konda qaysi kasb vakili ishlaydi? Sanoat mollari sotuvchisi (tor ixtisosli).

Oynani kim tayyorlaydi? Shishapaz usta.

Do‘konda gazmolni va chitni kim sotdi? Sanoat mollari sotuvchisi (tor ixtisosli).

Futbol va xokkey darvozalarini kim himoya qiladi? Futbolchi darvozabon, xokkeychi darvozabon.

Gazmolni kim to‘qiydi? To‘quvchi.

Tikuvchilik ustaxonasida kim ishlaydi? Bichuvchi, tikuvchi-motorchi.

G‘allani qaysi kasb vakili o‘radi? Kombaynchi. G‘allani yuk mashinasida uchinchi klass avtomobil shofyori tashiydi.

Rasmdagi O‘zbekiston Respublikasining xaritasini qaysi kasb vakili chizgan? Kartograf (xaritalar tuzuvchi mutaxassis, kartografiya mutaxassisi).

Ikki xonali va uch xonali songa bo‘lish

Polni kim bo‘yaydi? Bo‘yoqchi (qurilish bo‘yicha), malyar.

Tokar detal tayyorlaydi.

Televizor sotiladigan do‘konda qaysi kasb vakili ishlaydi? Radiotexnika bo‘yicha sotuvchi.

Suvoqchi usta.

Yuk poyezdini kim boshqaradi? Teplovoz mashinisti.

Fabrikada oyoq kiyimini qaysi kasb egasi ishlab chiqaradi? Yakka tartibda poyabzal tikish bo‘yicha kasb vakili, poyabzalchi.

Yo‘lga tushgan poyezdni kim boshqaradi? Teplovoz mashinisti, teplovoz mashinisti yordamchisi.

Olma va behi murabbosini kim pishiradi? Konserva zavodi ishchisi.

Qoldiqli bo‘lish

Avtomatda o‘yinchoqni kim tayyorlaydi? Tokar-avtomatchi kasbi.

Kutubxonada kim ishlaydi? Kutubxonachi.

Sabzavot do‘konida qaysi kasb vakili ishlaydi?

Poyabzal bichiqchi kasbi. Poyabzal tikish bo‘yicha kasb.

Detal tayyorlovchi ishchining kasbi? Tokar, tokar-avtomatchi, tokar-yarim avtomatchi.

O‘quvchilar sabzavot ekib, qaysi kasb vakili mehnatini bajardilar? Mevachi sabzavotchi ustani.

Sut sog‘ib oluvchining zamonaviy nomini ayting? Mashinada sut sog‘ib olish operatori.

Kitoblarni kim muqovalaydi.

Oshxona va do‘konga jo‘natilgan qovunni qaysi kasb vakili yetishtirgan? Polizchi usta.

Shaxmat doskasida qaysi kasb vakili o‘ynaydi? Shaxmatchi. O‘zbekiston shaxmatchilar ichida kim jahon chempioni bo‘ldi?

Maktabga televizor, magnitofon va kinoapparaturani kim sotdi? Sanoat mollari sotuvchisi (tor ixtisosli).

Paxta terish mashinasi mexanizatorining kasbi qanday aytiladi? Paxta terish mashinasi mexanik haydovchisi.

Kitob muqovalash ishini kim bajaradi? Muqovachi usta.

Detalni qaysi kasb vakili tayyorlaydi? Tokar, tokar-avtomatchi.

Issiqxona ko‘chatchisi.

G‘isht teruvchi usta.

Olmani kim yetishtiradi? Mevachi-sabzavotchi usta, usta bog‘bon.

Tikuvchilik ustaxonasida qaysi kasb vakillari kostyum tikadilar? Bichuvchi, tikuvchi-motorchi kasblari.

Shunday qilib, matematika darslari o‘quv darsligida bayon qilingan masalalar mazmuniga mos ravishda kasblar olamidan o‘qituvchi tomonidan u yoki bu kasbning oldindan tanlab olish ularni har birini xalqimiz, jamiyatimiz uchun ahamiyatini bolalarga muntazam tushuntirib borish uchun teng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 6-sentabrdagi 5812-sonli farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712 sonli farmoni.

3. Bikbayeva N.U. Matematika. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. / Bikbayeva N.U., Yangibayeva Y., Girfanova K.M. – Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 4-nashri. –T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2017. – 208 b.

4. Abduquddusov O., Rashidov X. Kasb-hunar pedagogikasi. O‘quv uslubiy qo‘llanma. –T., 2011.

Dilfuza MAXMUDOVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti,
“Pedagogika” kafedrasi dotsent v.v.b.
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALA BILAN MUAMMOLI VAZIYAT FARQI

Annotatsiya

Maqolada matematika dars jarayonida masala bilan muammoli vaziyatning farqi bayon qilingan. Masala qo‘yilganda muammoli vaziyatni qanday vujudga keltirishga misollar keltirilgan va undan o‘quv amaliyotida foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Muammo, muammoli ta’lim, masala, muammoli vaziyat, amaliyot, bilim, malaka.

В данной статье описывается разница проблемной ситуации и задачи в процессе преподавания математики. При постановке вопроса приведены примеры того, как создать проблемную ситуацию, и рассмотрены варианты ее использования в учебной практике.

Ключевые слова. Проблема, проблемное образование, задача, проблемная ситуация, практика, знание, навык.

This article describes the difference between a problem situation and a task in the process of teaching mathematics. When posing a question, examples are given of how to create a problem situation, and options for its use in educational practice are considered.

Key words. Problem, problem education, task, problem situation, practice, intelligence, experience.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi qadimda Suqrot suhbatlarida uchragan bo‘lib, keyinchalik bir muncha payt jonlanish davrini o‘tgan bo‘lsada, u ta’lim tizimida dominant rolini o‘ynamagan. Ta’limda birinchi mukammal pedagogik nazariya Y.A.Komenskiy tomonidan yaratildi. O‘sha davrda hukm surgan ommaviy ta’lim didaktik tizimi o‘quvchi hamda o‘qituvchi o‘qitishning aniq reglamentiga rioya qilishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi muammolilik prinsipini bosh masala qilib qo‘ymagan, albatta.

Aytish joizki, Komenskiy ham undan ancha keyingi buyuk pedagoglar Russo, Pestalotssi, Ushinskiylar ham avtoritar pedagogikani to‘la yagona ta’lim metodi deb qarashmagan va shu bilan birga ijodiy o‘rtoqlilik muhitida o‘quvchilar mustaqilligi, faolligi zarurligini inkor qilishmagan. Ehtimolki, Suqrot hamda o‘rta asr sxolastlarining pedagogik usullari, ularni amalga oshirilishiga xalaqit beruvchi nafisligi tufayli zarur bo‘lmadi. Haqiqatdan ham, ta’limda muammoli o‘qitishni amalga oshirish uchun yo‘l boshlovchi bo‘la olish erkinligi berilgan yuqori saviyali pedagoglar mavjudligi, o‘quvchilar ma’lum psixologik tayyorgarlikka egaligi, muammolilik prinsipiga asoslangan o‘quv qo‘llanmalarining mavjudligi zarur. Bu ommaviy ta’lim uchun murakkab yo‘l.

XIX va XX asrlar bo‘sag‘asida amerikalik psixolog va pedagog Djon Dyui asosida zamonaviy muammoli ta’lim nazariyasi yotgan g‘oyani ilgari surdi va amalga oshirdi. U darslar qat’iy o‘quv reja asosida emas, balki o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan intilishlariga qarab loyihalash, izlanish olib borish, o‘zini badiiy ifodalash kabilar bilan shug‘ullanishlari mumkin bo‘lgan eksperimental maktabga asos soldi. Bunday holda o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilar oldiga o‘quv muammoli masalalar qo‘yish, muammoli holatlarni yuzaga keltirish bo‘lsa, o‘quvchining vazifasi muammoni his qilish va yechish natijasida yangi bilimlarga ega bo‘lish va ularni olishni umumlashgan usullarini o‘zlashtirish yordamida keyinchalik aniq masalalarni yechishga qo‘llashdan iborat bo‘ladi. Bunday pedagogik masalalar bilan keyinchalik S.L.Rubinshteyn, A.M.Matyushkin, T.V.Kudryavsev, I.Ya.Lerner kabi olimlar shug‘ullandilar.

Matematik fanlar o‘quv kurslari odatda “ta’riflar-teoremalar-misollar-tatbiqlar” zanjiri ko‘rinishida quriladi. Bu jarayonda asosiy o‘rinni oldindan aniq ifodalangan, isbotlanishi kerak bo‘lgan tasdiqlar-teoremalar egallaydi. Teoremalar matematik nazariya va uning tasnifida ulkan ahamiyat kasb etadi, lekin matematik ta’lim metodik tizimida, ayniqsa, nomatematik mutaxassisliklar va yo‘nalishlarda har doim ham muvaffaqiyatli o‘rin egallamasligi mumkin. Albatta, isbotlashni o‘qitish – matematikani o‘qitishning mukammal zarur elementi ekanligiga shubha yo‘q. Ma’ruzada isbotning mavjudligi talabalarda mantiqni rivojlantiradi. Ammo teoremaning isboti – bu har holda tinglovchi yaxshi yoki yomonroq o‘zlashtiradigan yot mantiqdir. O‘qituvchi o‘quv jarayonida muammoli yondashuvni qo‘llaganda, talabalarning o‘z zakovatlarini namoyon qilishga majbur qilib, ulardagi mantiqni faollashtirishga harakat qiladi. Bu holatda mantiqiy zanjir taxminan quyidagi ko‘rinishni oladi: “(ko‘pincha amaliy ahamiyatli)muammoli vaziyat – uni yechish – (muammoni yechishda yuzaga kelgan) yangi tushunchalarni aniqlash – umumlashtirish”. Shu bilan birga mulohazalar qat’iyligiga putur yetmaydi, u tadqiqot ko‘rinishiga, ya’ni oldindan noma’lum natijaga qarab harakatga o‘tadi.


Ko‘pincha muammoli ta’limni “amaliyotdan-nazariyaga” prinsipiga keltirish ko‘rinishidagi tasavvurlar uchrab turadi. Agar matematika to‘g‘risida gapirsak, bu degani avval bir nechta masala yechilishini muhokama qilish va keyin umumiy tamoyilni shakllantirish degani. Bunday tushuncha qisman to‘g‘ri, lekin bu muammoli ta'lim konsepsiyasini soddalashtirilgan ko‘rinishidir. A.M.Matyushkin misol sifatida quyidagi eksperimentni keltirgan:

6-sinf o‘quvchilariga $a(b+c)=ab+ac$ distributivlik xossasi turli usulda o‘rgatilgan. *A* guruhga oldiniga xossa so‘z bilan tushuntirilib, keyin uni bir nechta misol orqali namoyish qilindi va mustahkamlashga masalalar berildi. *B* guruhga avval $a(b+c)$ ni hisoblash taklif qilindi, keyin olingan natijalar $ab+ac$ ifoda bilan bir xilligi ko‘rsatildi va berilgan xossa bayon qilindi. Shu bilan birga bu xossani ushbu holatda eksperimental guruhlardagi o‘zlashtirilishida sezilarli ta’siri aniqlanmadi. Matyushkin bunga o‘xshash tajribalardan muammoli ta’lim samaradorligi haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi deb hisoblaydi, chunki keltirilgan tajribada nazariy materialdan oldin yoki undan keyin beriladigan masalalar haqida gap ketmoqda. Bu masalalar muammoli vaziyatni yuzaga keltirmaydi, demak, yangi bilimni o‘zlashtirishga ehtiyoj tug‘dirmaydi.

“Masala” bilan “muammoli vaziyat” tushunchalari qanday farqlanadi? Masala qo‘yilishi obyektiv va u subyekt (o‘quvchi)dan tashqarida mavjud. Bundan farqli o‘laroq, muammoli vaziyat “birinchi navbatda subyekt holatini xarakterlaydi, bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida paydo bo‘ladigan, predmet haqidagi yangi bilimni ochish(o‘zlashtirish)ni talab qiluvchi, topshiriqni bajarish usullari yoki sharoitlaridir”.

Shunday qilib, muammoli vaziyat bu masalaning o‘zigina emas, balki mavjud bilim va malaka bir tomonda va qilinayotgan faraz boshqa tomonda o‘zaro qarama qarshiligini bartaraf qilishni talab etuvchi bilish jarayoni masalasidir.

Muammoli vaziyatga misol sifatida Zenon Eleyskiyning Axilles (Troya jangi qahramonlaridan biri) va toshbaqa paradoksini ko‘raylik (1-rasm).



(1-rasm)

Axilles B nuqtada joylashgan toshbaqadan l_0 masofadagi A nuqtada joylashgan. Ular qandaydir vaqtdan boshlab AB to‘g‘ri chiziq bo‘ylab bir xil (A dan B ga qarab) yo‘nalishda harakat qila boshlaydi. Ma’lumki Axillesning tezligi toshbaqaning tezligidan sezilarli darajada katta. Qanchadir vaqtdan so‘ng Axilles B nuqtada bo‘ladi, lekin toshbaqa bu vaqtda B_1 nuqtaga o‘tgan bo‘ladi. Axilles B_1 nuqtaga yetib borganda, toshbaqa B_2 nuqtada bo‘ladi. Bu mulohazani istalgancha davom ettirish mumkin. Xulosa: Axilles toshbaqaga hech qachon yeta olmaydi!

Talabalar auditoriyasida bu paradoksga bo‘lgan munosabat har doim deyarli bir xil: norozilik bilan boshlarini tebratib, miyig‘ida kulib qo‘yadilar. Talabalar nazarida ularni aldayotganday tuyuladi va bu tabiiy, chunki qilingan xulosa aqlga sig‘maydi, u kundalik hayotiy tajribaga ham zid: agar jarayon fazoda va vaqt bo‘yicha chegaralanmagan bo‘lsa, tez harakat qiladigan jism shu yo‘nalishda nisbatan sekin harakatlanayotgan jismga yetib oladi va undan o‘tib ketadi. Buni tezlik tushunchasi, vaqt va bosib o‘tilgan yo‘ldan foydalanib, qiyinchiliksiz isbotlash mumkin. Agar Axilles υ_A tezlik bilan, toshbaqa υ_B tezlik bilan harakat qilmoqda deb faraz qilsak, u holda

$$\frac{L - l_0}{\upsilon_B} = \frac{L}{\upsilon_A}$$

tengligidan, Axilles toshbaqaga o‘zining boshlang‘ich holatidan

$$L = l_0/(1 - \frac{\upsilon_B}{\upsilon_A})$$

masofada yetib olishi kelib chiqadi.

Biroq o‘qituvchi quyidagi talabni oldinga suradi: qani, Axilles paradoksi chegarasidan chiqmagan holda, o‘zlaringizni mantig‘ingizni, ya’ni fikringizni bayon qiling, paradoksli xulosani inkor qiling! Boshqacha qilib aytganda, l_0, l_1, l_2 va hokazo miqdorlar ketma-ketligini o‘rganing (1-rasmga qarang). Bu muammoli vaziyat. Chunki u vaqt va chekli (cheksiz kichik bo‘lmagan) miqdorlar haqidagi tasavvurlar ma’nosiz natijaga olib kelgan qarama-qarshilikni bartaraf qilishni talab qilmoqda. Bizni fikrimizcha, matematik tahlil kursining “Sonli ketma-ketliklar limiti”, “Sonli qator va uning yaqinlashishi” kabi murakkab mavzularini aynan shu paradoksni tahlili bilan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

$$\frac{l_0}{l_1}=\frac{v_A}{v_B},\qquad l_1=l_0\frac{v_B}{v_A},$$
$$\frac{l_1}{l_2}=\frac{v_A}{v_B},\qquad l_2=l_0\left(\frac{v_B}{v_A}\right)^2,$$
$$\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots$$
$$\frac{l_{n-1}}{l_n}=\frac{v_A}{v_B},\qquad l_n=l_0\left(\frac{v_B}{v_A}\right)^n,$$
$$\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots$$

Haqiqatdan ham, talaba mustaqil ravishda yuqoridagi ifodalarni chiqara oladi. Aytaylik, masalan l_0=1km , $\frac{v_B}{v_A}=0{,}01$. U holda l_n=0,01^n *km*, ya’ni l_1=*10 m*, l_2=10 sm, l_3=1 mm va hokazo. Ko‘rinib turibdiki, toshbaqaning har bir navbatdagi “poyga bosqichi”da o‘tgan yo‘li ayanchli tarzda kamaymoqda. Xuddi shunday ayanchli tarzda har bir navbatdagi “poyga bosqichi” davomiyligi kamayib bormoqda. Agar biz bu yerda, ixtiyoriy oldindan berilgan $\varepsilon>0$ son uchun shunday yetarlicha katta N tanlash mumkinki, $n>N$ tengsizliklardan $l_n=0{,}01^n<\varepsilon$ tengsizlik kelib chiqadi, degan tasdiqni aytsak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Shunday qilib, biz Axilles va toshbaqa haqidagi masala muhokamasidan sonli ketma-ketlik limiti tushunchasiga kelib qoldik(bizning holimizda bu limit nolga teng). Albatta, bu holatdan talabalar o‘qituvchining ko‘magisiz chiqib ketishi mushkul, ammo bunday ko‘mak faqatgina yo‘naltiruvchi savollardangina iborat bo‘lishi yetarli.

Ikkinchi tomondan l_0, l_1, l_2,...,l_n,... ketma-ketlik limiti nolga teng degani $l_0+l_1+l_2+\ldots+l_n+\ldots$ yig‘indi cheksizlikga intilmaydi degani emas (Agar oxirgi yig‘indi cheksizlikga intilganda, undan Axilles hech qachon toshbaqaga yeta olmasligi kelib chiqqan bo‘lar edi!). Bu endi musbat ishorali sonli qator yaqinlashuvi haqidagi masaladir. Qatorni yozamiz:

$$\sum_{n=0}^{\infty} l_i = l_0 + l_1 + l_2 + \ldots + l_n + \cdots = l_0 + l_0\frac{v_B}{v_A} + l_0\left(\frac{v_B}{v_A}\right)^2 + \ldots + l_0\left(\frac{v_B}{v_A}\right)^n + \ldots,$$

Chekli yig‘indilarni $n\to\infty$ dagi limiti, Axilles toshbaqaga yetib oladimi yoki yeta olmaydimi, agar yetib olsa qaerda? degan qator savollarga javob beradi.

$$\lim_{n\to\infty} S_n = \lim_{n\to\infty}(l_0 + l_1 + l_2 + \ldots + l_n) = \lim_{n\to\infty}\left(l_0 + l_0\frac{v_B}{v_A} + l_0\left(\frac{v_B}{v_A}\right)^2 + \ldots + l_0\left(\frac{v_B}{v_A}\right)^n\right) =$$
$$= L = \frac{l_0}{1-\frac{v_B}{v_A}}.$$

Demak, chekli yig‘indilarning $n\to\infty$ dagi limiti L ga teng bo‘lar ekan. Masalan, biz yuqorida tanlab olgan berilganlar uchun L=1/0,99=1,010101 *km*, boshqacha qilib

aytganda toshbaqa bu davr ichida boshlang‘ich nuqtadan 10,1m masofaga bora oladi, xolos.

L uchun xuddi shunday xulosaga, yuqorida ko‘rsatilganidek ketma-ketlik va qator tushunishingiz mumkin edi. Buning uchun $\sum_{n=0}^{\infty} l_i$ yig‘indini cheksiz kamayuvchi progressiya yig‘indisi ekaniga e’tibor qaratish kifoya. Shunday qilib, “eski” (tezlik, vaqt va bosib o‘tilgan yo‘l orasidagi bog‘liqlik haqidagi) bilim bilan “yangi” – ikki jism harakatini tavsiflashga diskret yondashuv orasidagi zidlik ketma ketliklar va qatorlar bilan bog‘liq tushunchalarni kiritish hisobiga bartaraf etildi.

Bizningcha, muammoli vaziyatni yuzaga keltirish uchun eng ma’qul usul bu – yangi tushunchalar kiritish, yangi bog‘lanishlar, munosabatlar, yangi usullardan foydalanishni talab qiladigan amaliy yoki qiziqarli masalalarni qo‘yishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимина О.В. Проблемное обучение высшей математики в технических вузах//Математика в высшем образовании. – 2006.- №4. – С.55-77.

2. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. М.: Педагогика, 1972. – С-208.

3. Кудрявцев Е.М. GPSSWorld. Основы имитационного моделирования различных систем.-М.:ДМК Пресс, 2004. – С-320.

4. Mahmudova D.M. Muammoli masalalar yordamida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi (uslubiy qollanma). – T.: O‘ZMU, 2012. – 96 b.

Mashrabjon MAMATOV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti professori
Ma’muraxon MAMADJANOVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TAFAKKUR QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MANTIQIY MASALALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda ikkita munosabatdan, shuningdek, bir necha mulohazalar orasidagi munosabatlardan xulosa chiqarishga doir mantiqiy masalalar va ularni yechish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Mantiqiy masalalar, ikkita munosabatdan xulosa chiqarishga doir mantiqiy masalalar, bir necha mulohazalar orasida munosabatlar o‘rnatishga doir mantiqiy masalalar, mantiqiy masalalarni yechish usullari.

В статье рассматриваются роль и место логических задач на вывод заключения из двух отношений, на установление отношений между несколькими суждениями в развитии мышления учащихся начальных классов и приемы их решения.

Ключевые слова. Логические задачи, логические задачи на вывод заключения из двух отношений, на установление отношений между несколькими суждениями, приемы решения логических задач.

The article discusses the role and place of logical tasks in deriving a conclusion from two relationships, in establishing relationships between several judgments in the development of thinking of primary school students and methods for solving them.

Key words. Logical tasks, logical tasks to derive a conclusion from two relations, to establish relationships between several propositions, methods for solving logical problems.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartining ikkinchi avlodi joriy etilishi munosabati bilan boshlang‘ich matematika kursida o‘quvchilarning umummadaniy, shaxsiy va bilish faoliyatlarini samaradorligini oshirish asosida ularning mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatlarini tarkib toptirish va rivojlantirishga e’tibor kuchaytirilmoqda. O‘quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun matematika darslarida turli xil mashqlar sistemasi ko‘rilib, ko‘p hollarda ularni yechish jarayonida: analiz, sintez, taqqoslash, abstraktlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalarning birortasini yoki bir nechtasini rivojlantirishga erishiladi.


Mantiqiy masalalarni yechish jarayoni esa o‘quvchilar qo‘llaydigan mantiqiy operatsiyalarni barchasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning aqliy qobi-

liyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bugungi kunda boshlang‘ich sinflar matematikasida matnli masalalar mazmuni kengaytirilib, ular tarkibiga an’anaviy masalalar bilan bir qatorda mantiqiy masalalarni kiritilishi yangi davlat ta’lim standartida belgilab qo‘yildi.

Mantiqiy masalalar mazmuni turli-tuman ekanligidan, ko‘p sondagi turlari ham mavjud bo‘lib, biz quyida ulardan ikkitasini ko‘rib chiqamiz. Birinchi turga, uchta obyektni bog‘lovchi ikkita munosabatdan xulosa chiqarishga doir masalalar kiradi. Bunday masalalarni yechishda o‘quvchilar bilan dastlab masala shartida berilgan obyektlar yoki predmetlar qanday belgilar bo‘yicha umumiy xossaga ega bo‘lishi yoki farqlanishi, ularning soni aniqlanadi. So‘ngra masala tahlilini bu belgilarning ixtiyoriy biridan boshlash mumkin.

Bu turdagi sodda mantiqiy masalani 2-sinf uchun amaldagi “Matematika” darsligining “Sonlar va hisoblashlar. 100 ichida o‘nlikdan o‘tib qo‘shish va ayirish” bo‘limida keltirilgan quyidagi 4-masalani ko‘raylik:

“Rasm asosida masala tuzing va uni yeching”.



Terak daraxti qayin daraxtidan necha metr baland? Sada qayin daraxtidan necha metr past? Qayin daraxti sadadan necha metr baland?”.

Masala yechilgandan so‘ng, uni yechish jarayonida o‘quvchilar yuritgan mulohazalarga tayangan holda quyidagi mantiqiy masalani yechish uchun asos yaratiladi.

1-masala. Qayin daraxti sadadan baland, terakdan esa past. Daraxtlarning qay biri eng baland ekanligini aniqlang.

Yechish. Dastlab, o‘quvchilar bilan masala shartida berilgan obyektlar uchta: qayin, sada va terak bo‘lib, ularni balandliklari bo‘yicha taqqoslash natijasida bo‘yi: baland yoki past munosabatlari bilan farqlanayotganligini muhokama qilamiz.

So‘ngra masalani yechish uchun uning modelini quramiz. Nazariy jihatdan masala uchta element – qayin, sada, terakdan iborat bo‘lgan to‘plam elementlarini tartiblashga doir bo‘lib, uni to‘g‘ri chiziq modellashtirish asosida yechish maqsadga muvofiqdir. Bu holda to‘g‘ri chiziq “bo‘y chizig‘i” vazifasini o‘taydi. Shuning uchun o‘quvchilar bilan daraxtlarni to‘g‘ri chiziqda ularning bosh harflari ko‘rsatilgan nuqtalar bilan; ularning bo‘yi pastrog‘ini to‘g‘ri chiziqda chaproqda, balandrog‘ini esa o‘ngroqda belgilashga kelishib olamiz. Masalaning har bir shartini to‘g‘ri chiziqda belgilash uchun tartib bilan quyidagi mulohazalar zanjirini quramiz:

Qayin daraxti sada daraxtidan baland, demak, Q nuqta S nuqtadan o‘ngda joylashadi;



Qayin daraxtining balandligi terak daraxtidan past bo‘lsa, u holda terak daraxtining balandligi qayin daraxtidan baland bo‘ladi.

Demak, T nuqta Q nuqtadan o‘ngda joylashadi. To‘g‘ri chiziqda nuqtalarning joy-

lashishidan daraxtlarning bo‘yi eng balandi terak ekanligini aniqlaymiz.

Bu turdagi masalalarni yechish jarayoni ongli o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida quyidagi ko‘rinishdagi mustaqil ishni uyushtirish ijobiy natijalar beradi. O‘qituvchi doskada ushbu ikkita chizmani chizib: so‘ngra o‘quvchilardan ulardan qaysi biri: “Jismoniy tarbiya darsida o‘quvchilar balandlikka sakrashda musobaqalashadi. Agar Botir Karimdan yuqoriroqqa, lekin Ahmaddan pastroqqa sakragan bo‘lsa, bolalardan qay biri eng eng yuqoriga sakragan?” masalasi asosida qurilganligini aniqlashni so‘raydi. Ba’zi o‘quvchilar 1-chizmani, ba’zilari esa 2-chizmani belgilashadi. So‘ngra o‘qituvchi bolalarga o‘zlari tanlagan chizmada quyidagi ma’lumotlarni belgilashni so‘raydi: Ahmad 98 santimetrga, Karim 90 santimetrga, Botir 95 santimetr yuqoriga sakragan. O‘quvchilar vazifani doskada bajaradilar va 1-chizmani belgilagan o‘quvchilar o‘zlari yo‘l qo‘ygan xatoni anglaydilar.

O‘quvchilarda to‘plam elementlarini tartiblashga doir sodda mantiqiy masalalarni



yechish ko‘nikmalari tarkib toptirilgach, endi bunday turdagi murakkabroq masalalarni yechishga o‘tish mumkin.

Mantiqiy masalalarning ikkinchi turiga bir necha mulohazalar orasidagi munosabatlardan xulosa chiqarishga doir masalalar kiradi. Bu turdagi masalalarni yechishning eng qulay usuli, qaralayotgan obyektlar yoki predmetlar soni yoki munosabatlarga bog‘liq bo‘lmagan holda mulohazalar zanjiri tuzilib ularni jadval ko‘rinishida ifodalashdan iborat bo‘lib, agar berilgan munosabat o‘rinli bo‘lsa, jadvalning mos katagiga (+) belgisi, o‘rinli bo‘lmasa (-) belgisi qo‘yiladi.

3-masala. Karim, Vali va Sobir ko‘paytirish jadvalini o‘rganmoqda. Ulardan biri 3 ga, ikkinchisi 5 ga, uchinchisi esa 6 ga ko‘paytirish jadvalini o‘rganmoqda. Agar Vali 5 ga ko‘paytirish jadvalini bilsa, Karim esa 5 ga va 6 ga ko‘paytirish jadvallarini bilsa, bolalarning har biri qaysi songa ko‘paytirish jadvalini o‘rganayotganligini aniqlang.

Yechish. Nazariy jihatdan masala uchta elementdan iborat bo‘lgan o‘quvchilar ismlari to‘plami (Karim, Vali, Sobir) bilan o‘rganilayotgan songa ko‘paytirish to‘plami (3,5,6) o‘rtasida o‘zaro bir qiymatli moslik o‘rnatishga doir bo‘lib, ularni yechimini jadval ko‘rinishida ifodalaymiz. Bunda jadvalning satrlariga ko‘paytirish jadvali o‘rganilayotgan sonlar, ustunlariga esa o‘quvchilar ismlari yoziladi. Jadvalni to‘ldirishga kirishishdan oldin o‘quvchilar bilan “O‘quvchi qaysi songa ko‘paytirish jadvalini o‘rgatayotgan bo‘lsa “,+” belgisi, o‘rganmayotgan bo‘lsa “,-” belgisini qo‘yishga” kelishib olamiz. So‘ngra masala shartida berilgan, shuningdek, ulardan keltirib chiqariladigan xulosalar zanjiri qurib, ularga tayangan holda jadvalni to‘ldiramiz:

Ko‘paytirish jadvali	O‘quvchilar ismlari		
	Karim	Vali	Sobir
3 ga ko‘paytirish	+		
5 ga ko‘paytirish	-	-	+
6 ga ko‘paytirish	-	+	

Vali 5 ga ko‘paytirish jadvalini biladi. Demak, u 5 ga ko‘paytirish jadvalini o‘rganmaydi. U holda “5 ga ko‘paytirish” satri va “Vali” ustuni kesishish katakchasiga “-” belgisi qo‘yamiz.

Karim 5 ga va 6 ga ko‘paytirish jadvallarini biladi. Ushbu sonlarga ko‘paytirish jadvallarini u o‘rganmaganligi uchun mos katakchalarga “-” belgilari qo‘yamiz. Demak, Karim 3 ga ko‘paytirish jadvalini o‘rganayotgan bo‘ladi. Mos katakka “+” belgi qo‘yamiz.

U holda Vali 6 ga ko‘paytirish jadvalini o‘rganayotgan bo‘ladi. Mos katakka “+” belgi qo‘yamiz.

Agar Karim 3 ga ko‘paytirish, Vali 6 ga ko‘paytirish jadvalini o‘rganayotgan bo‘lsa, u holda Sobir 5 ga ko‘paytirish jadvalini o‘rganayotgan bo‘ladi. Mos katakka “+” belgi qo‘yamiz.

Jadvaldan Karim 3 ga ko‘paytirish, Vali 6 ga ko‘paytirish, Sobir esa 5 ga ko‘paytirish jadvallarini o‘rganayotganligini aniqlaymiz.

O‘quvchilarda to‘plamlar o‘rtasida o‘zaro bir qiymatli moslikni o‘rnatishga doir masalalar yechish ko‘nikmalar tarkib toptirilgach, endi bu turdagi murakkabroq masalalarni yechishga o‘tish mumkin.

4-masala. Sinfda o‘tkazilgan shashka musobaqasida Ahmad, Botir, Vali va Sohib ishtirok etdi. Ahmad birinchi o‘rinni ham, oxirgi o‘rinni ham egallamaganligi, Sohib ikkinchi o‘rinni egallaganligi, Botir esa birinchi o‘rinni egallamaganligi ma’lum bo‘lsa, ishtirokchi bolalarning har biri qaysi o‘rinni egallagan?

Egallagan o‘rni	Ismlar			
	Ahmad	Botir	Vali	Sohib
1-o‘rin	-	-	+	
2-o‘rin	-			+
3-o‘rin	+			
4-o‘rin	-	+		

Yechish. (1-usul) Berilgan ma’lumotlarga tayanib xulosalar zanjirini qurib, jadvalni to‘ldiramiz:

Ahmad birinchi o‘rinni ham, oxirgi o‘rinni ham egallamaganligi uchun “1-o‘rin” satri va “Ahmad” ustuni kesishish katakchasi hamda “4-o‘rin” satri va “Ahmad” ustuni kesishish katakchasi “-” belgisi qo‘yamiz;

Sohib ikkinchi, o‘rinni egallaganligi ma’lum. Mos katakchaga “+” belgi qo‘yamiz;


Ahmad ikkinchi o‘rinni egallamagan. Mos katakchaga “-” belgi qo‘yamiz. U holda Ahmad uchinchi o‘rinni egallagan. Mos katakchaga “+” belgi qo‘yamiz. Botir birinchi o‘rinni egallamaganligi ma’lum. Mos katakchaga “-” belgi qo‘yamiz.

Ikkinchi o‘rinni Sohib, uchinchi o‘rinni Ahmad egallagani uchun Botir to‘rtinchi o‘rinni egallagan. Mos katakchaga “+” belgi qo‘yamiz. U holda Vali birinchi o‘rinni egallagan bo‘ladi. Mos katakchaga “+” belgi qo‘yamiz.

Jadvaldan Vali 1-o‘rinni , Sohib 2-o‘rinni, Ahmad 3-o‘rinni, Botir esa 4-o‘rinni egallaganligini aniqlaymiz.

To‘plamlar o‘rtasida o‘zaro bir qiymatli moslikni o‘rnatishga doir mantiqiy masalalarni yechishda keng qo‘llaniladigan yana bir usul bu graflar yordamida modellashtirish dir. Bu usulni qo‘llash uchun dastlab o‘quvchilarga tekislikda nuqtalar va ularni tutashtiruvchi chiziqlar berilgan bo‘lsa, ular graf deyilishi haqida ma’lumot berilib, graflar yordamida masalalar yechishda sharti va talabida berilgan obyektlar to‘plam elementlari

sifatida nuqtalar bilan belgilanib, ularni grafikning uchlari deyilishi; masala sharti va talablari o‘rtasidagi moslik o‘rinli bo‘lsa, bu nuqtalarni tutashtiruvchi kesmalarni qirralari deyilishi haqidagi ma’lumotni kiritib, agar to‘plam elementlari o‘rtasida qaralayotgan moslik o‘rinli bo‘lmasa (inkori bo‘lsa), u holda ularni shtrix chiziqlar bilan tutashtirilishi haqida kelishib olamiz. U holda yuqoridagi masalani quyidagicha yechiladi.



(2-usul) Masala shartiga ko‘ra, o‘quvchilar ismlari to‘plami va o‘quvchilar egallagan o‘rinlar to‘plamiga egamiz. Birinchi to‘plam elementlarini A,B,V va C nuqtalar (o‘quvchilar ismlari bosh harflari) bilan, ikkinchi to‘plam elementlarini 1,2,3,4 sonlari (egallagan o‘rinlar) bilan belgilaymiz. So‘ngra masala shartida berilgan, shuningdek, ulardan keltirib chiqariladigan xulosalar zanjirini qurib, ularga tayangan holda to‘plamlar orasidagi moslikni o‘rnatamiz.

Ahmad birinchi o‘rinni ham oxirgi o‘rinni ham egallamagan, A nuqtani 1 va 4 nuqtalar bilan shtrix chiziqlar bilan tutashtiramiz.

– Sohib ikkinchi o‘rinni egallagan. S va 2-nuqtalarni kesma bilan tutashtiramiz.

– Botir birinchi o‘rinni egallamagan B va 1-nuqtalarni shtrix chiziq bilan tutashtiramiz.

– Ahmad birinchi o‘rinni ham to‘rtinchi o‘rinni ham egallanmagan edi, Sohib esa ikkinchi o‘rinni egallaganligi uchun Ahmad uchinchi o‘rinni egallagan, A nuqta va 3-nuqtalarni kesma bilan tutashtiramiz.

– Botir birinchi o‘rinni egallamagan, Sohib ikkinchi o‘rinni egallagan, Ahmad uchinichi o‘rinni egallaganligi uchun, Botir to‘rtinchi o‘rinni egallagan. B nuqta va 4-nuqtani kesma bilan tutashtiramiz.

- Sohib ikkinchi o‘rinni, Ahmad uchinchi o‘rinni, Botir to‘rtinchi o‘rinni egallaganligi uchun Vali birinchi o‘rinni egallagan. V nuqta va 1-nuqtani kesma bilan tutashtiramiz.

Grafikdan Vali 1-o‘rinni, Sohib 2-o‘rinni, Ahmad 3-o‘rinni, Botir esa 4-o‘rinni egallaganligini aniqlaymiz.

Mantiqiy masalalarda keltirilgan holatlar, vaziyatlarni tahlil etish asosida o‘quvchilar zaruriy axborotni izlash va ajratish ko‘nikmalarini egallab, ularning shartida keltirilgan obyektlarni muhim va muhim bo‘lmagan belgilari bo‘yicha ajratish tajribasiga ega bo‘ladilar. Masalalar yechimini izlash bosqichida ularda sabab-oqibat bog‘lanishlarini o‘rnatish, mulohaza qilishning mantiqiy zanjirini qurish, aniq shartlarga tayangan holda masalaning eng qulay samarali yechish usullarini tanlash kabi o‘quv faoliyatining xususiyatlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.

2. Matematika: 2-sinf uchun darslik Abdurahmonova N, O‘rinboyeva L, mas’ul muharrir: Jumayev M. – T.: Yangiyo’l poligraf servis, 2018.– 208b.

3. Matematika. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. M. Ahmedov, N.Abdurahmonova, M.Jumayev). – T.: Turon-Iqbol nashriyoti, 2017.-160 b.

Ulug‘bek FAYZULLAYEV,
Namangan davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy tarixiy merosimiz namoyondalarining asarlarida tadbirkorlik va uning tarbiyaviy imkoniyatlari bayoni berilgan bo‘lib, undan tadbirkorlikga xos fazilatlarni shakllantirishda foydalanish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Tadbirkorlik, tarixiy meros, bilim, malaka, ko‘nikma, fazilat, jamiyat, ehtiyoj, shakllantirish, namoyon.

В данной статье рассматривается предпринимательство и его воспитательные возможности в трудах представителей нашего национального исторического наследия, а также освещаются пути его использования в формировании предпринимательских качеств.

Ключевые слова. Предпринимательство, историческое наследие, знания, квалификация, навыки, добродетель, общество, потребность, формирование, очевидный.

This article discusses entrepreneurship and its educational opportunities in the works of representatives of our national historical heritage, as well as highlights ways to use it in the formation of entrepreneurial qualities.

Key words. Entrepreneurship, historical heritage, knowledge, qualifications, skills, virtue, society, need, formation, apparent.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bosqichma-bosqich bozor ishlab chiqarishiga asoslangan munosabatlarni qaror toptirish O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etildi. Shu bilan birga bozor munosabatining ma’naviy-axloqiy g‘oyalar hamda milliy qadriyatlarga asoslanishiga alohida e’tibor qaratildi. Binobarin, bozor ishlab chiqarishining o‘zaro raqobatga aylanishi – uning ma’naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqadi.

Masalaning dolzarbligini hisobga olish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘lamini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatiga yoshlarni tayyorlashda muayyan bilim va tushunchalarni hosil qilishning nazariy, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

“Tadbirkorlik” tushunchasining mohiyatini yoritishda ushbu faoliyat mazmunida aks etuvchi “uy xo‘jaligi”, “kasanachilik”, “tadbirkor” va “hunarmandchilik tadbirkorligi” kabi turkum atamalarning o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi hamda ularning yagona jarayon mazmunini yoritishga xizmat qilishini anglash muhim ahamiyatga ega.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, kasanachilik azaldan ota-bobolardan bizga meros bo‘lib qolgan. Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinolarning qarashlarida inson ehtiyojlari haqidagi ta’limot markaziy o‘rinni egallaydi. Farobiyning fikri bo‘yicha, kishilarning moddiy ehtiyojlarini jamiyat shakllanishining birlamchi sababi hisoblanadi. Zero, yuqorida aytilganidek, inson bu dunyoning oliy va ne’mati va uning ehtiyojlarini qondirish har qanday jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir. Inson ehtiyojlarini qondirishda mehnat va mehnat qurollarining o‘rni benihoya bo‘lib, insonning harakat qilish mehnat va yaratuvchanlik faoliyatining uyg‘unlashuvi asosida moddiy ne’matlar yaratiladi, degan fikr yotadi. Milliy pedagogik tajriba sinovidan o‘tgan o‘gitlar, chin insoniy fazilatlar yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashning asosi – halollik, rostgo‘ylik, o‘zaro hurmat, mehnat qilish, hunar egallash, mehnatni qadrlash, mas’uliyatli, tashabbuskor bo‘lish kabilar aks etadi. A.Tojiboyev, M.Asatullayeva IX-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan, savdo-sotiq, iqtisod rivojini quyidagicha izohlaydilar: “Bu davrlarda butun dunyoga tanilgan mutafakkirlar yashab ijod etdi. Ular asarlarida iqtisod, tijorat, mulkdorlik, hunar sirlari, qarz olish, qarz berish, meros taqsimlash, yetim-yesirlarga muruvvat ko‘rsatish, xayr-ehson qilish, soliq turlari va miqdori, halol mehnat qilish, kasb egallash, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanish haqida ibratli fikrlar bayon etilgan. Ular bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q”.

Sharqda tadbirkorlik tafakkurini rivojlanishida Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” nomli tarixiy asari alohida ahamiyat kasb etib, asarda mehnatga haq to‘lash, mehnatni taqdirlash, boshqalar mehnatini qadriga yetish, moddiy manfaat, kasb-hunar egallash, kuchli ijtimoiy himoya masalalariga katta o‘rin berilgan.

Sharqda tadbirkorlikning amaliy asoslarini yaratishda soliq masalasi markaziy o‘rin tutadi. Sohibqiron o‘z soliq siyosatida ham xalqning manfaatini ustuvorligidan kelib chiqadi. Amir Temur ta’kidlaydiki, aholidan olinadigan soliqlar ularning ishlab topgan daromadlariga qarab belgilanishi ularning qaysi biri el-yurt obodonchiligi yo‘lida o‘z mol-mulki va sarmoyasini ayamay sarflasa, ularga davlat soliq to‘lashdan imtiyoz berishi kerak.

Amir Temur tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlarni ulug‘lab, ularning nafaqat o‘zi, balki jamiyat uchun ham katta naf tegishini inson doimo faol bo‘lishini ta’kidlab, o‘z tuzuklarida “Ish bilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va xushyor bir kishi, ming-minglab, tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”, deb ko‘rsatadi.

O‘zbek xalqinig ma’naviy merosida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Alisher Navoiy tadbirkorlik bilan bog‘liq g‘oyani ilgari suradi: Birinchidan, mehnatning miqdori va sifatiga muvofiq taqdirlanish fikri bo‘lsa, ikkinchidan, mehnatga yarasha haq olish “Ona sutidek halol” ekanligi haqidagi fikri bayoni berilgan.

Oilaviy tadbirkorlik masalalari Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida bayon etilgan bo‘lib, oilaviy hayotni yo‘lga qo‘yish, oila a’zolarining ahil bo‘lishlari, oilaviy farovonlikni ta’minlash shartlari kabi masalalarga e’tibor qaratilgan. Asarda, shuningdek, oilada tadbirkorlik masalasini shakllantirishda qo‘llaniladigan uslublar borasida ham so‘z yuritiladi.

Tushuntirish, hikoya qilish, namuna ko‘rsatish, rag‘batlantirish kabi uslublardan foydalanish oilada bolani tashabbuskorlik ko‘nikmalarini tarbiyalashda samarali ekanligiga e’tibor qaratiladi. A.Fitrat tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda ishga mas’uliyat bilan yondashish va intizom masalasiga alohida ahamiyat berib intizomni muvaffaqiyat olish deb hisoblaydi.

Sharq xalqlarining ma’naviy me’rosida ilgari surilgan tadbirkorlikni rivojlantirishga oid fikrlardan kelib chiqib tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Bugungi kunda tadbirkorlik nafaqat oilaning moddiy farovonligini ta’minlash omili, balki keng ma’noda jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida ham o‘rni beqiyosdir. Tadbirkorning taqdiri o‘z qo‘lida bo‘lib, uning faoliyati rivoji uning maqsadini aniqligiga iqtisodiy savodxonligiga va bir qator shaxsiy sifatlariga ham bog‘liqdir.

Tadbirkorga xos shaxsiy sifatlarga ruhshunoslar quyidagilarni kiritganlar: tashabbuskor, sinchkov; imkoniyatni ko‘ra oladi va ularni ro‘yobga chiqaradi; tirishqoq, ijodkor; e’tiqodli, halol, uddaburon, xushmuomala; tavakkalchi, qat’iyatli; ma’lumotlarni shaxsan o‘zi qidiradi; o‘z faoliyatini muntazam rejalashtiradi; mahsulotning sifatini oshirish tashvishida bo‘ladi; shartnomalarni to‘liq bajarilishiga erishadi; muammolarni original yo‘l bilan hal etadi; boshqalarni o‘z ta’siriga bo‘ysundirish strategiyalaridan foydalanadi; xizmat etikasiga rioya etadi; tadbirkorlikni boshqarish mahoratiga ega bo‘ladi.

Tadbirkorlikka oid qarashlarni umumlashtirgan holda tadbirkor uchun zarur bo‘lgan uch asosiy qobiliyatni tarkibiga quydagilarni kiritish mumkin. Tadbirkor kerakli bilimlarga ega bo‘lish:

– tadbirkorlikka oid qonun hujjatlarini yaxshi bilishi;

– biznesda ochilayotgan imkoniyalar, soliqlar, imtiyozlar haqida tushunchaga ega bo‘lish;

– bozor iqtisodiyotining xususiyatlarini bilishi;

– iste’molchilarni talablarini bilish;

– raqobatchilarni ustun va zaif tamonlari haqida ma'lumotga ega bo‘lish;

– ishlab chiqarish jarayonlarini bilishi;

– yordam olish manbalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi.

Ta’lim muassasalarda o‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

1. O‘smir qobiliyatini oldindan baholash. O‘smirning muayyan faoliyat turini qay darajada o‘zlashtira olishini ota-ona oldindan aniqlashi zarur.

2. O‘smirning mehnatini uning kuchiga yarasha taqsimlash. Me’yordan ortiq talab uning toliqishi, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik hissining ortishi, ishdan bo‘yin tovlashiga olib keladi.

3. Iste’dodni rag‘batlantirish. O‘smirning xatti-harakatiga ota-onaning munosabati – mayl va qiziqishlarini munosib baholash, ularga dalda berish, rag‘batlantirish o‘smirlarda muayyan faoliyatga qiziqishini orttiradi.

4. Talabchanlik. Ota-ona o‘smirning muayyan harakatni bajarishi davomida ishni sinchkovlik bilan puxta, vijdonan bajarishi, asbob-uskunalar, mehnat qurollariga ehtiyotkor, xom ashyoga nisbatan tejamkor bo‘lishni talab etishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish joizki, ta’lim muassasalarida o‘quvchi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini tayyorlashda tadbirkorlikka xos bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim:

– oilaviy tadbirkorlikni to‘g‘ri tanlash, ishlab chiqariladigan mahsulotni xaridorgirligiga to‘liq ishonch hosil qilgan holda tadbirkorlik faoliyatini boshlash;

– oilaviy tadbirkorlikni aniq tuzilgan reja asosida tashkil etish;

– oilaviy bisnesga erishishning yutuqlaridan biri, uning mamlakatda qabul qilingan tadbirkorlikka oid huquqiy me’yoriy asarlarga tayanib tashkil etish.

Tadbirkorlikka oid biznes rejaning jozibadorligini ta’minlash tadbirkorlik faoliyatida adashmaslikning bir yo‘li hisoblanadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatiga katta ahamiyat berish va uni muntazam takomillashtirib borish zarur. Sifati past mahsulotdan xaridor qochadi, xaridorni ushlab turish va qaytadan jalb qilish oson emas. Xaridori bo‘lmagan mahsulotni ishlab chiqarish foyda olishni emas, balki zararni ko‘paytirishiga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning narxini qattiq nazorat qilish zarur. Sifati bir xil, ammo narxi arzon bo‘lgan mahsulot tez sotiladi. Shu tufayli muntazam ravishda bozorni o‘rganib borish zarur.

Tadbirkorlikda bozor iqtisodidan kelib chiqib, moddiy texnik bazani yangilab, takomillashtirib borish zarur.

Tadbirkor bir qator shaxsiy sifatlarga maqsadni aniq qo‘yish, tashabbuskor, tavakkalchi, mehnatsevar, halol, ishga ijodiy yondashadigan, yetarli axborotga ega bo‘lishi, mustaqil, iymonli, irodali, kurashchan, farovonlikka intiluvchan, intizomlilik kabi sifatlarga ega bo‘lishi tadbirkorlik faoliyatining garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2000 y, 5-6 son, 140-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida” O‘RQ-327-son qonuni.

3. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. – T.: Fan, 1998, 315 b.

4. Fitrat A. Oila yoki boshqarish tartiblari – T: Ma'naviyat, 1998. 80-81 b.

5. Yusuf Xos Xojib, Qutadg‘u bilig. – T.: Akademnashr. 2015, 556 b.

6. Temur Tuzuklari. – T.: G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 1991-yil.

Maxmatmurod SHOMIRZAYEV,
Termiz davlat universiteti
“Umumtexnika fanlari va texnologiya”
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

TEXNOLOGIYA TA’LIMIDA “KLASTER” METODIDAN FOYDALANISH STRATEGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalq hunarmandchiligida “Klaster” metodidan foydalanish strategiyasi kashtachilik misolida tushuntirib berilgan.

Kalit so‘zlar. Bezak, hunar, hunarmand, urf-odatlar, ustoz-shogird, bilim, ko‘nikma, malaka, texnologik xarita.

В данной статье объясняется использование кластерного метода в народных промыслах в качестве примера вышивки.

Ключевые слова. Декорация, ремесла, мастерство, обычаи, учитель-ученик, знания, умения, квалификация, технологическая карта.

This article explains the use of the cluster method in folk crafts as an example of embroidery.

Key words. Decoration, crafts, craftsmanship, customs, teacher-student, knowledge, skills, qualifications, technological map.

Yoshlarni o‘qitish, ularga ta’lim-tarbiya berish, kelajak uchun munosib kadrlar tayyorlash hamma vaqt ham har bir davlatning eng birinchi navbatdagi ishlaridan biri bo‘lib kelgan. Bizning mamlakatimizda ham bunday ishlar davlatimiz rahbarlarining doimiy ravishda diqqat markazida turibdi desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi – ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ta’lim tizimini takomillashtirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Davlatamiz rahbari har bir viloyatga tashrifi doirasida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda, turli uchrashuvlarda so‘zlangan ma’ruzalari va suhbatlarida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashash masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qarash zarurligini ta’kidlab kelmoqda.

Ta’kidlash joizki, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘quvchilarning yangi pedagogik, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini qay darajada egallaganligi bilan belgilanadi. Sharqda mashhur kishilarimiz kashtachilik san’atining istiqboliga nazar solib, bunday degan edi: “Shunday ijodiy ufq topish kerakki, unga intilgan sari yangi-yangi go‘zallik olami ochilsin, tabiatni aynan tasvirlash bu san’atning nihoyasi emas, agar kimki rasmdagi har bir chiziqqa jon bag‘ishlay olar ekan, u san’at kalitini egallagan bo‘ladi”.

Xalq milliy hunarmandchiligining yo‘nalishlari turli-tumanligi, sohalarining ko‘pligi uchun, faqatgina dars mashg‘ulotlarida ulardan mufassal foydalanish ko‘lami chegaralanib qoladi. Shuning uchun ham ahamiyati jihatidan dars mashg‘ulotlaridan kam bo‘lmagan o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarning ham o‘rni kattadir. Chunki, bunday mashg‘ulotlarga o‘quvchilarning qiziqishlari juda yuqori bo‘ladi. Mazkur mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar o‘zlarini erkin tutadi. Bir-birlariga nisbatan hurmat nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘ladilar.

Milliy qadriyatlarni umumiy o‘rta ta'lim maktablarida texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish sohalariga tayangan holda foydalanish yuqori samaralarni berdi. Buning uchun, ushbu soha zaruriy o‘quv uslubiy ta’minot, moddiy-texnika, materiallar va mutaxassis pedagoglar bilan mujassamlashtirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida texnologiya ta’limi mashg‘ulotlarida “klaster” metodidan foydalanishning quyidagi strategik vazifalarini belgilab oldik:

– o‘quvchilarda o‘qish va texnologiyaga bo‘lgan ongli munosabatni shakllantirish, uning aqliy va jismoniy rivojlanishini ta’minlash;

– o‘quvchilarda mehnatsevarlik, axloqiy, fuqarolik, tejamkorlik, ijodkorlik kabi insoniylik fazilatlarini tarbiyalash hamda ular faoliyatida texnologiyani doimiy ehtiyojga aylantirib borish;

– o‘quvchilarda umumtexnologik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, texnikaviy, texnologik, ishlab chiqarish va milliy hunarmandchilik sohalari bo‘yicha dunyoqarashlarini shakllantirish.

– o‘quvchilarning bilim va mehnatga bo‘lgan muhabbatini shakllantirish, mehnat ahllariga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– o‘quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, xaridorgir iste’mol mollari, raqobatbardosh mehnat mahsulotlari ishlab chiqarishga odatlantirish, tayyorlangan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish vositalarini o‘rgatish, ish boshqaruvchilik, homiylik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik fazilatlarini singdirib borish va rivojlantirish;

– texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish jarayoniga o‘zbek milliy hunarmandchiligi sohalarining kiritilishi orqali xalqning milliy ruhi, yashash turmush tarzlari, an’analarini, udumlarini, urf-odatlarini tiklash va rivojlantirish, milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, obidalar, xalq ustalarining boy meroslarini o‘rganish, o‘rgatish va ularni amaliy faoliyatlarda qo‘llash vazifalarini hal etish;

– texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish jarayonida axborot texnologiyalari va hisoblash texnikasi, zamonaviy texnologiya va jihozlarning qo‘llanilishi davr talablari darajasida va jahon tajribalariga mos holda o‘rgatilishini ta’minlash.

Texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirishni sifatli va samarali darajada amalga oshirishda maktablar, maktabdan tashqari qo‘shimcha tarbiyaviy muassasalar, oila, ishlab chiqarish korxonalari, ishbilarmon va tadbirkorlar uyushmalarining o‘rni beqiyos. Ushbu muassasalar xalq milliy hunarmandchiligi bilan o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlarining o‘rnatilishi va rivojlanishining ahamiyati yanada oshirilishi lozim.

Aynan shu o‘rinda kashtachilik san’ati nihoyatda og‘ir va mashaqqatli ijod yo‘li ekanligini, naqqosh ustalarning asrlar davomida chiziqli tilsimotni egallashga bo‘lgan ta’limotini O‘rta Osiyo xalqlarining xalq hunarmandchiligi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini o‘quvchilarga tushuntirish maqsadga muvofiq.

“Klaster” metodi o‘quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda xalq hunarmand

chiligiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Huddi shu metod vositasida kashtachilik san’atining asosiy mohiyatini o‘quvchi ongiga singdirish mumkin. Aynan shu metod orqali kashtachilik san’ati namoyondalarining hayoti va ijodi haqida ham tushuncha berish imkoniyati mavjud. Mazkur metod asosida ishlaganda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelmasligi uchun o‘quv va hujjatli filmlarni ko‘rish yaxshi natija beradi. “Kashtachilik san’ati” mashg‘ulotlarida bahs-munozara, o‘yin, musobaqa tashkil etish, viktorina, krossvord, chaynvord yechish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyatning hammasi “Klaster” metodida to‘g‘ri ishlashga sharoit yaratadi. “Klaster” metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta’lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarini bemalol bayon etishlari uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab qiladi.

“Klaster” metodi aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta’lim oluvchilar tomonidan puxta o‘zlashtirilgunga qadar fikrlash qobiliyatining bir me’yorda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. “Klaster” metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki sinf asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Sinf asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda ushbu metod sinf o‘quvchilari tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa sinfning har bir o‘quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni uyg‘unlashtiradi, ular o‘rtasidagi aloqalarni bog‘lanishi va topa olinishiga sharoit yaratadi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi jihatlarga e’tibor beriladi:

1. Mavzu bo‘yicha nimaiki o‘ylayotgan bo‘lsa, shu qog‘ozga yoziladi. Masalan, “Kashtachilik san’ati” fikrlar sifatga jiddiy e’tibor berilmagan holda davom ettiriladi.

2. Fikrlar uzoq-yaqinligi, o‘rnining almashinuviga qaramay, ular nihoyasiga yetmaguncha yozib boriladi.

3. Imkon qadar tushunchalar doirasida g‘oyalarni ilgari surish va ular o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘liqlikni ko‘rsatishga erishish orqali g‘oyalar yig‘indisiga ega bo‘lish uchun harakat qilinadi.

Yuqoridagilar mavzu mazmuni va mohiyatini ongli, chuqur anglab yetishga xizmat qiladi. Ta’kidlash joizki, umumta’lim maktablarida “Kashtachilik san'ati” o‘quv jarayonida ma’lum muvaffaqiyatlarga erishish uchun texnologik yondashuv sifatida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, bu holat o‘quvchilarning badiiy tafakkurini boyitish, ongli dunyoqarashini rivojlantirish va mustaqil ishlay olishini ta’minlashdagi zaruriyat bo‘lib, ularning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi. Eng muhimi, o‘quvchilarning dunyoni ongida idrok etishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lishi, kelajagini o‘zi mustaqil belgilab oladigan va zamon talabiga javob beradigan, bilimdon, zukko, barkamol avlod bo‘lib yetishishdek ulkan vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishga keng yo‘l ochadi.

Pedagogik texnologiyalarni “Xalq hunarmandchiligi”ni o‘qitish jarayoniga olib kirishda, eng avvalo, uning amaliyotdagi holati va nazariyasini o‘qib-o‘rganishni tashkil etishga alohida e’tibor berildi.

Pedagogik texnologiyalarni o‘rganish, kuzatish, nazorat qilish va uni xalq hunarmandchiligi o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazish, ularni tanlash, tahlil qilish mashg‘ulotlarning qiziqarli va mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi.

Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida texnologiya ta’limi tajriba-sinov mashg‘ulotlarini kuzatish va tahlillar natijasida dars mashg‘ulotlarini takomillashtirish uchun “klaster” metodidan foydalanishning quyidagi strategik omillari zarur ekanligi aniqlandi:

1. Texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlari mazmuni, asosan, qo‘l bilan bajariladigan amaliy ish harakatlariga yo‘naltirilmog‘i lozim. Bu hol, xalq hunarmandchiligida milliy kashtado‘zlikning turli xil mexanizatsiyalashtirilgan, elektrlashtirilgan, avtomatlashtirilgan

vositalar, qurilmalar, stanoklar bilan ta’minlanishidagi tansiqlikning, turli xil jarohatlanishlarning, materiallar tansiqligining va boshqa kutilmagan holatlarning oldini olishga yordam beradi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etilayotgan texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlari mazmunini tanlashda, xalq hunarmandchiligining tarixiy, milliy, mahalliy, mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu xususiyatlarni ta’minlashda xalq milliy hunarmandchiligi sohalari zarur bo‘lgan barcha pedagogik talablarni to‘liq ta’minlaydi.

3. Texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlari mazmunida xalq milliy hunarmandchiligining o‘rganilishi va o‘rgatilishi, ta’limning hayot bilan bog‘liqligi, ishlab chiqarishga yaqinligi, amaliyligi, moddiy-texnik ta’minotini tashkil etishning qulayligiga e’tibor bermoq lozim.

4. Xalq milliy hunarmandchiligi bo‘yicha turli mashg‘ulotlarni texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish negizida tashkil etish maqsadga muvofiq, chunki ularda qator umumlashtiruvchi xususiyatlar mavjud.

5. Xalq milliy hunarmandchiligi Sharq xalqlarining moddiy qadriyatlariga oid madaniyatning yorqin namunasi sifatida o‘rganishini psixologik, pedagogik, didaktik, uslubiy jihatlari alohida tahlilni talab qiladi.


6. Xalq milliy hunarmandchiligining texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish negizida o‘rganilishi, ushbu sohaning o‘quv-uslubiy jarayoni yangilanishini taqozo etadi. Shuning bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish konsepsiyasi va Davlat ta’lim standartini yaratish, o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish lozim. Shuningdek, yaratilgan yangi avlod darsliklarini mazmun va sifat jihatidan takomillashtirish, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar bilan boyitish, ushbu soha bo‘yicha didaktik va tarqatma materiallar yaratish hamda mashg‘ulotlarda ko‘rsatmalilikni tashkil etish zarur.

7. Xalq hunarmandchiligi milliy qadriyatlarning muhim yo‘nalishi sifatida ta’lim tizimida mukammal o‘rganilishida tarbiyaviylik, odob-axloqiylik imkoniyatlari yoritilib borilishi lozim.

8. Milliy qadriyatlarning ta’lim-tarbiya tizimida, xususan, o‘quvchilarni texnologiya va kasbga tayyorgarligini takomillashtirishda xalq hunarmandchiligi misolida o‘rganilishi kasbiy ta’lim tizimining milliylik, tarixiylik, mahalliylik, mintaqaviylik xususiyatlarini namoyon etilishi asosida qayta qurilishini taqozo etadi.

9. Xalq milliy hunarmandchiligini ta’lim-tarbiya tizimida yanada mukammal o‘rganishda





boshqa o‘quv fanlaridan unumli foydalanish imkoniyatlari chuqurroq qarab chiqilishi lozim. Masalan, shakllarning yanada diqqatga sazovor bo‘lishi, simmetriya qonunlari, unumli geometrik va stereometrik munosabatlar imkoniyatiga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

10. Ta’lim va tarbiyaning mantiqiy ketma-ketlik, izchilligiga to‘la erishishda fanlararo bog‘lanishdan foydalanish uchun texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirilishda o‘quv fanlarining imkoniyatlari hisobga olinishi lozim.

Demak, umumta’lim maktablarida amaliy va badiiy bezak san’atidan dars samaradorligini oshirish uchun real muhit yaratilishi kerak bo‘ladi. Boshqacha aytganda, kundalik olib borilayotgan mashg‘ulotlarni doimiy ravishda yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish orqali, amaliy san’atdan ko‘zda tutilgan aniq maqsadga erishish mumkin. Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta’lim-tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o‘quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qolaveradi. Shunga ko‘ra, hozirgi kundagi dolzarb masala, “Xalq hunarmandchiligi” o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

2. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. // Xalq so‘zi gazetasi., 2017-yil, 16-iyun.

4. Habibullo Solix. Ramziy bezaklar ma’nosi. –T.: O‘zbekiston, 2003. №3. – 32 b.

5. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Universitet, 2020, – 125 b.

Davron ISMOILOV,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti ‘‘Fizika*”* kafedrasi o‘qituvchisi

FIZIKA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada fizikadan ta’lim maqsadlarini amalga oshirish taksonomiyalarini o‘rganish natijasida talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga ilmiy tafakkurga xos xususiyatlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Taksonomiya, ilmiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash, didaktika, estetik idrok, dialektik-materialistik, kasbiy yo‘naltirish.

В данной статье показано формирование научного мировоззрения студентов в результате изучения таксономии реализации целью физического воспитания. В то же время отмечаются характерные особенности научного мышления.

Ключевые слова. Таксономия, научное мышление, научное мировоззрение, дидактика, эстетическое восприятие, диалектико-материалистическая, профессиональная ориентация.

This article shows the formation of the scientific worldview of students as a result of studying the taxonomy of the implementation of the goals of physical education. At the same time, the characteristic features of scientific thinking are noted.

Key words. Taxonomy, scientific thinking, scientific world view, didactics, aesthetic perception, dialectical-materialistic, professional orientation.

Fizika fanini o‘qitishda nima uchun o‘qitish, nimani o‘rgatish va qanday o‘qitish asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda o‘quv maqsadlariga mos keladigan o‘qitish usullari, vositalari va tashkiliy shakllarini to‘g‘ri tanlashimiz lozim bo‘ladi. O‘qitishning mazmuni, maqsadi, metodlari, shakllari va vositalari metodik tizimni tashkil qilib, bunda o‘quv maqsadlari yetakchi rol o‘ynaydigan pedagogik faoliyat strategiyasini belgilab beradi hamda ularning o‘zaro bog‘lanishida o‘qitish usullari, vositalari va shakllari o‘qitish texnologiyasini tashkil qiladi.

Didaktikada amerikalik olim B.S.Blum va uning hamkasblari ta’lim maqsadlarining taksonomiyasini ishlab chiqqan bo‘lib, kognitiv sohada ta’lim maqsadlarning 6 toifasini, ya’ni bilim (ma’lumot), tushunish (o‘zgartirish, sharhlash, ekstrapolyasiya), yangi vaziyatlarda umumiy tamoyillarni qo‘llash, tahlil qilish, sintez va baholashdan iborat.

Rus didakt olimi V.P.Bespalko tomonidan taklif etilgan taksonomiyada ta'lim maqsadlarining to‘rtta darajasini va shunga mos ravishda 4 bilim darajasini quyidagicha ajratib berilgan:

I daraja – obyektlar, xususiyatlar, voqelik hodisalarining ma’lum bir sohasidagi jarayonlar, ular to‘g‘risida ilgari olingan ma’lumotlarni yoki ular bilan qilingan harakatlarni qayta-qayta idrok etishda tanib olish (bilish, tanishish);

II daraja – ma'lumotni mustaqil ravishda takrorlash va qo'llash orqali reproduktiv harakatlar (bilimlar);

III daraja – ishlab chiqarish harakati (bilim-ko'nikma), muayyan obyektlar to'plamidagi model bo'yicha faoliyat, yangi harakatni amalga oshirish uchun algoritmdan foydalanish;

IV daraja – ijodiy harakatlar (bilimlarni o'zgartirish), mavjud bilimlardan foydalanish va ularni yangi vaziyatda harakatlarni amalga oshirish uchun o'zgartirish.

Fizika fanini o'qitish maqsadlarining asosiy taksonomiyasi sifatida polshalik olima P.Karpinchikning taksonomiyasi yuqorida muhokama qilingan taksonomiyalarni va fizika fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagicha darajalagan:

I daraja – Bilim. Xotirada saqlash va anglash bo'lib, fizikaviy hodisalarni, tajribalarni anglash, fizik kattaliklar va formulalardan foydalanish hamda fizik tushunchalarni eslab qolish, fizik qonuniyatlarni formallashtirish, amaliyotning nazariyadan ustuvorligini ta'minlash;

II daraja – Qobiliyat. Egallangan bilimlarni amaliyotda va muammoli vaziyatda qo'llash bo'lib, kuzatish, o'lchash, fizik qonunlar va fizikaviy nazariyalarni qo'llash, jadvallar, kataloglar, grafiklar, matematik belgilardan foydalanish. Muammoning yechimini topish, izohlash, umumlashtirish hamda muammolarni hal qilish uchun fizika fanining ilmiy usullarini (induksiya, deduksiya) qo'llash.

Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda rivojlanish va ta'lim maqsadlarini aniqlash talab qilinadi. Asosan, shaxsga yo'naltirilgan o'quv maqsadlarining to'rtta guruhi mavjud bo'lib, mavjud tajribani o'zlashtirish, shaxsning bilim qobiliyatini rivojlantirish, shaxsning umumiy tipologik xususiyatini shakllantirish, individual shaxs xususiyatlarini rivojlantirishdan iborat. Fizika fanini o'qitishda ushbu maqsadlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

Maqsad	**Fizika fanini o'qitishning aniq maqsadlari**
Mavjud tajribalarni shaxsiy assimilyatsiya qilish	Fizika asoslari haqida bilimlarni shakllantirish: tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, olamning yagona fizik manzarasi; Fizikada ilmiy bilish usullarini o'zlashtirish; Texnologiyaning ilmiy asoslari va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari haqida bilimlarni shakllantirish; Tajribaviy ko'nikmalarni shakllantirish, hodisalarni tushuntirish, ilmiy bilim muammolarini yechish; Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; Fizika fanini jamiyatdagi roli haqidagi tushunchaning shakllanishi, fizika taraqqiyotining boshqa fanlar rivojlanishi bilan aloqasi; Amaliy mashg'ulotlarga, kasbni tanlashga tayyorgarlik.
Shaxsning bilimi va qobiliyatini rivojlantirish	Idrok, xotira, nutq, tasavvur va tafakkurni rivojlantirish.
Shaxsning umumlashtirilgan tipologik xususiyatlarini shakllantirish	Mustaqil ishlashga o'rganish; Shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantirish; Dunyoni estetik idrok etish.
Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishi	Fizikaga qiziqishning rivojlanishi.

Asosiy vazifa fizikani o'qitishda kasbiy bilimlarni shakllantirish, kasbga yo'naltirib o'qitish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, talabalarning tafakkurini rivojlanti-

rish, ekologik, ta’lim, o‘quvchilarning o‘quv motivlarini shakllantirish kabi maqsadlar mavjud.

Fizika kursida o‘rganilishi kerak bo‘lgan fizikaviy bilimlar tarkibiga faktlar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, dunyoning yagona fizik manzarasi, fizika fanining usullari va fizikaviy qonunlarni texnikada qo‘llash kiradi. Asosiy materialning mazmuni, shuningdek, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari o‘quv yurtlari uchun fizika dasturi bilan belgilanadi. Umumiy holda o‘quv materialning darajasi Blum va Karpinchik taksonomiyasi bilan quyidagicha belgilanadi:

I daraja – yodlash;

II daraja – tushunish;

III daraja – bilimlarni tanish vaziyatda qo‘llash;

IV daraja – bilimlarni yangi vaziyatda qo‘llash.

Karyera yo‘nalishi talabalarni kasb tanlashga tayyorlash va ularga ushbu tanlovda yordam berish uchun maxsus tashkil etilgan ishdir.

Kasbiy yo‘naltirishning eng muhim tarkibiy qismlari sifatida talabalarni xalq xo‘jaligining tarmoqlari va asosiy ommaviy kasblar bilan tanishtirish, talabalarni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorgarlik ko‘rish uchun maqsadli tadbirlarni tashkil etish va talabalarga kasb tanlash va ishga joylashish bo‘yicha maslahat berishdan iborat bo‘ladi.

Jamiyatda esa kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olish va talabalarning qiziqishlarini hisobga olish zarurati mavjud. O‘rganish jarayonida dunyo bilan o‘zaro munosabatda inson ma’lum bir dunyoqarash tushunchasini o‘zi tanlaydi. O‘qituvchining roli bu tanlovni amalga oshirishga yordam berishdir.

Dunyoqarash shaxsiyat tuzilishining ajralmas qismidir. Bu dunyoga, odamning unga bo‘lgan o‘rni haqidagi umumiy qarashlar tizimiga, shuningdek, ma’lum bir dunyoqarashga mos keladigan qarashlar, e’tiqodlar, ideallar, prinsiplar tizimini o‘z ichiga oladi.

Dunyoqarashda tabiiy-ilmiy, ijtimoiy, gumanitar va epistemologik jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Fizika kursi dunyoqarashning tabiiy-ilmiy va epistemologik tomonlarini shakllantirish uchun mo‘ljallangan. Shunga ko‘ra, fizikani o‘qitishda dunyoqarashni shakllantirishning bir necha tarkibiy qismlarini (yo‘nalishlarini) ajratish mumkin:

1) Inson tomonidan tabiat uning idrokiga ega bo‘lgan umumlashtirilgan tizimni shakllantirish. Dialektik-materialistik yondashuvda dunyoqarash asosiga falsafiy umumlashtirishning uch guruhi kiradi: materiya va harakat g‘oyalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi, buzilmasligi; hodisalarni universal bog‘lash g‘oyalari, materiyaning harakatini boshqaruvchi dialektikaning ma’lum qonuniyatlari mavjudligi; barcha jihatlaridagi haqiqat kategoriyasi, bilish jarayoni qonunlari.

2) Tabiatni va uni bilish jarayonini dialektik-materialistik tushunishga mos keladigan qarashlar va e’tiqodlarni shakllantirish.

3) Talabalarning dialektik tafakkurini rivojlantirish (qarama-qarshiliklarning birligi va kurashuvchanligi).

Tafakkur inson bilishining eng yuqori bosqichida obyektiv voqelikni aks ettirish jarayoni bo‘lib, o‘qituvchi talabalarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish (taqqoslash, tahlil qilish, tasniflash, umumlashtirish qobiliyati) bilan shug‘ullanadi. Mantiqiy vizual-majoziy tafakkur – bu kognitiv fikrlashning tarkibiy qismlari bo‘lib, uning rivojlanishi fizikani o‘qitish uchun juda muhimdir, chunki uning arsenalida ko‘plab amaliy, mantiqiy va vizual o‘quv usullari mavjud bo‘ladi.

Biroq, fizikani o‘qitish jarayonida ilmiy-nazariy tafakkurni rivojlantirish bir xil darajada muhimdir. Ilmiy tafakkurga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar quyidagicha:

– obyekt va hodisalarni dialektik jihatdan qarama-qarshi xususiyatlarining bir vaqtning o‘zida mavjudligini va dialektik qarama-qarshiliklar bilan ishlash qobiliyati (nurning zarracha-to‘lqinli dualizmi, harakatning nisbiyligi);

– o‘zaro munosabatlarni, hodisalarni o‘zaro bog‘liqligini va bu munosabatlarni aniqlash va tahlil qilish qobiliyati;

– rivojlanayotgan obyektni anglash qobiliyati (yadro reaksiyalari, ideal gazning yopiq sikllari);

– ma’lum sharoitlarda bilimning o‘ziga xosligi va haqiqatni anglash qobiliyati (nisbiylik nazariyasi);

– sifat va miqdoriy o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash qobiliyati (moddaning birlashishi holati);

– ilmiy bilimlarni (jismoniy modellar) ishlab chiqishda inkorning namoyon bo‘lishini ko‘rish qobiliyati.

Xulosa o‘rinda shuni ta’kidlash mumkinki, didaktik imkoniyatlaridan foydalanib fizik jarayonlarini taksonomiyalar asosida o‘qitish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim jarayonida samarali natijalar beradi. Fizikadan mashg‘ulotlar jarayonini tashkil etishda ilmiy bilish va ilmiy tafakkurni shakllantirish orqali muammoli vaziyatlar hosil qilish, fanlararo integratsiyani ta’minlash talabalarda kasbiy ko‘nikmalarning rivojlanishi bilan birga ta’limda ekologik mazmun kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Tursunov S.Q. Ta’limda axborot texnologiyalari. Darslik. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019 -y

2. Байденко В.И. “Болонский процесс: результаты обучения и компетентностный подход”. – М.: Исследовательский центр проблем качеств подготовки специалистов. 2009. – С. 482-492.

3. Беспалько В. П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. – М.: НИИ школ. технологий при участии ред. Нар. образование, 2007. – № 2. – С.54-55

4. Tursunov Q.Sh., Toshpo‘latov Ch.X. Fizika ta’limi texnologiyasi. Metodik qo‘llanma. – Qarshi, Nasaf, 2012.

Ibroxim XATAMOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti,
“Matematika o‘qitish metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNING NOYEVKLID GEOMETRIK ELEMENTLAR HAQIDAGI TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada tekislikda noyevklid geometriyalarga tegishli bo‘lgan Galiley geometriyasining ta’rifi, geometriyadagi “masofa”ning amaliy ma’nosi va o‘ziga xos xususiyatlari tushuntirilgan. Yevklid va Galiley geometriyalaridagi aylanalar umumiy ta’rif bilan berilgan ikki xil geometrik obraz ekanini o‘quvchiga tushuntirish, matematikadagi “ta’rif” tushunchasining o‘rni va ro‘lini o‘quvchilarga o‘rgatish yo‘llari bilan o‘quvchilarning geometriya fanidan oladigan kompetensiyalarini takomillashtirish usuli keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Masofa, metrika, koordinatalar sistemasi, ta’rif, aksioma, teorema, aylana, markaz, radius, Yevklid geometriyasi, Galiley geometriyasi, noyevklid geometriya.

В статье объясняется определение геометрии Галилея, которая относится к неевклидовой геометрии на плоскости, практическое значение – “расстояния” в геометрии и его особенности. Приведен метод совершенствования геометрической компетенции учеников путём объяснения им, что окружности в Евклидовой и Галилеевой геометриях – это две разные геометрические образы с общим определением, а так же дать понятие о месте и роли в математике понятия “определение”.

Ключевые слова. Расстояние, метрика, система координат, определение, аксиома, теорема, окружность, центр, радиус, Евклидова геометрия, Галилейева геометрия, неевклидовая геометрия.

In this paper we give an explanation to the definition of Galilean geometry, which refers to non-Euclidean geometry on the plane. We discuss the practical meaning of the “distance” in geometry and its features. The method of improving the geometric competence of students by explaining to them that the circles in the Euclidean and Galilean geometries is two different geometric images with a common definition. As well as we give a concept about the importance and role of the concept of “definition” in mathematical science.

Key words. The distance, metric, the coordinate system, definition, axiom, theorems, circle, center, radius, Euclidean geometry, Galilean geometry, non-Euclidean geometry.

Noyevklid geomteriya atamasi so‘zsiz Lobachevskiy geometriyasi paydo bo‘lishi va uning ilm ahli tomonidan tan olinishi bilan bog‘liq. Lobachevskiy geometriyasi bu Yevklid geometriyasidagi V-postulot, ya’ni parallel to‘g‘ri chiziq haqidagi aksioma bilan bog‘liq holda bayon etiladigan, chuqur mantiqiy asoslangan noyevklid geometriya – Yevklid geometriyasidan boshqa geometriyadir.

Bu geometriya tekislikda “Galiley geometriyasi” deb nomlanadi. Biz shu geometriyaning asosiy tushunchalari va ularni o‘rta ta’limning yuqori sinflarida, fakultativ kurs, yoki to‘garak mashg‘ulotlari shaklida foydalanish usuli haqida so‘z yuritamiz.

Galiley geometriyasi.

Galiley geometriyasi ta'rifini keltirishdan avval, maktab geometriya kursida o'rganiladigan va bu geometriyaning asosini tashkil qilgan tushunchalar bilan tanishamiz.

Geometriya fanining boshlanishida asosiy tushunchalar "nuqta" va "to'g'ri chiziq" bilan tanishganmiz. Tushunchalar qanoatlantirishi zarur bo'lgan aksiomalar tizimini o'rganganmiz. Shuningdek, asosiy tushunchalardan foydalanib nur, burchak tushunchalariga ta'rif berganmiz. Yevklid geometriyasiga oid barcha tushunchalar, hattoki, parallellik aksiomasi ham Galiley geometriyasida o'zgarishsiz qoladi.

Galiley geometriyasidagi "masofa" tekislikda o'rnatilgan koordinatalar sistemasidan foydalanib, nuqta koordinatalariga bog'liq kattalik shaklida aniqlangan. Demak, maktab o'quv dasturida tekislikda koordinatalar sistemasi mavzusigacha bo'lgan, masofa (o'lchov) bilan bog'liq bo'lmagan tushunchalar Galiley tekisligi geometriyasi uchun ham o'rinlidir.

Tekislikda Oxy – koordinatalar sistemasi o'rnatilgan bo'lib, $A(x_1,y_1)$ va $B(x_2,y_2)$ nuqtalar berilgan bo'lsin. Galiley geometriyasida bu ikki nuqta orasidagi masofa – $\rho(A,B)$ quyidagicha aniqlanadi:

$$\rho(A,B) = |x_2 - x_1|, \quad x_1 \neq x_2$$

Agar $x_1 = x_2$ bo'lsa,

$$\rho(A,B) = |y_2 - y_1|.$$

Keltirilgan bu masofaning geometrik ma'nosi, AB – kesma uzunligi, uning Ox – o'qidagi proyeksiyasiga teng. Agar bu proyeksiya uzunligi nolga teng bo'lsa, nuqtalar Oy – o'qiga parallel to'g'ri chiziqda yotadi va ular orasidagi masofa shu to'g'ri chiziq kesmasi uzunligiga teng.

Yuqoridagi keltirilgan – maqolada bu aniqlangan masofa ushbu:

$$\begin{cases} x' = x + a \\ y' = hx + y + b \end{cases}$$

tekislikni o'zini-o'ziga akslantirishda o'zgarmas ekanligi isbot qilingan. Natijada, geometriya fanining Terston – tomonidan berilgan ta'rifini qanoatlantiruvchi "masofa" va akslantirish berilgan. Hosil bo'lgan geometriya, tekislikda "Galiley geometriyasi" deb nomlangan.

Demak, Galiley geometriyasi tekislikdagi Yevklid geometriyasidan boshqacha bo'lganligi uchun noyevklid geometriyalar sinfiga kiradi.

Galiley geometriyasi birinchi noyevklid geometriyalardan bo'lgan Lobachevskiy geometriyasidan ancha sodda va o'quvchilar uchun tushuntirish oson, murakkab mantiqiy mulohazalar bilan bog'liq bo'lmagan noyevklid geometriyadir.

Masofa va uning xossalari.

Umuman aytganda galiley geometriyasining Yevklid geometriyasidan asosiy farqi, ikki nuqta orasidagi masofani o'ziga xos usulda aniqlanishidadir. Biz masofa atamasining matematik ta'rifi bilan tanishsak.

Masofa – ikki A va B nuqtaga mos qo'yiluvchi $\rho(A,B)$ – kattalik bo'lib, matematik ma'noda ikki nuqtaning funksiyasi deb atash mumkin.

Terston tomonidan berilgan ta'rifda "masofa" funksiyasidan $\rho(A,B) = \rho(B,A)$ sharti bajarilishi talab qilingan. Shu o'rinda Yevklid geometriyasida masofa tushuncha-

si, matematik ma’nodagi metrika tushunchasi bilan ekvivalent ekanligini eslatib o‘tamiz.

Ma’lumki, metrika ikki nuqta funksiyasi sifatida ushbu shartlarni qanoatlantirishi kerak:

1) $\rho(A,B) \geq 0$,

2) $\rho(A,B) = \rho(B,A)$,

3) $\rho(A,B) \leq \rho(A,C) + \rho(C,B)$.

Masofadan esa, bu shartlardan faqat 2-shart bajarilishi talab etiladi. Bu esa Galiley geometriyasidagi masofa, Yevklid geometriyasidagi masofaning metrika tushunchasidan farq qiladi.

Ma’lumki, geografik kartalarda shaharlar nuqtalar bilan belgilanadi. Masalan, Toshkent shahri T bilan, Samarqand shahri S bilan belgilangan bo‘lsin. Umuman aytganda, shaharlar to‘plamini X – deb belgilasak, X – to‘plamdagi nuqtalar orasidagi masofa – shaharlar orasidagi masofani bildiradi. Masalan, Toshkent shahridan Samarqand shahrigacha masofa $\rho(T,S)$ – shaklida belgilanadi.

Biz $\rho(T,S)$ – ning qiymatini “Toshkentdan Samarqandgacha qancha” degan savolning javobiga teng deb hisoblaylik. Qo‘yilgan savol hayotda ko‘p uchraydigan muomala so‘zlari, ammo matematik ma’noda aniq emas. Shunga qaramay bu savolga qanday javob bo‘lishi mumkin ekanini taxmin qilamiz:

1-variant. Toshkentdan Samarqandgacha 280 km,


2-variant. Toshkentdan Samarqandgacha 3 soat,

3-variant. Toshkentdan Samarqandgacha 80 000 so‘m.

Keltirilgan har bir variant $\rho(T,S)$ funksiya qiymati bo‘lishi mumkin va bu kattaliklar uchun $\rho(T,S) = \rho(S,T)$ sharti bajariladi.

Bu misol yordamida geometriyadagi ikki nuqta orasidagi masofa tushunchasi hayotiy ma’nodagi yoki Yevklid planimetriyasidagi ikki nuqta orasidagi masofa tushunchasidan tubdan farq qilishini o‘quvchiga tushuntirish mumkin. Shu nuqtayi nazardan Galiley geometriyasida kiritilgan “masofa”ni aniq hayotiy o‘xshashini ko‘rsatish uchun quyidagi talqindan foydalanish mumkin.

Masala. Biz to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakatlanayotgan bir necha texnika vositalarga bog‘liq bir jarayonni o‘rganayotgan bo‘laylik. Bunda biz tekislikda Dekart koordinatalar sistemasidan foydalanamiz. Koordinatalar sistemasining absissalar o‘qida o‘rganilayotgan vaqtni ifoda etaylik, ordinatalar o‘qida esa texnikaning qanday masofada ekanini belgilaylik. (1-rasm). Bunda $A(t_0,S_0)$ – A texnikaning t_0 – vaqtda yo‘lning S_0 – kilometrida ekanini bildiradi.



1-rasm


Agar A – texnika harakatlanayotgan bo‘lsa, t – vaqtning o‘zgarishi S – yo‘lning o‘zgarishini beradi va $S = f(t)$ – funksiya A – texnika harakat qonunini ifoda etadi.

Endi biz ikki A va B texnika harakati bilan bog‘liq jarayonni o‘rganayotgan bo‘lsak, bu Oxy – tekisligida ikki nuqta harakatidan paydo bo‘ladigan chiziqni, ya’ni harakat qonuniyatini beradi. (2-rasm).

Bunda Galiley geometriyasidagi ikki nuqta orasidagi masofa

$$\rho(A,B) = |t_2 - t_1|$$

harakatlanayotgan texnikaning harakatlanish vaqti orasidagi farqni beradi.



2-rasm

Agar texnikalar bir xil vaqtda harakatlanayotgan bo‘lsa, $A(t_1,S_1), C(t_1,S_2)$,

$$\rho(A,C) = |S_2 - S_1|$$

bo‘ladi. Bu yo‘lda bir vaqtda harakatlanayotgan texnikalarning yo‘lda joylashgan o‘rinlari orasidagi masofa uzunligini beradi.

O‘quvchilar bilan masofaga bog‘liq turli masalalar tuzish va uning hayotiy ma’nosini aniqlash, ularda “masofa” tushunchasini yangicha to‘laroq anglash imkonini yaratadi. Bu borada – manbalarda keltirilgan masalalarni to‘garak yoki fakultativ mashg‘ulotlarda o‘rganib chiqishni tavsiya etamiz.

Ta’rif mukammalligi.

Maktab geometriya fanining boshqa fanlardan asosiy farqi, uning sistematik ravishda aniq, matematik mantiq asosida qurilishidadir. O‘quvchilar birinchi marta “aksioma”, “ta’rif”, “teorema” – kabi tushunchalar bilan tanishadilar. Bu tushunchalarning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini o‘quvchilar bilishi va mantiqiy ketma-ketlikning qancha bir-biriga bog‘liq ekanligini his etishi uzoq cho‘ziladigan murakkab jarayondir.

Xususan, ta’rifning mukammal bo‘lishi fanning mantiqiy qurilishida o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanini o‘quvchilarga tushuntirishda noyevklid geometriya elementlaridan foydalanish, bu jarayonni tezlashtirish va takomillashtirish imkonini beradi.

O‘quvchilarda ta’rif va undan foydalanib kompetentligini shakllantirishda Galiley geometriyasi tushunchalaridan foydalanish masalani hal qilishni osonlashtiradi.

Elementar geometriyada birinchilar qatorida beriladigan aylana ta’rifidan foydalanish va bu ta’rifga mos keluvchi Galiley geometriyasida nuqtalarning geometrik o‘rnini o‘rganish o‘quvchilarda aylana ta’rifini bilish, uni qanoatlantiruvchi nuqtalarning geometrik o‘rnini tasavvur qilish hamda ta’rif tarkibidagi har bir so‘zning ma’nosi katta ahamiyatga ega bo‘lishi haqidagi bilimini chuqurlashtirish imkonini beradi.

Ta’rif: Tekislikda berilgan nuqtadan teng masofada yotgan nuqtalarning geometrik o‘rniga aylana deb ataladi.

Berilgan nuqta aylana markazi va masofa esa aylana radiusi deb ataladi.

Bu ta’rifni qanoatlantiruvchi nuqtalarning geometrik o‘rni bo‘lgan aylana bilan maktab geometriya fanining 7-sinfidayoq tanishilgan. Koordinatalar sistemasi kiritilganda esa bu ta’rif mos nuqtalar koordinatalari $(x-a)^2 + (y-b)^2 = r^2$ tenglikni qanoatlantirishi ko‘rsatilgan. Bu tenglikda (a,b) – aylana markazi koordinatalari, r – aylana radiusi va (x,y) – aylanada yotuvchi nuqtalarning koordinatalaridir.

Endi Galiley geometriyasida yuqorida keltirilgan ta’rifni qanoatlantiruvchi shartni topaylik.


Agar biror $A(x,y)$ – nuqta va markaz $O(a,b)$ – orasidagi masofani Galiley geometriyasida hisoblasak, $OA = |x-a|$, yoki $OA^2 = (x-a)^2$ tenglikni hosil

qilamiz.

Xususan, markaz $O(0,0)$ – koordinatalar boshida va radius r – bo‘lganda, Galiley geometriyasidagi aylana nuqtalari koordinatalari qanoatlantiruvchi tenglik – aylana tenglamasi $x^2 = r^2$ bo‘ladi, yoki $x = \pm r$.

Bu tenglikni qanoatlantiruvchi nuqtalarning geometrik o‘rni esa $B_1(-r,0)$ va $B_2(r,0)$ nuqtalardan o‘tuvchi va Oy koordinatalar o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziqlar bo‘ladi. (3-rasm).

Demak, Galiley geometriyasida aylana Oy – o‘qiga parallel ikki to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘lar ekan.



3-rasm

Tabiiyki bu “aylana” o‘quvchilarda hosil bo‘lgan Yevklid ma’nosidagi aylana tasavvuri bilan hech bir umumiylikka ega emas. Umuman boshqacha yangi, tushuncha va tasavvur hosil qiladi.

Bunga sabab, aylana ta’rifida qatnashgan masofa atamasining Galiley geometriyasidagi ma’nosidadir. Demak, ta’rifda qatnashayotgan bir tushunchaning o‘zgarishi o‘quvchi uchun umuman tasavvur qilish imkoni qiyin bo‘lgan, bir-biri bilan ta’rifdan boshqa umumiyligi yo‘q ikki xil geometrik obrazlarni bir ma’noda qabul qilishdek qiyin vazifani yuklaydi.

Ikkala geometriya haqidagi tasavvurga ega bo‘lish va ularning har biriga xos tushunchalarni farqlay olish o‘quvchida geometriya fani imkoniyatlari va undagi ta’rifning ahamiyatini baholash ko‘nikmasini hosil qiladi.

Shu maqsadda biz Galiley geometriyasiga oid bo‘lgan o‘zbek tilidagi manbalar haqida ma’lumotlarni keltirdik. Bu adabiyotlardan foydalangan holda, o‘rta maktabda to‘garak, fakultativ darslar tashkil qilish mumkin hamda pedagog xodimlar malakasini oshirish kurslarida maxsus kurs sifatida foydalanish, geometriya fanining o‘ziga xos go‘zalligi bilan tanishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Artiqboyev. Qadimiy fanga zamonaviy nazar. – T.: “Fizika, matematika va informatika” jurnali, 2004 y. 3-son.

2. O. B. Berdiyeva. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda noyevklid geometriya elementlarini tushuntirish usullari. – T.: “Zamonaviy ta’lim” jurnali, 2017-yil 4-son. 68-72 b.

3. А. В. Хачатурян. Геометрия Галилея. – М.: Библиотека “Матиматическое просвещение”, 2005.

4. I. Xatamov, Sh. Fayzullayev. Lobachevskiy tekisligining giperboloid ustidagi talqini. – T.: “Fizika, matematika va informatika” jurnali, 2019-yil 1-son. 81-87 b.

5. A. A’zamov, B. Haydarov, E. Sariqov. Geometriya, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017. 10-42 b.

Nasiba SOBIROVA,
Mirzo Ulug‘bek tumanidagi
71 A-tarmoq maktabi o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIKTEXNOLOGIYALARNILOYIHALASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada davlat va huquq asoslari darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish, umumta’lim maktablarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan davlat va huquq asoslari fanida qo‘llash, foydalanish jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Huquq asoslari, darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, loyihalashtirish, samarador, texnologik xarita.

В статье раскрыты аспекты проектирования современных педагогических технологий на уроках основы государства и права, применения и использования инновационных педагогических технологий в общеобразовательных школах.

Ключевые слова. Основы права, современные педагогические технологии, проектирование, эффективность, технологическая карта.

The article describes the design of modern pedagogical technologies, application and use of innovative pedagogical technologies in secondary schools in the subject of state and law fundamentals in the lessons of state and law.

Key words. Fundamentals of law, modern pedagogical technologies in lessons, design, efficient, technological map.

Ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Chunki yangiliklardan xabardor bo‘lgan shaxslar islohotlar jarayonida, bunyodkorlik ishlarida, davlat va jamiyat boshqaruvida ongli ravishda ishtirok eta oladi. Umumta’lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanida ma’naviy meroslarimizdan, interfaol usullardan foydalanish – darslarda o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal qilish, fikrni erkin bayon etishga, tashabuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Shu bois, o‘rganilayotgan mavzu doirasida davlat tushunchasini o‘rgatish barobarida o‘quvchilarda daxldorlik hissini rivojlantirishdir.

Interfaollik o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlarida sodir bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi: o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishidir. U o‘zini intellektual salohiyatini namoyon etadi va o‘quv sifati va samaradorligini oshirishni ta’minlaydi. Shu sababdan quyidagi vazifalar belgilangan:

– mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganib chiqish;
– to‘plangan ma’lumotlarni umumlashtirish;
– mavzuga oid interfaol metodlarni tanlab olish;
– interfaol darslarni tashkil qilishda o‘quv jarayonida yakka tartibda va juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o‘yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalangan holda bilim berish.

Hozirgi paytda pedagogik, ta’lim, o‘qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta’lim muammolariga oid ma’ruzalar, rasmiy hujjatlarda “yangi pedagogik texnologiya”, “ilg‘or pedagogik texnologiya”, “zamonaviy ta’lim texnologiyasi”ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan.

Pedagogik texnologiya – shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta’lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, o‘quvchi va talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimi shakllantiriladi.

Ma’lumotlilik asosida yotuvchi bosh g‘oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechgan, sabr-bardoshli, qanoatli, o‘zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishni ko‘zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qaysidir darajada ta’limni texnologiyalashtirish bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirishda qo‘laniladi. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
– ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
– ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
– ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
– ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
– amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

– ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri ychimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Huquq fanlarida interfaol ta’lim metodlaridan quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Bliz-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b.

2. Interfaol ta’lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “Yumaloqlangan qor” va hokazo. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Interfaol ta’lim metodlarini ko‘pincha turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo‘llanmoqda. Bu metodlarni qo‘llash mashg‘ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Huquq darslarini o‘tishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanishni dars samaradorligini ortishda ahamiyati katta. Jumladan, quyidagi bir nechta interfaol metodlarni keltirib o‘tish mumkin:

“Mini-leksiya” 1-variant

Mini-leksiya zamonaviy ta’limning effektiv usullaridan biri hisoblanadi. Amal qilish mexanizmi quyidagicha: o‘qituvchi 10-20 minut ichida ma’ruza o‘qiydi. O‘quvchilar diqqat bilan quloq solishadi. Ma’ruza o‘qib bo‘lganidan so‘ng, o‘qituvchi o‘quvchilarga 3-5 minut vaqt berib ma’ruzaning asosiy mazmunini tezis shaklida konspekt qilishga imkon beradi. Konspekt tuzish jarayonida o‘quvchilar noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida o‘qituvchiga yoki bir-birlariga savollar berishlari mumkin.

“Mini-leksiya”

Bu usul yuqorida ko‘rsatilgan strategiyaning boshqacha usuli hisoblanadi. Mazmuni quyidagicha:

10-20 minut davomida o‘qituvchi ma’ruzani o‘qiydi. O‘quvchilar diqqat bilan quloq solib, qisqa konspekt yozib borishadi. Ma’ruza tugagandan keyin o‘qituvchi o‘quvchilarga 3-5 minut vaqt beradi va bu vaqt ichida o‘quvchilar, juftliklarga bo‘linib, bir-biri bilan konspektlarini almashib, o‘qib chiqishadi va mulohazalari bilan o‘rtoqlashadi. Noaniqliklar, xatolar tuzatiladi. O‘qituvchiga ham savol berishlari mumkin.

Jadallashtirilgan ma’ruza

Ma’ruza jarayonida o‘qituvchi ma’ruzaning an’anaviy shaklini o‘quvchilarni faol o‘qitish va tanqidiy fikrlashga qiziqtirish uchun o‘zgartiradi. Natijada jadallashtirilgan

ma’ruzaning shakli vujudga keladi.

Tayyorgarlik bosqichi (chaqiriq). O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishida tinglovchilar fikrini jamlab o‘tiladigan materialga to‘playdigan topshiriq beradi. 3-5 daqiqa davomida mavzu bo‘yicha o‘quvchilarga oldindan ma’lum bo‘lgan bilimlarni tahlil qilib, ularni ro‘yxat ko‘rinishida yozishni taklif qiladi. Muddat o‘tgandan keyin o‘qituvchi o‘quvchilardan o‘z g‘oyalari bilan o‘rtoqlashishni so‘raydi va ularni ixcham shaklda doskaga yozib chiqadi. O‘quvchilar yordamida to‘plangan g‘oyalarni kategoriyalarga bo‘lish mumkin. Shundan so‘ng, o‘qituvchi 10-20 daqiqa davomida ma’ruzaning birinchi qismini o‘qiydi (anglash). Ma’ruzaning birinchi qismidan keyin, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zlarining g‘oyalarini ma’ruzadan eshitganlari bilan taqqoslashni so‘raydi (fikrlash).

Keyingi tayyorgarlik faoliyati (chaqiriq). Endi o‘qituvchi o‘quvchilarga juftlikda ishlab, ularning oldingi bilimlarini aniqlash va bu bilan ma’ruzaning keyingi qismini eshitish maqsadini belgilovchi qisqa topshiriqlar beradi. Ma’ruzaning davomi – anglash va fikrlashni o‘z ichiga olgan sikl (qaytarish).

Yakuniy topshiriq (fikrlash). Bu topshiriq turli shakllarda berilishi mumkin. Masalan: 10 daqiqali esse; 5 daqiqali esse; ma’ruzada keltirilgan eng muhim jihatlarga tegishli ochiq savolga javob berishlarini so‘rash.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muassasalaridagi kasbiy ta’lim jarayoni o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq tashkil etiladigan ko‘p qirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to‘plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o‘quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi.

O‘quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o‘zlashtirishda o‘zlarining shaxsiy hissasini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zaro bilimlar, g‘oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo‘ladi. Bunday holatlar o‘zaro samimiylikni ta’minlaydi, yangi bilimlar olish, o‘zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro do‘stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta. Demak, interfaol darslarni tashkil qilishda o‘quv jarayonida yakka tartibda va juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o‘yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618 son farmoni

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2016-yil 7-dekabr) 2017- y

3. Ganiyeva M., Fayzullaev D., Ne’matov I. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to‘plami.– T.: Iqtisodiyot, 2013.

4. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – T.: Ilm-Ziyo, 2012. 12 b.

Murod EGAMNAZAROV,
Jizzax davlat pedagogika instituti
*“*Defektologiya*”* kafedrasi o‘qituvchisi

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalalari o‘z ifodasini topgan. Unda tayyorlanayotgan kadrlarning so‘zlashuv madaniyatini rivojlantirish, muloqot qilish malakalarini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish, uni ijodiy tashkil etish aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar. Kommunikativ qobiliyat, shaxs, o‘qitish texnologiyalari, rivojlantirish, muloqot qilish malakasi, shakllantirish, ta’lim jarayoni, ta’lim mazmuni.

Статья посвящена развитию культуры общения будуших специалистов, обучающихся по направлению бакалавриата: “Педагогика и психология”, развитию коммуникативных навыков будущих специалистов, которая фокусируется на персонализации процесса обучения, его творческой организации, а также модернизации и интеграции содержания обучения.

Ключевые слова. Личность, развитие коммуникативных способностей, технологии обучения, развитие, коммуникативные навыки, формирование, учебный процесс, учебный контент.

The article is devoted to the development of a communication culture through the use of personality-oriented teaching technologies and the development of communication skills of future specialists, which focuses on personalizing the learning process, its creative organization, as well as modernizing and integrating the content of training.

Key words. Personality, learning technologies, development, communication skills, formation, educational process, educational content, modernization, integration.

Jahonda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali sifatli ta’lim muhitini shakllantirish, innovatsion metodlar, interaktiv dasturiy vositalar, refleksiv texnologiyalardan foydalanish usullari va ularning samaradorligiga oid salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarning asosiy vazifalari qatorida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali sifatli ta’lim muhitini takomillashtirish, kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlash sifatini oshirish, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va fan xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu metodikalarni takomillashtirish masalalari muhim o‘rin egallaydi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda ta’lim jarayonida ta’lim sifatini tubdan o‘zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali sifatli ta’lim muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga zamin yaratildi, tahsil oluvchilarning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, interfaol ta’limni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘l ochildi.

Bo‘lajak mutaxassisning kommunikativ qobiliyati – tevarak-atrofdagilar bilan muloqatga kirishuvchanlik, shirinsuxanlik, to‘g‘ri muomala qila bilish, tahsil oluvchilar qalbiga yo‘l topib, ularga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan samarali o‘zaro munosabat o‘rnata bilishdir. O‘qituvchi nutqidagi ravonlik, o‘z fikrini aniq ifoda etish o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. Darsda o‘qituvchi nutqi hamisha talabalarga qaratilgan bo‘ladi. Fikrlar ifodasi talabalar uchun aniq, sodda, ravon, tushunarli bo‘lishi lozim. O‘qituvchining bayoni talabalar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O‘qituvchi talabalarni faollashtirish va diqqatini jamlash maqsadida muayyan so‘z va iboralar qo‘llaydi. O‘qituvchi uzundan-uzun jumlalar, murakkab so‘z birikmalari, qiyin, tumtoq iboralarni qo‘llashdan qochishi kerak. O‘rinli yumor, hazil-mutoyiba, yengilgina istehzo nutqni jonlantiradi, bu nutqni talabalar yaxshi qabul qiladilar.

“O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, emotsional-obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his-hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir maromdagi cho‘ziq, zeriktiradigan nutq talabalarni tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib, fanga bo‘lgan qiziqishi so‘nadi”. Talabaga uzatilayotgan axborotni yaxshi qabul qilishi uchun o‘rtacha, jonli nutqi samarali natija beradi. O‘qituvchi nutqi hamisha o‘zining ichki kuchi, ishonchi, o‘zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turishi lozim. Pedagogik nazokat va kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lmagan o‘qituvchi tahsil oluvchilar qalbiga yo‘l topishi o‘ta mushkuldir.

Adabiyotlar va tadqiqotlar tahlili mamlakatimizda til o‘rganishga alohida e’tibor qaratilayotganligini ko‘rsatadi. Zero, ta’lim jarayoni uning har bir bosqichida yangilangan mohiyatni, innovatsion mazmunni yoshlar tafakkuriga singdirishi va ularni raqobatbardosh qilib jamiyatga yetishtirib berishi taqozo qilinadi.

Talabalarda ingliz tilidagi hissiy-ekspressiv nutqni mnemonik baza asosida tezkor o‘stirish didaktik parametr, psixologik va ilmiy-metodik asoslarga ega bo‘lib, intellektual rivojlangan raqobatbardosh barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bo‘lajak mutaxassis hodisalar haqida aniq-ravshan ma’lumot beradi. O‘zining leksikasi bilan tinglovchining xulqiga, hissiyotiga ta’sir etadi. Buning uchun esa ularda tillardagi normalarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Nutq – og‘zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demak. Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni anglatadigan so‘zlar og‘zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi.

Nutq: yozma va og‘zaki nutq, o‘z navbatida, og‘zaki nutq: dialogik va monologik turlarga ajratiladi. Yozma nutq fanda foydalaniladigan murakkab umumlashmalarni rivojlantirishda, badiiy timsollarni yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq madaniyati nazariyasida til normasi markaziy tushunchadir. “Til madaniyatning asosiy tekshirish obyekti adabiy til normalari, asosiy vazifasi esa ushbu normada-

gi ikkilanishlarni bartaraf etish bo‘lmog‘i kerak”.

Til normasi tushunchasi murakkab muammolardan bo‘lib, ko‘p o‘lchovli, ko‘p rejali, ya’ni obyektiv-tarixiy, madaniy-sotsiologik va sof lingvistik hodisadir. Til normalarining muhimligi haqida rus tilshunosi L.I.Skvorsov obrazli qilib shunday deydi: – “Ijtimoiy madaniy hayotda til normalari bir mash’aldirki, nutq faoliyatining qirg‘oqsiz okeanida til kollektivi unga qarab intiladi, tayanadi”.

O‘zbek mutafakkir shoirlari nutq ma’nosida “nutq”, “til”, “so‘z” atamalarini ishlatganlar. Bulardan eng ko‘p uchraydigani “so‘z” atamasidir. Bu so‘z vaziyatga qarab til, so‘z, nutq o‘rnida qo‘llangan. Navoiy she’rida “nutq” so‘zini fikrni ifodalovchi matn ma’nosida ishlatgan:

Har kimsaki nutqi farovon bo‘lmas,
Til ranjiga qilmoqligi imkon bo‘lmas.

“Tilni azob chekib o‘rganmagan kishining nutqi ravon bo‘lmaydi”. Inson nutqi bulbulga qiyoslanadi. Bu bulbulni sayratadigan narsa so‘zdir. So‘z bo‘lmasa bulbul sayramay qo‘yadi.

“Gulshane keldi jismi insoniy,
Nutq oning bulbuli xush ilhoni.
Bo‘lmasa so‘z, ajab balo bo‘lg‘ay,
Bulbuli nutq benavo bo‘lg‘ay.
–“So‘z” atamasi – “nutq” ma’nosida:
Ham so‘z ila elga o‘limdan najot,
Ham so‘z ila topib o‘lik tan hayot”.
(Navoiy)

So‘z gavhari noyobdur, uni til (nutq) izhor qiladi. Agar nutq gavhar (mazmun) bilan to‘la bo‘lmasa, chiroyli husndan foyda yo‘q. Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta o‘rganish, uning lug‘aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so‘zlashni o‘rganish, nutqning ichki (mazmun) va tashqi (shakl) ko‘rinishiga birday e’tibor berish, go‘zal va ta’sirchan nutqni tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq hamda o‘rinli ishlatish vazifalarini qo‘yadilar va ularning ijrosini tahlil etadilar. Demak, pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish uchun ularda nutqning hissiy bo‘lishiga ham e'tibor qaratish lozim bo‘ladi. Chunki bo‘lajak pedagog va psixologlar nutqining aloqaviy fazilati hisoblangan aniqlik, to‘g‘rilik so‘zning lug‘aviy ravonligi bo‘lajak mutaxassisning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Nutqning mantiqiyligi so‘z ma’nolarining ma’no va mazmuniy bog‘lanishlariga asoslanadi. Nutqning soflik, ifodaviylik, o‘rinlilik kabi aloqaviy fazilatlari ham pedagog va psixologlarning nutqiy madaniyatidan dalolat beradi. Nutq hamma vaqt mantiq va ruhshunoslikka suyanadi. Logikaga murojaat qilmasdan turib aniqlik va mantiqiylikni tayinlash ham, baholash ham mumkin emas.

“Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalarida kommunikativ ko‘nikmalar hosil qilinganligi ularning ifodalay oladigan bilim elementlari miqdori bilan tavsiflandi va ushbu mezonni baholash ko‘rsatkichi sifatida talaba tomonidan o‘zlashtirilgan bilim elementlarining o‘quv materiali:

a) darslik va majmualarda mavjud bo‘lgan bilim elementlari sifatida qabul qilindi;

b) o‘zlashtirilgan bilimlarning tizimliligida namoyon bo‘ldi.

Bu ko‘rsatkich talabalar tomonidan bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va munosabatlarni tushunish hamda shu asosda umumlashtiruvchi o‘quv topshiriqlarini bajara olishi bilan belgilandi. Bu mezon baholash ko‘rsatkichi sifatida talabalar tomonidan bilimlar doirasidagi aniqlangan bog‘liqlik va munosabatlar miqdorining o‘quv materialida mavjud bo‘lgan bog‘liqlik va munosabatlar miqdorini belgiladi; c) o‘zlashtirilgan bilimlarning qo‘llay olishi ko‘rsatkichi o‘zlashtirilgan bilimlarning nostandart vazifalar (o‘quv topshiriqlari)ni hal qilishda qo‘llanish darajasi bilan belgilandi. Bu mezon talabaning bergan nostandart javoblar sonining nazorat topshirig‘ida talab qilingan miqdorga nisbatan belgilandi.

Demak, bugungi kunda talabalarda kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish uchun ularda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish uchun ularni mahsuldor faoliyatga jalb qilish, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish, oldin olgan bilim va tajribalarini tizimli qo‘llashga o‘rgatish, tadqiq qilinayotgan muammolarga o‘z fikrini bildirish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1992. – 46 b.

2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

Po‘lat MAXSUDOV,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti dotsenti,
texnika fanlari nomzodi

PROFESSIONAL TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Professional ta’lim muassasalarining kasb ta’limi o‘qituvchisi va ustalarining asosiy vazifasi bo‘lajak kichik mutaxassis (ishchi) larni kasbiy (nazariy va amaliy) o‘qitish hisoblanadi. Maqola kasb ta’limi ustalari metodik faoliyatining o‘ziga xos jihatlariga bag‘ishlangan. Respublikamizda kasb ta’limi ustalarini tayyorlash holati to‘g‘risida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Professional ta’lim, kasb ta’limi o‘qituvchisi, kasb ta’limi ustasi, pedagogik tayyorgarlik, kasbiy mahorat, industrial pedagogika texnikumi, metodik faoliyat.

Основной задачей преподавателей и мастеров профессионального образования является профессиональное (теоретическое и практическое) обучение будущих младших специалистов (рабочих). Статья посвящена особенностям мастера профессионального обучения. Высказаны мнения в отношении современного состояния подготовки мастеров производственного обучения в Республике.

Ключевые слова. Профессиональное образование, преподователь профессионального обучения, мастер профессионального обучения, педагогическая подготовка, профессиональное мастерство, индустриально-педагогический техникум, методическая деятельность.

The main task of teachers and masters of vocational education is professional (theoretical and practical) training of future junior specialists (workers). Views were expressed on the current state of training of masters of industrial education in the Republic.

Key words. Vocational education, teacher of vocational training, master of vocational training, pedagogical training, professional skill, industrial-pedagogical college, methodical activity.

O‘zbekiston Respublikasida yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish o‘rta maxsus kasb hunar ta’limi tizimining amaldagi mezonlarini qaytadan ko‘rib chiqish va uni modernizatsiyalashni taqozo etdi. O‘rta maxsus kasb hunar ta’limining amaldagi tuzilishi va tashkil etilishi shaxs, jamiyat, mehnat bozorining zamonaviy talablari bilan kelishmovchiliklarga uchradi, ta’lim shaxsdan uzilib qoldi va ijtimoiy ahamiyatli muammolar ishlab chiqarishni, iqtisodiyotni, ijtimoiy taraqqiyotni orqaga tortdi.

Xalq xo‘jaligidagi bunday holat o‘z navbatida o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlarida ham bozor talablariga mos yuqori malakali kichik mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘ydi. Bugungi davr ishchisi o‘z kasbi bo‘yicha chuqur bilimli, yuqori malakali, yuksak

mahoratli, zamon talablarining o‘zgarishlariga moslashuvchan, o‘zining kasbi bo‘yicha innovatsion o‘zgarishlarga intiluvchan bo‘lishligi talab etiladi.

Respublikamiz professional ta’lim tizimi muassasalari oldiga malakali bo‘lajak ishchilarni tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish, bo‘yicha yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Yangi turdagi professional ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarga o‘zlari tanlagan kasblari bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalar berish oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik tayyorlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Kasb ta’limi o‘qituvchi va ustasining asosiy vazifasi professional ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarni o‘z sohalari bo‘yicha kasbiy o‘qitish hisoblanadi.

O‘quvchilarning o‘z kasblarini har tomonlama chuqur egallashga erishishlari professional ta’lim muassasalaridagi kasb ta’limi o‘qituvchilari, ayniqsa, kasb ta’limi ustalarining pedagogik tayyorligi va kasbiy mahoratlariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Aynan kasb ta’limi ustasi o‘quvchilarga ularning bo‘lajak kasblari sir-asrori bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashlarida bevosita yordam beradi. Shu sababli kasb ta’limi ustasiga kasbga o‘rgatuvchi o‘qituvchi sifatida u o‘rgatayotgan sohaning mohir ustasi bo‘lishligi katta ahamiyatga ega. Kasb ta’limi ustasi faoliyati o‘quvchilarning undan o‘zlari egallayotgan hunarlariga oid haqiqiy bilimlarni olayotganlariklarini qalbdan his qilganlaridagina samarali bo‘ladi. Bunday haqiqiy bilimlarni faqat shu hunarni yuksak kasbiy mahorat darajasida egallagan, ishlab chiqarish va hayotiy tajribalarga ega bo‘lgan kasb ta’limi ustasi bera oladi. Demak, kasb ta’limi o‘qituvchi (usta)lari kasbiy fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishlari, pedagogik-psixologik bilimlarni egallagan bo‘lishlari bilan birga o‘zlarining ham o‘rgatayotgan kasbning mohir ustalari bo‘lishlari talab etiladi.

Kasb ta’limi ustasining metodik faoliyati nazariy ta’lim sohasida faoliyat olib boruvchi kasb ta’limi o‘qituvchisiga nisbatan bir qator tavsifli jihatlarga ega. Metodik faoliyatning bunday o‘ziga xos jihatlari professional ta’lim muassasalaridagi amaliy ta’lim mazmuni va tuzilishining, shuningdek, mehnat jarayoni tuzilishi va mazmunining o‘ziga xos jihatlari bilan belgilanadi.

Masalan, professional ta’lim muassasalarida “3130200 – Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” yo‘nalishi bo‘yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashda faoliyat olib boradigan 5111000 – Kasb ta’limi (5630100 – qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash) yo‘nalishini tugatgan kasb ta’limi o‘qituvchi (usta)sining metodik faoliyatini o‘ziga xos jihatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

– o‘quv-ishlab chiqarish ustaxona, laboratoriya, o‘quv poligoni, korxona sexi va boshqalarda o‘quvchilarning ishchi o‘rinlarini tashkil etish;

– u yoki bu o‘quv-ishlab chiqarish topshiriqlari yoki muayyan ish turini bajarishdagi xatti-harakat, usul va metodlarni bilish va qo‘llash;

– amaliy ta’lim mobaynida yoki ish kunida ish vaqti va dam olishning almashinuvini ta’minlaydigan faoliyat sharoiti, mehnat va dam olish tartiblarini o‘ziga xos jihatlarini bilish va qo‘llash;

– zaruriy sanitar-gigiyenik talablar, texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalarini bilish va qo‘llash;

– o‘quvchilarning yoshini hisobga olib o‘rnatilgan mehnat me’yorlarida nazariy ta’limni amaliy bilan maqbullikda almashinuvini bilish va qo‘llash;

– o‘quv va o‘quv-ishlab chiqarish mehnatini rag‘batlantirish;

– o‘quv, o‘quv-ishlab chiqarish va mustaqil mehnat intizomini qaror toptirish.

Amaliy ta’lim sohasida kasb ta’limi ustasi loyihalash faoliyatining o‘ziga xos jihatlari yana shundaki, uning ta’limiy faoliyati o‘quvchilarni muayyan malakaviy daraja (toifa) orqali ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga erishish uchun shart-sharoitlar yaratishga yo‘nalgan bo‘lishligi lozim. Ularning shakllanish texnologiyasini rejalashtirilgan ishlab chiqarish va mehnat topshiriqlarini hisobga olgan holda tanlash kerak bo‘ladi.

Amaliy ta’limni loyihalash jarayonida quyidagi: maqsadli (didaktik va tarbiyaviy); mazmuniy (tuzilmaviy) va tashkiliy-metodik aspektlarni hisobga olish lozim bo‘ladi.

Maqsadli aspektning vazifasi o‘quv reja va dastur talablari bilan o‘quvchilarni tayyorlash darajasi (bilim va ko‘nikma)ning mos kelishligi mezonlari va ularning muvaffaqiyati me’yorlarini aniqlashtirishdan iborat. Tasdiqlanadigan me’yor va mezonlar aniq shakllangan hamda o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi lozim. Tarbiyaviy aspektda axloqiy me’yorlar va holatlar, ularni o‘zaro aloqadorlikda ishlaydigan bo‘lishligi, o‘quv materiali mazmuni, ularni ijobiy baholash uchun imkoniyati va boshqalar zarur bo‘ladi.

Mazmuniy (tuzilmaviy) aspekt bevosita maqsadli aspekt bilan bog‘langan. Uning o‘ziga xos jihati shundaki, u har bir o‘quvchi uchun maqbul topshiriqlarni tanlash, o‘quv materialini tuzish; mos keladigan mashqlarni ajratish, o‘quv-ishlab chiqarish ro‘yxatini ishlab chiqishga yo‘nalgan.

Tashkiliy-metodik (texnologik) aspekt. Uning amaliy ta’lim sohasidagi o‘ziga xos jihati mashq va topshiriqlarni loyihalash, joriy mashg‘ulot yoki yangi o‘quv yiliga moddiy-texnik baza (dastgoh, jihoz, asbob, birlamchi materiallar, o‘quv-texnologik hujjat), frontal va individual o‘qitishni loyihalash, yozma yo‘riqnomani qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq.

Demak, kasb ta’limi ustalarini tayyorlash kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashdan unga xos metodik faoliyatning, asosan, amaliy faoliyatga yo‘nalganliligi bilan mazmunan farq qiladi. Kasb ta’limi ustalari o‘quvchilarga ular egallashi lozim bo‘lgan kasbga xos xatti-harakatlar, usullarni eng qulay yo‘llar bilan o‘rgatish bo‘yicha amaliy faoliyat olib boradilar. Bizningcha, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarining 5111000 – Kasb ta’limi (sohalar bo‘yicha) bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha amaldagi o‘quv rejalari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablarning bajarilishini yetarlicha ta’minlay olmaydi. Shu sababli kelgusida professional ta’lim muassasalarida amaliy ta’lim bo‘yicha faoliyat olib boradigan kasb ta’limi ustalarini tayyorlashni hozirgi kundagi mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh ishchilarni tayyorlashga qo‘yilayotgan talablar asosida modernizatsiyalash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5808-qarori. 6 sentabr, 2019-y.

2. Maxsudov P.M. Kasbiy pedagogik faoliyatning nazariy asoslari. Jurnal “Mug‘allimlik hem uzliksiz bilimlendirio” Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Nukus, №2, 2020-y. 29-32 b.

3.Косырев В.П. Методическая подготовка инженеров-педагогов: Монография.– М.: Изд-во ОНТИ ПНЦ РАН, 1998.

Javlon ISHTAYEV,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya sport universiteti dotsenti

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA PORTLOVCHI HARAKATQOBILIYATNIRIVOJLANTIRISHGAYANGICHA YONDASHISH

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning portlovchi harakat qobiliyatini rivojlantirishning yangicha yondashish metodologiyasi keltirilgan. Muallif ta’lim tizimida maktab o‘quvchilarining portlovchi harakat qobiliyatini o‘lchash va rivojlantirish uchun yaratilgan “SPORK” moslamasida tekshirishlar olib borish natijasida portlovchi harakat qobiliyatini rivojlantirish, o‘quvchilarning davlat dasturidagi “Alpomish va Barchinoy” me’yorlarini bajarishga ijobiy ta’sir etishini isbotlagan.

Kalit so‘zlar. ”SPORK”, ko‘rsatma, qobiliyat, psixomotorika, moslama, portlovchi harakatlar, rivojlanish, sifat, sakrash, mashq.

В статъе приводится новая методология по развитию у учащихся способности к взрывным действиям. Автор на основе проведённых исследований доказали, что развитие способности к взрывном действиям с использованием нового устройства “СПОРК” положительно влияет на выполнение школниками нормативов “Алпомиш и Барчиной”, определенного госстандартом.

Ключевые слова. “СПОРК”, установка, способности, психомоторика, устройство, взрывные действия, развитие, качество, прыжки, упражнение.

In article the new methodology on development in pupils of ability to explosive actions is resulted. Author on the basis of the spent researches have proved, that ability development to explosive to actions with use of new device “SPORK” positively influences performance by schoolboys of specifications “Alpomish and Barchinoy”, defined by Gosstandart.

Key words. “SPORK”, installation, abilities, psychomotor, the device, explosive actions, development, quality, jumps, exercise.

Respublikamizda sportning barcha turlariga katta e’tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa, yakkakurash sport turlarida yurtimiz sportchilari jahon reytinglarida o‘z o‘rinlarini mustahkamlab bormoqdalar. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasida bir qator yangi qonun va qarorlar joriy etilmoqda. Jumladan, 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 118-sonli “O‘zbekiston Respublikasida 2019-2023-yillarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyun, PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”-gi qarori asosida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga, aholi, ayniqsa, yoshlarning

jismoniy tarbiya va sport bilan tizimli shug‘ullanishlari hamda jismoniy tarbiya va sport natijalarini yanada rivojlantirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz jismoniy tarbiya va sport sohasidagi nutqlari, ma’ruza va asarlarida ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi va ta’lim olishda, yoshlarni ma’naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashni kuchaytirishga katta e’tibor bermoqda. O‘quvchilarni jismoniy jihatdan rivojlantirish va davlat standartlarini, “Alpomish va Barchinoy” me’yorlarini muvaffaqiyatli topshirishda yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ko‘p normativlar tezkor kuchning mukammal rivojlanganligini talab etadi. Shuning uchun yoshlarning portlovchi harakat qobiliyatini oshirish o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligini inobatga olgan holda qobiliyatga alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

Qobiliyat – bu murakkab sintetik birikma bo‘lib, u o‘z ichiga bir qancha ma’lumotlarni oladi. Qobiliyat faoliyat talabiga ko‘ra paydo bo‘ladi va ushbu faoliyatning qobiliyati bo‘lib, faoliyat jarayonida shakllanadi. Har bir shaxs o‘z qobiliyati bilan farqlanib turadi. Bu farq tug‘ma mahsulot emas, balki, shaxsni umuman rivojlanish natijasidir. Qobiliyatlar rivojlanishi natijasida mustahkamlanib shaxsning xislatiga aylanadi. Insonda ma’lum bir qobiliyat bo‘lsa bu uning ma’lum faoliyatga yaroqliligini belgilaydi, qobiliyat o‘z ichiga har xil xislatlarni qamrab oladi.

Qobiliyatni miyada hosil bo‘ladigan tizimi olimlarni qiziqtirgan hamda ushbu muammoni fiziologlar, biologlar, mediklar o‘rganishgan. Miya nerv hujayralari funksiyasiga ega ekanligi ushbu birikmani funksional tizimi deb ataladi.

Zamonaviy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shu narsa aniq namoyon bo‘ldiki, qobiliyat, avvalo, bosh miyada hosil bo‘ladi. Bunday faoliyat natijasida yangi birikmalar neyronlar orasida paydo bo‘lib, ma’lum bir funksional tizimni vujudga keltiradi. Ushbu funksional tizim bajarilayotgan faoliyatga taalluqli psixik funksiyani yaratadi va ushbu psixik funksiyalar faoliyatni egallash rolini osonlashtiradi. Har xil sportni egallash ushbu sportga taalluqli qobiliyatni hosil qilish asosida muvaffaqqiyatli o‘tib boradi.

Shundan kelib chiqqan holda sportchini portlovchi kuchini muvaffaqqiyatli rivojlantirish uchun sportchilarda harakatga oid bo‘lgan qobiliyatni rivojlantirish zarur. Buni biz “Portlovchi harakat qobiliyati” deb nomladik. Portlovchi harakat qobiliyati umumiy nuqtayi nazarda aytilganda, u harakat orqali, ya’ni mashqlanish natijasida vujudga keladi. S.L.Rubinshteynning ta’rifi bo‘yicha: “Mashqlanish bu qilinayotgan mashqni mexanik tarzda qaytarish emas balki, har bir qaytarish natijasida harakatga yangi struktura elementlarini kiritib, uni takomillashtirishdir”. Bunda natijaning o‘sishi bajarilayotgan harakatni o‘quvchi qanchalik ongli ravishda boshqarishi ijobiy ahamiyat kasb etadi. Muallif O.A. Konopkin o‘zining tadqiqotlarida sensomotorikaning natijasini o‘sishida ongli boshqarishning ahamiyatini ko‘rsatib bergan. Ushbu mexanizmda maqsad qo‘yish va unga ko‘ra harakatni dasturlash, qayta natija olish, korreksiya qilish natijaning o‘sishini keskinlashtiradi. Ana shu talablarga ko‘ra, biz o‘quvchilarda portlovchi harakat qobiliyatni rivojlantirish uchun Z.G.Gapparov, J.M.Ishtayev yaratgan “SPORK” moslamasidan foydalanildi.[1]

Sport psixologiyasi doirasida qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot uslublari yoki shunga muvofiq test sinovlari o‘ziga xos afzalliklardan iborat bo‘lib, shaxsning ma’lum bir

[1] Gapparov Z.G., Ishtaev J.M. “SPORK” sportchining portlovchan kuchini yangicha o‘lchash uskunasi. // J. Fan-sportga, №4, 2011, b.37-39.; Gapparov Z.G., Ishtaev J.M. Harakatga ruhiy shaylanishni mashqlantiruvchi “SPORK” trenajori yordamida belbog‘li kurashchilarga xos portlovchi kuchni rivojlantirish imkoniyati va uni bellashuv faolligiga ta'siri. // J. Fan-sportga, №2, 2012;b.37-41.

psixologik funksiyasini o‘rganishda ularning mutanosiblik, ishonchlilik va informatsion qiymatlarini e’tiborga olish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.[2] Shu bilan bir qatorda yangi muammolar, ilmiy g‘oya va nazariy farazlar yuzaga kelishi tufayli ushbu uslub va testlar borgan sari takomillashtirilib borilishi tabiiy holdir.

Tadqiqotning tashkil etilishi. Dastlabki tajribada Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi 59-sonli maktabining 5-“A” sinfidan 36 nafar hamda 5-“B” sinfidan 33 nafar o‘quvchilar qatnashdi. Tadqiqotni natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot ikki yarim oy davomida olib borildi. “SPORK” moslamasida mashqlanish haftasiga ikki marta jismoniy tarbiya darsi vaqtida o‘tkazildi. Har bir darsda o‘quvchilar 5 martadan sakrashgan. Jadvalda “SPORK” moslamasi hamda “Alpomish va Barchinoy” test me’yorlari aks ettirilgan. Tadqiqot guruhining ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan dastlabki tajriba natijalari past bo‘lgan. Eksperiment yakunida esa ushbu ko‘rsatkichlar aksincha ko‘rinishga ega bo‘ldi. Ya’ni, tajriba olib borilgan guruhning natijalari nazorat guruhiga nisbatan samaradorligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Tajriba (5-“A” sinf) va nazorat (5-“B” sinf) guruhi o‘quvchilarining pedagogik eksperiment davomida “Alpomish va Barchinoy” normativlari bo‘yicha ko‘rsatgan natijalari o‘zgarish dinamikasini qiyosiy tahlili

Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)						
Guruh	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		t_{st}	P
	$\overline{X}$	α	$\overline{X}$	α		
Nazorat guruhi	135	22,97	140,79	17,76	1,20	>0,01
Tajriba guruhi	129,17	16,4	148,67	14,24	5,39	<0,001
30 soniya davomida arqonda sakrashlar soni (marta)						
Nazorat guruhi	54,15	18	60,97	13,99	1,79	>0,01
Tajriba guruhi	56,5	11,01	67,5	4,46	5,56	<0,001
Yugurib kelib balandlikka sakrash (sm.)						
Nazorat guruhi	69,85	8,33	72,24	6,01	1,40	>0,01
Tajriba guruhi	65	12,25	78,83	15,30	4,23	<0,001
Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm.)						
Nazorat guruhi	230,5	45,24	252,67	37,80	2,24	>0,01
Tajriba guruhi	226,67	25,03	266,81	23,38	7,04	<0,001

“Alpomish va Barchinoy” normativlari bo‘yicha olingan barcha “Turgan joydan uzunlikka sakrash”, “30 soniya davomida arqonda sakrashlar soni”, “Yugurib kelib balandlikka sakrash” va “Yugurib kelib uzunlikka sakrash” mashqlar natijalari pedagogik tajriba avvalidagiga nisbatan tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlar o‘sganligini ta’kidlash lozim. Shu bilan birga, mazkur o‘zgarishlarning ishonchlilik darajasini baholash maqsadida nazariy hisoblangan talaba kritik mezonlari va ularni jadval qiymatlari bilan solishtirish faqat tajriba guruhi o‘quvchilari ko‘rsatkichlari P<0,001 darajada ishonchli (t_{st}= 4,23 va undan katta) o‘zgarganligini ko‘rsatdi. Nazorat guruhi o‘quvchilari esa barcha mashqlar bo‘yicha P>0,01 darajada ishonchsiz (t_{st}= 2,24 va undan kichik) o‘zgarishlarga erishganlar.

[2] Бурлачук Л.Ф.,“Психодиагностика” //Учебник ЗАО Издательский дом “Питер”, 2005. – 264б.; Марищук В.Л., Блудов Ю.М., Плахтиенко В.А., Серова Л.К. “Методики психодиагностики в спорте”// Учебное пособие. – М. Просвещение 1990; 256 б.; Романова Е.С., “Психодиагностика” //Учеб пособие ООО “Питер Пресс” 2009.

Yuqoridagi jadvalda maktab o‘quvchilarining portlovchi harakat qobiliyatini uch oy davomida rivojlantirish orqali “Alpomish va Barchinoy” me’yorlarini topshirishda effektli ta’sir etganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, portlovchi harakat qobiliyatni rivojlantirishda aniq maqsad qo‘yilishi va qayta ma’lumotga ega bo‘lishi ushbu faoliyatni egallash vaqtini qisqartirar ekan.

“SPORK” moslamasida mashqlanish o‘quvchilarni ikki oyoqda qanchalik balandga sakrashini o‘stirish orqali ularda portlovchi harakat qobiliyatini shakllantirilsa, nafaqat jismoniy tarbiya darslaridagi me’yorlarni samarali topshirishga, balki tezkor kuch talab etadigan sport turlarini egallashga ham zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida bolalarning sog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga hamda ular o‘rtasidagi vertikal sakrash raqobatini kuchaytiradi. O‘quvchilarda yoshlik chog‘idan ushbu qobiliyat rivojlantirilsa katta sportga yoki yuqori sport mahoratiga erishishi osonlashadi.

Olib borilgan ilmiy tajribada yangi yaratilgan “SPORK” moslamasining effektivligi bilan birga portlovchi harakat qobiliyati maxsus moslama bilan rivojlantirilsa, maktab o‘quvchilarida “Alpomish va Barchinoy” testlarini topshirishga ijobiy ta’sir etishi tajribada isbotlandi.

Shuni nazarda tutib, keyinchalik ushbu moslamani maktablarga tarqatilsa va dasturda berilgan balandlikka sakrash mashqlarining o‘rniga ushbu metodologiya qo‘llanilsa, bolalarda portlovchi harakat qobiliyati rivojlanishi kuzatiladi. Bu qobiliyat mustahkamlanib, o‘quvchi ongida o‘chib ketmaydi va yangi jismoniy mashqlarni egallashni osonlashtiradi.

Bolalar portlovchi harakat qobiliyatini shakllantirish nafaqat jismoniy tarbiya dasturini o‘zlashtirishga, balki muayyan sport turlarini egallashga ijobiy ta’sir etadi. “SPORK” moslamasida sakrash nafaqat jismoniy tarbiya davlat standartlarini muvaffaqqiyatli topshirish bilan cheklanib qolmay, balki musobaqalashuv vositasi sifatida ham qo‘llash mumkin. Chunki “SPORK”da musobaqalashish jarayonida o‘quvchilar mutlaq jarohat olmaydi. Musobaqalashuv sharoiti bolalarning portlovchi harakat qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Bu esa portlovchi harakat qobiliyatni ommaviy tarzda rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бурлачук. Л.Ф.,“Психодиагностика” //Учебник ЗАО Издательский дом “Питер”, 2005 С. – 264

2. Gapparov Z.G., Ishtayev J.M. “SPORK” sportchining portlovchan kuchini yangicha o‘lchash uskunasi. // J. Fan-sportga, №4, 2011, –37-39 b.

3. Z.G.Gapparov, J.M.Ishtayev. Harakat guruhiy shaylanishni mashqlantiruvchi “SPORK” trenajori yordamida belbog‘li kurashchilarga xos portlovchi kuchni rivojlantirish imkoniyati va uni bellashuv faolligiga ta’siri. – J. Fan-sportga, №2, 2012; –37-41 b.

4. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. “Питер”, 2009 – С.76-77.

5. Марищук В.Л., Блудов Ю.М., Плахтиенко В.А., Серова Л.К. “Методики психодиагностики в спорте” //Учебное пособие. – М. Просвещение 1990 С. –256

Hamidulla G'OFUROV,
Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TARIXI VA TARAQQIYOTINING RIVOJLANISH JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada Qo'qon xonligidagi ta'lim tizimining ahvoli, ta'lim-tarbiya masalalari, ta'lim tizimini rivojlantirish uchun xonlik tomonidan amalga oshirilgan ishlar va ularning amaliy natijalari, ta'lim maskanlarining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, ularni faoliyatini tashkil etish va olib borishdagi moddiy va moliyaviy masalalar hamda ularning o'ziga xos jihatlari, xonlik davrida ta'lim sohasida mavjud muammolar va ularning yechimi bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Milliy maorif, ta'lim muassasalari, maktab, xususiy maktab, maktab, ilk maktabga tayyorlov, an'anaviy ta'lim.

В статье изложены положения образовательной системы Кокандского ханства, вопросы образования и воспитания, проводимая ханством работа по развитию системы образования и их практические результаты, роль образовательных учреждений в развитии общества, материальные и финансовые вопросы в организации и ведении их деятельности и их особенности, проблемы, существовавшие в сфере образования в период ханства, и их пути решения.

Ключевые слова. Национальное образование, образовательные учреждения, школа, частная школа, подготовка к первой школе, традиционное образование.

This article includes information about the condition of educational system in Kokand Khanate, issues of education and upbringing, activities, conducted by the Khanate for the development of the educational system and its practical results, role of the educational establishments in the development of society, material and financial issues in organization and maintaining of its activity, its features, problems of the educational system in the period of the Khanate, and their solutions.

Key words. National education, educational institutions, private school, school, first school preparation, traditional education.

O'zbekiston mustaqilligi qo'lga kiritilgunga qadar, Qo'qon xonligi hududida shakllangan ta'lim tizimining barcha ko'rinishlari sovet davri tarixchilari tomonidan noxolis talqin etib kelindi. Ilgarigi ijtimoiy-iqtisodiy davrida olimlari tomonidan o'lkada qaror topgan madaniyat, ta'lim tizimi, ilm-fan va milliy qadriyatlarni o'rganish davomida ularni diniy aqidalarga bog'lab, islom dini zamirida qaror topgan ta'lim muassasalarining mahalliy xalq hayotida tutgan o'rni va ahamiyatiga noxolisona baho berib, ularning tub mazmun-mohiyatini ochib berilmadi.[1] Shu bilan birga, o'lkada shakllangan ta'lim muassasalari faoliyatini tanqidiy o'rgandilar.[2] Bu esa

[1] Qori Niyoziy T.N. Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar. – T.: O'Z SSRFA, 1956. 514 b.

[2] Мўминов И.М. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане.

o‘z navbatida, o‘lkada qaror topgan uzoq tarixga ega bo‘lgan, an’anaviy ta’lim muassasalarining asta-sekinlik bilan o‘z ahamiyati va qadr-qimmatini yo‘qotishiga olib keldi.

Ko‘pgina mamlakatlarda bo‘lgani kabi, Qo‘qon xonligida qaror topgan ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlari mavjud. Xonlikdagi mavjud milliy maorif tizimining shakllanishi va rivojlanishi o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Jumladan, xonlik hududida ko‘plab madrasalar, maktablar, qorixonalar, daloyilxona, dabiriston va ilk maktabga qadar tayyorlov vazifasini bajaruvchi masjidlar qoshidagi maktablar ko‘plab faoliyat yuritgan.

Qo‘qon xonligi XVIII asr boshlarida qaror topgan bo‘lsada, bu yerda vujudga kelgan mahalliy an’anaviy ta’lim tizimining ildizi ko‘p asrlik tarixga ega sanaladi.[3] Jumladan, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari qatori, Qo‘qon xonligida shakllangan ta’lim-tarbiya ham bevosita islom dini va madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababdan u yerda XIX asr boshlarida vujudga kelgan ilmiy, madaniy-adabiy muhitning shakllanishi va rivojlanishida[4] xonlikdagi boshlang‘ich ta’lim muassasalari va madrasalarning o‘rni benihoya kattadir. Ushbu ilm o‘choqlari mahalliy xalqni ilmli, ma’rifatli, ma’naviyatli qilish, shu jumladan, an’anaviy ta’limni yuksaltirishda muhim rol o‘ynagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qo‘qon xonligidagi mahalliy aholining bola tarbiyasi borasidagi an’analarini kuzatgan E.S.Vulfson quyidagi fikrlarni bildirgan: “Mahalliy aholi bola 4 yoshdan o‘tib gapirishni boshlaganda, uning kamolot tarbiyasi bilan shug‘ullanishga kirishgan. Bu paytda asosan diniy tushunchalar, salomlashish odobi o‘rgatilgan. Qizlarga esa erta turmushga chiqishi bois 8-9 yoshga yetmay uy-ro‘zg‘or ishlarini o‘rgatishni boshlaganlar.[5]” Rossiyalik tadqiqotchi R.Rahimovning fikricha, O‘rta Osiyoda mavjud musulmon maktablari ikki xil ko‘rinishda faoliyat ko‘rsatgan. Bularning birinchisi statsianar, ya’ni masjidlar qoshidagi, ikkinchisi ko‘chib yuruvchi, ya’ni ko‘chmanchi aholi orasida keng tarqalgan boshlang‘ich maktablar.[6] Bundan tashqari masjidlar qoshida alohida ta’lim muassasalari ham faoliyat olib borgan. Ushbu ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya ishlari alohida maxsus ajratilgan hujralarda olib borilgan. Bunday ta’lim muassasalari XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligining o‘zida 350 dan ortig‘ini tashkil etgan.[7] Musulmon olamidagi ilk maktablari XI asrda Bog‘dod shahridagi jome masjidlar qoshida tashkil etilgan bo‘lib, ularda islom dini va ta’limoti to‘g‘risida munozaralar olib borilgan. Shu sababdan ham “maktab” so‘zining lug‘aviy ma’nosi arabchadan tarjima qilganda “yozish joyi” degan ma’noni anglatadi. Bundan ko‘rinadigi Markaziy Osiyo va unga qo‘shni o‘lkalarda boshlang‘ich ta’lim berishga mo‘ljallangan ko‘plab maktab va maktabga tayyorlov vazifasini bajaruvchi ta’lim-tarbiya maskanlar samarali faoliyat olib borganligini ko‘rish mumkin.

XIX asrda o‘lkada faoliyat olib borgan maktablardagi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishi va olib borilishi hamda faoliyat turiga qarab ikki xil ko‘rinishda bo‘lgan.[8] Ulardan birinchisi quyi maktablar bo‘lib, ular asosan masjidlar qoshida faoliyat yuritgan.

Конца XIX и начало XX вв. – Т.: Узгосиздат, 1957. – С.215.

[3] Islomov.Sh.Sh. XIX asrning oxirlarida Turkistonda xalq maorifi tarixida. // O‘zbekiston ijtmoiy fanlar. T.,1974 – 50 b.

[4] Бобабеков Х.Н. История Коканда. – Т.: 2011. – С.210.

[5] Alixojiyev M.O. Qo‘qon xonligida ta’lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o‘rni. – T., 2013. – 26-27 b.

[6] Рахимов Р. Традиционное начальное школьное обучение детей у народов Средней Азии (конц XIX– начало XX вв) // Сборник Музей антропологии и этнографии. –Л., 1989. Вқп. 43.– С.109-132.

[7] Voxidov Sh. Qo‘qon xonligida tarixnavislik. –T.: Akademik nashr, 2010. – 109 b.

[8] Alixojiev M.O. Qo‘qon xonligida ta’lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o‘rni. – T.: 2013. 27 b.

Ikkinchisi esa yuqori maktablar hisoblanib, ular faqat shahar va katta qishloqlarda faoliyat olib borgan. Ularning tashkiliy faoliyat turiga qarab jamoat, xususiy, shahar va qishloq maktablariga bo‘lingan. Xususiy maktablarda odatda asosan o‘ziga to‘q oila farzandlari ta’lim olishgan. Bunday ta’lim maskanlarida ilm oluvchi bolalar soni 4-5 nafarni tashkil etgan.[9] Shu bilan birga, oddiy xalq farzandalari ta’lim olishlari uchun mo‘ljallangan alohida ta’minlangan ta’lim maskanlari ham bo‘lgan. Ushbu turdagi ta’lim muassasalarida ta’lim o‘quvchilar uchun dastlabki boshlang‘ich bilimlarni bepul egallashlari kafolatlangan bo‘lgan. Bundan tashqari, ushbu turdagi ta’lim muassasalarida bilim olgan o‘quvchilarni ta’limning keyingi bosqichlarini davom ettirishlari, ularning oilaviy sharoitlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Xonlik hududida faoliyat olib borgan ko‘plab ta’lim muassasalarining moddiy va moliyaviy ta’minot tuzilishi, faoliyat asoslari, ularni tashkil ettirgan ta’sischi mulkdorlar nomi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.[10] Shu jumladan, har bir masjid qoshida tashkil etilgan maktab, masjidni qurdirgan shaxs tomonidan boshqarilgan. Ushbu turdagi ta’lim maskanlarida 10 tadan 30 tagacha bola ta’lim olishi uchun alohida xonalar mavjud bo‘lib, masjid-maktablarda ta’lim olish muddati esa 2-5 yilni tashkil etgan. Ularda o‘qish erta tongda boshlanib, tunga qadar davom etgan. Kunning ma’lum vaqtlari (tushlik)da bolalarga uyga borib taomlanib kelishi uchun tanaffus ham berilgan. Aksar ta’lim muassasalarida ta’lim berish pulli olib borilganligi sabab, faqatgina imkoniyati bor oila farzandlari ta’limning turli bosqichlarini davom ettirganlar. 1868-yilda Toshkentda bo‘lgan A.P.Xoroshxinning ma’lumotlariga qaraganda, xonlikning barcha shaharlarida o‘g‘il va qiz bolalar alohida ta’lim olishlari uchun mo‘ljallangan maxsus maktablar bo‘lgan. Masjidlar qoshidagi maktablarda masjid imomi, ba’zida esa so‘fisi dars bergan.[11] Xonlik hududidagi barcha maktablarda o‘g‘il va qiz bolalar alohida o‘qitilgan. Qiz bolalar ta’lim oladigan maktablarda esa otinoyi (ayol muallima)lar dars bergan. Qizlarga, asosan, uy-ro‘zg‘or ishlarini o‘rgatish bilan bir qatorda, ularga diniy ta’lim va odob-axloq qoidalari o‘rgatilgan.

Xonlikda shakllangan ta’lim tizimidagi asosiy muammolardan biri – qishloq hududlaridagi maktablarda salohiyatli, ilmli, tafakkurli hamda uzoq tajribga ega o‘qituvchilarning yetishmasilgidir. Shu sababdan ham o‘quvchilar soni ortib ketganda, muallim o‘quvchilar orasidan yoshi katta o‘quvchilardan birini o‘ziga yordamchi tanlab olib, uni o‘quvchilarga ta’lim berishda yordamchi qilib tayinlagan.[12] Qo‘qon xonligidagi ta’lim muassasalari qo‘shni xonliklardagi mavjud an’anaviy maktablardan deyarli farq qilmagan. Markaziy Osiyoda uzoq asrlardan buyon shakllangan ko‘p bosqichli an’anaviy ta’lim tizimi hukmronlik qilib kelgan.

O‘z navbatida yana bir asosiy muammolardan biri bu ta’lim maskanlarini moddiy-moliyaviy ta’minoti sanaladi. Shu jumladan, har bir ta’lim muassasasini, o‘qituvchi-muallimlarni va muassasani moddiy-moliyaviy jihatdan ta’minlanishi, uni kim va qanday shaklda tashkil etilganligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Shu sababdan ham o‘quvchilarning ota-onalari farzandlari o‘qishga kirayotganda, ayrim muvaffaqiyatlarga erishganda yoki bayram munosabati bilan ustozlarga har xil hadyalar berib turgan.

[9] Alimov.I.A. XIX asr Qo‘qon xonligining Andijon bekligidagi maktab va madrasalar. O‘zbekiston tarixi. – T., 2007. – 13 b.

[10] Alixojiyev M.O. Qo‘qon xonligida ta’lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o‘rni. – T., 2013. 27 b..

[11] Хорошхин А.П. Очерки Ташкента // Сборник статей касающихся до Туркистанского края. СПб., 1876. – С.533 .

[12] Alixojiyev M.O. Qo‘qon xonligida ta’lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o‘rni. – T., 2013.–28 b.

Bundan tashqari, xayr-ehsonlar hisobidan ta'sis etilgan maktablar esa vaqf mulkidan kelgan daromad hisobidan ta'minlangan.[13] Xonlik hududdagi barcha maktablarga bolalarni necha yoshdan borishi yoki qancha vaqt mobaynida o'qishi uchun yosh cheklovi bo'lmagan. Shu sababdan bolaning maktabga borishi uning bilim darajasi va oilaning moddiy imkoniyat darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Xonlikda istiqomat qiluvchi aksariyat oilalar o'z farzandlarini 4-5 yoshdan boshlab, mutolaa qilishni boshlagach, ular masjidlar qoshidagi yoki xususiy uylardagi maktabga qadar tayyorlovchi ta'lim maskanlariga berganlar. Ular ma'lum ko'nikmalarni egallaganlaridan so'ng boalalar 6-8 yoshga to'lgach maktabga qatnay boshlagan.[14] Bunday turdagi ta'lim muassasalaridagi ta'limning davomiyligi va muddati ta'lim beruvchi domlaga yoki ta'lim oluvchi bolaning zehniga hamda oilasining moddiy ahvoli bilan bog'liq bo'lgan. Xonlikda tashkil etilgan ko'pgina ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi o'quvchilarning har bir ta'lim maskanidagi soni 30 nafardan oshmagan.[15] Ayrim xususiy maktablarda esa 8 nafar bola ta'lim olgan. Bu bevosita moddiy ta'minot bilan bog'liq bo'lib, shu zaylda oddiy xalq maktabi bilan o'ziga to'q qatlam aholi farzandlari ta'lim maskanlaridagi farqi shunday ko'rinishda bo'lgan. Shu bilan birga ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'quvchilar o'rtasida ham shunday keskin tafovutlar ko'zga tashlanib turgan.

Xonlik hududida bolalarga boshlang'ich ta'lim berishga mo'ljallangan, ilk maktabga qadar tayyorlov ta'lim maskanlari faoliyat yuritganligini ko'rish mumkin. Faqatgina, ushbu turdagi ta'lim maskanlarida hozirgiday bolalar alohida yoshlar kesimida ajratilgan holda ta'lim-tarbiya berilmagan bo'lsa ham, ularda barcha yoshdagi bolalar aralash holda ta'lim olganlar. Bu esa bolalarning bilim va iqtidorlarini to'liq nomoyon etishga imkon bermagan. Ko'plab ota-onalar bolalalarni tili chiqib mustaqil so'zlay boshlagan vaqtidan boshlab, ya'ni 4-5 yoshdan ta'lim olish uchun ustozlarga berganlar. Bunday ta'lim maskanlari bolalalar uchun ham maktab ham maktabgacha tayyorlov maskani vazifasini o'tagan. Bolalar bunday turdagi ta'lim maskanlarida bilim olish bilan birga odob-axloq qoidalari va mehnatsevarlik tuyg'ularini o'zlashtirganlar. Ta'limning har bir bosqichini o'zlashtirish uchun o'rtacha 2-5 yil vaqt talab etilgan. Yaxshi bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan iqtidorli bolalar ta'limning yuqori bosqichlariga o'tib, shu zaylda ta'limning barcha bosqichlarini tamomlab ma'lum bir sohaning egasiga aylanganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alixojiyev M.O. Qo'qon xonligida ta'lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o'rni. – T., 2013. – 35 b.

2. Alimov. I.A. XIX asr Qo'qon xonligining Andijon bekligidagi maktab va madrasalar. O'zbekiston tarixi. – T., 2007. – 19 b.

3. Хорошхин А.П. Очерки Т.: //Сборник статей касающихся до Туркистанского края. СПб., 1876. – С.533.

[13] Alixojiyev M.O. Qo'qon xonligida ta'lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o'rni.– T.: 2013. – 35 b.

[14] Alixojiyev M.O. Qo'qon xonligida ta'lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o'rni. – T., 2013. – 35 b.

[15] Alimov. I.A. XIX asr Qo'qon xonligining Andijon bekligidagi maktab va madrasalar. O'zbekiston tarixi. – T., 2007. – 19 b.

Alisher OTAQULOV,
Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali
ingliz tili fani o‘qituvchisi
Shohsanam SATTOROVA,
Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali
xorijiy tillar yo‘nalishi talabasi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILLARINI O‘QITISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Annotatsiya

Maqolada maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarni tayyorlov kurslarisiz ingliz tilini ota-onalar tomonidan mustaqil o‘rgatish haqida ayrim ma’lumotlar berib o‘tiladi. Shuningdek, ingliz tili bo‘yicha uslubiy yondoshish, ya’ni uy sharoitidagi muhit haqida ham umumiy va zaruriy ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Muloqat vositasi, til o‘rganish, yosh bolalar, harakatli o‘yinlar, boshqaruv o‘yinlar, online o‘yinlar, raqamlar.

Статья предоставляет некоторую информацию о том, как преподавать английский язык дошкольникам самостоятельно без наставников. Он также предоставляет общую и актуальную информацию о методологическом подходе английского языка, то есть домашней обстановке.

Ключевые слова. Средство общения, изучение языка, дети, подвижные игры, руководящие игры, онлайн игры, цифры.

The article provides some information on how to teach English to preschoolers independently without tutors. It also provides general and relevant information about the English methodological approach, the home environment.

Key words. Communication tool, language learning, kids, action game, board game, online game, numbers.

Hozirgi kunda mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarni faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Ko‘p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan barcha ma’lumotlarni 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Inson sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlarni birinchi galda oila bag‘rida oladi. Ko‘pgina ota-onalarimizni bugungi kunda farzandlariga chet tillarini o‘rgatishga qiziqishlari oshib borayotganini hisobga olsak, buning uchun ota-onalar chet tilni o‘rgatishda til haqida quyidagi ma’lumotlarni bilishlari kerak bo‘ladi.

Aslida chet tilini o‘rganishni bolaning juda ham yosh davrlaridan boshlagan ma’qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miya faoliyati to‘xtovsiz o‘sish, rivojlanishda davom etayotgani uchun ularning miya faoliyati to‘liq shakllanib bo‘lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma’lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisob-

lanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda, asosan, o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfilmlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

Til o'rganish kishilik jamiyatda nihoyatda muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Hozirgi kunda xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda chet tillarni bilish ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ko'pgina ota-onalar o'z farzandlariga uyda ingliz tilini o'qitishni xohlashadi, lekin qanday boshlashni bilishmaydi, bu esa hozirgi kunda ota-onalarning asosiy muammolaridan hisoblanadi. Ota-onalarning ingliz tilidagi bilimlari mukammal emasligi muhim emas. Qo'shimcha qilib aytganda, ushbu usullardan foydalanish har bir ota-onaga tilni individual tarzda o'rganish va farzandiga o'rgatish mas'uliyatini yuklaydi.

Buning uchun esa ota-onalarga kompyuter, telefonlardagi til o'rgatuvchi mobil dasturlar ham boshlang'ich va o'rta bosqichda til o'rgatishga yaxshi yordam beradi. "Talk" (English speaking practice), "Daily English", "Learn English" (English master), "How to speak real English" kabilarni misol qilsak bo'ladi. Bu dasturlar shunday tuzilganki, ularda reading (o'qish), listening (eshitish), test bo'limlarining barchasi o'rin olgan. Bu esa ota-onalar uchun qo'llanma vazifasini bajaradi.

O'rganilgan yangi so'zlarni telefon diktofoniga yozdirib bo'sh vaqtlarda eshitish takrorlash uchun yana bir yaxshi usul. Bundan tashqari, ingliz tilidagi subtitrli filmlarni, multfilmlarni ko'proq ko'rsatish ham til o'rgatishda samarali usullardan hisoblanadi.

Eng muhimi, ota-onalarimiz g'ayratli ekan, bolalariga ko'p dalda va maqtovlar bera oladi. Farzandlari esa ularning tilga bo'lgan ishtiyoqini qabul qiladi. Farzandlar darhol ingliz tilida gapira boshlamasa, tashvishlanishning hojati yo'q. Tilni o'zlashtirish uchun ularga ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Sabrli bo'lsalar, ular o'z vaqtida ingliz tilida gapira boshlaydilar. Ota-onalar quyidagi usullar ketma-ketligidan foydalanishlari mumkin.

Ingliz tili muhitini yaratish: Uyda inglizcha so'zlardan iborat rasm va stikrlarni devorlarga yosh bola ko'p e'tibor beradigan joylarga joylashtirish kerak. Har kuni vaqtingizga qarab odatiy reja tuzing. Uzoq, tez-tez uchrab turadigan mashg'ulotlarga qaraganda qisqa va tez-tez mashg'ulotlar o'tkazgan ma'qul. Yosh bolalar uchun o'n besh daqiqa yetarli. Bolalar ulg'aygan va ularning chet tilidan bilimlari oshgani sari ular uchun asta-sekin mashg'ulotlar vaqtlarini uzoqroq qilish mumkin. Bolalarning e'tiborini jalb qilish uchun mashg'ulotlarni qisqa va xilma-xil qilib rejalashtirish kerak. Chunki yosh bolalar bir xil harakatlardan tezda zerikib qolishi mumkin. Har kuni bir vaqtning o'zida muayyan harakatlarni bajartirish lozim. Bolalar nimani kutayotganlarini bilganlarida, o'zlarini qulay va ishonchli his qilishadi. Masalan, siz har kuni inglizcha o'yin o'ynashingiz yoki yotishdan oldin farzandlaringiz bilan inglizcha hikoyani o'qishingiz mumkin. Agar sizning uyda bo'sh joyingiz bo'lsa, siz ingliz tilida biron bir narsani, masalan, kitoblar, o'yinlar, DVD yoki bolalaringiz yasagan narsalarni saqlaydigan ingliz burchagini yaratishingiz mumkin. Takrorlash juda muhim amaliyot, bolalar ularni takrorlashga tayyor bo'lishlaridan oldin, ko'pincha so'zlar va iboralarni eshitishlari kerak.

O'yinlardan foydalanish: Bolalar dam olayotganda tabiiy ravishda o'rganishadi. Savol-javob mashqlaridan foydalangan holda o'quvchi nutqini kuchaytirish, xotirasini yaxshilash, takrorlash natijalariga erishiladi. Matnlar ichidan chiqqan yangi so'zlar yod olinadi. Savol-javob qilish natijasida o'sha so'zlarning xotirada takrorlanishi hamda nutqda qo'llay bilish ko'nikmalari shakllanadi. Bundan tashqari darslarda turli xil o'yinlarni tashkil etish o'quvchini til o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirib, o'rganish sur'atini

oshiradi. “Hot ball” o‘yinida o‘quvchilar aylana bo‘lib oladilar, koptokni bir-birlariga yangi so‘zlardan birini aytib otadilar. Ishtirokchilar bir-birlarining aytgan so‘zlarini takrorlamaydi, takrorlagan yoki so‘z ayta olmay to‘xtab qolgan holda o‘yindan chiqariladi. Shu tarzda o‘yin davom ettiriladi**.**

Flashcards – bu lug‘atni yodlatish va takrorlashning ajoyib usulidir. Kimningdir surati yoki baxtli oilalar kabi fleshkartalarda o‘ynashingiz mumkin bo‘lgan juda ko‘p turli xil o‘yinlar mavjud. Masalan:

• **Harakatli o‘yinlar:** “Simon says”, “Charades”, “What’s the time Mr Wolf?” (bu o‘yinlarni You tube tarmog‘idan yuklash mumkin)

• **Boshqaruv o‘yinlar:** “Snakes and ladders”, va boshqa milliy o‘yinlar.

• **So‘z o‘yinlari:** “I spy”, “Hangman”.

• **Online o‘yinlar:** bunda siz internetdan turli xil o‘yinlarni yuklab olish orqali bolalar bilan o‘ynashingiz mumkin.

Uydagi kunlik faoliyatdan foydalanish:

➢ Farzandingiz kiyinayotganida yoki kirlarni saralashda kiyimlar haqida gapiring: “Let’s put on your blue socks” – Keling ko‘k paypog‘ingizni kiying.

➢ Farzandingizga yotoqxonasini tozalashga yordam berayotganda, o‘yinchoqlar va mebellar uchun lug‘atdan foydalaning.

➢ Ovqat pishayotganda yoki xarid qilayotganda ovqatlanish so‘zlarini o‘rgating. Supermarketga borganingizda, bolangizga topiladigan narsalar ro‘yxatini bering (yoshiga qarab rasm yoki so‘zlardan foydalaning).

Ingliz tilidagi qo‘shiqlardan foydalanish: Ingliz tilidagi yosh bolalarga mo‘ljallangan qo‘shiqlar haqiqatdan ham yangi so‘zlarni o‘rganishga va chet tildagi talaffuzni rivojlantirishga yordam beradi. Qo‘shiqlar bilan harakatlar bolalarda o‘zgacha tasavvur uyg‘otadi va o‘zi istamagan holda harakatga tushishiga majbur qiladi.Qo‘shiqdagi harakatlar orqali yangi so‘zni tez o‘zlashtirish ko‘pgina ilmiy tajribalarda isbotlangan.

Ingliz tilidagi qiziqarli, animatsion qo‘shiqlar orqali bolaga ingliz tilini o‘rgatishimiz mumkin. Buning uchun siz internetdan mana shu turdagi qo‘shiqlarni yuklab olishingiz kerak bo‘ladi. Bundan tashqari multfilmlardan ham ingliz tilini o‘rgatishda ko‘proq foydalanish lozim. Bolalaring ingliz tilini o‘rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o‘rganishda qiziq va samarali yo‘l hisoblanadi.

Yosh bolalar yorqin rangli, rasmli kitoblarni yaxshi ko‘rishadi. Kitoblarda berilgan rasmlar orqali hikoyalar tuzib bolaga tushuntirish mumkin. Bu esa bizga yanada til o‘rganishga qo‘l keladi. Buning uchun siz kitobdagi rasmlarga birgalikda qaraysiz va narsa, hayvon rasmlarini nomlarini inglizcha aytasiz. Misol uchun “Bu kitob (this is a book)”, – “Bu mushuk (this is a cat)”. O‘rgatilgan yangi so‘zlarni boladan so‘rash orqali mustahkamlab olish mumkin bo‘ladi. Bolani qanchalik darajada ushbu tilni o‘zlashtirayotganini o‘rgatilgan so‘zni o‘zingizga qaytarib aytib bera olish yoki aytib bera olmasligida ham bilib olishingiz mumkin. Hikoyalar bilan ingliz tilini o‘rgatish orqali bolalarga ingliz tili grammatikasini ham o‘rgatish mumkin. Bunda birinchi navbatda kishilik olmoshlarini o‘rgatish muhim rol o‘ynaydi. **Misol uchun:**

Birlikda	**Ko‘plikda**
I – men	**We** – biz
You – sen	**You** – siz
he, she, it – u	**They** – ular

I have – menda bor
You have – senda bor
he, she, it has – unda bor
We, have – bizda bor
You have – sizda bor
They have – ularda bor

“I have a book” (menda kitob bor) kabi qisqa gaplar orqali bolalarga ingliz tilini tez va oson o‘rgatish mumkin. Bu jarayon videolar, kompyuter, mobil o‘yinlar orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda siz grammatikani o‘qituvchidan o‘rgangan yoki online darslarni olgan holda o‘rgatishingiz ishingiz samarasini ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi so‘zlar va iboralarni quydagi ketma-ketlik orqali o‘rgatish mumkin:

- **Raqamlar – numbers** (1–10; 10–20; 20–100);
- **Ranglar – colours;**
- **Sifatlar – adjectives** (*e.g. big, small, tall, happy, sad, tired);*
- **Tana a’zolari –** the body;
- **O‘yinchoqlar –** toys;
- **Kiyimlar –** clothes;
- **Hayvonlar –** animals *(e.g. pets, farm animals, wild animals);*
- **Oziq-ovqatlar –** food.

Shuningdek, siz bolalarga “English time” ya’ni ingliz tili vaqtini belgilab olishiga odatlanishingiz mumkin. Bo‘sh vaqtda siz **It’s English time! Let’s sit down,** buyruq gaplardan foydalanishingiz mumkin va mana shu tartibda inglizcha so‘z va iboralardan foydalanishingiz mumkin**. Can I have …? Where is …? Point to …; What colour is it?; It’s …; I like …; I don’t like**. Chunki bola mana shu vaqtgacha tayyorlanib oladi va o‘z oldiga biron ishni vaqtida bajarish kerakligini anglab yetadi.

Eng muhimi siz bu paytda quvnoq harakat, qiziqarli savol-javoblar, o‘yinlar orqali dam olasiz, o‘zingiz va farzandlaringizni ingliz tilidagi bilimlari yanada rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 27-dekabrdagi Al-Xorazmiy ixtisoslashgan maktabidagi so‘zlagan nutqi.

2. Jamolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T., 2015.

3. Ishmuhammedov R. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnalogiyalar – T.,2017.

4. Maksumov A. Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillarni o‘rgatishning dolzarb masalalari – T., 2008.

To'lqin ISAQULOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari, ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktaranti

3D FORMATDAGI INTERAKTIV ELEKTRON O'QUV QO'LLANMANI YARATISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya

Bugungi kunda yoshlarimiz 3D, 4D va 5D formatida yaratilgan audio, video o'yinlardan foydalanganligi va bu tushunchalar ularga tanish bo'lganligi sababli maskur maqolada "Informatika va axborot texnologiyalari fanidan" 3D formatdagi interaktiv elektron o'quv qo'llanma yaratishga qo'yiladigan talablar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Audio, video, grafik ma'lumotlar, interaktiv 3D formatdagi elektron o'quv qo'llanmasi.

В связи с тем, что сегодня наша молодежь использует аудио, видео игры, созданные в формате 3D, 4D и 5D, и эти понятия им знакомы, в статье освещены требования, предъявляемые к созданию электронного учебника "Информатика и информационные технологии" в интерактивном формате 3D.

Ключевые слова. Аудио, видео, графика и интерактивный 3D учебник.

Due to the fact that today our youth uses audio, video games created in 3D, 4D and 5D formats, and these concepts are familiar to them, the article highlights the requirements for creating an electronic textbook "Informatics and Information Technologies" in an interactive 3D format .

Key words. Audio, video, graphics and interactive 3D tutorial.

Bugungi kunda maktab ta'limi oldida turgan strategik vazifalar yagona ta'lim axborot muhitini shakllantirishga qaratilgan qator davlat dasturlari va konsepsiyalarida aks ettirilgan.

Maktablarni shaxsiy kompyuterlar bilan jihozlash, ularni Internet tarmog'iga ulash, ta'lim portallari tizimini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlarni qayta tayyorlash, elektron ta'lim nashrlari va resurslarni ishlab chiqish – bularning barchasi ta'lim tizimining sifat jihatidan yangi mazmun va texnologik darajaga o'tishini tezlashtirishga qaratilgan.

Ko'pgina o'qituvchilar multimediali o'quv qo'llanmalarini qo'llash orqali o'quv jarayonini jadallashtirishni kutmoqdalar:

– maqsadga muvofiqlikni oshirish;
– motivatsiyani kuchaytirish;
– o'quv tarkibining informatsion salohiyatini oshirish;
– ta'lim oluvchilarning o'quv-ma'rifiy faoliyatini faollashtirish;
– o'quv harakatlarining tezligini tezlashtirish.

3D formatdagi interaktiv elektron o'quv qo'llanma amaliy, juda qulay dastur hisoblanadi. Unda multimedia texnologiyalari asosida yaratilgan audio, video-ma'lumotlar,

ma’ruza matnlar mavjud. Dastur oddiy, qulay foydalanish tizimiga ega. O‘quvchilar Internet orqali yoki CD orqali bunday qo‘llanmalardan foydalanishlari mumkin. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmaning ayrim turlari ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan elektron avtomatlashtirish tizimiga ega.

3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmalar o‘quv dasturlariga tayanadi, o‘quv materiallarini o‘rganishning samarali usullaridan foydalanadi.

3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmalar har qanday darslikdan olingan boblar, ma’lumotlar, topshiriqlar, amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lishi mumkin. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma kompakt-disklar shaklida bo‘lishi kerak, agar darslikning barcha ma’lumotlari mavjud bo‘lsada, unda turli dasturlardan foydalanish imkonini beradi.

3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmaning didaktik jihatlari muayyan tartibga asoslangan o‘quv jarayonining umumiy qonuniy normalariga asoslanadi. Albatta, bu normativ jihatlarni hisobga olish mumkin emas. Ushbu jihatlarni 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma umumta’lim maktablari uchun tashkil etish jarayonida ko‘rib chiqamiz. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda asosiy vazifa dasturiy vositalarni tanlashdir. Bu albatta, dasturlovchining bilim va tajribasiga bog‘liq. Bundan tashqari, nazariy usullardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Bunday usullar 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmalarini yaratish muammosini osongina hal qilishga yordam beradi. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani yaratishda asosiy dasturiy algoritm ishlab chiqildi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma bunday tuzilishga ega, bu yerda o‘quvchilar nafaqat ma’lumotni yodlabgina qolmay, balki ularni hayot va kasbiy vaziyatlar bilan ham bog‘lashadi. Mavzuning assimilyatsiyasini baholashning asosiy mezonlari nazariy materiallarni olib kelish emas, balki amaliyotda olingan bilimlardan foydalanishning namoyishi. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani yaratilishining umumiy tuzilishini o‘rganishda uning dasturiy vositalarini va ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olish kerak. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani yaratishda apparat va dasturiy vositalarning mustahkam aloqasini ta’minlash kerak. Uskuna yordamida biz audio, video ma’lumot, grafik ma’lumotlar, kirish – chiqish, axborotni saqlashni ta’minlaydigan o‘zaro bog‘liq vositalarni tushunamiz. Shuni ta’kidlash kerakki, 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma nafaqat apparat va dasturiy ta’minotni, balki pedagogik ta’minotni ham ta’minlashi kerak. Kompyuter modeliga va uning texnik imkoniyatlariga qarab, o‘quv materialini (matn, grafik, multimedia) ko‘rsatish darajasi aniqlanadi.

Shubhasiz, 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma o‘quv jarayonini muayyan darajada amalga oshirishda dasturiy ta’minot va apparatni talab qiladi. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmada foydalanuvchi o‘quv jarayonini ikki usul bilan amalga oshirish qobiliyatiga ega ekanligiga e’tibor qaratish lozim. Shu bilan birga o‘quv materialining to‘liqligi darajasini aniqlaydi, didaktik va uslubiy tomonlarni hisobga oladi.

Model 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani yaratish texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma maqsadlarini aniqlash.
2. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani tuzilmasini ishlab chiqish.

3. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani mavzularining mazmunini ishlab chiqish.

4. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmaning alohida strukturaviy narxlarini tayyorlash.

5. Dasturlash.

6. Sinov.

7. Natijalar asosida 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma tarkibini takomillashtirish.

8. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani tayyorlash.

3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani yaratish uchun qo‘llanma-axborot texnologiyasidan foydalanish maqsadlari aniqlash.

Interaktiv elektron o‘quv kurslari o‘qitishning bevosita maqsadlari bilan bog‘liq quyidagi turlarga ega;

– Ilm-fanning turli sohalariga bag‘ishlangan 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma;

– 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma alohida sinflar uchun mo‘ljallangan;

– Ilm-fanning alohida bo‘limlarini o‘rganish uchun mo‘ljallangan 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma;

– 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma, alohida fanlar uchun mo‘ljallangan, multimedia, virtual stendlar, elektron simulyatorlar va o‘quv materiallari yordamida amalga oshiriladi;

– ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan elektron avtomatlashtirilgan tizimlar.

– 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma tizimini ishlab chiqish.

An’anaviy ta’lim tizimidagi 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining modulli tuzilishiga asoslanadi. Darsliklarni boshqarish tizimini yaratish uchun mavjud bo‘lgan 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani tuzilishi tizimini tahlil qilish, shuningdek, olib borilgan tadqiqotlar asosida mavzularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash kerak. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmaning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi.

3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma mavzularining mazmunini ishlab chiqish. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmaning mazmuni – 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmada berilgan bilim va ko‘nikmalar tizimi. Maktab kursida 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmaning mazmuni tajribali o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilishi mumkin. Ayrim mavzularning mazmunini ishlab chiqishda o‘quv materialini o‘zlashtirish va uzatishning murakkabligi darajasini tartibga solish kerak. Ushbu ishni bajarishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

– o‘quv materialining asosiy yadrosini tanlash;

– o‘quv materiallarini o‘rganishda ikkinchi darajali vaziyatlarni ajratish;

– boshqa mavzular va o‘quv bosqichlari o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish;

– har bir mavzu bo‘yicha turli xil ko‘p o‘zgaruvchan amaliy mashg‘ulotlarni tanlang;

– tasvirlar, grafikalar, prezentatsiyalar, animatsiya qo‘shiqlari va tushunchalar, dizaynlar uchun ovozli sharhlarni tanlang.

Turli darajadagi dasturiy tuzilmalar multimedia texnologiyalarining tarkibiy qismlari: gipermatn, animatsiya, ovoz, grafikalar. Ushbu vositalardan foydalanishning maq-

sadi rahbarlik xarakteriga ega: o‘quvchining hissiy xotirasini faollashtirish, o‘qitish motivatsiyasini oshirish.

Dasturlash – 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani yaratishning keyingi bosqichi. Unda quyidagi mutaxassislar ishtirok etadilar: sahnalarning yaratuvchisi, dasturchilar, dasturchilar-dizaynerlar va psixolog. Bu kelajakdagi 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmalarning asosiy ramka shablonlarini yaratish bilan boshlanadi.

Sinov. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani yaratilgandan so‘ng, foydalanuvchilar ular bilan qanday ishlashni bilishlari kerak. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma o‘quv jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani sinab ko‘rish, birinchi navbatda, amaliy mashg‘ulotlarda o‘tkazilishi kerak. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani ishlab chiquvchilari uchun o‘qituvchilarning fikri juda muhim va u, albatta, hisobga olinadi. 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqish jarayonida takliflar va tavsiyalar asosida o‘zgarishlar kiritiladi. Ikkinchidan, 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanma o‘quv jarayonining haqiqiy ta’lim sharoitida sinovdan o‘tadi. Ishlab chiquvchilar tomonidan sinovdan o‘tayotganda, birinchi qarashda ko‘rinmaydigan xatolar, ishdagi noqulayliklar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar aniqlanadi.

Sinov natijasi bo‘yicha ishlash. Sinov natijalari asosida 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmaga o‘zgartirishlar kiritiladi. Bu darslik tuzilishiga taalluqli bo‘lishi mumkin; shuningdek, vazifalar bilan ishlashda javoblardagi noaniqliklar va xatolar bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmadan foydalanish o‘qituvchilarga darsni sifatli va tushunarli qilib tushuntirib berishiga va o‘quvchi yoshlarning darsni yaxshi o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алламбергенова М. Использование интерактивных учебных комплексов в процессе высшего образования как средство формирования творческой атмосферы // Образование. – Алмата, 2010. – № 6. – С. 132–134.

2. Закирова Ф., Эминов А. Концепция обучения компьютерной графике в курсе информатики // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2010. – № 1. – 66-69 b.

3. Isaqulov T.M. 3D formatdagi multimedia kurslarini yaratish texnologiyasi // Fizika, matematika va informatika ilmiy-uslubiy jurnali, 2019, 4-son, – 69-76 b.

Murod USMONOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
Baxtiyor SUVANKULOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

MASOFAVIY O‘QITISHGA MO‘LJALLANGAN MULTIMEDIALI INTERAKTIV ELEKTRON O‘QUV KURSLAR YARATISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada masofaviy o‘qitish uchun multimediali interfaol elektron o‘quv kurslari (MIEO‘K) texnologiyasini yaratishga oid masalalar yoritilgan. Bu O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalaridan foydalangan holda rivojlanishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Interfaol, elektron darsliklar, multimedia, axborot texnologiyalari, masofadan o‘qitish.

В статье рассматриваются некоторые вопросы, связанные с развитием технологии мультимедийных интерактивных электронных курсов (МИЭУК) для дистанционного обучения. Это свидетельствует о развитии современных педагогических информационных технологий в Республике Узбекистан.

Ключевые слова. Интерактив, электронные учебники, мультимедиа, информацион ные технологии, дистанционное обучение.

The article addresses some of the issues related to the development of multimedia interactive e-learning courses (MIEC) technology for distance learning. This shows the development of modern pedagogical information technologies in the Republic of Uzbekistan.

Key words. Interactive, electronic textbooks, multimedia, information technology, distance learning.

Ta’lim tizimida o‘quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugungi kun talabidir. Bunda masofaviy ta’lim tizimini joriy qilish zamon talablaridan biriga aylanib qolmoqda.

Multimediali interaktiv elektron o‘quv kurslar (MIEO‘K) yaratishda dasturchilarni va sistemaviy vositalarni hisobga olish kerakligini aytib o‘tish zarur. Quyida ta’lim beruvchi kompyuter dasturlarida mavjud bo‘lishi lozim bo‘lgan imkoniyatlar ro‘yxatini keltirib o‘tishimiz mumkin:

Foydalanuvchi uchun:

1. O‘quv jarayonini tanishishdan to to‘liq o‘zlashtirishgacha har xil darajada tashkil etish.

2. O‘qitish maqsadiga qarab o‘quv materiallarini namoyish qilish imkoniyati.

Dasturchi uchun:

1. Dasturdagi aniqlangan izchillikni keltirish;

2. Tushunilishi qiyin bo‘lgan tushunchalar ro‘yxatini tuzib qo‘yish;

3. O‘zaro aniqlangan tushunchalar o‘rtasidagi aloqa grafik modelini tuzish.

Masofaviy ta’lim (MT) – bu yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalar – elektron pochta, Internet, videokonferensiya, audio, video ma’lumotlar va multimedia IEO‘Klarga asoslangan uzoqdan turib(masofali) o‘qitish, o‘rgatish usulidir. Bu usulda masofadan biror yangi mavzu yoki predmet bo‘yicha ma’lumotlarni viloyatlardagi ixtiyoriy o‘quv yurtlariga uzatish mumkin.

Agar joylarda bu sohada yangi predmetlarni o‘qitadigan mutaxassis bo‘lmasa masofadan o‘qitishdan foydalanish yagona usuldir.

Birlamchi model. Masofaviy o‘qitishning bu shaklida kunduzgi bo‘limda bevosita mashg‘ulot o‘tkazish shart emas. Barcha o‘qitish ma’lum masofada tashkil etiladi. Lekin ta’lim oluvchilar unga biriktirilgan o‘qituvchilar bilan doimiy aloqada bo‘ladilar. Ta’lim oluvchilarga konsultativ yordam va yakuniy imtihon topshirish uchun mahalliy vakillar tashkil etiladi. Bunda o‘quv jarayonining shakl va usullari ta’lim oluvchi va talaba tomonidan erkin tanlanadi, o‘quv mashg‘ulotlari jadvali va o‘qitish vaqti chegaralanmaydi. Ko‘pchilik ochiq universitetlarda ta’lim o‘qitishning birlamchi modeli asosida qurilgan. Masalan, Buyuk Britaniya ochiq universitetida masofaviy o‘qitishning ushbu modelidan foydalaniladi.

Ikkilamchi model. Ta’lim muassasasida o‘qish ham kunduzgi ta’limda, ham qisman kunduzgi va qisman masofaviy ta’limda olib boriladi. Har ikkalasida dars jadvali va o‘qitish dasturi bir xil.

Ta’lim oluvchilar uchun nazorat bir xil kriteriya asosida baholanadi. Ta’lim muassasasida qo‘llaniladigan masofaviy o‘qitishning bu ikkilamchi modeli hamma vaqt ham foydali bo‘lavermaydi, chunonchi, o‘qitishning asosiy qismi ta’lim oluvchilar tomonidan qoplanadi. Masalan, ikkilamchi modeldan Avstraliyaning universitetlarida foydalanib kelinmoqda.

Aralashgan model. Bu model masofaviy o‘qitishning turli shakllarini qamrab oladi, to‘g‘rirog‘i,turli masalalar integratsiyasi, masalan, ta’lim oluvchilar o‘quv materialining ma’lum bir qismini masofaviy o‘qitish bilan ketma-ket, boshqa qismini parallel ravishda kunduzgi bevosita o‘qitish orqali oladilar. Ayrim mashg‘ulotlar virtual seminarlar, namoyish (prezentatsiya), ma’ruza shaklida olib boriladi. Ta’lim muassasasi qanchalik axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlangan bo‘lsa, o‘qitish shakllari turli-tuman ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin. O‘qitishning bu integratsiya shakllaridan Massey va Yangi Zellandiya universitetlarida foydalanilmoqda.

Konsorsium. Ushbu model ikkita ta’lim muassasasining o‘zaro aloqasida olib boriladi, ya’ni o‘quv materiallarini ishlab chiqarish va ularni masofaviy o‘qitishda ayrim funksiyalarni o‘zaro bo‘lib olishga asoslanadi. Birinchi muassasa masofaviy o‘qitish uchun o‘quv materiallarini ishlab chiqish bilan shug‘ullansa, ikkinchi muassasa virtual o‘quv guruhlarini o‘qitish vositalari yoki masofaviy o‘qitish dasturi ijrosini ta’minlaydi.

Konsorsium qat’iy markaziy boshqarish, xususiy mulk va mualliflik huquqi belgilangan tarzda ta’minlangan holda samarali natija beradi.

O‘qitishning bu modelidan masalan, Kanadada ochiq o‘quv agentligida foydalanib kelinmoqda.

Franchayzing. Masofaviy o‘qitishning franchayzing tamoyiliga asoslangan bu modelda muloqotdagi ta’lim muassasalari o‘zaro o‘zlari yaratgan masofaviy kurslarni almashadilar. Ta’lim xizmati bozorida yaxshi deb topilgan mahsulot egasi bo‘lgan ta’lim

muassasasi boshqa ta’lim muassasalariga yaratgan o‘quv kurslarini beradi, yoxud masofaviy o‘qitish orqali mashg‘ulotlar olib boriladi. Ushbu modelning xarakterli jihati shundaki, ma’lum bir ta’lim muassasasida o‘qish niyati bo‘lgan talaba yetuk oliy muassasaning konsorsiumi orqali o‘sha hajmda, lekin yuqori sifatli bilim va o‘qish nihoyasida diplom olish imkoniga ega bo‘ladi.

Validatsiya. Masofaviy o‘qitishning bu modeli keng tarqalgan o‘qitish shakllaridan hisoblanadi. Muloqotda bo‘lgan barcha ta’lim muassasalari o‘zaro teng darajada masofaviy o‘qitish bo‘yicha bitim tuzadilar. Ular birgalikda masofaviy o‘qitish dasturi va kursini yaratadilar, beriladigan diplom va sertifikatlar bir xil darajada tan olinadi. Yiroqlashgan auditoriya. Ushbu modelda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari keng qo‘llaniladi. Ma’lum bir ta’lim muassasasida tashkil etilgan o‘quv kurslari, ma’ruza va seminarlar sinxron teleko‘rsatuv, videokonferensiya, radioaloqa tarzida telekommunikatsiya kanallari orqali talabalar yig‘ilgan yiroqdagi auditoriyalarga namoyish qilinadi. Bu vaziyatda o‘qituvchi talabalar yig‘ilgan yirik auditoriya bilan ishlaydi. Masofaviy o‘qitishning bu modelidan AQShning Viskonsin universiteti, xuddi shuningdek, Xitoyning Markaziy radio va televideniye universitetida foydalanib kelinmoqda.

Loyihalar. Masofaviy o‘qitishning ushbu modelidan davlat ahamiyatiga molik yirik masshtabli loyihalarni joriy qilishda foydalaniladi. Ushbu modelda asosiy rol o‘quv materiallarini yaratgan malakali kadrlar, o‘qituvchilar, olimlar yig‘ilgan ilmiy-metodik markazga beriladi. Markazda yaratilgan masofaviy kurslar u yoki bu mamlakatning katta auditoriyasiga namoyish qilinadi. Unda o‘qitish mavsumiy bo‘lib, o‘z maqsadiga erishilgandagina tugatiladi. Masofaviy o‘qitishning bu kursiga misol qilib ekologiya, qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi agrotexnik usullar bilan tanishtirishga oid kurslarni keltirish mumkin. Masofaviy o‘qitishning loyihalash modelidan Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tashkilotlarida keng foydalanilmoqda.

Masofaviy ta’lim tizimini joriy qilishda uchta yo‘nalishdagi muammo tug‘iladi:

– texnik: kompyuter va texnik qurilmalar bilan ta’minlash, aloqa kanallarini band qilish;

– tashkilotchilik: yuqori malakali boshqaruvchi, o‘qituvchilar, mutaxassislar bilan ta’minlash;

– metodik: ko‘rgazmali qurollar, ma’ruza matni, multimedia, animatsiya, test ma’lumotlari bilan ta’minlash.

Masofaviy ta’limni qo‘llashning bir qator ustun va qulaylik tomonlari mavjud, jumladan:

1. Ta’lim vaqti ixtiyoriy, talaba ixtiyoriy vaqtda o‘qishi, o‘rganishi mumkin.
2. Mashg‘ulotlarni auditoriyada o‘tishi shart emas.
3. Talabalarga mustaqil shug‘ullanishni o‘rgatadi.
4. O‘qituvchilardan yuqori tayyorgarlikni talab qiladi.
5. Talabalar amaliy va sifatli bilimlar olishi mumkin.
6. Talabalarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishi qobiliyati rivojlanadi.
7. Talabalarda texnik qurilmalar bilan, kompyuter, Internet, elektron pochta sistemalaridan foydalanish ko‘nikmasi rivojlanadi.
8. Ta’limga ketadigan mablag‘ arzon. Ayniqsa kam ta’minlangan oilalardagi iqtidorli yoshlarning bilim olishiga yangi sharoit paydo bo‘ladi.
9. Ta’lim olish chegara tanlamaydi, ya’ni talabalar boshqa joylarda – viloyat, shahardan turib bilim olishi mumkin.

MT ning o‘ziga xos elementlari mavjud bo‘lib, bular instruktor (o‘qituvchi), talabalar, kommunikatsiya, o‘quv materiallari, qurilmalar hisoblanadi. Bunda:

– instruktor, o‘qituvchi – bu maxsus mutaxassis bo‘lib, o‘rgatuvchi hisoblanadi va u tegishli o‘quv kursini tayyorlaydi, talabalarga, tinglovchilarga maslahat, savollariga javob beradi, talabalar bilimini nazorat qiladi;

– o‘quv materiali – tegishli o‘quv kursi, o‘quv qo‘llanma, Internet, elektron kutubxona hisoblanadi;

– talaba – bu MT orqali o‘z bilimini oshiruvchi, kerakli ma’lumotlarni oluvchi shaxs, uning o‘zi mustaqil shug‘ullanadi, savollar bilan murojaat qiladi, berilgan vazifalarni bajaradi, o‘z bilimini tekshiradi.

Kommunikatsiya – bu aloqa vositasi bo‘lib, instruktor bilan talabaning murojaatini bog‘lovchi ko‘prik hisoblanadi.

Bunday maqsadda elektron kitobdan kerakli ma’lumotni qidirish yoki biror matnni tahrirlashga ko‘chirib olish va shu kabi maqsadlardan nafaqat ma’lumot to‘plash arzonlashtiradi, balki ma’lumotlarni kitob xoliga keltirish imkoniyatlarini ham beradi.

Hozirda masofali ta’limga mo‘ljallangan interaktiv elektron o‘quv kurslar savdosi bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab kompaniyalar tuzilgan. Ularning asosiy maqsadi ma’lum shakldagi elektron bozorini tashkil qilish va unda keraklicha foyda olishdan iborat.

JavaScript dasturlash tilini tanlashda uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) JavaScript dasturi HTML hujjatlari bilan ishlash uchun juda qulay hisoblanadi.

b) Dasturning aktiv va passiv qismlari bitta hujjatda joylashadi. JavaScript – ma’lum dasturning web-brauzerda yuklanishini interpretatsiya qiluvchi dastur hisoblanadi. Bunda tuzilgan dasturning ishlash va yuklash tezligi ortadi va uning yuklanishi uchun maxsus dasturlarning keragi yo‘q, boshqa xizmat qiluvchi vositalari brauzerning o‘zida joylashgan bo‘ladi.

v) JavaScript dasturi xuddi Java dasturi kabi barcha web brauzerlarda ishlay olish imkoniyatiga ega, lekin Javaga nisbatan JavaScriptda dastur tuzish qulay va oson.

IEO‘Kda foydalanilgan GIF va JPG kengaytmali fayllarni tashkil etish, optimallashtirish va tahrirlashda Adobe Photoshop 7.0 dasturidan foydalaniladi. Bu dastur orqali reklama rasmlarini yig‘ish va tahrirlash, ba’zi rasmlarga ishlov berish, ranglar kiritishda foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, yaratilayotgan informatsion-o‘qitish vositalari talabalarning an’anaviy ta’lim shakli kabi masofaviy o‘qitish tizimida keng qo‘llanilmoqda. Ishlab chiqilayotgan o‘quv materiallari kunduzgi bo‘lim talabalari uchun mustaqil ishlash darajasini oshiradi va shu bilan birgalikda o‘qituvchi uchun ko‘p qiyinchilik yuklamaydi. Hozirda yuqorida sanab o‘tilgan IEO‘K yaratishning ba’zi asos va talablariga javob beruvchi elektron o‘quv qo‘llanmalari yaratish masofaviy ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Полат Е.С. Дистанционные обучение: организационные и педагогические аспекты. – ИНФО, 1996, №3.

2. Поляков А.А. Системы дистанционного обучения // Новые знания, 1996, № 3, – С. 34–35.

3. Taylaqov N.I. Masofaviy o‘qitish kurslarining model va shakllari.

Munisa BAHROMOVA,
Mirzo Ulug‘bek tumanidagi
71 A-tarmoq maktabi o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARINING NUTQ QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MA’LUMOT UZATISH FAOLIYATIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun sinflararo aloqada axborot uzilishlaridan foydalanishni amalga oshirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif axborot uzilishlaridagi faoliyatning afzalliklari, usullar, maqsad va vazifalarini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Nutq, qobiliyat, rivojlantirish, ma’lumot uzatish, faoliyat, foydalanish, axborot uzilishlar, texnika, ahamiyat, nazariy jihatdan.

В статье было изложено мнение о том, как реализовать информационную информацию в межклассовом обмене для развития речевых навыков. Также автор рассказывал о преимуществах, методах, целях и задачах деятельности в информационном пространстве.

Ключевые слова. Речь, способности, развитие, передача информации, деятельность, использование, информационные сбои, техника, значение, теоретически.

The article provides an idea of the implementation of the use of information interruptions in classroom communication for the development of speech abilities of learners. The author also mentioned the advantages, methods, goals and objectives of the activity in the field of information disruption.

Key words. Speech, ability, Development, information transfer, activity, use, information interruptions, technique, importance, theoretically.

Ingliz tilini o‘rganishda talabalar to‘rtta ko‘nikmaga ega bo‘lishlari kerak, xususan; tinglash, gapirish, o‘qish va yozish. Ushbu to‘rtta ko‘nikma orasida gapirish eng muhim ko‘nikmalardan biridir. Chunki bu ko‘pincha qo‘llaniladigan mahoratdir. Bu, masalan, kimdir xabarlarni yetkazish va ma’lumot almashishni xohlasa, ingliz tilida so‘zlashish mahoratiga ega bo‘lish ko‘pgina ikkinchi va xorijiy tillarni o‘rganuvchilar uchun ustuvor yo‘nalish ekanligi uchun ishlatiladi. Bu o‘qituvchi va talabalar bir-birlari bilan aloqa qilishni osonlashtirishi uchun talabalarning nutq qobiliyatiga ta’sir qilishi kerakligini anglatadi.

O‘quvchining nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘qituvchida ham, o‘quvchilarda ham sinfda haqiqiy aloqani o‘rnatish juda muhimdir. Ushbu vaziyatni yuzaga keltiradigan ba’zi usullar mavjud. Yo‘llardan biri bu o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida yoki talabalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishdir. Biroq, o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yanada muhimroqdir.

Ushbu ishning maqsadi ingliz tili o‘qituvchilariga “axborot uzilishlari faoliyati” talabalarning til ko‘nikmalarini oshirishda qo‘llanilishi mumkinligi to‘g‘risida xabardor qilishdir. O‘qituvchilar sinf xonasida o‘zaro munosabat orqali o‘quvchilarning nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun “axborot uzilishlaridagi faollik”dan foydalanishlari kutilmoqda.

Maqsadlar:

– axborot uzilishlari texnikasining ahamiyatini nazariy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni namoyish etish;

– darslarda nutqni o‘qitish uslublaridan foydalanish;

– axborot yetishmovchiligini amalga oshirishning afzalliklari va strategiyalarini aniqlash.

Axborot uzilishlari faoliyati talabalar, o‘qituvchilar va talabalar va butun sinf o‘rtasida haqiqiy va ravon aloqani yaratishi mumkin. O‘quvchilar o‘zaro aloqalarni muammosiz va tabiiy ravishda ularda mavjud bo‘lgan mavzular asosida olib borishlari mumkin edi. Shu sababli sinflardagi o‘zaro ta’sir yanada qiziqarli bo‘ladi va bu, shubhasiz, o‘quvchilarni gapirishga jalb qiladi va avtomatik ravishda ularning nutq qobiliyati ham oshadi.

Axborot uzilishlari faoliyatining ta’rifi va ahamiyati til o‘rgatishning kommunikativ yondashuvining asosiy shartlaridan biri bu o‘quvchilar sinfda haqiqiy o‘zaro aloqada bo‘lishidir. Ushbu shovqin mazmunli bo‘lishi va tilning haqiqiy ishlatilishini o‘z ichiga olishi kerak. O‘quvchilarga nutqning kommunikativ samaradorligini oshirishga yordam berish uchun o‘quvchilarda nutq qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan ba’zi tadbirlar mavjud.

Agar ikkita talaba bo‘lsa, *A* va *B* bo‘lsa, va *A* da *B* bo‘lmagan ma’lumot bo‘lsa, va aksincha, u holda ikkala talaba o‘rtasida farq bor. *A* da mavjud bo‘lgan ma’lumotni topishni *B* talab qiladigan vazifa (ya’ni bo‘shliqni yopadigan vazifa) aloqa uchun sabab bo‘ladi.

Odatda, bo‘shliqni bartaraf etishga bog‘liq bo‘lgan faoliyat turlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

A. Fikrlash bo‘shlig‘ining faolligi: yangi ma’lumot olishni o‘z ichiga oladi inferatsiya yoki tushirish va idrok qilish jarayonida berilgan ma’lumotlar yoki naqshlar faoliyat majburiy tushunishni o‘z ichiga oladi va ma’lumotlarni yetkazib beradi.

B. Fikrlar orasidagi farq: Har bir inson dunyo haqida har xil fikr, his-tuyg‘u va fikrlarga ega. Birovning his-tuyg‘ulari va fikrlari haqida bilish, odamlar orasidagi bo‘shliqni yopishga yordam beradi. Ko‘pgina darsliklarda shaxsiylashtirilgan harakatlar soni ushbu bo‘shliqning ahamiyatini ko‘rsatadi.

C. Tajriba yetishmovchiligi: Sinflardagi barcha o‘quvchilar hayotlarida turli xil tajribalarni boshdan kechirishgan, shuning uchun bu tur aloqa uchun yaxshi vazifadir. Anketalar bo‘lishi mumkin.

D. Bilimlar oralig‘i: talabalar dunyo haqida turli xil narsalarni bilishadi. Ushbu bo‘shliqni miya bo‘ronlari va umumiy bilimlar bo‘yicha viktorinalarda ishlatish mumkin.

E. Ma’lumot bo‘shlig‘i: Bu kommunikativ yondashuv tomonidan ishlatiladigan klassik bo‘shliq.

Axborot uzilishlari faoliyatining ikki turi mavjud: bir tomonlama va ikki tomonlama. Yuqorida aytib o‘tilganlarga ko‘ra, bitta yo‘l boshqa odamga tegishli bo‘lmagan ma’lumotlarga ega bo‘lganda yuzaga keladi.

Avvaliga, ma’lumot yetishmovchiligi bo‘yicha tadbirlar o‘quvchilarga ingliz tilidan dars ichida yoki tashqarisida foydalanish imkoniyatini beradi. Ular, shuningdek, haqiqiy

kommunikativ ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Dot va Pika ta’kidlaydilarki, axborot uzilishlari bo‘yicha faoliyat haqiqiy aloqani rivojlantirish va tilni o‘rganishni osonlashtirishi mumkin. O‘qitishdan oldin o‘qituvchilarning tayyorgarligidan kelib chiqqan holda, u o‘quvchilar orasidagi bo‘shliq tushunchasini yodda tutgan holda, juda oz tayyorgarlikni talab qiladigan nutq faoliyati bilan shug‘ullanish mumkinligini aytadi, ammo har qanday vaqtda o‘quvchining umumiy suhbat vaqtini ko‘paytirishi mumkin.

Bundan tashqari, Birne o‘qituvchini aktyor bilan taqqoslab, o‘qituvchi “turli vaqtlarda turli xil rollarni o‘ynashi kerak”, deb da’vo qiladi. Nunan va Lamb ta’kidlaganlaridek, o‘qituvchilar qabul qiladigan rollar dinamik, statik emas va ishtirokchilar olib kelgan psixologik omillarga qarab o‘zgarishi mumkin. Uning so‘zlariga ko‘ra, turli o‘quvchilar o‘zlarining qoniqishlarini qondirish uchun turli xil tadbirlarni talab qilishadi, bu esa o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining talablariga ko‘ra boshqacha munosabatda bo‘lishlariga olib keladi. Ammo “agar o‘qituvchi ularni to‘g‘ri tashkil qilmasa, eng samarali faoliyat deyarli foydasiz bo‘lishi mumkin”.

Axborot uzilishlaridan foydalanishning afzalliklari muloqot ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun eng katta maqsadlardan biri bo‘lib, bu til sinfining maqsadi bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, haqiqiy aloqa sinf xonalarida taqqoslash qiyin, ayniqsa, akademik yoki o‘zgacha ko‘rinadigan ko‘proq rasmiy sinfxonalarda. Axborot uzilishlari bilan aloqalar haqiqiy aloqada struktura uchun juda yaxshi.

Ma’lumot bo‘shlig‘i faoliyati bu shunday faoliyatki, unda *A* shaxs *B* shaxs bilmagan narsani biladi va aksincha. Ikkala talaba o‘rtasida ma’lumot yetishmovchiligi mavjud. Ikkalasida ham bir-biriga kerak bo‘lgan ma’lumotlar mavjud.

Axborot uzilishlar faoliyatining maqsadi yangi ma’lumotni o‘rganish emas, balki gapirishni mashq qilishdir. Biroq, ushbu mashg‘ulotlarning ko‘pgina foydali tomonlari bor va talabalar ular o‘rganilgan ko‘nikmalarni va tillarni amalda qo‘llashlari mumkin. Shu tarzda ishlab chiqilgan holda, talabalar ravon gapirish, so‘z birikmalaridan foydalanish, tavsiflash tili, tushunchalarni tushuntirish, va hokazo.

Sinfda ma’lumot bo‘shliqlarini ishlatish yanada qiziqarli va maqsadli faoliyatga olib kelishi mumkin. Ma’lumotdagi bo‘shliqni yaratib, siz boshqa o‘quvchi uchun zarur bo‘lgan ehtiyojni yaratasiz.

Axborot uzilishlaridagi faoliyatning afzalliklari quyidagicha tasniflanadi:

– axborot bo‘shlig‘i faoliyati o‘quvchilarning keng qamrovli fikrlarini, masalan, ma’lumotnomalar va qadriyatlarning xilma-xilligi, ko‘plab turli xil tajriba va o‘rganish uslublari kabi ma’lumotlarni taqdim qilishi;

– axborot uzilishlari sohasidagi vazifalarni birgalikda baham ko‘rish va o‘quvchilarni bir-birlariga yordam berish yoki o‘z tengdoshlaridan yordam so‘rashga chorlaydigan muhit yaratishda yordam berishi mumkin. Axborot uzilishlari faoliyati har bir o‘quvchiga miya hujumi haqida ma’lumot berish orqali axborot yig‘adi va keyin birlashtirilgan guruh sifatida namoyish etish va aloqaga hissa qo‘shadi. Bu har doim o‘rganishni eng samarali tajriba qiladi.

Axborot uzilishlari bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun quyidagi usullar keltirilgan.

1. Juftlik yoki guruhli ishlar: ma’lumotlar va fikrlarni aniqlash uchun o‘quvchilar o‘zaro ta’sir o‘tkazishlari kerak. Ular ko‘p vaqtlarini juftlik yoki guruhda ishlashga, tengdoshlarining nuqtayi nazarini aniqlashga, o‘zlarining konsepsiyalarini topishga, fikrlar almashishga va yechimlarni topishga sarflashlari kerak. Shunday qilib, o‘quvchilarni juft va guruhlarga bo‘lish axborot uzilishlarini amalga oshirishda muqarrar va muhim

strategiya hisoblanadi. Bu guruhda ishlash bezovtalikni kamaytirish va mazmunli muloqot maqsadlariga erishishga yordam beradigan nutqni o‘qitishda ma’lumot bo‘shlig‘i faoliyatining muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlaydi.

Aslida, axborot uzilishlari faoliyati talabalarga mazmunli aloqa maqsadlariga erishishda yordam beradi. Juftlik va guruhli ishlash orqali ular suhbatlashish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladilar va mashq qilishda hamkorlik qilgandan so‘ng o‘zlarini ishonch bilan his qilishlari mumkin.

Bundan tashqari, ular tilni o‘rganishdan zavq olishadi, bu esa ularni yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishga undaydi. Ammo o‘qituvchilar nutqda guruh ishi ham salbiy ta’sir ko‘rsatishini hisobga olishlari kerak. Masalan, talabalar birinchi tilni suiste’mol qilishi yoki “vazifadan tashqari suhbatda” qatnashishi mumkin.

Sinfdagi o‘zaro ta’sir muhim bo‘lganligi sababli, o‘qituvchi sinfda yangi atmosferani yaratishi kerak. Ushbu vaziyatni anglash uchun axborot uzilishlaridagi faollikni qo‘llash kerak. Axborot tafovuti – bu tuzilgan chiqish faoliyatining bir turi. Bular yo‘qolgan ma’lumotni olish, telefon xabarlarini yetkazish va fikr bildirish orqali vazifani yakunlash. U tilning muayyan qismlarini mashq qilishni o‘z ichiga oladi. Bu haqiqiy aloqadan ko‘proq maktablarga o‘xshaydi. Axborot uzilishlar faoliyati – o‘qituvchilar nutq jarayonida o‘qitishlari mumkin bo‘lgan kommunikativ o‘quv faoliyatlaridan biri, chunki bu faoliyat juda sodda va o‘quvchilarni o‘quv jarayonida zavqlantirishi mumkin. Bundan tashqari, axborot yetishmovchiligi – bu o‘qituvchilar sinfda o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan usul. Defriokaning ta’kidlashicha “axborot uzilishlari” bu har ikkala juft o‘quvchining mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning “bo‘shliqlarini” to‘ldirish uchun bir-biri bilan og‘zaki bog‘lanishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘lgan mashqlari.

O‘quvchilarning nutq qobiliyatini rivojlantirish uchun sinflararo aloqada axborot uzilishlaridan foydalanishni amalga oshirish:

1. O‘qituvchilikdan oldingi faoliyat o‘qituvchilikdan oldingi faoliyat – bu sinfdagi o‘zaro hamkorlikda o‘quv va o‘quv jarayonining boshlang‘ich bosqichi. Maktabgacha tarbiya, shuningdek, talabalarga darsning ko‘rinishi haqida umumiy ma’lumot beradigan ochilish faoliyati sifatida ham tanilgan. Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun tayyorlangan materiallar va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni boshlaydi. Birinchidan, o‘qituvchi o‘quvchilarni yoki sinfni talabalarni ochish yoki ular bilan suhbatlashish uchun kutib oladi. Keyin o‘qituvchi talabalarning davomatini va o‘qish muhitini tekshiradi. Bundan tashqari, o‘qituvchi talabalarning o‘qishga tayyorligini ham so‘raydi. Keyin o‘qituvchi o‘quvchilarga dars oxirida erishishi kerak bo‘lgan maqsadlar yoki vazifalarni aytib berish orqali o‘quvchilarni rag‘batlantiradi. Keyin o‘qituvchi talabalarning bilimlarini “aqliy hujum” deb nomlangan mavzu bo‘yicha faollashtiradi. O‘qituvchi talabalarga ushbu mavzu bilan bog‘liq ba’zi savollarni beradi.

2. O‘qituvchilik faoliyati

a. Kuzatish. Kuzatishda talabalar bugungi kunda talabalar material haqida dastlabki bilimlarini kuzatmoqdalar, garchi ushbu material ilgari o‘qitilgan bo‘lsa ham. Birinchidan, o‘qituvchi talabalarni jamoat joylari haqidagi mavzuni olib boradi, ular so‘raladigan va ko‘rsatma beradigan namunani ko‘rsatib muhokama qilinadi. Bu vaqtda o‘qituvchi sinf oldida proyektorda videoni namoyish qiladi. Keyin o‘qituvchi talabalardan videoni tomosha qilishni so‘raydi.

b. Savol berish. Savol berish bosqichining maqsadi o‘qituvchi talabalarga kuza-

tuv bosqichida ko‘rganlarini so‘rashlari uchun imkoniyat yaratadi. O‘qituvchining ba’zi savollarni berayotganda ularga rahbarlik qilishi kerak. Ushbu bosqichda o‘qituvchi talabalardan videoda uchraydigan notanish so‘zlar, umumiy tuzilish yoki grammatika haqida so‘raydi.

v. Birlashma bosqichida o‘qituvchi jamoat joylari haqida xaritani chizadi. U jamoat joylarining nomini, old qismni va joylashuvni o‘z ichiga oladi. Xaritada o‘quvchilarni material bilan tanishtirish funksiyasi mavjud. O‘qituvchi shuningdek, talabalardan jamoat joylari to‘g‘risida ko‘proq ma’lumotni darsliklardan, Internetdan va mavzuni tushunishga yordam beradigan boshqa manbalardan bilib olishlarini so‘rashi mumkin. Shundan so‘ng, talabalardan xaritani o‘z kitobiga chizishni so‘raydi.

d. Eksperiment o‘tkazish bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarni axborot yetishmovchiligi faoliyati bilan tanishtiradi va o‘quvchilarga axborot yetishmovchiligi faolligidan foydalanmoqchi ekanliklarini aytadilar.

O‘qituvchi sinflar o‘rtasidagi o‘zaro aloqada axborot uzilishidan foydalanishda quyidagi bosqichlarni bajarishi mumkin:

1. Talabalarga axborot gap faoliyati to‘g‘risida ba’zi tushuntirishlar beriladi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi talabalarni faoliyat bilan tanishtiradi. Faoliyat “Axborot uzilishlar faoliyati” deb nomlanadi. Bu sinfda yaxshi muloqot o‘rnatish va talabalarning nutq qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

2. O‘qituvchi axborot gapiga misol keltiradi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga faoliyat namunasini namoyish etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga namuna bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatishi mumkin, keyin o‘qituvchi va o‘sha talaba sinfga faollikni namoyish qiladi.

3. O‘quvchilar juftlarga bo‘lingan. O‘qituvchi talabalardan o‘z sheriklarini topishini so‘raydi, chunki faoliyat juftlikda bo‘ladi. Ular o‘zlarining sheriklarini tanlashlari yoki o‘rindiqlar bilan bog‘lanish vaqtini qisqartirishlari mumkin. Topshiriq ikkiga bo‘lingan holda birinchi talabaga A topshirig‘i va ikkinchi talabaga B topshirig‘i beriladi.

4. Talabalar vazifa asosida sherik bilan suhbat quradilar. Ikkala talaba bir-birlariga savol beradi. O‘quvchilar ma’lumotni yetishmayotgan faoliyat, ular topshiriqni bajarish uchun zarur va uni topish uchun bir-birlari bilan gaplashish kerak.

Barcha o‘quvchilar o‘qishni tugatgandan so‘ng, endi har bir sherikni boshqa hamkor bilan taqqoslash vaqti keldi. O‘qituvchi talabalardan ikki guruhga o‘tirishlarini so‘raydi. Guruh oldingi faoliyatda xuddi shu rolga ega bo‘lgan talabalardan iborat. Keyin o‘qituvchi talabalardan javobni guruhlari bilan muhokama qilishni so‘raydi.

Xulosa qilib aytganda, axborot uzilishlaridagi faoliyat – bu o‘quvchilar topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan va uni topish uchun bir-birlari bilan suhbatlashishlari kerak bo‘lgan ma’lumot yetishmayotgan faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi.

2. Zaripova R.A. Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi.

3. Nicholas V. Flammia. “ESL Information Gap Activities in the Content Areas” 2003

Turg'un ALIBOYEV,
Jizzax davlat pedagogika instituti "Texnologiya ta'limi nazariyasi" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

XORIJIY TAJRIBA – SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILI

Annotatsiya

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda shaxsning kreativlik sifatlarini rivojlantirish borasida katta tajriba to'plangan. Shaxs kreativligining asoschilari – J.P.Gilford, E.P.Torrens, X.Gardner, T.M.Emebayl, K.Robinson va boshqalar shaxs kreativligini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. Shaxs kreativligini rivojlantirish to'g'risidagi xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni yangi g'oyalar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Bunda so'nggi yarim asrlik vaqt mobaynida ro'y bergan ijtimoiy o'zgarishlarni inobatga olish talab qilinadi. Maqolada ana shular haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Kreativlik, kreativ shaxs, shaxs kreativligini rivojlantirish, shaxs kreativligini rivojlantirishga doir xorijiy tajribalar.

Экономически развитые страны имеют большой опыт в развитии креативных качеств личности. Основатели личностной креативности – Ж.П.Гилфорд, Э.П.Торренс, Х.Гарднер, Т.М.Эмебайл, К.Робинсон и другие исследовали вопросы развития креативности личности. Является целесообразным изучение зарубежного опыта в развитии креативных качеств личности, а также обогащение этого опыта новыми идеями. Этот процесс требует учета социальных изменений, которые произошли за последние полвека. Это и является предметом изучения данной статьи.

Ключевые слова. Креативность, креативная личность, развитие креативности личности, зарубежный опыт в развитии креативности личности.

Economically developed countries have extensive experience in developing creative personality traits. Founders of personal creativity – J.P.Gilford, E.P.Torrens, H.Gardner, T.M.Amabile,K. Robinson and others investigated the development of creativity of an individual. It is advisable to study foreign experience in developing creative personality traits as well as enriching this experience with new ideas. This process requires taking into account the social changes that have occurred over the past half century. This is the subject of study of this article.

Key words. Creativity, creative personality, development of personality creativity, foreign experience in developming personality creativity.

Har qanday g'oya ong va tafakkurning mahsuli sanaladi. Kreativ g'oyalarni ilgari sura olishi uchun shaxsda kreativ tafakkur rivojlangan bo'lishi zarur. Bu turdagi tafakkurning boshqa shakllaridan farqi "innovatsion, samarali qarorlarga yoki yangi bilimlarga ega bo'lish yoki tasavvurni yaqqol ifodalashga yo'naltirilgan jarayonda g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etish" qobiliyatini namoyon etishda ko'rinadi.

Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, Joy Pol Gilford, shaxsda namoyon bo'ladigan kreativlik, uning ko'rsatkichlari hamda ularni tashkil etuvchi tarkibiy asoslarni aniqlashda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Amerikalik psixolog, pedagog Joy Pol Gilford

tomonidan ishlab chiqilgan metodika umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari, shuningdek, katta yoshlilarda kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash va baholashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur metodika shaxs ijodiy tafakkuri darajasini aniqlash va baholash maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, u testga asoslanadi.

Bu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ko‘pchilik ijodiy tafakkur va kreativ tafakkur (boshqacha aytganda ijodkorlik va kreativlik) aynan bir holatni ifodalaydi, deya e’tirof etadi. Aslida har ikki tushuncha – ijodiy va kreativ tafakkur (ijodkorlik va kreativlik) ikki xil holatni ifodalaydi.

Agar ijodiy tafakkur ijodiy mahsulotni yaratishga xizmat qilsa, kreativ tafakkur yangi, orginal g‘oyalarni ilgari surish, ular asosida muammo, masalaning yechimini topishga yordam beradi. Ammo har ikkisi – ijodiy va kreativ tafakkur natijasi (mahsuloti)ni ham bir xil mezon bilan aniqlash, baholash mumkin.

Joy Pol Gilford shaxsning ijodkorligi darajasini uchta mezon bilan aniqlash mumkin degan g‘oyani ilgari suradi:

1) tezkorlik (T); ushbu omil ijodiy tafakkurning tezkorligini anglatadi; ijodiy tafakkurning tezkorligi sinaluvchilar tomonidan qayd etilgan umumiy javoblarning soni bilan belgilaydi;

2) egiluvchanlik (E); mazkur omil bir g‘oyadan ikkinchi g‘oyaga tezkor o‘tishni ifodalaydi;

3) originallik (O); bu omil ijodiy tafakkurning o‘ziga xosligini, muammoga nisbatan odatiy bo‘lmagan yondashuvni, kreativlikni tavsiflaydi.

Muallif, shuningdek, shaxs ijodiy tafakkuri darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi formulani ham ilgari suradi. Ushbu formula bo‘yicha shaxsning ijodiy tafakkuri (IT)ning tezligi (T), egiluvchanligi (E), orginalligi (O)ning o‘zaro yig‘indisi asosida hisoblanadi. Ya’ni: IT= T + E + O.

Joy Pol Gilfordning g‘oyalari keyinchalik yanada boyitildi. Jumladan, T.I.Vinogradova shaxs ijodiy tafakkurining darajasini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlar ham muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi: tezkorlik (shaxs tomonidan topshiriqlarni ijobiy hal qilish yoki muammoli masalalarga javob topish uchun ko‘plab samarali amaliy harakatlarning tashkil etilishi); egiluvchanlik (jismlar, jarayonlar yoki tizimning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi farqni anglashga xizmat qiluvchi tafakkurning unumdor ishlashi uchun yo‘naltiriladi; odatda farqni anglashga xizmat qiluvchi tafakkurga ega shaxs bir turdagi harakatlarni amalga yoki bir turdagi muammolarning yechimini topishga intiladi); originallik (g‘oyalarni ishlab chiqishda ularning yangilari (kutilmagan yoki statistik jihatdan kam kuzatiladigan g‘oyalar)ni aniqlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish va muammoli masalalarni hal etishda ko‘zga tashlanadi); zehnning o‘tkirligi (zehnlilik; g‘ayritabiiy detallarga, qarama-qarshiliklarga va noaniqliklarga bo‘lgan sezgirlikni anglatadi); metafora (majoziy ma’no)ga egalik (mutlaqo g‘ayrioddiy topshiriqlarni bajarish yoki g‘ayritabiiy masalalarni hal qilish, ramziy, assotsiatsiyalarga asoslangan tafakkurga egalikni, oddiy holatlarda murakkabliklarni, murakkab holatlarda esa oddiylikni ko‘ra olishni bildiradi); va qoniqtirish kabilardir.

Bizning fikrimizga ko‘ra, mazkur mezonlar shaxs kreativligining darajasini ham aniqlash va baholash imkoniyatiga ega.

Tadqiqotni olib borish jarayonida, T.I.Vinogradova (Gritsay) tomonidan qo‘shimcha qilingan mezonlarni mazmunan to‘ldirishga, shuningdek, “qoniqish” mezonining mohiyatini nazariy jihatdan ochib berishga harakat qildik.

1. Zehnning o‘tkirligi – topshiriqning mohiyatini tezda ilg‘ab olish, maqsadni tez tushunish bo‘lib, bunday xislatga ega shaxs berilgan topshiriq shartlarini tezlik bilan idrok qilish, qisqa muddatlarda o‘nlab yangi g‘oyalarni ilgari surish, topshiriqni qisqa muddatda bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2. Metofara (majoziy ma’no)ga egalik – so‘z va iboralarni ko‘chma ma’nolarda ishlatish. Kreativ g‘oyalarni ilgari surishda shaxs kinoyali iboralar, ko‘chma ma’noli so‘z hamda iboralardan samarali foydalanadi.

3. Qoniqish – ro‘y bergan hodisa, voqea yoki jarayonning shaxs ehtiyoji, talabi, qiziqishiga mos kelishi, uni qanoatlantirishini anglatuvchi ijobiy holat sanalib, kreativ g‘oyalarni asoslashda uning zavq-shavq bilan ishlashi, qoniqarli natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Kreativ tafakkur mumtoz modellari bilan tanishish ijodkorlik hamda kreativlik o‘rtasidagi farqlarni aniq ko‘ra olish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, ular o‘rtasidagi farq quyidagilardan iborat (1-jadval):


Ijodkorlik va kreativlik o‘rtasidagi farqlar

№	Sifatlar	Maqsad	Jarayon	Natija	Amaliy qiymat
1.	Ijodkorlik	Badiiy-estetik qiymatga ega ijod mahsuli (asar, mahsulot) ni yaratish.	1. Hissiy ta’sirlanish. 2.G‘oyaning yuzaga kelishi. 3. G‘oyani asoslash. 4. G‘oyaga asosan ijod mahsulini yaratish .	Badiiy-estetik qiymatga ega ijod mahsuliga ega bo‘lish.	Shaxsga badiiy-estetik zavq berishi, badiiy-estetik didni qondirishi.
2.	Kreativlik	Yaratish, bunyod etish imkonini beruvchi original g‘oyalarni ilgari surish.	1. Muammoni anglash. 2. Sabab-oqibat tamoyili asosida muammoning yechimini topish uchun ma’lumotlarni tahlil qilish. 3. Muammoning yechimi bo‘yicha ko‘plab g‘oyalarni ilgari surish. 4. Mavjud g‘oyalarni tahlil qilish orqali ular orasidan samarali bo‘lgan yechimni aniqlash. 5. Yechimni bayon qilish.	Yaratuvchanlik (yangiliklar kiritish, qayta yaratish, o‘zgartirish, asoslash, tuzish) xarakteriga ega g‘oyalarga ega bo‘lish.	Shaxsda yaratish, bunyod etishga bo‘lgan rag‘batni yuzaga keltirish, yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish.

So‘nggi qirq yil ichida kreativ tafakkurning mumtoz modellari mazmunan takomillashgan, zamonaviy modellar bilan boyitildi.


Kreativ tafakkurning zamonaviy modellari bilan tanishish asosida shunday xulosaga kelish mumkin: kreativ tafakkur darajasi fikriy tezlik, vaziyatni har tomonlama tahlil qilish, yechim sifatida ko‘plab g‘oyalarni ilgari surish, ularni sintezlash, eng maqbul variantni yechim sifatida tanlash, yechimni bayon qilish, yechim asosida amaliy qiy-

matga ega mahsulotni yaratishga qaratilgan fikriy va kinestetik harakatning samaradorligi bilan aniqlanadi.



1. Rasm chizish (respondentga shakli va hajmi oddiy tuxumga teng bo‘lgan rangli tuxumsimon shakl taklif etiladi; shaklning rangi ixtiyoriy tanlanadi; shakl rangining qanday bo‘lishi respondent tomonidan taklif qilinishi mumkin). Misol uchun respondent ko‘k rangdagi ushbu shakl negizida turli tasviriy ko‘rinishlarni hosil qiladi va ularni nomlaydi:

2. Rasmlarni tugallash (respondent 10 ta tugallanmagan tayanch figuralar asosida ularni tugallab, yangi tasviriy ko‘rinish hosil qilishi va uni nomlashi kerak). Respondent shtrixni ko‘rganda nimani tasavvur qilsa, uni tasvirlashi lozim. Masalan, birinchi shtrix tugallangan holda ochiq kitob, yonma-yon turgan ikkita stakan, qo‘shaloq shar bo‘lishi mumkin. Respondentning e’tiboriga quyidagi shtrixlardan iborat shakllar taqdim etiladi:



3. Takrorlanayotgan chiziqlar. Tayanch material 30 juft parallel vertikal chiziqlar sanaladi. Har juft chiziqlar negizida qandaydir bir-birini takrorlaydigan rasmlar chizilishi zarur.

Har qanday testda bo‘lgani kabi E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testining natijalari ham muayyan mezonlar hamda ularga muvofiq keluvchi ko‘rsatkichlar yordamida hisoblanadi.

Ayni vaqtda PISA testi o‘quvchilarning savodxonligi, bilim darajasi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish malakasi o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik va kompyuter savodxonligi bo‘yicha to‘rtta yo‘nalishda baholanadi. 2021-yildan boshlab kreativlik PISA (Programme for International Student Assessment; O‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha Xalqaro dastur) testi mezonlari qatoriga kiritilishi ko‘zda tutilgan. PISA testi g‘oyalari 1997-yilda asoslangan bo‘lib, 2000-yilda ta’lim amaliyotida ilk marta qo‘llanilgan. Har uch yilda bir marta jahonning turli davlatlarida tashkil etiladigan ushbu test o‘quvchilar tomonidan erishilgan ta’limiy yutuqlar darajasini baholashga xizmat qiladi. Unga ko‘ra o‘quvchilarning savodxonligi, bilim darajasi hamda mavjud nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish malakasi baholanadi. Test jarayoniga 15 yoshli o‘quvchilar jalb etiladi. Konsorsium shaklida faoliyat olib boruvchi PISA faoliyatiga Avstraliya pedagogik tadqiqotlar kengashi (Australian Board of Education Research – ACER) rahbarlik qiladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra konsorsium (consortium – sheriklik, birgalikda ishtirok etish; PISA – ta’limiy investitsion loyihani birgalikda amalga oshirish uchun tuzilgan bitim) faoliyatida Niderlandiya pedagogik faoliyat Markaziy instituti (National Institute of Pedagogical Occupation – CITO), AQShning Ta’lim testlari xizmati (Educational Testing Services – ETS), Yaponiyaning Ta’lim sohasidagi tadqiqotlar Milliy instituti (National Institute for Educational Research – NIER), AQShning Vestat (WESTAT – kasbiy xizmatlar ko‘rsatish uyushmasi) ham ishtirok etadi.

Shaxsda kreativlikni rivojlantirishga doir xorij tajribalarini o‘rganish quyidagi xulosaga kelish imkonini yaratdi:

1. Iqtisodiy jihatdan yetakchi xorijiy davlatlarda kreativlik, shaxs kreativligi va shaxs kreativligini rivojlantirish muammosi bundan bir asr avval tadqiqotchilarning e’tiborini o‘ziga tortgan.

2. Garchi tadqiqotchilar tomonidan “kreativlik” tushunchasiga berilgan nazariy tavsiflarda bir qadar farqlar mavjud bo‘lsa-da, biroq, ularning barchasi kreativlikning muammo masala yuzasidan yechim sifatida ko‘plab g‘oyalarning ilgari surilishi, ularni har tomonlama tahlil qilinishi, original yechimga ega bo‘lishidan iborat qarashlar bo‘yicha o‘zaro kesishadi.

3. Bizning fikrimizga ko‘ra, kreativlik vaqtni, kuchni tejashga imkon beradigan, foydalanishga har jihatdan qulay bo‘lgan mahsulotning yaratilishini ta’minlaydigan amaliy qiymatga ega ko‘plab g‘oyalarni yaratish qobiliyati.

4. Iqtisodiy jihatdan yetakchi xorijiy davlatlarda tadqiqotchilar tomonidan kreativ tafakkurning mumtoz va zamonaviy modellari ishlab chiqilgan. Kreativ tafakkur modellarini ishlab chiqishda tadqiqotchilar fikrlash, tafakkur yuritish jarayonidagi fikriy operatsiyalari bosqichlarini inobatga olishgan.

5. Uollas Grem, Aleks Osborn, Duayt X.Perkins, Don Koberg, Djeyms F.Bandrovskiy, Skott G.Isaksen, Robert Frits, Sidni J.Parns kabi tadqiqotchilar tomonidan asoslangan kreativ tafakkur modellari bugungi kunda ham amaliy qiymatga ega bo‘lib, ular asosida shaxsda kreativ tafakkurni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

6. Kreativ tafakkur darajasi fikriy tezlik, vaziyatni har tomonlama tahlil qilish, yechim sifatida ko‘plab g‘oyalarni ilgari surish, ularni sintezlash, eng maqbul variantni yechim sifatida tanlash, yechimni bayon qilish, yechim asosida amaliy qiymatga ega mahsulotni yaratishga qaratilgan fikriy va kinestetik harakatning samaradorligi bilan aniqlanadi.

7. Global axborotlashuv sharoitida ham shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish muammosi dolzarblik kasb etmoqda. Shu bois 2021-yildan boshlab o‘quvchilarning

umumiy ma’lumot darajasi baholovchi PISA dasturida asosiy to‘rt yo‘nalish (o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompyuter savodxonligi) qatoriga beshinchi yo‘nalish sifatida kreativ savodxonlikni baholash mezonlarini kiritish rejalashtirilmoqda.

Shunday qilib, global axborotlashuv sharoitida shaxsning ichki imkoniyatini foydali ishga yo‘naltirish orqali unda kreativlik sifatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik masala sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Ushbu vazifaning samarali hal qilish uchun kreativlik, kreativ sifatlar va kreativ sifatlarni rivojlantirish kabi tushunchalar mohiyati yetarlicha anglab olish talab qilinadi. Kreativlik asosida fikriy jarayonning kechishi inobatga olinadi. Shu sababli bir guruh tadqiqotchilar so‘nggi yuz yillik ichida kreativ tafakkur modellarini yaratish yo‘lida tadqiqotlar olib boradi. Ular tomonidan asoslangan kreativ tafakkur modellari bugungi kunda ham amaliy qiymatga ega. Ushbu modellar shaxsda kerativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonini samarali kechishi ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // http://lex.uz/docs/ 4097073.

2. Виноградова (Гритсай) Т.И. Из истории изучения креативности в отечественной и зарубежной психологии // Педагогика и психология: тренды, проблемы, актуальные задачи. Мат. В Международной научно-практ. конф.– Краснодар: 2014. – . 23-24.

3. Kreativ pedagogika / O‘quv qo‘ll. M.H.Usmonboeva va boshq. – T.: Navro‘z nashriyoti, 2019. – 6-7-b.

4. Мамонтова Т.С. К вопросу об условиях развития креативности учащегося старших классов общеобразовательной школы // Журн. Научный диалог. – М .: 2018. - № 1. – С. 231-243.

Lola MUMINOVA,
Respublika ijtimoiy moslashuv markazi direktor o‘rinbosari p.f.d. professor
Mukkaram AYUPOVA,
Respublika ijtimoiy moslashuv markazi katta ilmiy xodimi, p.f.d. professor
Muyassar XAMIDOVA,
Respublika ijtimoiy moslashuv markazi ilmiy xodimi, p.f.n.

MAXSUS TA’LIM VA TARBIYAGA MUHTOJ BO‘LGAN BOLAGA INDIVIDUAL YONDASHUV MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada rivojlanishida kamchiligi bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash yuzasidan ilmiy va amaliy yondashuvlar bo‘yicha material taqdim etilgan. Zamonaviy o‘zgarishlar maxsus ta’limdagi psixik-jismoniy rivojlanishida kamchiligi bo‘lgan bolalarning korreksion-rivojlantiruvchi ta’limi mazmunida bayon etildi.

Kalit so‘zlar. Maxsus ta’lim, korreksion-rivojlantiruvchi, ijtimoiy, pedagogik, nuqsoni bor bola, tamoyil, xususiyat, kuchli-kuchsiz, mutaxassis individual dastur.

В статье представлен материал по обобщению научных и практических подходов к обучению и воспитанию детей с нарушениями развития. Современные изменения в специальном образовании отразились и в содержании коррекционно-развивающего обучения детей с нарушениями психо-физического развития.

Ключевые слова. Специальная, обучение, коррекционно-развивающая, социальная педагогическая нарушение ребёнок принцип специалист индивидуальная силные слабые особенности программа.

Material is presented in report on generalization scientific and practical approach to education and education детей with breaches and delay of the development. The modern changes to special formation were reflected and in contents of correcting and developing education детей with breaches nut-physical development. .

Key words. Special, training, correctional, social, pedagogical, violation, child, principle, specialist, individual, strong, weak, features, program.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar bolalarni ijtimoiy himoya qilishni takomillashtirish tizimiga qaratilgan innovatsion islohotlar bilan xarakterlanadi.

Mazkur islohotlarni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 5 ustuvor yo‘nalish asosidagi Harakatlar strategiyasida o‘z aksini topgan. Ushbu hujjat mamlakatda yangi vaziyatni shakllantirib, oilalar va bolalarning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishlarida, shuningdek, ularni ijtimoiy himoya qilishda Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda asosiy o‘rin egallaydi.

Davlat tomonidan bolalar va oilalarning to‘laqonli hayot kechirishlari uchun sharoit yaratishda ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ularni qo‘llab-quvvatlash tizimi mexanizmlarini takomillashtirish va mustahkamlashga qaratilagan qator normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, Farmonlari, Davlat dasturlari qabul qilingan.

Mutaxassislar oldida rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar ta’lim va tarbiyasining yangi shakllarini yaratish, yangi korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni ishlab chiqish, nogironlikni oldini olish, ilk yosh davridan aniqlash, to‘g‘ri tashxis qilish, maxsus yoki umumta’lim muassasalarida ta’lim olishni ta’minlash, ularga teng huquqlilik sharoitini yaratish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini oshirish kabi dolzarb masalalar turibdi.

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta’lim va tarbiyasi yangi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitda ma’lum o‘zgarishlarni talab qiluvchi maxsus metodologik yondashuvning yaxlit tizimini yaratishni talab qiladi.

Rivojlanishda orqada qolishning umumiy va maxsus qonuniyatlarini tadqiq etish va ochib berish, korreksion ishning samaradorligini oshirish hamda psixologik-pedagogik tashxislash jarayonining sifatini oshirish imkonini beradi. L.S.Vigotskiyning fikricha, nogiron bola bu “normal rivojlanayotgan o‘z tengdoshlariga nisbatan faqatgina rivojlanishda orqada qolgan bolagina emas, balki rivojlanishi boshqacharoq bo‘lgan bola hamdir”. Alohida yondashuvni talab qiluvchi har bir bolaning betakror va o‘ziga xos psixikasi korreksion ta’sir ko‘rsatishning ham individual yondashishni talab qiladi. Bolaning ta’lim va tarbiyasini qanday o‘ziga xos yo‘llar bilan olib borishni bilish pedagog uchun muhim. Maxsus ta’limga muxtoj bo‘lgan bolalarga bu kabi ijodiy yondashuvning ilk ta’siri zamonaviy chet el konsepsiyalarida o‘z aksini topdi. Bu konsepsiyalarga ko‘ra korreksion yordam individual dasturlar bo‘yicha olib borilishi lozim.

Maxsus ta’lim va tarbiyaga muxtoj bo‘lgan bolaga yondashuv undagi mavjud kamchiliklardan emas, balki saqlanib qolgan imkoniyatlar va funksiyalardan kelib chiqib hamda ularga tayangan holda korreksion vazifalarni amalga oshirish lozim. Bunday yondashuv maxsus ta’lim amaliyotida shaxsga yo‘naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni tuzish va ularni keng qo‘llanilishi davr talabidir.

Psixik rivojlanishning harakatlantiruvchi kuch bu ta’limdir. Rivojlanish va ta’lim bu har xil jarayonlardir. Rivojlanish jarayoni o‘z-o‘zini harakatlantiruvchi ichki qonuniyatlarga ega. Ta’lim esa bolada inson uchun tarixan tegishli bo‘lgan xususityalarni rivojlantirish jarayonida bilim va ta’lim olishga bo‘lgan ijtimoiy zaruratdir.

Hech bir funksiya boshqalaridan ajralgan holda rivojlanmaydi. Uning rivoji bola yoshiga va uning yashash muhitiga bog‘liq.

Defektolog ta’limning faqatgina bola yoshiga emas, balki individual xususiyatlariga ham mos kelishini e’tiborga olmog‘i lozim.

Shunday qilib, individual yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari har bir bolaning betakror o‘ziga xosligini hamda uning, nafaqat yoshini, balki rivojlanish darajasini ham hisobga oladi. Bunday yondashuv rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun dasturlar tuzishda g‘oyat muhimdir.

Individual rivojlantiruvchi dasturlarni (IRD) ishlab chiqishda rivojlanishi orqada qolgan boladagi yetakchi kamchilikning tuzilishigina emas, balki rivojlanishda mavjud bo‘lgan yoki ehtimoldagi ikkilamchi kamchiliklar ham hisobga olinadi .

Mutaxassis bola psixikasidagi ijobiy nuqtalarga, uning kuchli tomonlariga tayanmog‘i kerak. Faqat shundagina rivojlanishni samarali rag‘batlantirish mumkin.

Individual rivojlantiruvchi dastur bir qator vazifalarni hal etadi.

Tashxisiy vazifalar:

– alohida funksional tizimlarning shakllanish muddatlari turlicha ekanini hisobga olgan holda bolaning psixofizik holatini muttasil va har tomonlama o‘rganib borish;

– tibbiy va ijtimoiy xavf-xatarlar omillarining bola rivojlanishiga ta’sirini baholash;

– bolaning individual ta’limdagi holatlarini istiqbolini avvaldan belgilash;

Korreksion rivojlantiruvchi vazifalar:

kamchilikning tuzatish, bartaraf etish, o‘rnini to‘ldirish, bolani ijtimoiy atrof-muhitda moslashuviga erishish.

Ta’limiy vazifalar:

– bolalarning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish usullariga o‘rgatish, ularning bilish faolligini rivojlantirish, har bir yosh uchun xos bo‘lgan bolalar faoliyatining barcha turlarini shakllantirish.

Tarbiyaviy vazifalar:

– ijtimoiy muhitga moslashtirish, bolaning oilada mustaqilligini oshirish, maktabgacha yoshdagi bolaning faoliyati va axloqida ma’naviy-axloqiy mezonlarni tarkib toptirish, shuningdek, bolada ijobiy insoniy fazilatlarni tarbiyalash.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

– individual rivojlantirish dasturi (IRD) bola rivojining barcha asosiy sohalarini qamrab olishi kerak ya'ni nutqiy, kognitiv, ijtimoiy-iqtisodiy, motor va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, shuningdek davolash va tibbiy reabilitatsiya.

– mutaxassis bola psixikasidagi ijobiy nuqtalarga, uning kuchli tomonlariga tayanmog‘i lozim, faqat shundagina rivojlanishni samaradorligiga erishimiz mumkin.

IRD turli ta’lim muddati uchun tuzilishi mumkin. Bu muddat bolaning rivojlanishida orqada qolganlik darajasi (kamchilik tuzilishi)ga, hamda ota-onaning intilishi va bilimiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda IRD dasturi bo‘yicha o‘qitish sikli yarim yildan bir yilgacha bo‘lgan muddatni tashkil qiladi. Biroq ushbu muddat oralig‘ida zaruratga ko‘ra IRD ga tegishli o‘zgarishlar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 1- dekabrdagi PF-5270-sonli farmoning 3-bob, 31-bandi.

2. Ayupova M.Y. Logopediya. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. – T., 2011

3. Назарова Н.М. Специальная педагогика // Раздел II “Специальное образование лиц с особыми образовательными потребностями”: Академия, – 2000. – С. 112.

4. Muminova L.R. Nutq tovushlarni mustahkamlash va og‘zaki nutqni rivojlantirish mashqlari uchun didaktik material – T., 2014

5. Muminova L.R. Nutqida og‘ir nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ta’lim tarbiya va korreksion ish tizimi. – T., 2011.

Komila PARDAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti "Umumiy pedagogika"
kafedrasi katta o'qituvchisi

ABDULLA AVLONIY ASARLARI UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA JARAYONINING METODIK MANBASI SIFATIDA

Annotatsiya

Uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil qilish bir qator pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi. Ushbu jarayonda metodik manbalar, didaktik vositalar samarali ahamiyatga ega. Maqolada ayni xususiyatlar Abdulla Avloniyning axloqiy-tarbiyaviy xarakterdagi ma'rifiy, badiiy, publitsistik asarlari, pedagogik faoliyati orqali tahliliy yoritilgan va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. Uzluksiz ma'naviy tarbiya, xulq, axloq, tarbiya bosqichlari, tarbiya mas'ullari, pedagogik vaziyat, didaktik maqsad.

Организация непрерывного духовного воспитания требует ряда педагогических условий. В этом процессе методологические ресурсы, дидактические инструменты играют важную роль. В статье анализируются те же особенности нравственных, образовательных, художественных, публицистических работ, педагогической деятельности Абдуллы Авлони, выдвигаются практические рекомендации.

Ключевые слова. Непрерывное духовное воспитание, поведение, этика, этапы обучения, работники образования, педагогическая ситуация, дидактическая цель.

The organization of continuous spiritual education requires a number of pedagogical conditions. In this process, methodological resources, didactic tools play an important role. The article analyzes the same features of the moral, educational, artistic, publicist, pedagogical activity of Abdullah Avloni, and puts forward practical recommendations.

Key words. Continuous spiritual education, behavior, ethics, stages of training, educators, pedagogical situation, didactic goal.

Tarixning turli bosqichlarida ham insonning ruhiy-ma'naviy kamolotiga jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida qarab kelinadi va ilg'or tafakkur sohiblari bu borada hamisha bilim va tajribalar asosida turli ko'rinishdagi targ'ibot ishlari olib borishadi. Yosh avlodga mukammal ta'lim-tarbiya berish orqali kelajak farovonligini kafolatlashga undashadi. Zotan, inson yaralganidan buyon uning ruhiy-ma'naviy barkamolligi, yetuk ta'lim-tarbiyasi eng muhim muammolardan bo'lib kelmoqda. Shaxs kamoloti, ruhiy pokligi birlamchi o'rinda bo'lmagan jamiyat inqirozga yuz tutishi esa achchiq tarixiy haqiqatlardandir.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashabbusligida ta'lim vazirliklari va qator hamkor tashkilotlar ishtirokida shakllantirilgan mazkur "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" zamonaviy tarbiya tizimining dolzarb muammolari yechimiga qaratilgan amaliy loyiha bo'lib, uning maqsad va vazifalari bilan bog'liq talablari ijrosida tarbiya

jarayonining barcha ishtirokchilari: oila, ta'lim tizimi, mahalla, huquq-tartibot organlari vakillari birdek mas'uldirlar. Zotan, buyuk ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya – biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Ushbu ilg'or qarashlarning himoyachisi va targ'ibotchisi bo'lgan Abdurauf Fitrat ham o'zining axloqiy-ta'limiy g'oyalari orqali "Har bir mamlakatning tole'si va taraqqiyoti yoshlarga qanday ta'lim va tarbiya berilishiga har tomonlama bog'liqdir.... Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka yetkazing va jamiyatning qobil a'zosiga aylanishi uchun g'amxo'rlik qiling", deya uqtiradi. O'z davrida zamonaviy ta'lim-tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan ushbu jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan ushbu ulug'vor g'oyalar yosh avlod tarbiyasi bilan nafaqat oila, balki butun jamiyat va mamlakat shug'ullanishi mumkinligi va muhimligini, shaxs barkamolligi, ma'naviy tarbiyasi har doim ham ma'rifat ahli, mas'ullar uchun asosiy dolzarb muammo sanalib kelishini ko'rsatadi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida buyuk allomalarimizning boy va betakror ma'naviy-ma'rifiy merosidan o'rinli foydalanish ham o'ziga xos samarador ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqida ta'lim-tarbiya borasida nihoyatda cheksiz xazina mavjud bo'lib, ularni chuqur o'rganish va mahorat bilan qo'llash maqsadga muvofiqdir. Xususan, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Imom Buxoriylarning ijodiy merosi, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Ahmad Donishning "Farzandlarga vasiyat" asarlari, shular qatorida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" hamda Abdurauf Fitratning "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" va "Najot yo'li" ("Rahbari najot") asarlari ham uzluksiz tarbiya tizimining, barkamol shaxs tarbiyasining asosiy qo'llanmalari vazifasini o'taydi. Uzoq o'tmish emas, birgina jadid ma'rifatparvarlik harakati namoyondalari ijodiy merosi ham uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonini maqsadli va manzilli tashkil etishda muhim manba bo'la oladi. Binobarin, pedagogik va filologik tadqiqotlar orqali chuqur tavsiya qilib kelinayotgan axloqiy va ta'limiy xarakterdagi "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining o'zi ham aynan insoniy xulq-atvor masalalari, mukammal shaxs tarbiyasiga qaratilganligi bilan didaktik ahamiyatlidir.

Abdulla Avloniy yaxshi va yomon xulqlar borasida batafsil izoh berilgan yuqoridagi asarida tajribali pedagog sifatida inson tarbiyasiga go'dakligidanoq jiddiy e'tibor qaratish zaruratini ilgari suradi. Alloma bola tarbiyasi borasida fikr yuritar ekan, ushbu mulohazalarni muhim sanaydi: "Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur". Avloniy ta'kidicha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar katta ahamiyatga ega. Shu asosda u bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi bo'limlarga ajratadi va ularning ahamiyatini tavsiflaydi:

1. Tarbiyaning zamoni. Ushbu bo'limda Abdulla Avloniy tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi: "Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq", deb hisoblaydi adib.

2. Badan tarbiyasi. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi lozimligini uqtiradi. Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq,

ilm-ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur: “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.

3. Fikr tarbiyasi. Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog‘lom qilib o‘stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, uning fikri, tafakkuri tarbiyasini o‘qituvchilar faoliyatiga bog‘laydi: “Bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”.

Shu o‘rinda alloma ta’lim va tarbiya jarayoni uzviy bog‘liq ekanini ham ta’kidlab, jumladan shunday deydi: “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”.

4. Axloq tarbiyasi. Risolada ushbu masalaga nihoyatda keng o‘rin ajratilgan. Alloma insoniy xulqlarni yaxshi va yomon toifalarga ajratadi va har biriga alohida tushuntirish berib o‘tadi va fikr-mulohazalarini hayotiy misollar orqali dalillashga harakat qiladi. Chunonchi, yaxshi xulqlarni shunday izohlaydi: “Yaxshi xulq – bir qismi o‘z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshi ishlatmak uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, sadoqat, muhabbat va afvdur.” Yomon xulqlar esa quyidagicha keltiriladi: “Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgon, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimizda masmum bo‘lgan axloqi zamimalar: g‘azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, raxovat, anoniyat, adovat, namimat, g‘iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, ta’ma, zulmdur”, deydi va ularning har biri borasida alohida to‘xtalib, ularning mazmun-mohiyatini, ijtimoiy zaruratini yetarlicha asoslab beradi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” risolasida Avloniy, shuningdek, har bir kishi o‘z vazifasiga sadoqat bilan kirishishi, agar u murabbiy bo‘lsa, o‘z shogirdlarining ko‘ngliga ma’rifat ishqini solishi, xalq o‘rtasiga ma’rifat tarqatishi zarurligini ta’kidlaydi, ilm-hunar egallashning ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi: “Hozirgi zamonda maqsadga yetmak, o‘z millatiga xizmat qilmoq, xalqg‘a maqbul bo‘lmoq uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila o‘lchanadur. Mol topmoqning eng barakatli yo‘llari: hunarmandchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdur. Bularning har biriga ham bu zamonamizda bilim lozimdur... Ameriqoliklar bir dona bug‘doy ekub, yigirma qadoq olurlar. yevropaliklar o‘zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o‘zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz osiyoliklar, xususan turkistonliklar, dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berib, sut oshiymiz, non o‘rniga kesak tishlaymiz”, deya Avloniy kuyunchaklik bilan “hozirgi zamonga muvofiq kishi bo‘lmoq uchun ilm va ma’rifatni egallashimiz kerak”, degan shiorni o‘rtaga tashlaydi.

Bundan tashqari, Abdulla Avloniy o‘zining boshqa bir qator badiiy-publitsistik asarlarida ham ma’naviy-axloqiy masalalarni qalamga oladi. Bu borada adibning dramaturglik faoliyati va dramatik asarlari alohida o‘rin tutadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Abdulla Avloniy o‘zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo‘lib, o‘zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yilda “Turon” nomli teatr truppasini tashkil qiladi. Siyosiy mustamlakachilikka qarshi o‘laroq, allomaning teatr tashkil qilishi va ijtimoiy mazmundagi pyesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma’rifati yo‘lidagi zo‘r jasorati edi.

Teatrshunos M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi:

“Avloniy truppa uchun “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Ikki muhabbat”, “Portug‘oliya inqilobi” kabi dramalar yozdi, “Qotili Karima”, “Uy tarbiyasining bir shakli”, “Xiyonatkor oilasi”, “Badbaxt kelin”, “Jaholat”, “O‘liklar” kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi”. Ammo muallif turli sabablar bilan bu asarlarni nashr qildira olmaydi.

Bilamizki, Abdulla Avloniy 1917-yil to‘ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan edi. Abdulla Avloniy ilg‘or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag‘larga dunyoviy ilmlarni o‘qitadigan “Usuli jadid”, ya’ni yangicha ilg‘or usuldagi maktablar ochadi va bu maktablarda xalq bolalari o‘qitiladi. Jadid ma’rifatparvarlari o‘z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qilishadi va bu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatishadi.

Abdulla Avloniyning “Ikkinchi muallim” kitobi “Birinchi muallim” kitobining uzviy davomi hisoblanadi. Tadqiqotchilar adibning birinchi kitobini, shartli ravishda, “alifbe” deb, ikkinchi kitobini esa “xrestomatiya” deb atashni ma’qul ko‘rishadi. Ushbu kitoblar bevosita ta’lim-tarbiya jarayoniga bog‘liq bo‘lib, o‘quvchining yosh va fiziologik xususiyatini e’tiborga olgan holda, soddadan murakkab sari o‘sish uslubida yozilgan. Dastlab o‘quvchiga maktab va uning ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyati xususida fikrlar va she’rlar beriladi. Shuningdek, axloqiy fazilatlar tasniflanadi hamda fikr va tushunchalar ixcham ibratli hikoyalar orqali asoslanadi. Avloniyning mazkur kitoblari ham ko‘p bosqichli tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda boy metodik manba vazifasini o‘tay oladi. Shu boisdan keyingi tadqiqotlarimizda bu borada alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, Abdulla Avloniyning serqirra ijodiy merosi, uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining muhim didaktik manbasi sifatida qimmatli ahamiyatga ega. Ta’lim va tarbiyaning turli bosqichlarida mazkur asarni keng va atroflicha o‘rganish, unda ilgari surilgan axloqiy g‘oyalarga amal qilish o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatadi. Ushbu ma’rifiy risolalar asosida amaliy qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqish didaktik faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun ham muhim tarbiya qo‘llanmasi vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori.

2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. /Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: Ma’naviyat, 2006, 34-96 betlar.

3. Zunnunov. A. Pedagogika tarixi. –T.: Sharq, 2004.

Sayyora MUXAMMADIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti “Umumiy pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISHDA XO‘JA AHMAD YASSAVIYNING INSONPARVARLIK G‘OYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarbiyaning tarixiy ildizlari, yurtimizda inson ma’naviy-axloqiy tarbiyasi muammosi bo‘yicha olib borilgan izlanishlarda ilgari surilgan g‘oyalar, xususan Xo‘ja Ahmad Yassaviyning insonparvarlik g‘oyalarining bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Pedagogika, ta’lim, tarbiya, axloq, insonparvarlik, halollik, nafs tarbiyasi, ma’naviy meros.

В данной статье рассматриваются исторические корни образования, идеи, выдвигаемые в исследованиях по проблемам духовно-нравственного воспитания в нашей стране, в частности, важность идей Ходжи Ахмада Яссави в воспитании молодежи сегодня.

Ключевые слова. Педагогика, образование, воспитание, этика, человечность, честность, самообразование, духовное наследие.

This article discusses the historical roots of education, the ideas put forward in research on the problems of spiritual and moral education in our country, in particular, the importance of the humanitarian ideas of Hodja Ahmad Yassavi in the education of young people today.

Key words. Pedagogy, education, upbringing, ethics, humanity, honesty, self-education, spiritual heritage.

Uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo xalqlari o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do‘stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Xalqimiz yaratgan ma’rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Lekin mustaqillikka erishgunimizga qadar biz bu meroslarning baridan bebahra edik. Istiqlolimiz sharofati bilan milliy-madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, ma’naviyatimizni o‘rganish va uni yanada yuksaltirish uchun imkoniyatlar yuzaga keldi. Zero, “yosh avlod qalbiga ibratli so‘zlar – ezgulik urug‘lari qancha erta va ko‘p ekilsa (singdirilsa), ularning ko‘nglidagi bu yaxshiliklar ham o‘zlari kabi ulg‘ayib boraveradi. Ajdodlarimiz qoldirgan buyuk adabiy meros, ularning ibratli umri bugungi va kelajak avlod uchun tuganmas ma’naviy boylik bo‘lib qolajak”.

Ahmad Yassaviyning qarashlari uning “Devoni hikmat” asarida berilgan. Asarda hozirgi tarbiya jarayonimizda foydalanish mumkin bo‘lgan juda ko‘p jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Yassaviyning hikmatlarida insoniy go‘zallik, insonparvarlik, ma‘naviy poklik, saxovat, diyonat, xolislik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik kabi go‘zal axloqiy

sifatlar o‘z aksini topgan. Yassaviyning pedagogik qarashlaridan Pedagogika nazariyasining “Tarbiya jarayoni mohiyati va mazmuni”, “Tarbiyaning qonuniyatlari, prinsiplari va metodlari”, “Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o‘quvchilarning aqliy tarbiyalash”, “Yagona o‘quv-tarbiya jarayonida fuqarolik va vatanpavarlik tarbiyasi”, “O‘quvchilarning mehnat va iqtisodiy tarbiyasi”, “O‘quvchilarning ma’naviy axloqiy tarbiyasi”, “O‘quvchilarning nafosat tarbiyasi”, “Bolalarni oilada tarbiyalash” mavzularini o‘tish davrida, Pedagogika tarixidagi “VII asrdan XIV asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti”, “Tasavvuf ta’limotida ta’limiy-tarbiyaviy qarashlar” mavzularida, “Oila pedagogikasi”dagi bir qator mavzularni o‘tishda keng foydalanish mumkin.

Yassaviyning turli insoniy sifatlar haqidagi qarashlaridan foydalanishga oid qator misollarni keltirib o‘tamiz. Masalan, adibning insonparvarlik targ‘ib etilgan g‘oyalarini boshqa allomalarning qarashlari bilan taqqoslagan holda pedagogika nazariyasida foydalanish mumkin.

Sharqning zabardast shoirlari nafaqat buyuk mutafakkir, mutasavvuf donishmandlar, balki purqudrat, hurfikr, ilg‘or gumanist tarbiyachilar ham bo‘lganlar. Hurfikrlilik va tasavvuf bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalar hisoblanadi.

Tasavvuf namoyondalari, taraqqiyparvar mutasavvuflar xalq ommasining zulm va istibdodga qarshi olib borgan kurashlarida, aksariyat hollarda, g‘oyaviy rahbarlik, sardorlik va sarkardalik qilganlar. Tasavvuf tariqati shayxlari, diniy-mazxabiy ulamolarga qaraganda, xalq ommasiga yaqinroq turganlar, ko‘pchiligi xalq ichidan, kambag‘al tabaqalardan chiqqan. Zero, tasavvufda insonni takomillashtirish, shu yo‘l bilan uni ulug‘lash va e’zozlash, ya’ni ilohiylashtirish, insonda ham Ollohga xos sifatlarni tarbiyalash va shu yo‘l bilan uni Ollohga yaqinlashtirish asosiy muammo hisoblangan. Darvesh qiyofasidagi Inson o‘zini Xudoga yaqin, deb bilgan.

Tasavvufdagi asosiy masala o‘zi pok, so‘zi pok va ishi pok, to‘g‘riso‘z, halol, yuksak axloqqa noil, har tomonlama komillikka erishgan insongina Alloh vasliga musharraf bo‘lishnni anglatadi. Tasavvufning teran insonparvarlik mohiyati ham ana shunda yaqqol ko‘rinib turibdi. Tasavvuf gumanistik ahamiyatga molik axloqiy tarbiya bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Inson kamoloti islom dinida ham, tasavvufda ham asosiy masaladir.

Yassaviyning tariqat va shariat haqidagi qarashicha, tariqat va haqiqat botiniy poklanishning zaruriy ehtiyoji, shariat darajasi qoniqtirmaydigan, jondan kechib ishq sharobini ichishga tayyor turgan alohida shaxslarni tanlagan yo‘lidir. Ushbu ta’limot mazmun-mohiyatidan quyidagi talqin kelib chiqadi: Shariat – ravshan bilingan narsalardir, nishondir, hurmatdir. Tariqat – qidirilgan narsalar, bayondir xizmatdir. Haqiqat –ko‘rish uchun kurashish ayondir, hikmatdir.

Sharqning yirik allomalaridan biri, Alisher Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiy “Suhbat-ul abror” dostonida futuvvatga ta’rif berib, bu avvalo, past xislatlarni tark etib, oliyjanoblikni kasb etish, deya ta’kidlaydi. Futuvvatning birinchi sharti – miskinlar dardiga davo bo‘lish:

Chand ro‘ze zi mustaqimon bosh,
Dar payi hojati miskinon bosh.
Sham’ shav, sham’, ki xudro so‘zi,
To ba on bazmi kason afro‘zi?

Ma’nosi: Bir necha kun din-u diyonati mustahkamlar safida bo‘l, miskin g‘ariblarning hojatini chiqarishni o‘yla. Sham bo‘lgin, sham, toki o‘zing yonib, o‘zgalar bazmini yorita olsang!

O‘zi yonib, o‘zgalar kulbasini yoritish miskinlar bazmini obod qilish….. Qanday sharafli va oliyjanob insoniy xislat! Bizning ulug‘ insonparvar donishmandlarimiz xudbinlik falsafasini rad etib ana shunday ezgu g‘oyalarni olg‘a surganlar. Insoniylikni ilohiylik darajasiga ko‘targanlar. Jomiyning fikriga ko‘ra javonmard xuddi bahor bulutiday hammaga birday saxovat yomg‘irini yog‘dirmog‘i, xuddi ko‘z gavhari kabi o‘zgalarni ko‘rib, o‘zini ko‘rmasligi lozim.

Yassaviy ta’limotida insonparvarlik, insonni ulug‘lash eng asosiy g‘oyalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu faqat unda emas, balki yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Insonparvarlik – bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo‘ravonlik uning tabiatiga yotdir. Bizning xalqimiz o‘zining voqealarga boy ko‘p ming yillik tarixi davomida ko‘p narsalarni boshidan kechirdi, madaniyat, ilm-fan, o‘z davlatchiligi yutug‘lari nashidasini surdi, o‘zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o‘g‘il-qizlaridan judo bo‘ldi. Lekin tarixning o‘yini ham, omonsiz jang-u jadallari ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog‘ tushirolmadi. O‘zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug‘lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg‘usiga hamdardlik mujassamlashgan”.

Navoiyning zamondoshlaridan biri – tasavvuf ta’limotining chuqur bilimdoni, mutafakkir alloma Voiz Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniy” asarida javonmardlik udumlari, ilm-u amali barobarida tasavvuf haqida ham ko‘p fikrlarni bayon etadi.

Koshifiyning fikricha, tasavvuf singari futuvvat ham ruh ilmidir. “Futuvvat ilmining o‘z mavzusi bor, bu mavzu inson ruhi hisoblanadi. Zero insonni ruhini tarbiyalash parvarish etish orqali uni go‘zal va hamda (yoqimli) xulq-atvorli, fazilatli qilib yetishtirish mumkin”. Bular saxo (saxovat), ya’ni bor narsani hech kimdan qizg‘onmaslik: safo, ya’ni qalbini kibr-u xavo, gina-qudrat, qasb-g‘azabdan holi va pok tutish: vafo, ya’ni hamma valq xizmatida bo‘lish. Hazrat Navoiy yozadi:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo‘q.

Ya’ni o‘zing yemaginda, boshqalarga bergin, bu chin muruvvat bo‘ladi, yaxshilik qil, xojatni chiqarginda orqasidan gapirib yurma, xatto maqtanmagin ham, bu futuvvat axliga xos emas.

Tasavvufchilar inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan “Nafs” yoki “Nafsi amora” deb atadilar va unga qarshi urush e’lon qildilar. Mol dunyo to‘plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirs-u havas qat’iy qoralandi, insonni (insoniyatni ham) noqislik va falokatlardan qutqarishning birdan bir to‘g‘ri yo‘li – nafsni o‘ldirib, qanoat bilan halol yashash, ruh-irodani chiniqtira borib, insonga insoniylikni, ya’ni ilohiylikni tantana ettirish zarur, deb targ‘ib, qilinadi. Nafsning yomonligini anglash odamning o‘zini, demakki ilohiylik va ezgulikni anglashdir. Bahouddin Naqshband hikmati: “Nafsi xudro ba badiy shinoxtan-xudshinoxtan ast” (“o‘z nafsingni yomonligini tanish – o‘zligingni tanishdir”).

Mansur Halloj vasiyati: “Nafs seni o‘ziga tobe etguncha, sen uni tobe et”.

Turkistonning ulug‘ avliyosi Ahmad Yassaviy nafsni insoniylik dushmani, iymon dushmani deb qoralaydi, chunonchi:

Zolim nafsin hech qo‘ymayin o‘yga soldi,
Nafsim qochib chin oshiqlar Olloh dedi.
Yoki nafs yo‘liga kirgan kishi rasvo bo‘lur,
Yo‘ldin ozib, toyib tuzib, gumrox bo‘lur.
Yotsa qo‘psa shayton bilan hamroh bo‘lur,
Nafsni tepgil, nafsni tepgil ey badkirdor!

Tasavvuf ta’limotidagi allomalarimizni o‘ziga jalb qilgan yana bir holat, so‘fiylarning “Inson insonning birodari”, jumladan, boy-u kambag‘al ham bir-biriga birodar, degan g‘oyasidir.

Mazkur shiorga asoslangan, bugungi kunda BMT joylashgan binoning peshtoqida ko‘pgina tillarda tarjima qilib osib qo‘yilgan Shayx Sadiyning quyidagi qit’asi bugungi kunda ham o‘z mavqeiga egadir.

Bani odam a’zoi Yakdigarand,
Ki dar ofarinish zi yak gavxarand.
Chu uzve ba daru ovarad ro‘zgor,
Di gar uzvxoro namonand qaror.
Tu k-az mehnati digaron beg‘ami,
Nashoyad, ki nomat nihand odami.

Ma’nosi: Bani odam bir-birining a’zolaridir. Chunki, yaratilganda ular bir gavhardan olingan. Hayot bir a’zoni og‘ritganda qolganlari ham zirqiraydi. Shuning uchun agar sen boshqalar uqubatidan bexabar bo‘lsang, seni odam deb atashga arzimaysan.

Shayx Sa’diyning xulosasiga ko‘ra, bani odam bir-birining a’zosi bo‘lgandan keyin, garchi Ollohning irodasi bilan birov shoh-u, birov darvesh, birov boy-u, birov kambag‘al bo‘lsa-da, lekin tananing bir a’zosi og‘riganda boshqalari zirqiragani kabi, benavo darvesh ochlikda nola chekkanda, moldor odamning ham vujudi qaqshamog‘i kerak, uning ko‘ngliga shavqat uyg‘onib, darveshga yordam qo‘lini cho‘zishi lozim; shoh esa rayati bilan bir tan-u bir jondir, ular bir-biridan ajralib, o‘zaro muxolif bo‘lganda mamlakat xarob bo‘lishi muqarrar.

Bir so‘z bilan aytganda sharq shoir va mutafakkirlarining aksariyati tasavvuf ta’limotidan kuch olib ijod qildilar. Natijada ko‘pgina pandnomalar, hikmatlar va boshqa ruhiy noan’anaviy kamolotga hidoyat qiluvchi asarlar paydo bo‘la boshladi.

Ko‘p shoirlarda dunyoviylik bilan ilohiy, ya’ni irfon qo‘shilib zuhur etdi. Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Jomiy va Navoiy ijodida dunyo go‘zalligi, ilohiy jamolning davomi va moddiy ifodasi sifatida olib qaraladi.

Navoiy “Xamsa” sida, yaxshi odam – xush axloq, odil va oqildir, deb talqin qiladi. Yaxshilarning yaxshisi – yer-u ko‘kni bir nazar bilan qamrab olgan Bahouddin Naqshband yoki oriflar orifi Abdurahmon Jomiylarni komillik timsoli deb ko‘rsatadi.

Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy faoliyatidagi achchiq hayoti, tajribalari, tasavvufga uni yana yaqinlashtiradi. Ulug‘ shoir ilohiy ishq, haqiqat, ruhiy kamolot muammolarini har qachongidan keng va teranroq tadqiq qiladi. Alisher Navoiy tasavvufga murojaat etib, butun e’tiborni inson axloqini poklashga qaratadi.

Uning asarlari jamiki odamzotga mehnat va halollikdan, do‘stlik va hamkorlikdan, rostgo‘ylik, sofdillik va samimiylikdan muhim hayotiy saboq beradi. Xaromxo‘rlik va adolatsizlikni, fitna-fujur, o‘zaro nizo va qonli to‘qnashuvlarni, vayrongarchiliklarga sabab bo‘ladigan urushlarni esa qoralaydi. Alisher Navoiy ta’limoti faqat milliy ahamiyatga ega bo‘libgina qolmasdan, umumbashariy qiymatga ham egadir.

Shariat – ravshan bilingan narsalardir, nishondir, hurmatdir. Tariqat – qidirilgan narsalar, bayondir, xizmatdir.

Ahmad Yassaviy ham tariqat va shariatning o‘zaro bog‘liqligini sodda turkona tilda ravshan bayon qilib bergan:

Har kim qilsa tariqatni da’vosini,
Avval qadam shariatga qo‘ymoq kerak.

Shariatning ishlarini ado qilib,
Andin so‘ngra bu da’voni qilmoq kerak.

U tariqat yo‘li og‘ir va mashaqqatli eknligini ham ta’kidlaydi:

Shariatdan murod – yo‘lga kirmoq,
Tariqatdan murod – nafsdan kechmoq.
Haqiqatdan murod – jondan kechmoq,
Jondan kechmay ishq sharobin ichsa bo‘lmas.

Tasavvufning nazariy va amaliy tomonlari bor. Amaliy tomoni bevosita Ollohga erishuv jarayonidir. Bu yo‘lda so‘fiylik qoidasini bajargan holda juda ko‘pchilik tasavvufga ishonganlar, mashg‘ul bo‘lganlar. Bu jarayonda shayxlar va muridlar paydo bo‘lib, so‘fiylikka berilganlar. Shayxlardan ta’lim olganlar, ularga murid bo‘lib tushganlar.

Yassaviyning dunyoga nazari, bizning davr kishilarinikiga nisbatan boshqacha shakllangan. Shoirning ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga yondashishi o‘zgacha yo‘nalishlarda kechganligi ham shubhasiz. U o‘z davri farzandi sifatida islom dini ko‘rsatmalari va islom aqidalariga tayangan. Buni uning o‘zi ham e’tirof qilgan. Shoir hikmatlarining birida bunday satrlarni o’qiymiz:

Xushlamoydur olimlar bizni oyg‘on turkini,
Oriflardin eshitsang, ochar ko‘ngul mulkini.
Oyat, hadis, ma’nosi turki bo‘lsa muvofiq,
Ma’nisiga yetganlar, yerga qo‘yar bo‘rkini.

Adib komillikka erishishning yo‘li har qanday nafsdan ham parhez qilishda ekanligini ta’kidlab, nafs yo‘liga kirmaslikni maslahat beradi. Shu bilan birga har qanday maqsadga erishish yo‘lida mehnat qilish lozimligini alohida ta’kidlab o’tadi.

Halol bilan haromni farqlash, faqat o‘z mehnati evaziga tirikchilik qilish, haromharishdan jirkanish, haromxo‘rlikni eng katta gunohi azim va axloqsizlik deb bilish – bular sharq faylasuflarining eng muhim g‘oyalaridan hisoblanadi. Sharqning buyuk faylasuflari, birinchi navbatda diniy allomalar, shayxlar, so‘fiylar halol yeb-ichib, pokiza yashashni targ‘ib etibgina qolmasdan, bu masalada o‘zlari shaxsan namuna ham bo‘lganlar. Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ta’limoti insonni ulug‘lash, hayotini qadriga yetish, umrini oqilona o‘tkazish g‘oyalarini targ‘ib qilishga nazariy zamin hozirlagan. Tasavvuf ta’limoti sharq olamida hozir ham fan sifatida o‘rganilib kelinmoqda. Demak, tasavvuf ta’limotining asoschilari axloqiy poklikka, yomonlik bilan yaxshilikni farqlash, xarom-halolni bilish, egrilikdan qochish kabilarni o’rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). To‘plovchi va mas’ul muharrir: M.M.Xayrullaev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 480 b.

2. Xoja Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”(Yangi topilgan namunalar). –T., 2005-y.

3. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild (tuzuvchilar: K.Hoshimov, S.Ochil). – T.: O‘qituvchi, 1995. – 460 b.

Диляра ШАРИПОВА,
препадователь Ташкентского государственного педагогического университета, доктор педагогических наук, профессор
Вероника АБДУАЗИЗОВА,
препадователь Наманганского инженерно-строительного института, доктор философии

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗДОРОВЬЕСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ВАЛЕОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ

Аннотация

Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida sog'lomlashtiruvchi bilimlarni oshirish, o'qituvchilarga maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab ta'lim, tarbiya va rivojlanish vazifalari bilan bir qatorda hayotga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, sog'lom turmush tarzini himoya qiluvchi funktsiyani amalga oshirish imkonini beradigan o'quv-tarbiya texnologiyalaridan foydalanish orqali dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Salomatlik, ta'lim, salomatlikni saqlash, salomatlikni saqlash texnologiyalari, kompetensiyalar.

В статье рассматриваются актуальные вопросы повышения здоровьесберегающих знаний в системе непрерывного образования путем использования обучающимися здоровьесберегающих технологий, что позволяет педагогам, начиная с дошкольных образовательных организаций решать наряду с образовательными, воспитательными и развивающими задачами заниматься подготовкой к жизни, а также реализовать свою здоровьесберегающую функцию.

Ключевые слова. Здоровье, образование, здоровьесбережение, здоровьесберегающие технологии, компетенции.

The article discusses current issues of improving health-saving knowledge in the system of continuing education through the use of health-saving technologies by students, which allows teachers, starting from preschool educational organizations, to solve life-saving tasks along with educational, upbringing and developing tasks, as well as to realize their health-saving function.

Key words. Health, education, health saving, health saving technologies, competences.

В нашем обществе здоровье человека является национальной ценностью, его физическое совершенство, обладание им культурой здорового образа жизни являются достоянием народа. Обеспечение здоровья нации, сохранение целостности генофонда населения могут быть решены положительно благодаря приобретению здоровьесберегающих знаний, реализуемых на всех этапах образования.

В контексте сказанного в республике принят ряд нормативно-правовых документов, направленных на сохранение и укрепление здоровья подрастающего поколения, о чём свидетельствует Закон Республики Узбекистан "О государ-

ственной молодежной политике "[1], Указ Президента Республики Узбекистан*”* О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан *”*.

Решение проблемы здоровьесбережения обеспечивается путем целенаправленного приобретения здоровьесберегающих знаний, четкого осознания и понятия *“*здоровьесбережение*”*.

Согласно литературным данным, здоровьесбережение – это активность людей, направленная на улучшение и укрепление здоровья, а также согласованность и единство всех уровней в жизнедеятельности человека.

Здоровье рассматривается как одно из важнейших условий успешной социализации в обществе, поэтому важное значение приобретает то, что оно рассматривается как возврат к этнопедагогическим методам воспитания и образования, обосновывающий необходимость базирования на принципах народной педагогики и природосообразность сохранения здоровья.

Основная масса исследователей констатирует тот факт, что здоровьесбережение – актуальная задача в современной образовательной системе, а здоровьесберегающая компетенция обучающих должна находиться вне рамок конкретной узкой специальности преподавателя .

Учет влияния этих факторов на здоровье обучающихся является важным элементом здоровьесберегающей деятельности педагога. При этом важно помнить, что экологические, природно-климатические и социальные условия относятся к внешним воздействиям, а наследственность – к внутренним.

Внедренная в практику ДОО, созданная в соответствии с государственными требованиями учебная программа “Илк кадам” направлена на реализацию компетентностного подхода к образованию, в ходе которого ребёнок приобретает начальные здоровьесберегающие знания, навыки личной гигиены, познаёт основы здорового образа жизни и питания, следует правилам основ безопасности жизнедеятельности, при этом воспитатель ДОО решает поставленную перед ним здоровьесберегающую функцию, вырабатывая у детей жизненно необходимые умения и навыки, продиктованные мотивацией здорового образа жизни и интересом к сохранению своего здоровья и здоровья окружающих.

Решающее значение в реализации педагогических технологий здоровьесбережения и в их практическом применении в образовательном процессе имеет непрерывное повышение профессионально-педагогической компетентности педагогов в овладении технологией здоровьесбережения обучающихся с учетом особенностей инклюзивного образования.

В учебно-познавательном процессе со здоровьесберегающий ориентацией инклюзивного образовательного процесса цели и задачи здоровьесбережения разрабатывались совместно с обучающимися. Процесс достижения оздоравливающего эффекта обеспечивается в совместной деятельности педагогов и обучающихся.

Работа по повышению здоровьесберегающих знаний обучающихся, в том числе детей с ОВЗ, продолжается в начальной школе в процессе их интеграции в образовательные предметы, а также в процессе дальнейшего формирования физической культуры. В средних классах эти знания приобретаются в ходе изучения образовательных предметов, особенно при овладении курсов “Человек и его здоровье”,”Биология”.

В ходе педагогического эксперимента в условиях Каракалпакстана педаго-

ги образовательных учреждений (школ, лицеев, колледжей, вуза) использовали такие приемы здоровьесберегающих образовательных технологий в условиях инклюзива, как защитно-профилактические, предусматривающие неуклонное выполнение правил личной гигиены и гигиены обучения и воспитания, стимулирующие, включающие физкультурно-оздоровительную деятельность, приемы психотерапии и фитотерапии; компенсаторно нейтрализующие (массаж, лечебная физкультура, фитотерапия, психогимнастика и др.), информационно- обучающие с использованием методических рекомендаций, буклетов, брошюр, плакатов и др.

Успешность внедрения медико-педагогического компонента здоровьесберегающих технологий в процессе обучения в условиях инклюзива в значительной мере зависит от профессиональной компетентности обучающих, их ответственности, осознания необходимости реализации здоровьесберегающей направленности учебно- воспитательного процесса.

Таким образом на современном этапе модернизации образовательного процесса в условиях инклюзива особое значение приобретает сохранение, укрепление и формирование здоровьесберегающей культуры как обучающих, так и обучающихся, а образовательные учреждения должны стать важным звеном социализации подрастающего поколения, обучающегося в системе инклюзивного образования, а также призваны усиливать развитие мотивации сохранения здоровья всех участников образовательного процесса.

Использованная литература:

1. Васильева Т. В., Прибьеткова Ю.О. Здоровьесбережение как необходимый фактор образовательного процесса в современных условиях. Современник. 2016.Cybertencn.ru.

2. Спирин М. Ю. Здоровьесбережение как принцип эффективного воспитания и образования и наука без границ; функциональные исследования., 2017. elibrary.ru.

3. Алиева М., Петриченко А.В. Здоровьесбережение- актуальная задача современной образовательной системы. Новая наука. Проблемы и перспективы.2016-amr.im. Стерлитамак.

4. Ваторопина С.О. Здоровьесбережение в современном образовательном пространстве /.../cyber.beninra.ru, Concept , 2017.

5. Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан, UNICEF, – Т., 2019, – С.58.

6. Государственная учебная программа "Илк кадам". для дошкольных оздоровительных учреждений.– Т., UNICEF, – С.35.

7. Януш Корчак. Любовь к ребенку. Книжный интернет магазин. Лабиринт YAKABOO, 2020.

8.Шарипова Д.Д., Мусурманова О., Сапаров Т. и др. Использование современных здоровьесберегающих технологий в образовательных учреждениях в экологически неблагоприятных регионах. Методологическое пособие. –Т.: Изд-во "Fan va texnologiyalar", 2011, – С.96.

Юлия ЗЕМЛИНА,
преподаватель государственной специализированной
школы № 51 города Ташкента

ИННОВАЦИОННЫЕ ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО СОВЕТА ШКОЛЫ КАК ФАКТОР КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАСТНИКОВ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

Maqolada xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari kengashlarini tashkil etish bo'yicha tajribasi tahlil qilinadi, maktab pedagogik Kengashining innovatsion shakllarini qo'llash imkoniyatlari, ishtirokchilarning interaktiv faoliyati orqali asosiy vakolatlarni shakllantirish usullari keltirilgan. Tadqiqot asosida pedagogik faoliyatning innovatsion jarayonlariga hissa qo'shmaslikning sabablari aniqlangan.

Kalit so'zlar. Pedagogik Kengash, vakolat, innovatsion ta'lim shakli, uslubiy xizmat, xorijiy tajriba.

В статье анализируется опыт зарубежных стран по организации советов образовательных учреждений, раскрываются возможности применения инновационных форм педагогического совета школы, демонстрируются методы формирования ключевых компетенций через интерактивную деятельность его участников. На основе проведённого исследования, выявляются причины, не способствующие инновационным процессам педагогической деятельности.

Ключевые слова. Педагогический совет, компетенция, инновационная форма обучение, методическая служба, зарубежный опыт.

The article analyzes the experience of foreign countries in organizing councils of educational institutions, reveals the possibilities of using innovative forms of the school' s pedagogical Council, demonstrates methods of forming key competencies through the interactive activities of its participants. On the basis of the conducted research, the reasons that do not contribute to innovative processes of pedagogical activity are identified.

Key words. Pedagogical Council, competence, innovative form of training, methodological service, foreign experience.

Компетентностный подход в инновационной системе образования предполагает создание условий, при которых взаимодействие участников учебно-воспитательного процесса характеризуется не знаниевыми достижениями, а способностью адаптироваться к современным требованиям жизненных ситуаций. Педагогический совет школы, как часть непрерывной методической службы, имеет все возможности для реализации этих задач: с одной

стороны он позволяет участникам самим стать частью инновационного процесса, с другой – перенести инновационные достижения к другим участникам – воспитуемым образовательного учреждения. Именно поэтому роль педагогического совета в формировании компетенций учителя и ученика столь важна, а перед руководителем школы стоит задача методически верной организации таких мероприятий.

Целью педагогического совета является обеспечение полноценного качественного образовательного процесса, а его принципиальное отличие заключается в том, что он объединяет представителей разных органов управления школой, а также сотрудников – исполнителей, практиков, где все участники могут обсудить и договориться о дальнейшем направлении развития школы.

Анализируя опыт зарубежных стран, можно сказать, что практика существования советов была известна ещё в начале XX века. Так, в Нидерландах с 1917 года управление школой разделялось между государственными представителями и советом родителей. Эта организация помогала образовательному учреждению не оставаться один на один со своими проблемами. Такая же система была внедрена в США с 1918 года.

На сегодняшний день структура советов в США представляет собой целую систему. Ключевыми полномочиями этого органа являются следующие:

Совет устанавливает и корректирует долгосрочный план развития системы государственного общего образования штата; разрабатывает учебные планы и программы, перечень требований, предъявляемых к выпускникам школ; учреждает специализированные школьные округа; обучает попечителей округов; разрабатывает требования для получения лицензии экзаменатора совета по лицензированию школьных работников; устанавливает методику выявления одаренных детей для реализации соответствующей региональной программы; вводит формы и требования к содержанию документов отчетности школьных округов за выполнение образовательных программ штата и результаты; прогнозирует развитие телекоммуникационных сетей; назначает совет директоров Центра образовательных технологий.

В Великобритании в 1987 году была создана Ассоциация школьных управляющих. Часть школ этой страны имеет возможность нанимать педагогический штат собственным руководством, но в большинстве школ за обеспечение преподавателями несут ответственность местные органы власти. Внедрение методических инноваций в этой стране обеспечивается Агентством по регулированию преподавания (TRA), которое вручает сертификат QTS квалифицированным учителям из Уэльса, Шотландии, Северной Ирландии, Европейского экономического пространства (ЕЭЗ), Швейцарии, Австралии, Канады, Новой Зеландии и США. В школьном пространстве контроля за методическим процессом нет, учебная организация работает на результат.

В Германии последние исследования в области методического обеспечения педагогического состава школы показали острую необходимость пересмотра учебных программ: гибкость, изменение объёма, учёт национальных, региональных и местных обстоятельств. Это связано, прежде всего, с пробелом в продвижении молодых исследователей, особенно в областях дидактики и методологии. В связи с этим непрерывное образование в стране становится всё более актуальной проблемой.

В обязанности правительства относительно сферы образования входят следующие функции:

– профессиональное обучение и повышение квалификации учителей;
– определение основных принципов общего образования;
– поддержка научной и исследовательской деятельности;
– обеспечение достаточного благосостояния молодёжи;
– юридическая защита учащихся, обучающихся заочно.
– проведение мер по увеличению занятости; исследование рынка труда.

Также Федеральные и земельные власти вправе принимать участие в планировании образования и в финансировании исследовательских проектов.

Южная Корея, сегодня представляющая собой методический центр в области образования, обязана своим успехам нескольким этапам развития этой системы. До образования Современного Сеульского национального университета (SNU) в стране ощущалась серьезная нехватка учителей. SNU не сразу представлял собой нынешнюю систему, в которую входят 11 колледжей, в том числе колледж образования и аспирантура. Особенностью повышения методического обеспечения образовательного учреждения этой страны является не обучение сотрудников на местах, а привлечение массовой доли учителей в международное сотрудничество для наращивания преподавательского потенциала.

Полномочия советов разных стран также сильно разнятся: есть органы с совещательной функцией, помогающие директору школы (Голландия, Норвегия, Бельгия, Австрия, Шотландия, Германия); органы с определенными полномочиями в принятии решений, которые вместе с руководителем школы отвечают за текущую работу школы (Греция, Франция, Италия, Дания, Испания, Португалия); общественные органы с полномочиями школьного управления (Ирландия, Швеция, Финляндия, Англия, Уэльс, Северная Ирландия).

Как видим из вышесказанного, советы в общеобразовательных организациях осуществляют важные функции: их основное призвание в том, чтобы работу по управлению школой сделать качественнее и легче, руководящий стиль превратить в демократичный и прозрачный, а в достижениях учителей и учащихся получить эффективный результат.

В современной системе образования Узбекистана подразумевается инновационный подход, ориентированный на развитие ключевых компетенций, в том числе и в организации деятельности таких советов. На сегодняшний день в ряде школ наблюдается проведение педагогических советов интерактивных форм, что, несомненно, оказывает свой положительный эффект на повышение качества учебно-воспитательного процесса. Рассмотрим механизм работы таких советов.

Приведём пример методов, которые можно применять в данных формах, а также ответим на вопрос, какие компетенции учителя и ученика позволяют развивать эти методы.

Таблица 1. Сравнительный анализ возможностей инновационных и традиционных форм организации педагогического совета.

Приведённая таблица показывает, что при традиционных формах организации советов, в частности, в лекции наблюдается только вертикальная связь. Обратная связь – только в виде вопросно-ответной беседы. Методы направлены только на наблюдение, слушание, получение информации. Круг-

лый стол, в отличие от лекции, даёт больше возможностей для участия всех членов совета, но каждый в отдельности превращается в лектора: форма лекции переносится в формат круглого стола. В форме “круглый стол” допустимо применение метода конференции, когда каждый участник высказывает своё мнение. В случае, когда метод конференции преобразуется в форму конференции (при условии, что каждый участник становится субъектом процесса, а значит, готовит доклад) – эта форма организации педагогического совета превращает его в инновационный вид. Однако для полноценного выступления всех докладчиков необходимо разделение на секции, а формат педагогического совета не подразумевает отделение одних участников от других. Следовательно, в качестве секционной работы в данной форме можно предложить вариант дальнейшего проведения заседаний методических объединений (кафедр, лабораторий).

Формы	Методы	Какие компетенции развивает
Инновационные формы педагогического совета		
ИГРА	Задания на создание творческих работ	Креативные компетенции
	Групповая работа	Чувство конкуренции, стремление к лидерству
	SWOT	Аналитическое мышление
	Reflection	Критическое мышление
ПРОЕКТНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ	Case study	Делегирование (функции распределения)
	Step by step	Логическое мышление
	Защита проекта	Эстетические компетенции
	Презентация	Коммуникативные компетенции
	Самостоятельный поиск информации	Информационная грамотность
Традиционные формы педагогического совета		
Лекция	Наглядность	Наблюдательность
	Аудирование	Знаниевые компетенции, усидчивость
	ТСО для получения информации	Внимательность
Круглый стол	Вопросно-ответная беседа	Коммуникативные компетенции
	Аудирование	Знаниевые компетенции, усидчивость
	ТСО для получения информации	Внимательность

В целом, педагогический совет – это полноценный элемент школы, обладающий наивысшим потенциалом в решении важнейших вопросов обучения, а повышение качества образования – никогда не стояло на последнем месте в развитии образовательного учреждения. Именно поэтому одной из его приоритетных задач является оказание методической помощи коллективу через перенесение инновационных форм от общего к частному: от совета – к уроку.

В исследовании и анализе деятельности советов образовательных учреждений различных стран можно наблюдать вариативный подход: автошколы в купе с музыкальными учреждениями не относятся к различным ведомствам, а принадлежат единому образовательному органу, поскольку цель этих организаций – дать знания и обучить навыкам; поиск методических решений – не во внутренней среде, а на основе международного сотрудничества; внедрение инновационных процессов в учебно-воспитательную деятельность посредством ненормативного поиска – всё это своеобразный подход к обеспечению целостного непрерывного обучения. Однако в нашей стране корректировка стратегии развития школы, определение целей, задач и ресурсов, необходимых для её достижения – основные полномочия управляющих советов, в том числе и педагогических.

Важность этих общественных органов невозможно недооценить, поскольку создание и использование механизмов привлечения дополнительных ресурсов для повышения эффективности учебно-воспитательного процесса и есть цель общеобразовательного учреждения страны с развитой, сильной образовательной системой.

***Использованная литература**:*

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 6 апреля 2017 г. № 187 “Требования к уровню подготовки по общеобразовательным предметам в системе общего среднего, среднего специального и профессионального образования”.

2. Основные рекомендации по организации методической службы в школе Приказа Министерства Народного образования № 144 от 4 июля 2011 года (10, 11, 12 приложения).

3. David, S.A. and Abukari, A. (2020). Perspectives of teachers on the selection and the development of the school leaders in the United Arab Emirates. International Journal of Educational Management, 34 (1), 56-69.

4. Курбанов Ш.Э., Сейтхалилов Э.А. Управление качеством образования.– Т.:- Шарк, 2004.– С.592.

Яшин ИСМАДИЯРОВ,
доктор педагогических наук, профессор

АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕНЕДЖЕРА-ИННОВАТОРА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Ushbu maqola ta'lim menejeri faoliyatidagi ma'lumotlarning xususiyatlari va rolini tahlil qilishga bag'ishlangan, ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish, saqlash usullari va vositalari tavsiflangan va umuman olganda ta'limni boshqarish tizimini axborot bilan ta'minlash tizimini yaratishga turli yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Doimiy rivojlanish, axborot bilan ta'minlash, o'quv jarayonini rivojlantirish, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, menejer-innovator faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, axborotni tizimli tahlil qilish, pedagogik innovatsiyalar.

Данная статья посвящена анализу особенностей и роли информации в деятельности менеджера образования, охарактеризованы методы и средства сбора, обработки, хранения данных, а также представлены различные подходы к созданию системы информационного обеспечения образовательного менеджмента в целом.

Ключевые слова. Непрерывное развитие, педагогические инновации, информационное обеспечение, развитие образовательного процесса, модернизации образовательного процесса, специфика деятельности менеджера-инноватора, систематической анализ информации.

This article is devoted to the analysis of the features and role of information in the activities of an education manager, the methods and means of collecting, processing, storing data are characterized, and various approaches to creating a system of information support for educational management in general are presented.

Key words. Continuous development, information support, development of the educational process, modernization of the educational process, the specifics of the activities of the manager-innovator, systematic analysis of information, pedagogical innovations.

В современном обществе на повышение эффективности и качества профессиональной деятельности огромное влияние оказывает новые инновационные подходы, которые оказывают влияние на рациональное использование экономических и социальных ресурсов, являющимсяэффективным инструментом квалифицированного менеджера, который организовывает, стимулирует и вдохновляет непрерывное развитие всего коллектива.

По мнению Н.И. Мойсеюка, потребность в деятельности менеджеров-инноваторов в системе образования, на современном этапе, является объективной, закономерной необходимостью и обусловлена целым рядом следующих обстоятельств:

– необходимостью модернизации системы образования, методологии и технологизации образовательного процесса в учебных заведениях различного типа;

– постоянным поиском новых организационных форм, индивидуального подхода к личности, инновационных технологий обучения, воспитания, управления, которое обеспечит качественное выполнение социального заказа;

– изменением характера отношения педагогов к усвоению и применению педагогических инноваций, приобретением педагогической деятельности опытно-поискового характера (педагог выбирает новые программы, учебники, использует новые технологии обучения и воспитания);

Л.М.Ващенко рассматривает организационную структуру инновационного менеджмента как комплекс взаимосвязанных составляющих системы образования в целом. Основными организационными структурами определяет: линейно-функциональную; линейно-штабную; матричную; проектную; программно-целевую; тестовую[1].

Отличительной особенностью профессиональной деятельности менеджера-инноватора, по определению О.А. Косинской, является специально организовываемый процесс целеполагания, планирования, организации, мотивации, контроля качественных изменений в работе учебных заведений, который обеспечивается наличием необходимых для нововведения условий, систематическим анализом информации и надёжными коммуникациями[2]. Это утверждение подчёркивает, что реализация всех функций менеджером-инноватором невозможна без соответствующей информации, её систематического анализа и организованных коммуникаций.

Таким образом, исходя из вышеизложенного можно заключить, что на сегодняшний день, многочисленные труды современных учёных посвящены исследованиям профессиональной деятельности менеджера-инноватора, её структуры и содержанию, объективным и субъективным факторам, которые необходимо учитывать в управлении современной системой высшего образования.

Сама профессиональная деятельность менеджера-инноватора, по мнению учёных, является довольно сложным процессом, который отличается полиструктурным характером инновационного труда. Специфика деятельности менеджера-инноватора в основном раскрывается в осмыслении педагогического опыта, систематическом анализе информации, надёжными коммуникациями и ориентирована на изменение и развитие образовательного процесса с целью достижения высоких результатов, получение нового знания, организации конкурентоспособных образовательных услуг, формирование качественно иной педагогической практики обеспечивающей необходимые условия для образовательной инновационной деятельности, что в свою очередь является действенным способом достижения более эффективного развития общества.

Потребность деятельности менеджера-инноватора обусловлена необходимостью постоянной модернизации образовательного процесса, поиски новых организационных форм, инновационных технологий обучения, воспитания и управления.

---

[1] Ващенко Л. Полиструктурность управления инновационными процессами / Л. Ващенко // Директор школы. – 2007. - № 23-24 (455-456). – С. 11-16

[2] Косинская А.А. Управление педагогическими нововведениями / Щелковское А.А., Гончарова В.П. // Школы. - 1999. - №40 (88). – С. 10

По мнению большинства исследователей, для осуществления эффективной инновационной деятельности, менеджер образования должен обладать на достаточном уровне специальными знаниями об организации практической деятельности руководителя в соответствии с установившимися научными законами и закономерностями теории управления. Соответственно, эффективность инновационного управления зависит от объёма знаний менеджера, касающихся инновационного менеджмента образовательной системы. В свою очередь, высокий уровень профессионализма менеджера образования свидетельствуют также знания принципов научного управления, соблюдение которых позволяет достичь надлежащее качество руководства педагогическими коллективами. При этом, профессиональное самосовершенствование менеджера образования является неотъемлемым компонентом его подготовки к инновационному управлению.

Кроме того, недостаточная результативность профессиональной деятельности менеджера-инноватора большинством исследователей связывается с низким уровнем функционирования системы соответствующего информационного обеспечения, сущность которого должна заключаться в стратегической поддержке управления процессами создания, внедрения и распространения инноваций с целью обеспечения целеустремлённости, организованности инновационной педагогической деятельности средствами систематизации информационных ресурсов.

При этом, несмотря на немногочисленность исследований в этом направлении, основные положения его все же освещены. В частности, раскрыты особенности и роль информации в деятельности менеджера образования, определены и конкретизированы информационные источники, обоснованное значение и обеспечение обратной связи в образовательной системе, разработана классификация информации, охарактеризованы методы и средства сбора, обработки, хранения данных, а также представлены различные подходы к созданию системы информационного обеспечения образовательного менеджмента в целом.

Вместе с тем, принимая во внимание предложенные в научной литературе идеи и технологии по менеджменту и его информационному обеспечению, следует отметить, что исследования по созданию системы информационного обеспечения именно инновационного менеджмента не проводились, а это существенно снижает эффективность данного процесса в целом.

Использованная литература:

1. Ващенко Л. Полиструктурность управления инновационными процессами / Л. Ващенко // Директор школы. – 2007. - № 23-24 (455-456). – С. 11-16

2. Дичкивская И.М. Инновационные педагогические технологии: учебное пособие / И.М. Дичкивская. – М.: Академвидав, 2004. – С.352.

3. Донев Д.Д. Характеристика информационной деятельности менеджера / Д.Д. Донев. - Текст: непосредственный // Молодой учёный. – 2017. - №10 (144). – С. 411-415.

4. Косинская А.А. Управление педагогическими нововведениями / Щелковское А.А., Гончарова В.П. // Школы. - 1999. - №40 (88). - С. 10

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV,
Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV,
Hikmatilla RASHIDOV, Shavkat SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV,
Oynisa MUSURMONOVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Nargiza RAXMANKULOVA, Shaxnoza XALILOVA,
Muhammadjon QURONOV, Islom ZOKIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

© “Xalq ta‘limi” jurnali, 2020.